



M.NAZIROV
F.QO'YSINOVA

**O'zbekistonni rivojlantirish
strategiyasi.
Fuqarolik jamiyati**

DARSLIK

(Barcha bakalavr ta'lim yo'nalishlari uchun)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

**M.Nazirov
F.Qo‘ysinova**

O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati

DARSLIK

(Barcha bakalavr ta’lim yo‘nalishlari uchun)

Toshkent – 2021

Nazirov M.M., Qo‘ysinova F.O. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati. Darslik. – Toshkent: O‘zXIA, 2021. - 253 bet.

Fuqarolik jamiyati demokratik taraqqiyot yo‘lidan borayotgan jamiyatlar hayotining muhim va ajralmas qismidir. Bugungi kunda fuqarolik jamiyati fenomenini o‘rganish, tadqiq qilish va anglash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan “O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” darsligi o‘ziga xos ahamiyatga egadir. Mazkur darslikda mustaqillik yillarida O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarining shakllantirilishi hamda hozirgi vaqtda Harakatlar strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan keng qamrovli va izchil islohotlar, jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari mohiyati haqida nazariy va amaliy ma’lumotlar o‘rin olgan.

Darslikda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, institusional asoslarini rivojlantirib borish bilan bog‘liq konseptual faktlar, qabul qilinayotgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning ahamiyati bilan bog‘liq xulosalar bayon qilingan. Mazkur darslik o‘z mohiyatiga ko‘ra talaba yoshlarning ijtimoiy, siyosiy, huquqiy bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil “23” noyabrdagi 500 – sonli buyrug‘iga asosan nashrga ruxsat etilgan. (Ro‘yxatga olish raqami 500-021).

Ma’sul muharrir:

H.Tuychiyeva

Yuridik fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

S.Jo‘raev

Siyosiy fanlar doktori, professor

M.Muhammadsiddiqov

Siyosiy fanlar doktori, dotsent

A.Sharapov

Siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

© Nazirov M.M., Qo‘ysinova F.O., 2021.

© O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021.

MUNDARIJA:

KIRISH.....

I-BO‘LIM. FUQAROLIK JAMIYATI VA HARAKATLAR STRATEGIYASI: NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI

I-BOB. FUQAROLIK JAMIYATI FANINING PREDMETI, OB‘EKTI, MAQSADI VA VAZIFALARI.....

- 1.1. Fuqarolik jamiyati ijtimoiy hayotning fenomeni sifatida.....
- 1.2. Fuqarolik jamiyati g‘oyalari evolyutsiyasi.....
- 1.3. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishining
konseptual jihatlari.....

II-BOB. HARAKATLAR STRATEGIYASI – O‘ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTI YANGI BOSQICHINING ASOSI.....

- 2.1. Strategiya tushunchasi va uning nazariy asoslari.....
- 2.2. Davlat strategiyasining tizimli boshqaruv omillari.....
- 2.3. O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichi.....

II-BO‘LIM. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI YANADA RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA HARAKATLAR STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI

III-BOB. DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

- 3.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni
modernizatsiya qilish.....
- 3.2. Davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish.....
- 3.3. Harakatlar strategiyasi doirasida davlat va jamiyat boshqaruvi tizimining
takomillashtirilishi.....

IV-BOB. QONUN USTUVORLIGINI TA‘MINLASH VA SUD HUQUQ TIZIMINI YANADA ISLOH QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....

- 4.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash, sud tizimini
demokratlashtirish va takomillashtirish.....
- 4.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini
ta‘minlash. Ma‘muriy, jinoyat, fuqarolik va iqtisodiy qonunchilikni
takomillashtirish.....
- 4.3. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarlikning oldini olish tizimini
takomillashtirish.....

V-BOB. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI.....

- 5.1. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sohasida islohotlar.....
- 5.2. Milliy iqtisodiyotning mutanosibli va barqarorligini ta‘minlash.....
- 5.3. O‘zbekiston Respublikasida davlat byudjeti va soliq siyosati.....

VI-BOB. IJTIMOIIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI

CHUQURLASHTIRISH.....

- 6.1. O‘zbekistonda aholi bandligi ta‘minlash va real daromadlarni izchil oshirilishi.....
- 6.2. Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borisidagi islohotlar.....
- 6.3. Arzon uy-joylar barpo etilishi, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishi, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma rivojlantirilishi hamda modernizatsiya qilinishi.....

VII-BOB. XAVFSIZLIK, MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY

BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH.....

- 7.1. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish.....
- 7.2. O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik.....
- 7.3. O‘zbekiston Respublikasining o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosati....

III-BO‘LIM. FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNING

DOLZARB MASALALARI

VIII-BOB. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH – FUQAROLIK

JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR SHARTI

- 8.1. Korruptsiya tushunchasi, korruptsiyaga qarshi kurashishning mazmun-mohiyati.....
- 8.2. Korruptsiya qarshi kurashga doir huquqiy asoslarning yaratilishi va takomillashtirilishi.....
- 8.3. O‘zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashdagi tub burilish davrining boshlanishi.....

IX-BOB. SAYLOV HUQUQI ERKINLIGI – FUQAROLIK

JAMIYATINING MUHIM MEZONI.....

- 9.1. Saylov tushunchasi, mohiyati va turlari.....
- 9.2. Saylovlarning demokratik prinsiplari.....
- 9.3. O‘zbekistonda demokratik saylovlar tizimining shakllanishi va rivojlanishi.

X-BOB. O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI

VA MAHALLIY O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH.....

- 10.1. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va rivojlanishi.....
- 10.2. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining huquqiy asoslari..
- 10.3. Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va ularning faoliyati.....

XI-BOB. JAMOATCHILIK NAZORATI VA DAVLAT ORGANLARI

FAOLIYATINING OCHIQLIGI.....

- 11.1. Jamoatchilik nazorati tushunchasi va mohiyati.....
- 11.2. O‘zbekistonda jamoatchilik nazoratining huquqiy-me‘yoriy asoslari.....
- 11.3. O‘zbekistonda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari.....

XII-BOB. IJTIMOIIY SHERIKLIK.....

- 12.1. Ijtimoiy sheriklik: tushuncha va mohiyati.....
- 12.2. Ijtimoiy sheriklik modellari va xorij tajribasi.....
- 12.3. O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklikni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari.....

XII-BOB. FAOL FUQAROLIK POZISIYASIGA EGA BO‘LGAN YOSH AVLODNI TARBIYALASHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

- 13.1. Yoshlar siyosati borasidagi xalqaro huquqiy asoslar va amaliyot.....
- 13.2. Mustaqillik davrida O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining shakllanishi va rivojlanishi.....
- 13.3. Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirishning yangi bosqichi.....

MUSTAQIL TA’LIM UCHUN MAVZULAR.....

GLOSSARIY.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.....

MUQADDIMA

Istiqlol yillarida O'zbekistonda suveren taraqqiyotning yagona to'g'ri yo'li sifatida huquqiy demokratik davlat va adolatli jamiyatni barpo qilish, uning siyosiy, institutsional, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash va xalqimiz uchun eng munosib bo'lgan erkin va farovon hayot tarzini shakllantirish borasida samarali islohotlar amalga oshirildi. Natijada mamlakatimizda demokratik taraqqiyotning navbatdagi keng imkoniyatlarini ochilishi uchun zarur bo'lgan asoslar yaratildi.

O'zbekistonda zamonaviy insonparvar huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, ayniqsa inson huquq va manfaatlari eng oliy qadriyat darajasiga yetgan jamiyatni shakllantirish yo'lida o'ziga xos ulkan tajriba orttirildi. Taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ygan bugungi O'zbekiston o'zining konseptual asoslarini yanada yuksaltirmoqda.

Shu bois ham endilikda erishilgan salmoqli natijalarga tayangan holda, mamlakatimizda demokratik qadriyatlarni jamiyatimiz hayotiga har tomonlama chuqur singdirish, fuqarolik jamiyati ko'nikmalari mustahkam qaror topgan yangi sifat bosqichiga o'tkazish vazifalarini amalga oshirish jarayonlari izchillik bilan ro'y bermoqda.

Shu nuqtai nazardan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi o'rta muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan eng muhim dasturiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Istiqlol yillarida erishgan yutuqlarimizga tayanib, **milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari** dadil qadam qo'ymoqdamiz.

Mamlakatimiz taraqqiyotini yanada yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida Harakatlar strategiyasini qabul qildik. Bu noyob hujjatda belgilangan ulug'vor vazifalarni ro'yobga chiqarishga qat'iy kirishganimiz biz uchun yangi ufq va imkoniyatlar ochib bermoqda"¹.

So'nggi ikki yilda mamlakatimizda islohotlar strategiyasi izchillik bilan davom ettirilgan holda, barcha soha va tarmoqlarda milliy taraqqiyotni yanada jadallashtirish hamda uni yangi sifat darajasiga ko'tarish jarayoni kechmoqda. Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda sof demokratik mohiyatga ega bo'lgan **"Xalq davlat idoralariga emas, aksincha davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak"** deb nomlangan konseptual g'oya o'z ifodasini topmoqda. Bu g'oya eng avvalo, xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish hamda fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining real himoya qilinishini anglatadi.

Yoshlarning milliy o'zlikni qadrlash, jismoniy, intellektual va ma'naviy komillikka erishish, erkin va mustaqil fikr-mulohazalarni yuritish ko'nikmalarini shakllantirish hamda yoshlarni huquqiy, siyosiy ong va madaniyatini yuksaltirish orqali ularda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatimizda kechayotgan

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yetti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2018 yil 1 sentabr, №180-181 (7138-7139).

ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida mas'uliyatini oshirish hozirgi davrning dolzarb masalalari sifatida Harakatlar strategiyasida o'rin olgan.

Yurtimiz aholisi uchun farovon hayot asoslarini yanada mustahkamlash maqsadida mamlakatimizda odamlarni rozi qilish, ularning turmush darajasi va sifatini yanada oshirishni ta'minlashga qaratilgan masalalar har yili ishlab chiqilayotgan davlat dasturlarida muhim o'rin tutmoqda.

Harakatlar strategiyasini 2017 yilda – “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da, 2018 yilda – “Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili”da, 2019 yilda – “Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da, 2020 yilda – “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturlari doirasidagi keng ko'lamli islohotlar, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, xalq farovonligini yuksaltirishning mustahkam huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturlarida parlamentning muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish, davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usullarini keng qo'llash, shu jumladan barcha darajadagi rahbarlar uchun xalq bilan uzluksiz muloqot va inson manfaatlari uchun xizmat qilishni hayotiy tamoyilga aylanishiga erishish, jamiyat hayot faoliyatining barcha soha va tarmoqlarida innovatsiya, ilm-fan yutuqlari, yangicha va ijodiy yondashuvlarni joriy etish masalalari dolzarb kasb etmoqda.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Ijtimoiy fanlar kafedrasida tayyorlangan “O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” o'quv-uslubiy qo'llanmasida fuqarolik jamiyati haqidagi nazariy va amaliy ma'lumotlar o'rin olgan.

Mazkur qo'llanmada mustaqillik yillarida mamlakatimizda fuqarolik jamiyati asoslarining shakllantirilishi hamda hozirgi vaqtda Harakatlar strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan keng qamrovli va izchil islohotlar, jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari mohiyati sodda va aniq bayon qilib berilgan.

O'quv-uslubiy qo'llanma 13 ta mavzudan iborat bo'lib, mavzular ketma-ketligi “O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fan dasturi va ishchi dasturiga mos keladi. Har bir mavzuda o'quv mashg'ulotining maqsadi, tayanch iboralar, takrorlash uchun savollar va amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar o'rin olgan. Qo'llanmada mustaqil ta'lim uchun mavzular, glossariy va fanga oid foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati o'rin olgan.

“O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” o'quv-uslubiy qo'llanmasi o'z mohiyatiga ko'ra talaba yoshlar, kitobxonlarning ijtimoiy, siyosiy, huquqiy bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

1-BOB. O‘ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Reja:

- 1. Fuqarolik jamiyati – ijtimoiy hayotning fenomeni sifatida.**
- 2. Fuqarolik jamiyati g‘oyalari evolyutsiyasi.**
- 3 O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishining konseptual asoslari.**

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: fuqarolik jamiyati ijtimoiy hayotning fenomeni hamda insoniyat taraqqiyotining yuqori bosqichi ekanligi, “fuqarolik jamiyati” tushunchasining kelib chiqishi va uning shakllanish asoslari, fuqarolik jamiyati fanining predmeti va ob’ekti, maqsadi va vazifalari hamda boshqa ijtimoiy fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot berish, Sharq va G‘arb sivilizatsiyalarida fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishiga oid yondashuvlar haqida tushuncha berish, fuqarolik jamiyati qurish mamlakatimizning asosiy strategik pirovard maqsadi ekanligi haqida bilim berish.

Tayanch iboralar: *fuqaro, fuqarolik jamiyati, davlat, davlat hokimiyati, huquqiy davlat, siyosiy institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarning huquq va erkinligi, inson huquqlari, nazariya, konsepsiya, adolatli jamiyat, fuqarolik jamiyatining antik, diniy va mumtoz paradigmalari.*

1.1. Fuqarolik jamiyati – ijtimoiy hayotning fenomeni sifatida

Fuqarolik jamiyati ochiq ijtimoiy struktura bo‘lib, unda so‘z erkinligi, shu jumladan, tanqid qilish erkinligi, oshkoralik, axborot olish erkinligi, mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish huquqi, boshqa mamlakatlar bilan doimiy asosda keng miqyosli axborot, ta’lim almashinuvi, xorijiy davlatlar va jamoat tashkilotlari bilan madaniy va ilmiy hamkorlik, xalqaro huquq prinsiplari va normalariga, umumiy insonparvarlik tamoyillariga muvofiq xorijiy uyushmalar bilan o‘zaro aloqa qilish ta’minlanadi.

Fuqarolik jamiyati murakkab strukturaga ega plyuralistik tizim bo‘lib, turli xil ijtimoiy institutlar (kasaba uyushmalari, partiyalar, jamoat birlashmalari, tadbirkorlar, klublar va h.k.) mavjudligini nazarda tutadi. Ushbu institutlar fuqarolarning rang-barang ehtiyojlari va manfaatlarini ifodalash va ro‘yobga chiqarish, barcha qobiliyatlarini namoyon etish imkonini beradi.

Shuningdek, fuqarolik jamiyati davlatdan mustaqil ravishda o‘z ichki manbalariga tayangan holda o‘zini o‘zi boshqaruvchi va rivojlantiruvchi tizim hisoblanadi. Bunday jamiyatda fuqarolar davlat hokimiyati organlarining aralashuvisiz bir-biri bilan turli xil munosabatlar o‘rnatish, o‘zlarining umumiy hamda qarama-qarshi manfaatlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida har xil ijtimoiy tashkilotlarga birlashishlari mumkin. Mazkur jarayonda davlat hokimiyati qonun doirasida fuqarolarning jamiyatda uyg‘un va izchil rivojlanishini ta’minlaydi.

Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyati huquqiy demokratik davlat tartiboti sharoitida yashaydi va rivojlanadi. Bu yerda inson huquqlari va uning qonuniy manfaatlarini e'tirof etiladi hamda jamiyatning eng oliy qadriyatiga aylanadi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy sub'ekti shaxsdir. Fuqarolik jamiyati institutlari, tashkilotlar, guruhlar va hokazolar shaxsni shakllantiradi hamda uning manfaatlari, maqsadlari, bor salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi.

Fuqarolik jamiyati hokimiyatning oqilonaligi va odilonaligi, shaxs erkinligi va farovonligi haqidagi g'oyalarning huquqiy ustunligi, huquq va qonunning birligi, davlat hokimiyatining turli tarmoqlari faoliyatini huquqiy chegaralash g'oyalari bilan mushtarakdir.

Huquqiy davlatni fuqarolik jamiyati rivojlanishining natijasi va uning o'zini o'zi yanada takomillashtirishi omili deb hisoblash mumkin. Huquqiy davlatchilikning shakllanish jarayoni uzoq muddat davom etadi. U fuqarolik jamiyati shakllanishi bilan birga takomillashib boradi. Huquqiy davlat hokimiyatining suverenligi ham mamlakat ichida uning barcha fuqarolarga, ular tomonidan tashkil etilgan nodavlat tashkilotlarga nisbatan ustunligida, ham mamlakat tashqarisida tashqi siyosat yuritish, boshqa davlatlar bilan munosabatlar o'rnatishda va mustaqilligida namoyon bo'ladi.

Yetuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy demokratik davlat qurish mumkin emas, chunki ongli erkin fuqarolargina kishilik jamiyatining eng oqilona shakllarini yaratishga qodir. Shu sababli fuqarolik jamiyati erkin individ va davlat hokimiyati irodasi o'rtasida qonun doirasida bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Davlatning vazifasi jamoat tartibini saqlash, inqiroz va tanazzullarga qarshi chora ko'rish, erkin shaxsning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Huquqiy davlat – huquq normalariga binoan va ularning doirasida ish ko'radigan, normalarni buzish, bekor qilish yoki cheklashga jur'at etmaydigan, fuqarolar va ularning uyushmalarini, uzviy tabiiy-tarixiy huquqlarini e'tirof etadigan davlat hokimiyatidir.

Fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi inson huquqlari va fuqaro huquqlari farqlanishini belgilab berdi. Inson huquqlarini fuqarolik jamiyati, fuqaro huquqlarini davlat ta'minlaydi. Har ikki holatda ham shaxs huquqlari to'g'risida so'z yuritiladi, biroq birinchi holatda tabiiy huquqlar (yashash, erkinlik va boshqalar) nazarda tutilsa, ikkinchisida uning siyosiy huquqlari nazarda tutiladi.

Inson huquqlari va fuqaro huquqlari o'rtasidagi farq quyidagilarda ko'rinadi:

1) Inson huquqlari davlat tomonidan e'tirof etilgani va qonun yo'li bilan mustahkamlanganidan, ularning egasi - inson u yoki bu davlatga mansubligidan qat'i nazar mavjud bo'lishi mumkin. Fuqaro huquqlari esa mazkur shaxs qarashli bo'lgan davlat tomonidan himoya qilinadi;

2) Dunyoda hali anchagina odamlar umuman fuqarolik maqomiga ega emas (fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, apatridlar). Binobarin, ular inson huquqlariga ega. Fuqarolik jamiyatining vazifasi ijtimoiy hayot rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratib berishdan iborat.

Fuqarolik jamiyatining asosiy qadriyatlari – oila, mulk, shaxs, erkinlik, huquq, ma'naviyat, tartib, davlatchilik. Bunda barchani majburiy tartibda mulkdorga aylantirish nazarda tutilmaydi, biroq bunday imkoniyat har kim uchun saqlanishi

lozim. Mulk har doim shaxs va jamiyat erkinligining bosh omili sifatida amal qiladi. Mulkka nisbatan hurmat mavjud bo'lmagan joyda shaxsga nisbatan hurmat ham mavjud bo'lmaydi.

Fuqarolik jamiyati tuzilmalari "yuqoridan" turib emas, balki "quyidan" (ya'ni fuqarolarning tashabbusi bilan, ixtiyoriylik asosida, tuzilma ta'sischilarning manfaatlari va moyilliklariga muvofiq) tashkil etiladi. Ularning erkinligi davlat organlariga qaram emaslikda, ichki qoidalar bilan nazarda tutilgan vazifalarni hal etishga qaratilgan o'zini o'zi boshqarish faoliyatida namoyon bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatining murakkabligi shundaki, u xo'jalik, iqtisodiy, oila-urug'chilik, etnik, diniy va huquqiy munosabatlar, axloq, shuningdek shaxslar va hokimiyatning birlamchi sub'ektlari bo'lmish partiyalar, manfaat guruhlar va hokozolar o'rtasidagi davlat tomonidan tartibga solinmaydigan siyosiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Davlat tuzilmalaridan farqli o'laroq fuqarolik jamiyatida vertikal (bo'ysunish) emas, balki huquqiy jihatdan erkin va teng huquqli hamkorlar o'rtasida gorizontaal aloqalar va raqobat munosabati amal qiladi.¹

Shunday qilib, fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari: erkin individlar uyushmasi; o'zaro hamkorlikka asoslangan ijtimoiy tuzilma; murakkab tuzilishga ega plyuralistik tizim; o'zini o'zi boshqaradigan va rivojlantiradigan tizim.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim omillari:

- iqtisodiy erkinlik, mulk shakllarining xilma-xilligi, bozor munosabatlari;
- inson va fuqaroning tabiiy huquqlarini so'zsiz e'tirof etish va himoya qilish;
- hokimiyatning qonuniyligi va demokratik xususiyati;
- qonun va odil sud oldida hammaning tengligi, har bir shaxsning yuridik jihatdan ishonchli himoyalanganligi;
- hokimiyatning uchga bo'linishi va hokimiyatlarning o'zaro aloqasi prinsipiga asoslangan huquqiy davlat;
- siyosiy va mafkuraviy plyuralizm, konstruktiv muxolifatning mavjudligi;
- so'z va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi;
- fuqarolarning shaxsiy hayotiga davlatning aralashmasligi, ularning o'zaro majburiyatlari va burchlari;
- sinfiy va milliy totuvlik, ijtimoiy sherikilik;
- odamlarning munosib turmush darajasini ta'minlovchi samarali ijtimoiy siyosat.

Fuqarolik jamiyati quyidagi prinsiplarga tayanib faoliyat ko'rsatadi:

- siyosiy sohada hamma odamlarning huquq va erkinliklarining tengligi;
- jahon hamjamiyatida yuridik kuchga ega bo'lgan qonunlar asosida fuqarolar huquq va erkinliklarini kafolatlangan huquqiy himoyasi;
- individlarni mulkka ega bo'lish va halol mehnati uchun adolatli haq olish huquqiga asoslangan iqtisodiy mustaqilligi;
- qonun bilan kafolatlangan fuqarolarni manfaatlari, kasbiy belgilari bo'yicha davlatdan va partiyadan mustaqil ijtimoiy birlashmalarga birlashish imkoniyatlari;
- partiya va fuqarolik harakatlarini tashkil etishda fuqarolarning erkinligi;

¹ Jalilov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015. - B. 21.

- fuqarolarni erkin, madaniyatli, ma'naviy va ijtimoiy faol, jamiyat a'zolarini qonun oldida ma'suliyatli qilib shakllantiradigan fan, madaniyat, ta'lim va tarbiya uchun zaruriy moddiy va boshqa sharoitlarni yaratish;

- faqat qonun bilan cheklangan davlat senzurasidan tashqari OAV yaratish va faoliyat yurgizish erkinligi;

- davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatni barqarorlashtiradigan mexanizmni (konsensus mexanizmi) mavjudligi hamda fuqarolik jamiyatini ishlashini davlat organlari tomonidan xavfsizligini ta'minlanishi. Bu mexanizm qonun hujjatlarini, xalq vakillarini demokratik saylov bilan davlat hokimiyati, o'z-o'zini boshqarish organlariga tayinlash kabilarni o'z ichiga oladi.

Fuqarolik jamiyati shaxs erkinligisiz bo'lmaydi. Inson erkinlikka uning me'yoriy talablariga bo'ysunish qobiliyati natijasida ega bo'ladi. Bunda shaxs erkinlik chegaralarini belgilovchi ijtimoiy me'yorlar amal qilishi lozim. Jamiyat uchun eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan, eng asosiy hisoblangan sohalaridagina davlatning o'zi erkinlik o'lchovini, me'yorini belgilab beradi. Bu konstitutsiya va me'yoriy-huquqiy hujjatlar yordamida amalga oshiriladi.

Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyati quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Fuqarolik jamiyati qonunchilik asosida fuqarolarning shaxsiy hayoti davlat hokimiyati organlari va boshqa siyosiy strukturalarning asoslanmagan qat'iy muvofiqlashtirishidan himoya qilinishini ta'minlaydi.

2. Fuqarolik jamiyati uyushmalari asosida ijtimoiy (jamoatchilik) o'zini-o'zi boshqarish mexanizmlari yaratiladi va rivojlantiriladi.

3. Fuqarolik jamiyati davlatning demokratik organlarini, uning siyosiy tizimi shakllanishiga ko'mak beradi (saylov kampaniyalarida va referendumlarda, biror bir talablarni qo'llab-quvvatlash tadbirlarida, muayyan masalalar bo'yicha jamiyatni shakllantirishda faol ishtirok etish orqali);

4. Fuqarolik jamiyatining institutlari insonlarning huquq va erkinliklarini real kafolatlaydi, davlat va jamoat ishlarida teng ishtirokini ta'minlaydi;

5. Fuqarolik jamiyati o'z a'zolariga nisbatan ijtimoiy nazorat funksiyalarini bajaradi (u davlatdan mustaqil ravishda vosita va sanksiyalar berishga ega bo'lishi mumkin hamda insonlarni jamoa talablariga rioya qilishlariga majburlashi, fuqarolarning ijtimoiylashuvini va tarbiyalanishini ta'minlanishi mumkin);

6. Fuqarolik jamiyati kommunikativ funksiyani bajaradi (davlat organlarini fuqarolarning muayyan manfaatlari haqida xabardor qilib turadi);

7. Fuqarolik jamiyati o'z institutlari bilan barqarorlashtiruvchi funksiyani bajaradi. U inqiroz holatlarida davlatga yordam beradi, jamiyat hayotini yaxshilashga xizmat qiladigan tuzilmalar tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi – kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo'lib, inson huquqlari va erkinliklarining holati bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyati demokratik siyosiy tizim shakllanishi bilan bevosita bog'liqdir. Fuqarolik jamiyati aholi ijtimoiy faolligining davlat organlari faoliyatiga bog'liq bo'lmagan turli shakllarini o'zi ichiga oladi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi jamiyatning tuzilishi va o'zini o'zi boshqarish nuqtai nazaridan sifat jihatidan yangi holatni ifodalaydi, davlat va shaxs

manfaatlarning muqobilligini namoyon etadi. Bunda inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi tarixan uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarda jamiyat va uning a‘zolari siyosiy hokimiyatni nazorat qilishini nazarda tutadi.

Fuqarolik jamiyati shakllanishi quyidagi asoslar (iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma‘naviy) mavjudligi va holati bilan bevosita bog‘liqdir:

1. **Iqtisodiy asoslar** – mulk shakllarining xilma-xilligi; iqtisodiy plyuralizm, ko‘p ukladlilik, erkin bozor munosabatlari; jamiyatda uning har bir a‘zosi muayyan mulkka ega bo‘lishi, o‘z xohishi bilan tasarruf etish, sarflash huquqiga ega bo‘lishi; xususiy mulk daxlsizligi; davlat tomonidan kafolatlangan tadbirkorlik; mehnat va iste‘mol faoliyati erkinligining ta‘minlanganligi.

Barcha fuqarolarda xususiy mulk asosida iqtisodiy mustaqillikka erishish imkoniyatining mavjudligi fuqarolik jamiyati vujudga kelishining zarur shartidir.

Fuqarolik jamiyatida ko‘p ukladli raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti, tashabbuskor tadbirkorlar iqtisodiy rivojlanishning asosini tashkil etadi, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlari muvozanatga keltirilib turiladi.¹

2. **Ijtimoiy-siyosiy asoslar** – mustaqil davlatlarning tashkil topishi; iqtisodiy va siyosiy hokimiyatning ajratilishi; insonlarning o‘z maqsadlarini himoya qilish maqsadida ma‘lum tashkilotlarga birlashishi; hokimiyatlar turli-tuman markazlar, tashkilotlar, siyosiy institutlar qo‘lida jamlanib, bir-birini cheklashi va muvozanatga solib turishi; siyosiy plyuralizm; davlat hokimiyati funksiyalarining sekin-asta fuqarolik jamiyati institutlariga berib borilishi (“Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” tamoyilining namoyon bo‘lishi).

Birinchi Prezident I.A.Karimov qayd etganidek: “Fuqarolik jamiyatini qurish bir qancha vakolatli vazifalarni davlatdan mahalliy hokimiyat organlariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirishni ko‘zda tutadi”².

3. **Huquqiy asoslar** – ozodlik, tenglik, adolat qadriyatlarining qaror topishi; qonun ustuvorligi, qonun va huquqiy hujjatlar oldida tenglik.

Inson qadriining o‘sishi va teng huquqli shaxsga aylanishi fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim sharti hisoblanadi.

Mamlakatimizda “Adolat – qonun ustuvorligida” tamoyilini ro‘yobga chiqarish demokratik islohotlarning o‘zagini tashkil etadi. Davlat va fuqarolar o‘zaro huquqlar va burchlar orqali uzviy bog‘liq. Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarining muhofazasini ta‘minlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo‘limi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag‘ishlangan. Konstitutsiyada fuqarolarning barcha huquqlari (*shaxsiy huquq va erkinliklar; siyosiy huquqlar; iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar*) belgilangan.

Konstitutsiyamizning 19-moddasiga binoan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo‘lgan huquqlari va burchlari bilan o‘zaro bog‘liqdirlar.

¹ Sharifxo‘jayev M. O‘zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – T.: Sharq, 2003. - B. 20.

² Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T. O‘zbekiston, 1999. 7-jild - B. 388.

Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.”¹.

Shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlaydigan huquqiy davlatchilik sharoitida insonning xulqi uning manfaatlari bilan belgilanadi va har qanday xatti-harakati uchun mas'uliyat uning zimmasiga tushadi. Bunday shaxs o'z erkinligini barcha narsadan ustun qo'ygan holda, ayni vaqtda boshqalarning qonuniy huquqlarini ham hurmat qiladi.²

4. **Ma'naviy asoslar** – insonlar o'z qadr-qimmatiga, jamiyatning asosiy qadriyatlari himoyasiga tura oladigan zaruriyat tug'ilganda ular uchun kurasha oladigan bo'lishlari, vijdon erkinligi, ahloqiy normalarga rioya qilish, yagona mafkura dunyoqarashning yakka hokimligining mavjud emasligi, ijtimoiy jarayonlarni demokratlashtirishda bevosita va bilvosita ishtirok etishlari, fuqarolik pozitsiyasiga ega ekanligi. “Tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyiqda, qullikdan qutulmasa, inson to'la ozod bo'lolmaydi. Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi”³.

Fuqarolik jamiyati shaxslar o'zini o'zi namoyon etishining oliy shaklidir. U xalqning farovonligi, madaniyati va ongining o'sishi, mamlakatning iqtisodiy, siyosiy rivojlanishiga mos ravishda yetuklik darajasiga chiqadi.

“Fuqarolik jamiyati” atamasi turli xorijiy adabiyotlarda alohida mazmun kasb etgan tushuncha bo'lib, u hozirgi davr talqinda jamiyatning muayyan shakli (holati va xususiyati)ni, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tabiatini, rivojlanish darajasini ifodalaydi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari doimo davlatni takomillashtirish, huquq va qonunning rolini yuksaltirish muammolari hal etish bilan o'zaro bog'liqdir.

Fuqarolik jamiyati tushunchasining o'zi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. *Keng ma'noda* fuqarolik jamiyati jamiyatning davlat tuzilmalarining nazorati yetib bora olmaydigan barcha qismini qamrab oladi. U tabiiy-tarixiy taraqqiyot davomida davlatdan mustaqil bo'lgan muxtor soha sifatida vujudga keladi va o'zgarib boradi.

Fuqarolik jamiyati *tor ma'noda*, huquqiy jamiyat bilan bevosita bog'liq bo'lib, boshqacha aytganda, ular bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. Fuqarolik jamiyati bozor va demokratik huquqiy davlatchilik sharoitida davlat tomonidan boshqarilmaydigan, erkin va teng huquqli shaxslarning o'zaro munosabatlarini ifodalaydi. Bu individual huquqlar va xususiy manfaatlar erkin amal qiladigan ijtimoiy makon hisoblanadi.⁴

M.Qirg'izboyevning xulosalariga ko'ra, “fuqarolik jamiyati bu:

birinchidan, jamiyat hayoti faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida ixtiyoriy ravishda shakllangan, boshlang'ich nodavlat tizimlarini o'z ichiga olgan insoniy birlikdir;

ikkinchidan, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy ma'naviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasidir;

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2017. – B. 9.

² Jalilov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015. – B. 22.

³ Karimov.I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.: O'zbekiston, 1996. 3-jild. – B. 34.

⁴ Jalilov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015. – B. 20.

uchinchidan, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli organlar tazyiqlari, aralashishlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyat bo‘lib, unda ular o‘zligini namoyon qila olishlari uchun doimiy imkoniyatga ega bo‘ladilar.”

Fuqarolik jamiyatining belgilari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin.

Iqtisodiy sohada: nodavlat tashkilotlar; kooperativ-shirkatlar; ijara jamoalari; aksiyadorlik jamiyatlari; uyushmalar; kooperatsiyalarning mavjudligi.

Ijtimoiy sohada: oila; partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlar; ish va yashash joylaridagi o‘zini o‘zi boshqarish organlari; nodavlat ommaviy axborot vositalari; jamoatchilik fikrini aniqlash, shakllantirish va ifoda etishning madaniylashgan tartibotlari; ijtimoiy ixtiloflarni kuch ishlatmasdan, tazyiqsiz, qonunlar doirasida hal qilish amaliyotining mavjudligidir.

Ma‘naviy sohada: so‘z, vijdon va fikr erkinligi; o‘z fikrini ochiq bildira olishning real imkoniyatlari; ijodiy, ilmiy va boshqa uyushmalar mustaqilligining ham qonuniy, ham amaliy jihatlardan ta‘minlanganligi¹.

O‘zbekistonda yangi jamiyatni rivojlantirish islohotlari jarayonida jahondagi turli mamlakatlarda fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi turli darajada va davrlarda amalga oshirilganligi nuqtai nazardan uning nazariy va amaliy jihatlarini, tajribalarini o‘rganish muhim ahamiyatga egadir.

“O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanini oliy ta‘lim tizimida o‘qitish dolzarb vazifalardan biridir. Fanni o‘qitish asnosida mamlakatimizda “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyili asosida islohotlarni chuqurlashtirishga doir tajribalarni o‘rganish, jamiyatni rivojlantirishda faol ishtirok eta oladigan yosh avlodni shakllantirishga qaratilgan bilimlar berish nazarda tutiladi.

“O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanining **ob’ekti** – bu rivojlangan mamlakatlarda va O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanish va rivojlanish jarayonidir. Bu jarayon bir necha o‘n yilliklar davomida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy sohalaridagi tub o‘zgarishlarni ifodalaydi, unda fuqarolik jamiyatining huquqiy davlat bilan o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanish bosqichlari nazariy va amaliy nuqtai nazarlardan o‘rganiladi.

Fanning **predmeti** fuqarolik jamiyatining shakllanishi, rivojlanishi, har bir milliy davlatda fuqarolik jamiyati qaror topishining umumiy, o‘ziga xos qonuniyatlarini va tamoyillarini o‘rganishdan iboratdir. Fan doirasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga doir nazariyalar va konsepsiyalar, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishga doir qarashlar, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining rivojlanish jarayoni, xususan O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi yo‘nalishlarining nazariy va amaliy jihatlarini tizimli o‘rganiladi.

Fanni o‘qitishdan **maqsad** talaba yoshlar ongida fuqarolik jamiyatiga doir tasavvurlarni singdirish, ularda jamiyatni rivojlantirishga doir mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi yo‘nalishlari haqida tushuncha berish, Vatanga sadoqat his-tuyg‘ularini yuksaltirish kabilardan iboratdir. **Fanning vazifalari** quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

¹ Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. - T.: O‘zbekiston, 2010. – B. 52-53.

- fuqarolik jamiyatiga doir nazariyalar va konsepsiyalarni o'rganish;
- fuqarolik jamiyatida shaxsning rolini ochib berish asnosida yoshlarning shaxsiy fuqarolik nuqtai nazarlarni shakllantirishga yordamlashish;
- fuqarolik jamiyatini barpo etishning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy asoslarini tahlil qilish;
- "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilining mazmun-mohiyatini idrok etish;
- "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oyaning ahamiyatini ochib berish;
- "Adolat – qonun ustuvorligida" tamoyilining mohiyati va ahamiyatiga doir bilimlar berish;
- fuqarolik jamiyati institutlari va ularning faoliyatini o'rganish;
- mahalla institutining fuqarolik jamiyatidagi o'rni va ahamiyatini o'rganish;
- jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlanish masalalarini yoritish;
- ijtimoiy sheriklik to'g'risida bilimlar berish va yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirishga doir bilimlar berish.

Fanni o'zlashtirish jarayonida davlat va jamiyat haqidagi nazariy qarashlar, fuqarolik jamiyati to'g'risida nazariya va amaliyotning O'zbekiston va jahon tajribasida namoyon bo'lishining o'ziga xos jihatlari, davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi munosabatlar, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyati va ustuvor yo'nalishlari, mamlakatimizni yanada demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlari, yoshlar jamiyat taraqqiyotining yetakchi kuchiga aylanib borishi kabilar bo'yicha xulosalar shakllantiriladi.

Fuqarolik jamiyati quyidagi muhim ijtimoiy funksiyalarni amalga oshiradi:

1. Qonuniylik asosida u inson va fuqaro hayotining xususiy sohasiga davlat va boshqa siyosiy tuzilmalarning asossiz aralashuvidan himoya qiladi.
2. Fuqarolik jamiyati institutlari asosida o'zini-o'zi boshqarishning jamoaviy mexanizmlarini yaratadi.
3. Fuqarolik jamiyati siyosiy hokimiyatning mutlaqlashtirilishi, yakka hokimlikka intilishini oldini olishda muhim va qudratli vosita hisoblanadi. U fuqarolar va ularga oid birlashmalar faoliyatiga davlatning noqonuniy aralashuvini oldini olish bilan davlat organlari va butun siyosiy hokimiyatni demokratlashtirishga ko'mak beradi. Bu funksiyani bajarishda saylov va referendumlar, norozilik namoyishlari va hokazo vositalar qo'llaniladi. Bundan tashqari, mustaqil ommaviy axborot vositalari orqali jamoat fikrini shakllantirishda ham katta kuchga egadir.
4. Fuqarolik jamiyati institutlari va tashkilotlari jamiyat manfaatlari yo'lida davlat va jamoat ishlariga keng jalb etiladilar.
5. Fuqarolik jamiyati o'z a'zolariga nisbatan jamoatchilik nazoratini ham amalga oshiradi. Fuqarolik jamiyati institutlari yordamida jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy vaziyatni sog'lomlashtirishga intiladi; milliy, diniy va ma'naviy me'yorlarni kuzatib, ularni saqlab qolishga harakat qiladi; fuqarolarning jamiyatda qabul qilingan ana shu me'yorlarga amal qilishlarini ta'minlaydi.

6. Fuqarolik jamiyati ijtimoiy aloqa vazifasini ham bajaradi. Erkin bozor munosabatlari rivoj topayotgan sharoitda manfaatlarning xilma-xilligi vujudga keladi. Ularning turliligi fuqarolar erkinlikligi bilan belgilanadi. Demokratik tizimga asoslangan davlat o'z fuqarolari manfaatlari va talablarini to'liq qondirishi lozim. Ammo erkin bozor sharoitida manfaatlarning turi shunchalik ko'payib ketadiki, hokimiyat ularning barchasi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'la olmaydi. O'z navbatida fuqarolik jamiyati institutlarining vazifasi fuqarolarning eng dolzarb talab va ehtiyojlari haqida ogohlantirib turishdan iborat.

7. Fuqarolik jamiyati o'z institutlari va tuzilmalari yordamida muqobil tizim vazifasini ham amalga oshiradi. U butun jamiyat hayoti tayanadigan mustahkam tuzilmaga aylanadi. Tarixning murakkab (urushlar, inqirozlar, tushkunliklar) davrlarida davlat institutiga darz ketgan vaqtlarda mustahkam fuqarolik tuzilmalari davlatning bir qator vazifalarini o'z zimmasiga olgan va muhim tayanch vazifasini bajargan.

8. Fuqarolik jamiyatining yana bir muhim ko'makchilik funksiyasi mavjud bo'lib u davlatning ijtimoiy siyosati samaradorligini oshishiga xizmat qiladi. Fuqarolik jamiyati institutlari imkoniyati cheklangan fuqarolar (nogironlar, qariyalar, bemorlar va boshqalar)ga qulaylik yaratish uchun zaruriy va birlamchi vositalar bilan ta'minlashga qaratilgan muhim faoliyatni amalga oshiradilar.¹

Hozirda dunyoning aksariyat davlatlarida huquqiy-demokratik tizimlar umumbashariy va milliy qadriyatlar uyg'unligi sifatida qaror topayotganligi, fuqarolik jamiyatini barpo etish insoniyat hayot tarzining eng maqbul rivojlanish yo'li ekanini fuqarolik jamiyatini fan sifatida o'rganishni taqozo etmoqda.

Ushbu jarayonlarni o'rganishda "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" fani jamiyat shakllanishi va rivojlanishi to'g'risidagi umume'tirof etilgan qonuniyatlar hamda har bir mamlakatlarning milliy va tarixiy rivojlanishidagi o'ziga xos jihatlari xisobga oladigan qonuniyatlarga tayanadi.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishiga doir umume'tirof etilgan qonuniyatlar.

- mulkiy munosabatlarning qaror topishi va rivojlanishi;
- inson haq-huquqlari va erkinliklarining real va amalda ta'minlanishi;
- davlat hokimiyati boshqaruv organlarining nomarkazlashuvi;
- jamiyatning plyuralistik g'oyalar asosida rivojlanishining ustuvorligi;
- fuqarolarning davlat boshqaruviga oid qarorlarni qabul qilishda ta'siri va mavqeining oshib borishi;
- fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy hayotidagi mavqeining oshib borishi;
- fuqaroviylik va fuqaro faolligining jamiyat hayotiga ta'sirini kuchayib borishi va h.k.

Har bir mamlakatlarning milliy va tarixiy rivojlanishidagi o'ziga xos jihatlari xisobga oladigan qonuniyatlar.

-O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi asosiy yo'nalishlarining tizimli rivojlanishi;

-o'rta mulkdorlar qatlamining shakllanishi;

¹ Jalilov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015. - B. 28-30.

-o‘z-o‘zini boshqarish institutlarining jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va rolining oshib borishi;

-ijtimoiy himoyaning manzilli tashkil etilishi va amalga oshirilishi;

-ma'naviy yetuklikka erishish imkoniyatlarining oshirib borishi va yoshlarning bunyodkor kuchga aylanishi va h.k.

“O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fani bakalavriat bosqichi o‘quv rejasidagi Politologiya, Huquqshunoslik, Sotsiologiya, O‘zbekiston tarixi, Falsafa, Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar, Iqtisodiyot nazariyasi kabi fanlar bilan o‘zaro bog‘liqdir. Bu fanlarda fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishining turli yo‘nalishlaridagi holati, qonuniyatlari, tamoyillari o‘rganiladi.

“O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanining bir qator ilmiy funksiyalarni bajaradi.

Fanning *metodologik funksiyasi* ijtimoiy fanlarning rivojlanishi, ijtimoiy jarayonlarni o‘rganishning umumiy yo‘nalishlarini belgilashda, ishlab chiqilgan me‘yorlardan dasturil amal sifatida foydalanishda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Fanning *prognostik funksiyasi* jamiyatning rivojlanish istiqbollari oldindan ko‘rishga inson huquqlari va erkinliklarining namoyon bo‘lishida ko‘rinadi.

Fuqarolik jamiyatida fuqarolar o‘z moddiy, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarini to‘laroq qondiradilar hamda bu yo‘lda o‘z manfaatlari, intilishlari va maqsadlarini amalga oshirish uchun turli uyushmalarga va tashkilotlarga birlashadilar hamda hamkorlik qiladilar.

Fuqarolik jamiyati tarixiy tafakkur va taraqqiyot mahsuli sifatida zamonaviy dunyoviy davlatchilik hamda jamiyatning o‘zini-o‘zi rivojlantirishining eng maqbul shaklidir. Shu sababli jamiyat taraqqiyoti talablariga monand ravishda to‘xtovsiz takomillashuvga ehtiyoj sezadi.

Ijtimoiy-siyosiy tafakkur tarixida uzoq muddat “fuqarolik jamiyati” va “davlat” tushunchalari aynan tushunchalar sifatida qabul qilindi. Biroq, XVII asr o‘rtalaridan boshlab, jamiyatning turli jabhalarini tabaqalashishi, ularni davlat hokimiyati boshqaruvidan chiqarish, uzviy huquq va erkinliklarga ega bo‘lgan erkin va mustaqil individni kamol toptirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyotning ikki tamoyilini yuzaga keltirdi va ularni ijtimoiy ong va fanda aks ettirish zarurati paydo bo‘ldi.

Davlatda hokimiyatning uchga bo‘linishi, siyosiy partiyalar, manfaatlar guruhleri (kasaba uyushmalari, ommaviy axborot vositalari va h.k.) paydo bo‘lishi bilan jamiyat hayoti mazmuni endi faqat davlat hokimiyati bilan cheklanib qolmaslikni taqozo etdi. Jamiyat boshqaruvida yangi institutlar paydo bo‘ldi, ular siyosiy qarorlar qabul qilish, fuqarolik jamiyati strategiyasini ishlab chiqish, shaxs faoliyatining umumiy maqsad va mazmunini shakllantirish jarayoniga sezilarli ta'sir ko‘rsata boshladi.

Umuman olganda, fuqarolik jamiyatining qonun doirasidagi adolat va erkinlik oliy qadriyat sifatida fuqarolik jamiyatining eng muhim xususiyati hisoblanadi. Jamiyatda yuqori huquqiy madaniyat darajasidagi tartib-intizom va o‘zini o‘zi boshqarish xususiyatlari fuqarolik jamiyati mavjudligining asosini tashkil etadi.

1.2. Fuqarolik jamiyati g'oyalari evolyutsiyasi

Fuqarolik jamiyati kategoriyasi tarixan insoniyat rivojlanishining shunday bir alohida yo'nalishini aks ettiradiki, u har bir davrning o'ziga xos mutafakkirining oqilonalik, erkinlik, farovonlik va adolat hukm suruvchi ideal jamiyat modelini yaratishga intilishi bilan tavsiflanadi.

Davlat, oila, qabila, millat tushunchalari, diniy va boshqa birliklardan farq qiluvchi fuqarolik jamiyati kategoriyasi XVIII-XIX asrlarga kelib o'rganila boshlandi. Ilmiy adabiyotlarda G'arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyatining rivojlanishini uch bosqichga ajratiladi. Bir bosqichdan keyingi bosqichga o'tishda davlat va jamiyat tizimida, jamiyat mafkurasida tub o'zgarishlar, ijtimoiy va siyosiy tangliklar, ommaviy harakatlar, sinflar to'qnashuvi yuz bergan.

Birinchi bosqich shartli ravishda XVI-XVII asr. Bu davrda fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy asoslari yaratildi. Ular jumlasiga sanoat va savdoning rivojlanishi, ishlab chiqarish turlarining ixtisoslashuvi, mehnat taqsimotining teranlashuvi, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishini kiritish mumkin. Markazlashgan davlatlar tashkil topishi bilan feodal tarqoqlik davrida mavjud bo'lgan tengsizlik, huquqsizliklarga barham berishga kirishildi.

Ikkinchi bosqich XVIII asr oxiridan XIX asr oxirigacha davom etdi. Bu davrda eng rivojlangan mamlakatlarda qonun oldida umumiy tenglik va erkinlikka, tadbirkorlik erkinligi va shaxsiy tashabbusga asoslangan dastlabki kapitalizm ko'rinishidagi fuqarolik jamiyati shakllandi.

Uchinchi bosqich (XIX asr oxiri va keyingi davr) vertikal feodal tuzilmalar o'rnini erkin fuqarolarning huquqiy tengligi va o'zaro kelishuvlariga asoslangan gorizontaal munosabatlar egallagani bilan tavsiflanadi. Insoniyatning ko'p asrlik tarixida barcha odamlar, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qat'i nazar, jamiyat hayotining huquqiy jihatdan teng ishtirokchilari deb e'tirof etilishi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etdi. Ular har kimga o'zini erkin xohish-irodaga ega bo'lgan, o'z harakatlari va ularning huquqiy oqibatlari uchun javob berishga qodir shaxs sifatida namoyon etish imkoniyatini beruvchi qonunlar bilan e'tirof etilgan qator huquqlar va erkinliklarga ega bo'la boshladi.

Fuqarolik jamiyatining amalda yuzaga kelishiga Huquqlar haqidagi bill (Angliya, 1689 y.; AQSh, 1791 y.) yoki Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (Fransiya, 1789 y.) qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Fuqarolik jamiyati o'z shaxsi, ijodiy tashabbusini erkin namoyon etuvchi teng huquqli odamlar jamiyati, ortiqcha taqiqlar va keraksiz ma'muriy tartibga solishdan xoli teng imkoniyatlar jamiyati sifatida shakllandi. Jamiyat a'zolari yuridik nuqtai nazardan fuqarolik huquq va erkinliklarga ega bo'ldi. Fuqarolik insonning muayyan davlatga barqaror tarzda mansubligi, inson va davlatning o'zaro huquqiy aloqasi sifatida namoyon bo'la boshladi. Bu ikki tomonlama aloqalar, bir tomondan, davlat o'z fuqarolariga muayyan huquq va erkinliklarni kafolatlaydi, ularning o'zini va mulkini turli zo'ravonliklardan himoya qiladi, xorijiy mamlakatlarda istiqomat qilayotgan o'z fuqarolariga homiylik qiladi. Boshqa tomondan, fuqarolar davlat qonunlariga rioya qilishlari, u belgilagan majburiyatlarni bajarishlari, o'z mehnati bilan davlatni mustahkamlashga ko'maklashishlari, uning obro'sini saqlashlari, zarur holatlarda uni

himoya qilishlari lozim. Bu huquq va burchlar majmui fuqarolarning siyosiy-huquqiy maqomini tashkil etadi.

XX asrda fuqarolik jamiyati g'oyasi yanada muhimroq ahamiyat kasb etdi. Bunga avvalo totalitar va avtoritar tuzumlarning paydo bo'lishi va ularga qarshi demokratiya uchun kurash olib borish zaruriyati sabab bo'ldi. Plyuralizm nazariyasi keng tarqaldi. Bu nazariyaga binoan, fuqarolik jamiyatining asosiy vazifasi fuqarolar totuvligiga erishish yo'llarini izlash, aholining turli guruhlarini manfaatlarini hisobga olish, qarama-qarshiliklarga barham berish va nizolarning oldini olish kabilardan iborat. Shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi huquqiy davlat fuqarolik jamiyatining siyosiy negizidir. Fuqarolik jamiyatining davlatdan ajralishi aynan tabaqalar o'rtasidagi tengsizlikni tugatish va ijtimoiy munosabatlarni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonida yuz bergan.

Ma'lumki, jamiyat haqidagi g'oyalar evolyutsiyasining ildizi chuqurdir. Adolatli jamiyatini barpo etish barcha davrlarda eng ezgu g'oya bo'lgan. Aksariyat ilmiy adabiyotlarda zamonaviy talqindagi fuqarolik jamiyati G'arb sivilizatsiyasi mahsuli sifatida qaraladi. Shunga qaramay Sharqda bu masalaga oqilona yondashuv uch ming yil avval shakllangan.

Markaziy Osiyo zaminida fuqarolik jamiyatiga doir dastlabki ta'limotlar, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayot haqidagi ma'lumotlar eng qadimgi yozma manba bo'lgan "Avesto" kitobida o'z ifodasini topgan.

"Avesto" kitobida dunyoning yaratilishi, insonning xalq bo'lib kamol topishi, ezgulik uchun yovuz kuchlar bilan kurashi, erkinlik, ijodkorlik va bunyodkorlik yo'lidagi orzulari o'z ifodasini topgan¹.

Manbada inson erki, uning ruhiy komilligi, milliy davlatchilik an'alarini o'zida aks ettirgan ezgu g'oyalar ustuvor qo'yiladi. Xususan, "Avesto" kitobining bosh g'oyasi - *"ezgu fikr, ezgu maqsad, ezgu amal"* jamiyat va insonlararo munosabatlarning ma'naviy-axloqiy asosi bo'lib xizmat qilgan.

"Avesto" kitobining davlatchilik g'oyalari tizimida huquqiy va axloqiy me'yorlar muhim o'rinni egallaydi. Unga binoan, olam nur va zulmat, hayot va o'lim, tana va jon, yaxshilik va yomonlik, erkinlik va tobelik singari hodisalarning azaliy va abadiy kurashidan iborat. Shunga ko'ra, hayotning kechishi tabiatda (nur va zulmat), borliqda (hayot va o'lim), ijtimoiy hayotda (yaxshilik va yomonlik). Nafosat olamida (go'zallik va xunuklik), dinda (Axura Mazda bilan Axrimanning azaliy va abadiy kelishmasligi) turli xil kuchlar o'rtasidagi kurash shakllari sifatida namoyon bo'ladi².

"Avesto" kitobida eng muhim masalalardan biri ijtimoiy munosabatlarning teng huquqlilikka asoslanganidir. Manbada fuqarolik jamiyatini qurishning birlamchi omili erkak va ayolning teng huquqliligi, oilaning barqarorligini ta'minlash g'oyasidir.

"Avesto" kitobida oila va jamoada berilgan so'zdan yoki qasamdan voz kechish, odamlar o'rtasida tuzilgan ahdnomani buzish katta gunoh ekanligi qayd etiladi. Xususan, "O Spitama, shartnomani buzuvchi kishi butun mamlakatni buzadi, shu bilan birga Artaga tegishli barcha mulku mollarga putur yetkazadi"³ g'oyasi adolat

¹ Maxmudov T. "Avesto" haqida. – T.: Sharq nashriyoti, 2000. – B. 5.

² Idivov U.Yu. Politologiya. - T.: TDSHI, 2013. - B. 35.

³ Qarang. Avesto // "Yasht", X bob. Mahkamov A. tarjimasi. – T., 2001.

huquq ustuvorligiga asoslanishi prinsipiga mos keladi. Manbada ilgari surilgan huquqiy ta'limotlar Yunon mutafakkirlari va Rim huquqi namoyandalarining qarashlariga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Hullas, "Avesto" kitobi g'oyalari yurtimiz hududida shakllangan ilk davlatchilik asoslarining siyosiy mafkurasi bo'lib xizmat qildi.

Xitoyda miloddan avvalgi 552-479 yillarda yashab ijod etgan mutafakkir Konfusiy g'oyalari Sharqda jamiyatni boshqarishga oid ta'limotlar evolyutsiyasida o'z o'rniga ega.

Konfusiy qarashlarida davlat va jamiyat munosabatlarining ijtimoiy jihatlariga kata urg'u beriladi. Uning fikricha, davlat xuddi yaxshi oila kabi barpo etilishi kerak. Davlat go'yoki katta bir oilani eslatib turishi zarur, unda xukmdor ota kabi o'z qo'l ostidagi odamlarga g'amxo'rlik qilishi lozim. Ular esa o'z navbatida xukmdorlarini hurmat qilishlari, shuningdek, bir-birlarini aka-ukalardek yaxshi ko'rishlari kerak.

Konfusiy o'z qarashlarida ijtimoiy uyg'unlik g'oyasini ilgari surdi. Unga ko'ra, yuqori tabaqa vakillari past tabaqa vakillariga nisbatan g'amxo'rlik qilishlari kerak. O'z navbatida, past tabaqa vakillari yuqori tabaqa vakillariga halol hizmat qilishlari kerak. Buning natijasida ma'naviy uyg'unlik, kelishuv ro'y beradi.

Mutaxassislar tomonidan konfusiychilikning konseptual zaminlari quyidagi oltita asosiy qadriyatida ko'rsatib o'tiladi:

- xalqning farovonligi va jamiyatning barqarorligi mas'uliyatini o'z yelkasiga oluvchi kuchli markaziy hukumat.

- ijtimoiy ezgulik va axloqni shakllantiruvchi an'analar va rasm-rusumlar.

- qadriyatlarni avloddan avlodga o'tkazuvchi jamiyatning asosi bo'lgan oila.

- jamiyatning xususiy va ommaviy sohaları o'rtasida rivojlanib boruvchi vosita rolini o'ynaydigan fuqarolik jamiyati.

- konfusiychilik gumanizmini asoslab beruvchi maorif.

- butun jamiyat hayotining sifatini, uning har bir a'zosining "o'z-o'zini takomillashtirib borishi"ga bog'liqligi¹.

O'zida uyg'unlik, mutanosiblik, kelishuv, ichki qarama qarshiliklarga yo'l qo'ymaslik, munosabatlarga kirishishda yuqori darajadagi ehtiyotkorlikka ahamiyat berish, vatanparvarlik, haqiqatga intilish, bahamjihatlik va o'zaro yordam kabi ko'hna qadriyatlarni mujassam etgan va Xitoyning bosh siyosiy-axloqiy doktrinasi sifatida tan olinayotgan konfusiylik, bugungi Xitoy jamiyatining ancha murakkab bo'lgan demografik va ekologik sharoitida davlat va jamiyat hamda fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar muvozanatini optimal darajada ta'minlanishi uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda².

Fuqarolik jamiyati tushunchasining Yevropa an'anasi antik ildizlarga ega. Ushbu tushuncha talqinlari siyosiy jarayon va insonni fuqaro sifatida shakllanishini axloqiy nuqtai nazardan baholash bilan bog'liq edi. Bu davrda Platon, Aristotel, Siseron kabi mutafakkirlarning qarashlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Jamiyat va davlat fenomenlari uzviyligi qadimgi yunon dunyoqarashining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. **Platon** (mil. av. 427–347 y.) "Davlat"

¹ Степанянц М.Т. Восточные сценарии глобального мира // Вопросы философии. -№7. -2009. – С. 37-38.

² Idivov U.Yu. Politologiya. - T.: TDSHI, 2013. - B. 33.

“Qonunlar” dialoglarida fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy hayoti ajratiladi, fuqaroning hayotiy faoliyati sifatida ijtimoiy-siyosiy faolligi tushunilgan.

“Davlat” dialogida jamiyatda adolat qanday ta’minlanishi ko’ra tavsiylanadigan davlat shakllari haqida fikrlar bildirilgan. Masalan, Platon no’maqul, adolatsizlikni keltirib chiqaruvchi davlat shakllari qatoriga timokratiya, oligarxiya, demokratiya, tiraniyani kiritadi. Uning fikriga ko’ra, timokratiya – boylikka o’ch bo’lgan shuhratparastlar hokimiyati, oligarxiya – unchalik ko’p bo’lmagan boylarning hokimiyati, demokratiya – ayrim kishilarning haddan ziyod erkin bo’lishlari natijasida oxir oqibatda olamonning hukmronligiga yoki tiraniyaga olib keluvchi hokimiyat, tiraniya – davlatning o’ta salbiy formasidir.

Platon kam sonli zodagonlar va faylasuflar boshqaruviga asoslangan davlatni ideal davlat shakli, deb hisoblagan. Uning nazdida davlat posbonlari sinfini tashkil etuvchi ushbu ikki yuqori qatlamning birdamligi va yakdilligiga erishish uchun umumiy mulk va turmush sharoitlari bo’lishi lozim. Shu sababli Platon shaxsiy mulkni inkor etadi, davlat va jamiyat mulkini bir ma’noda tushunadi.

Uning fikricha, mukammal davlat shunday davlatki, unda har bir fuqaro boshqalarning ishiga aralashmagan holda, o’zining sevgan kasbi bilan shug’ullanadi.

Qadimgi yunon mutafakkiri **Aristotel** (mil. av. 384–322 y.) ham eng mukammal jamiyat g’oyasini ishlab chiqishga diqqat e’tiborini qaratadi. Biroq uni ko’proq ijtimoiy transformatsiya emas, balki davlat tuzilmasidagi o’zgarishlar qiziqtiradi. Aristotel o’z qarashlarida davlat haqidagi mavhum g’oyaga tayanishni emas, balki voqe’likda mavjud bo’lgan boshqaruv shakllarini qiyoslashga tayanadi.

“Siyosat” dialogida Aristotel o’sha davrda mavjud bo’lgan davlatlarni to’g’ri va noto’g’ri shakllarini tahlil qilgan. Uning fikricha, tiraniya, oligarxiya, demokratiya faqat hukmronlarning manfaatiga xizmat qiladigan, xalq manfaatlarini e’tibordan chetda qoldiradigan, zulumga asoslangan boshqaruv shakllari sifatida noto’g’ridir. Aristotel monarxiya, aristokratiya, politiya yoki respublikani to’g’ri davlat shakllari deb hisoblagan.

Aristotel ta’biriga ko’ra, inson siyosiy mavjudotdir. Shu bois ham, u o’zida birgalikda yashash instinktlarini olib yuradi.

Aristotel xususiy mulkni e’tirof etadi, chunki u inson tabiatiga xos bo’lib, odamlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning o’zagini tashkil etadi. Aristotel mulk huquqining fuqarolar farovonligidagi roli, davlat va uning boshqaruv shakli xavfsizligi, qonunchilik ishida fuqarolarning ishtiroki, lavozimlarni egallash va vazifalarni bajarish kabi masalalarni atroflicha o’rgangan.

Huquqni Aristotel adolat mezonini deb hisoblagan va unga ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va ayni vaqtda ularni muhofaza qiluvchi institut sifatida yondashgan. Aristotel fikriga ko’ra, siyosiy boshqaruv – bu odamlarning emas, balki qonun boshqaruvidir. Hatto eng yaxshi hukmdorlar ham tuyg’ular va xislatlarga beriluvchan bo’ladi, qonun esa “oqilona tafakkur”dir.

Umuman, qadimgi yunon mutafakkirlari konsepsiyalarida davlat uning barcha erkin a’zolari umummanfaat ifodasi sifatida nomoyon bo’ladi.

Qadimgi Rim mutafakkiri **Mark Tulliy Siseron** (mil. av. 106-43 yillar) ham jamiyat va davlat (respublika)ni tenglashtiradi. Uning “Davlat haqida” va “Qonunlar”

nomli asarlarida jamiyat a'zolarining huquqiy tengligi va davlat mustahkamligi masalalariga katta e'tibor qaratilgan.

Siseron davlatni umumiy manfaatlar bilan o'zaro bog'langan odamlar majmui sifatida tasavvur qiladi, davlat xalqning umumiy mulki hisoblanadi va odamlar birgalikda yashashga tabiiy ehtiyoj sezadi. Davlatning tashkil topishining bosh sababi, xususiy mulkni qo'riqlash vazifalari bilan bog'liqdir. Huquqning asosida adolat turadi. Uning birinchi talabi esa boshqalarga ziyon yetkazmaslik va xususiy mulkka dahl qilmaslikdir.

Siseron fikricha, uch boshqaruv shakli (monarxiya, aristokratiya va demokratiya) unsurlarini o'zida mujassamlashtirgan aralash davlat eng ideal davlatdir. Faqat shunday davlatda har bir jamiyat a'zosining manfaatlarini qondirish va u davlatni boshqarishda ishtirok etishi ta'minlanadi.

Davlat Siseron talqinida fuqarolarning o'zaro kelishilgan huquqiy munosabatlari majmui, "umumiy huquqiy tartibot" sifatida ham namoyon bo'ladi.

Siseron konsepsiyasi fuqarolik jamiyati g'oyalari evolyutsiyasida antik davr uchun klassik ahamiyatga ega bo'ldi. Aynan Siseronning ijtimoiy-siyosiy ta'limotida "fuqarolik jamiyati" o'zining terminologik shakliga ega bo'ldi.

O'rta asrlarda adolatli jamiyatni barpo etish g'oyasi Markaziy Osiyo mutafakkirlari e'tibori markazida bo'lgan. Xususan, IX-XII va XIV-XV asrlarda Sharq uyg'onishi davrida davlatni adolatli boshqarish, davlat rahbari va xizmatchilarining faoliyat darajalari, tasniflari axloqiy negizlari, ijtimoiy mas'uliyati mezonlari haqidagi g'oyalar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqalar tomonidan keng bayon qilingan.

Abu Nasr al-Farobiy (870-950) "Fozil odamlar shahri", "Davlat arbobining aforizmlari" asarlarida sharqona siyosiy-huquqiy va ijtimoiy fikr tarixida ijtimoiy tizim, siyosat, davlat va hukumat haqidagi qarashlar nazariy asoslangan.

"Fozil odamlar shahri" asarida adolatli jamiyat qurish uchun uni mudofaa qilish va oqilona boshqarish usulini bilish, odamlarga yovuzlikdan saqlanish, ezgulikka intilish yo'llarini ko'rsatish lozimligi qayd etiladi. Aholining birgalikdagi farovon va xavfsiz hayotini ta'minlash davlatchilikning asosiy maqsadi deb e'tirof etiladi.

Farobiy davlat boshqaruvida axloqiy va madaniy qadriyatlarga hamohang tarzda demokratik tamoyillarni ta'minlash borasida to'xtalib, quyidagilarni yozadi: "ularning o'zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutloq bo'lmaydi. Ular odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan eng oliyjanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo'ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladilar"¹.

Farobiy davlat rahbarining boshqaruv mahorati umumiy baxtga erishish yo'lidir deb hisoblaydi. Uning nazdida adolatli davlatni ma'rifatli hukmdor boshqaradi, u ma'naviyat, adolat yetakchisi bo'lishi, o'z fazilatlarini bilan qat'iy talablarga javob berishi lozim.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston" asarlarida adolatli jamiyat va uning amal qilishi asoslarini shakllantirish haqidagi g'oyalarni bayon qilgan. Uning fikricha, jamiyatning paydo bo'lishiga

¹ Abu Nosir Forobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: A.Qodiriy nashriyoti, 1993. - B. 190.

odamlarning o‘zaro hamkorligi, birga yashashga ehtiyoji va intilishlari sabab bo‘ladi. Adolatli jamiyatni qurish axloqiy qadriyatlarga tayanishi va rivojlantirilishi lozim. Davlat rahbarining asosiy vazifasi aholining turli qatlamlari, kuchlilar va kuchsizlar o‘rtasidagi siyosiy va huquqiy adolat mezonlarini o‘rnatishdir. Bunga, uning fikricha, ideal ijtimoiy tuzilmani qurish orqali erishiladi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) ijtimoiy munosabatlarni odamlar o‘rtasidagi tafovut va tengliksizlik natijasi, deb hisoblaydi. Uning nazdida “iqtisodiy va ijtimoiy hamda shaxsiy xususiyatlarga ko‘ra tengliksizlik – inson ijtimoiy faolligi sababi hisoblanadi”. Ideal davlat qurish esa jamiyat aholisining ma’naviy-axloqiy ravnaqi bilan bog‘liq. Ibn Sino fikricha, ma’naviy axloqiy qadriyatlarning yuksak qadrlanishi nafaqat har tomonlama farovonlikni, balki jamiyatda adolat va barqarorlikni ham ta’minlaydi.

Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida davlatni boshqarish amallari, qoidalari va siyosiy-axloqiy munosabatlarni jamiyatda qaror toptirishga e’tibor qaratgan. Asarda davlatni idora etishda manfaat va mas’uliyat o‘rtasidagi nisbatni uyg‘unlashtirish, davlat boshqaruvi va xizmatini tashkil etish hamda tasniflash masalalari bayon qilingan. Jumladan, “Shohlikka da’vogarlar onadan ajib bir iste’dod bilan tug‘iladilar va ular darhol yaxshi-yomonni ajratish fitratiga ega bo‘ladilar. Bundaylarga Xudo idrok, farosat va yumshoq bir ko‘ngil ato etadi, qolaversa yaxshi ish yuritish o‘quvi bilan ham siylaydi”¹ deb ta’kidlanadi.

O‘rta asrlar mutafakkiri, davlat arbobi Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy – **Nizomulmulk** “Siyosatnoma” asari muhim manba hisoblanadi. U amaldorlarni axloqiy fazilatlariga qarab tanlash, adolat va insofni oyoq osti qiladigan kishilarni davlat ishlariga aralashtirmaslikni, davlatni boshqarishda kengash bilan olib borish, faoliyatlarni muntazam nazorat qilish, itoat, ijro va sifatlari to‘g‘risidagi qarashlari bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, Nizomulmulkning “Ko‘pchilik bo‘lib qabul qilingan tadbir eng savobli bo‘ladi va shunday yo‘l tutish kerak”² degan fikrlari davlat qurilishining adolatli tartibotlariga katta e’tibor berilganidan dalolatdir.

Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ma’naviy asoslarini o‘rganishda O‘rta Osiyoda vujudga kelgan tasavvufchilik oqimining ahamiyati ham alohida muhim o‘rin tutadi. Tasavvuf garchi islom bag‘rida nish urib, Qur‘on va hadislar hikmatidan oziqlangan, ko‘p hollarda shariat ahkomiga suyangan bo‘lsada, lekin u rasmiy diniy aqidaparastlik va mutaassiblikka hamda hokim tabaqalarning ayshu-ishratlarga berilishi, talonchilik va manfaatparastlikka zid o‘laroq, xalq manfaatlarini ifodalab keldi. Tasavvuf ta’limoti asosida adolat, haqiqat, to‘g‘rilik, mehr-shafqat, insof, iymon, e’tiqod, ilm, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi umuminsoniy g‘oyalarni targ‘ibot qiluvchi futuvvatga asoslangan bir qancha diniy, siyosiy oqimlar paydo bo‘ladi. Ular jamiyatning axloqsiz unsurlariga g‘oyaviy kuch sifatida qarshi qo‘yiladi.

Ijtimoiy-siyosiy tafakkur rivoji, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy sharti – qonun ustuvorligi tamoyilini amalda qo‘llash tajribasini davlat arbobi **Amir Temurning** (1336-1405) “Temur tuzuklari” asarida ko‘rish mumkin. Uning

¹ Yusuf Xos Xojib. Qutadig‘u bilig. -T.: Fan, 1971. - B. 329.

² Nizomulmulk. Siyosatnoma. - T.: Adolat, 1997. - B. 98.

tuzuklarida davlat tizimi, uni idora qilish uslublari va vositalari, undagi turli lavozim-vazifalar darajasi, tabaqalarning toifalanishi, davlat xizmatchilari rag‘batini tashkil etish omillari, adolatli soliq turlarining joriy etilishi, mamlakatni obodonlashtirish kabi tadbirlar bayon qilingan.

Asarda davlat boshqaruvida mashvaratu maslahat va tadbirkorlik bilan ish yuritish hamda bunda to‘rt narsaga amal qilish lozimligi haqida yoziladi: “1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) qat’iy qaror, tadbirkorlik va hushyorlik; 4) ehtiyotkorlik. Chunki kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari noto‘g‘ri bo‘lgan johil odamga qiyos qilish mumkin; uning aytgan so‘zlari va qilgan ishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltirgay.”¹.

Sohibqiron Amir Temur qonun ustuvorligi tamoyiliga etakchi e‘tibor qaratgan. Bosh qonunlar sifatida diniy ahkomlarni va ular asosida yozilgan fikrlarni bilgan. Shu ma’noda, Sohibqiron Amir Temurning quyidagilari yozadi: “Tajriba, - deb yozadi u, menga shuni ko‘rsatdiki, din va qonunga tayanmagan hukumat, o‘zining buyuk qudratini uzoq vaqt saqlab tura olmaydi. Uni har qanday yovuz kishi kirishi mumkin bo‘lgan na tomi, na eshigi, na panjaralari bor uyga o‘xshatish mumkin. Shuning uchun men o‘z saltanatimni islom arkonlari va boshqaruvda o‘zim qat’iy amal qiluvchi qonunlar asosida qurdim”.

Shu nuqtai nazardan, muvafaqiyatli boshqaruv qonuniyatiga ko‘ra, Amir Temur rahbarning adolatga tayanishini lozim topgan. Asarda ta’kidlanganidek: “Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafi yomonlar, buzruqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o‘zlariga loyiq ishlar topshirdim hamda hadlaridan oshishlariga yo‘l qo‘ymadim. Ulug‘larini va sharaf-e’tiborli kishilarni hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo‘lini to‘sdim”.

Komil insonlar jamiyatini haqidagi g‘oyalar **Alisher Navoiy** (1441-1501) siyosiy va adabiy faoliyati asosini tashkil etadi. Navoiy ideal ijtimoiy-iqtisodiy tuzum haqidagi qarashlarini “Saddi Iskandariy”, “Mahbub ul qulub”, “Payg‘ambarlar va donolar tarixi” va boshqa asarlarida bayon qilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzum muammolarini faqat adolatli hukmdor boshqarayotgan va qonun ustuvor bo‘lgan mamlakatda amalga oshishi mumkin.

Navoiy qarashlarida hukmdor shaxsi alohida ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir, bir tomondan hukmdor va bog‘bonni, boshqa tomondan davlat va bog‘ni solishtiradi. Unga ko‘ra, agar bog‘bon aqlli va mehnatsevar bo‘lsa, uning bog‘i gullab-yashnaydi. Huddi shunday agar mamlakatning aqlli, dono, adolatli, xalqi uchun qayg‘uradigan va uni sevadigan hukmdori bo‘lsa, u rivojlanib farovonlashadi.

Navoiy adolatli davlat boshqaruvining ma’naviy mezonlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Adolatli jamiyat shakllanishining asosiy omili sifatida Navoiy insoniy fazilatlar: adolatlilik, rahmdillik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, vatanparvarlik, vijdonlilik, insonparvarlik va jasoratni keltirib o‘tadi. “Mahbub ul qulub” asarida adolatsizlik va zulm davlatni tanazzulga, jamiyatni jaholatga olib kelishi to‘g‘risidagi qarashlari o‘z ifodasini topadi. Asarda ta’kidlanganidek: “...davlat ishi bilan mashg‘ul bo‘lgan amaldorlik chog‘larimda ko‘ngil mulkini turli odamlarning hujumi

¹ Temur tuzuklari. - T.: G‘ofur G‘ulom, 1991. - B. 14.

bulg'aladi. Goh amirlik o'rnida o'tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arz-dodini so'rdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qarab turgan elga muruvvat ko'rsatdim"¹.

Umuman olganda, Sharqda ijtimoiy adolat, ma'rifat va tenglik nafaqat nazariy me'yor, balki amaliy hayot me'yori, ijtimoiy-siyosiy muammolar yechimini topish va jamoa bo'lib yashashning asosi sifatida tushunilgan, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ma'rifat yo'li tanlangan.

Zamonaviy ko'rinishdagi demokratiya g'oyalari Turkistonda ma'rifatparvar jadidlar faoliyatida kuzatildi. Yevropada bo'lgani kabi Turkistonda ham o'rta asrlar feodal munosabatlar, dogma va an'analarga qarshi bo'lgan ma'rifatparvar g'oyaviy oqim sifatida xarakterlanadi. U progressiv kuchlarning mamlakatni feodal turg'unlik davridan olib chiqishga harakat qilgan va kurashganlarini aks ettiradi.

XX asr boshlarida yurtimizda jadidlar qiyofasidagi ijtimoiy-falsafiy g'oyalar fuqarolik jamiyatida ma'rifat qadriyatining shakllanishiga qaratilgan edi. M.Behbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat o'z davridan ilgarilab o'tib, fuqarolik jamiyati faqat mustaqil mamlakat doirasida amalga oshishi haqidagi xulosasini aytadilar. Bundan tashqari, ular, an'ana va urf-odatlar demokratlashuvga to'siq bo'lmasligini, aksincha, mavjud an'analarda doirasida amalga oshirilgan modernizatsiya, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishining muhim omili ekanligini asoslaydilar.

O'rta asrlarda G'arbda fuqarolik jamiyati uch ko'rinishda namoyon bo'ladi. Birinchisi Yevropa Uyg'onish davridagi italyan shahar-davlatlari bilan bog'liq. Bunda fuqarolik jamiyati shahar boshqaruvi tizimiga asoslangan, muayyan shahar doirasidagi, ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida xarakterlanadi.

Fuqarolik jamiyatining ikkinchi ifodasi kontinental Yevropa an'anasi bilan bog'liq. Bunda erkin fuqaroning paydo bo'lishiga birinchilardan bo'lib hunarmandlar va savdogarlar qo'shma gildiyasi, feodallardan himoyalovchi va shaharlarni boshqaruviga ta'sir qilgan birinchi uyushmalar sabab bo'lgan deb hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyatining uchinchi ifodasi Angliya va Amerikaga xos liberalizm an'analari bilan bog'liq bo'lib, zamonaviy talqinlaridagi fuqarolik jamiyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, fuqarolik jamiyati tabiiy huquq va erkinlik asosida mulkka egalik qilish g'oyasi (*Jon Lokk*), modernizatsiya va o'zini o'zi boshqarishi fuqarolik jamiyatining muhim komponentlari ekanligi (*Adam Smit*), minimal davlat konsepsiyasi, fuqarolik jamiyatida davlatning ta'sir choralari ko'rishdagi roli o'ta chegaralanishi (*Tomas Peyn*), Amerikada demokratiyasi haqidagi mulohazalar (*Aleksis de Tokvil*), davlat bilan munosabatlarda fuqarolik jamiyati mustaqil bo'lishi lozimligi (*Jon Styuart Mill*) kabilarni ko'rsatish mumkin.

Yevropa uyg'onish davri olimlardan biri italiyalik davlat arbobi **Nikolo Makiavelli** (1469-1527) "Hukmdor" nomli asarida bayon qilgan xulosalarga ko'ra, davlat jamiyatning siyosiy holatidir, unda hukmronlik qiluvchilar va bo'ysinuvchilar o'rtasidagi munosabatlar muassasalar va qonunlar asosida amalga oshadi. Fuqarolik jamiyati esa sinfiy, partiyaviy qarama-qarshi manfaatlar majmui.

Makiavelliga ko'ra, siyosiy faoliyatning va hulq-atvorning zaminida manfaat va kuch yotadi. Siyosatda ahloqqa emas, kuchga tayanmoq kerak. Yuksak maqsadlar

¹ A.Navoiy. Mahbub ul- Qulub. – T.: Fofur Fulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. - B. 12.

yo'lida ahloq omilini bir chekkaga surib qo'ysa ham bo'laveradi. Ushbu g'oya asosida siyosiy amaliyotda kuch ishlatish, ahloq normalarini inkor qilishga "makiavellizm" atamasi, "maqsad vositani oqlaydi" tamoyili yuzaga keldi.

XVII – XIX asrlarda Yevropada fuqarolik jamiyatiga doir g'oyalar evolyutsiyasi T.Gobbs, J.Lokk, Sh.Montesk'e, J-J.Russo, G.Gegel, I.Kant kabi o'z davrining atoqli olimlarining ilmiy faoliyati bilan bog'liq.

Tomas Gobbs (1588-1679) "Leviafan yoki materiya, forma va davlat hokimiyati" nomli asarida davlatning kelib chiqishi haqidagi xulosalarini bayon qiladi. Ingliz olimi antik davr mutafakkirlariga (Platon, Aristotelga) ergashib, jamiyat va davlat tushunchalarini tenglashtiradi. Uning fikriga ko'ra, insoniyat tarixida davlatning vujudga kelishigacha bo'lgan davrda odamlar hayotida tartibsizlik, boshboshdoqlik hukm surgan. Shu bois ham u davrda doim nizolar bo'lib turgan, lekin insonlar aqlli mavjudot bo'lganlari uchun bunday holatdan chiqish yo'lini topa olganlar. Ya'ni ijtimoiy shartnoma kelishuviga erishganlar. Unga ko'ra odamlar o'z huquqlarini monarxga berib, unga bo'ysinish evaziga tartib va qonunlarni olganlar. Shu tarzda davlat kelib chiqqan.

T.Gobbs xulosalariga ko'ra, davlat bo'lmagan joyda urush, qo'rquv, qashshoqlik, yolg'izlik, yovvoyilik, jaholat, davlatda – oqilonalik, xavfsizlik, boylik, tartib, bilim va olijanoblik hukm suradi.

Ingliz olimi **Jon Lokk** (1632-1704) "Davlat boshqaruvi to'g'risida ikki traktat" nomli asarida fuqarolik konsepsiyasi asoslab bergan. Olimning qarashlariga ko'ra, davlat odamlardan siyosiy hamjamiyatni ta'minlash uchun kerakli miqdorda hokimiyat oladi. Davlatda hech kim va hech narsa qonun va qonunchilikdan tashqarida bo'lishi mumkin emas. Aynan qonun shaxs erkinligini ta'minlash va kengaytirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, J.Lokk huquqiy davlatning bosh elementi bo'lgan hokimiyatning bo'linishi nazariyasining asoschisi hisoblanadi. Unga ko'ra, hokimiyat tarmoqlarga (qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarga) bo'linishi zarur. Uning fikricha, har qanday davlat formasi ijtimoiy shartnomaga ya'ni, odamlarning ixtiyoriy kelishuviga asoslangan holda shakllanishi lozim. Davlat odamlarning tabiiy huquq va erkinliklarini himoya qilishi zarur.

Inliz olimi birinchilardan bo'lib davlat va jamiyat bir-biridan mustaqil ikki institut ekanligini asoslab berdi. Liberalizm asoschisi J.Lokk shaxsni jamiyat va davlatdan, erkinlikni – boshqa qadriyatlardan ustun qo'ygan. U erkinlikni davlatning aralashuvidan xoli holat sifatida tushungan.

J.Lokk fikricha, odamlar asosan o'z mol-mulkidan tinch va xavfsiz foydalanish maqsadida jamiyatga qo'shiladilar, bunda mazkur jamiyatda qabul qilingan qonunlar buning asosiy quroli va vositasi bo'lib xizmat qiladi. Uning xulosalariga ko'ra, fuqarolik jamiyatiga birlashish – bu qulay, tinch va farovon hayot kechirish, o'z mol-mulkidan xotirjam foydalanish va o'zini mazkur jamiyat a'zosi bo'lmagan odamlarga qaraganda xavfsizroq his qilish uchun boshqalar bilan kelishish demakdir.

Fuqarolik jamiyati tushunchasining liberal talqini Tomas Gobbs va Jon Lokk davrida yaratilgan. "Fuqarolik jamiyati" tushunchasini ular kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanishini, insonning tabiiy mavjudlikdan ma'rifatli hayot tarziga o'tishini aks ettirish uchun ilmiy muomalaga kiritgan.

Fransuz mutafakkiri **Sharl Lui de Montesk'e** (1689-1755) “Qonunlar ruhi haqida” nomli asarida davlat va uning siyosiy, huquqiy institutlari kelib chiqishining hamda davlat boshqaruvining o‘ziga xos ilmiy asoslari bayon qilingan. Olimning fikricha, huquqning ustuvorligini faqat hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi tamoyili asosida ta’minlash mumkin.

Fransuz mutafakkiri **Jan-Jak Russo** (1712-1778) “Ijtimoiy shartnoma yoki siyosiy huquq prinsiplari” nomli asarida fuqarolik jamiyatiga doir ijtimoiy konsepsiyani ilgari surgan. Unga ko‘ra, ijtimoiy munosabatlarda asosiy o‘rinni alohida olingan odam emas, balki guruhlar ya’ni sinflar egallaydi. J.-J.Russo fikrlariga ko‘ra, odamlarning o‘zi davlatni tashkil qiladilar va ayni paytda ular davlatning mahsuli hisoblanadilar.

Davlat, oila, qabila, millat, diniy va boshqa birliklardan farqlanuvchi “fuqarolik jamiyati” kategoriyasi XVIII-XIX asrlarda tadqiqot predmetiga aylandi. Nemis olimi **Georg Gegel** (1770-1831) “Huquq falsafasi” asarida fuqarolik jamiyatiga kundalik ehtiyojlarini mehnat yordamida qondiruvchi individlar majmui deb qaraydi. Jumladan, fuqarolik jamiyati tushunchasiga shaxslarning ehtiyoji va mehnat taqsimoti tizimi, ularning adliya (huquqiy tartibot muassasalari), tashqi tartib (politsiya va korporatsiyalar) orqali o‘zaro munosabatlarga kirishishi deb ta’rif beradi¹.

Uning xulosalariga ko‘ra, fuqarolik jamiyati davlatga nisbatan mustaqil bo‘lgan shaxsiy manfaatlar jabhasi bo‘lib, ijtimoiy tuzum, mehnat taqsimoti va mulk shakllariga bog‘liqdir. Davlat esa insonni har xil tasodiflardan himoya qiladi, adolatni ta’minlaydi, umumiy manfaatlarni ro‘yobga chiqaradi.

G.Gegel fikricha, fuqarolik jamiyatining negizi – xususiy mulkdir. Fuqarolik jamiyati – bu, avvalo, xususiy mulkka asoslangan ehtiyojlar tizimi, shuningdek, din, oila, tabaqalar, davlat qurilishi, huquq, axloq, burch, madaniyat, maorif, qonunlar va ulardan kelib chiquvchi sub’ektlarning o‘zaro huquqiy aloqalari.

G.Gegel qarashlarida odamlar tabiiy, “nomadaniy” holatdan “fuqarolik jamiyatiga kirishlari lozim, chunki faqat shu jamiyatda huquqiy munosabatlar haqiqiy xususiyat kasb etadi”². Boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyati yovvoyilik, qoloqlik, ma’rifatsizlikka qarshi qo‘yiladi.

Fransuz olimi **Immanuel Kant** (1724-1804) fuqarolik jamiyatini konseptual tushunishga harakat qilgan. I.Kant fuqarolik jamiyatini butun insoniyat uchun uy deb bilgan. Bu jamiyatda har bir inson xatti-harakati oliy axloqiy qonun – qat’iy imperativ bilan belgilanadi³.

Shuningdek, **Jon Milton** (“So‘z erkinligi haqida”), **Benedikt Spinoza** (“Ilohiy-siyosiy traktat”), **Anri Fergyson** (“Fuqarolik jamiyati tarixi haqida xatlar”) va boshqa bir qator mutafakkir olimlar o‘z asarlarida fuqarolik jamiyati konsepsiyasini yanada boyitdilar. Ularda fuqarolik jamiyatining asosiy sub’ekti bo‘lgan fuqaroning butun salohiyatini yuzaga chiqarish uchun zarur bo‘lgan prinsipial g‘oyalar ilgari surilgan.

¹ Qarang: Гегел Г. Философия права. – М.: Мысль, 1990. – С. 227.

² Гегел Г. Работы разных лет. Том 2. – М., 1973. – С. 50.


³ Саидов А.Х. Философско-правовое наследие Иммануила Канта и современная юриспруденция. – Т.: Патент-Пресс, 2008. – С. 128.

Umuman olganda, Yevropada fuqarolik jamiyati uzoq tarixiy davr davomida transformatsiyalashib kelgan tushuncha bo'lib, o'rta asrlarida davlatdan mustaqil institut ekanligi haqidagi umimiy qarashlar shakllandi.

Fuqarolik jamiyatini tadqiq etishning timsollariga aylangan yangi mezonlardan biri sifatida XX asrda g'oyaviy asoslar namoyon bo'ladi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda fuqarolik jamiyatining quyidagi g'oyaviy-falsafiy doktrinalari ko'rsatiladi:

- "byurokratik davlat sotsializmi doktrinası";
- "avtoritar davlat kapitalizmi doktrinası";
- "demokratik sotsializm doktrinası";
- liberal-demokratik, "bozor demokratiyası".

Fuqarolik jamiyati g'oyasining qayta jonlanishida jamiyatni davlatlashtirishga, jamiyat hayotida davlat roli va ta'sirining favqulodda o'sishiga qarshi harakatni ko'rish mumkin. Shuningdek nodavlat sohaning ijtimoiy-siyosiy faolligi va o'z-o'zini tashkillashtirish ahamiyati yuzasidan, eng muhim segmentlar ajratiladi: liberal an'ana konsepsiyasi; amerikanacha kommunitariz konsepsiyasi; yevropacha neokonservatizmi konsepsiyasi; post-marksistcha konsepsiya.



Fuqarolik jamiyatining liberal an'ana g'oyasi umuman olganda yangi narsa emas. Fuqarolik jamiyati haqidagi tasavvurlar mumtoz ingliz liberalizmi davrida ishlab chiqilgan edi. Fuqarolik jamiyati konsepsiyasining amerikacha madaniy va tarixiy o'zgida "respublikachilik" g'oyasi yotadi. U XX asrdagi o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi ijtimoiy uyushtirishga asoslangan teng huquqli fuqarolar tomonidan tashkil etilgan amerika kommunalari, ya'ni lokal birlashmalarining uyg'un va faollikdagi ijtimoiy-siyosiy hayoti haqidagi tasavvurlarga asoslandi.

Mazkur kommunalar o'z-o'zini tashkillashuvi o'ziga xos fuqarolik jamiyati tipii bilan qo'llab-quvvatlangan, bu haqda batafsil A. de Tokvil yozadi. Demokratik madaniyat bunda kommunal o'zaro hamkorlik va sherikchilik qadriyatlarini, shuningdek xristian axloqi qadriyatlarining yuqori darajadagi amaliyoti bilan farqlanadi. Shuning bilan birga, kommunitaristik loyiha tarafdorlari kuzatganidek, jamoaviy qadriyatlar individual qadriyatlardan ustun bo'lib, individlar o'zaro ishonch va hamkorlik muhitida o'z qiziqishlarini uyushma qiziqishlariga bo'ysundirishga tayyor bo'lgan.

Klassik marksizm zamonaviy diskursning alohida konseptual yo'nalishi sifatida fuqarolik jamiyatini kelib chiqishini, jamiyatning feodal-aristokratik paternalistik tizimi o'rniga kommersiya kapitalizmi davridagi iqtisodiy partikulyarizmi bilan bog'lagan. Biroq Marks unda individual erkinlik va avtonomiyani emas, sinfiy

jamiyatdagi notenglikni, erksizlik va ijtimoiy-iqtisodiy begonalashuvni bекituvchi, tashqi shaklni ko'rgan xolos.

Keyinroq esa postmarksistik loyiha doirasida amal qiluvchi nazariyotchilar, fuqarolik jamiyati g'oyasini qaytadan ko'rib chiqishga harakat qilgan. Shunday qilib, postmarksistik tushunishda, u quyidagicha asoslanadi "oxirgi vaqtlarda paydo bo'layotgan, jamiyatning, erkin ehtiyoriy assotsiatsiyalari, shuningdek, huquqiy va ommaviy institutlari doirasida amalga oshiriluvchi jamoaviylikning nomumtoz shakllari, nafaqat davlat doirasidan, balki kapitalistik bozor iqtisodiyoti chegarasidan ham chiqib ketmoqda". Bu yerda diqqat markazida, birinchidan, davlat-byurokratik mashinasining, umumiy manfaatlar davlati sharoitida, ta'sir doirasining kengayishi, ikkinchidan, jamiyatga transmilliy korporatsiyalar va globallashuv davrining markazlashgan iqtisodiyoti tomonidan bo'lgan havfi turadi.

AQSh olimi **Immanuel Vallersteyn** (1930 yilda tug'ilgan) fikricha, fuqarolik jamiyatini shakllanishi uchun kuchli davlat bo'lishi zarur, chunki bu kabi davlatning qo'llab-quvvatlashisiz fuqarolik jamiyati rivojlana olmaydi. Ma'lumki, fuqarolik jamiyati davlat bilan bilvosita siyosiy munosabatlarga kirishish, davlat tomonidan qonuniylashish asosida fuqarolarning jamiyatdagi keng ishtiroki asosida yashaydi.

Fuqarolik jamiyati insoniy sivilizatsiyaning eng yuqori cho'qqisi bo'lgani holda, u liberal davlatlarni shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratib berdi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati davlat tomonidan yashirin yoki oshkora tus oladigan halokatli zo'ravonlikni to'xtatib qolish, yoki, pastdan bo'ladigan xavfli va sinfiy o'zboshimchaliklarni bostirishning omili sifatida ham namoyon bo'ldi. Ammo davlat tanazzulga yuz tutgani sari fuqarolik jamiyati muqarrar ravishda tarqoqlikka yuz tutishga moyil bo'lib boradi, deb xulosa chiqargan edi I.Vallersteyn¹.

Sasseks universiteti (Buyuk Britaniya) professori **Ishtvan Messarosh** (1930 yilda tug'ilgan) "Begonalashishning marksizm nazariyasi" nomli kitobida fuqarolik jamiyati faqat xristian olamida o'zining mukammal darajasiga erishadi, deb yozdi. Xristianlik dini sharoitida fuqarolik jamiyati o'zini davlat hayotidan masuvo tutadi, bunda insonni xudbin sifatida namoyon bo'lishiga sharoit tug'iladi, va u yolg'izlik va qarama-qarshi kuchlar dunyosida ko'zga ko'rinmay ketadi. J.-J.Russo va A.Fergysonni tanqid qilgan I.Messarosh uchun fuqarolik jamiyati – bu xususiy mulk tayanchi, xudbinlik zarurati va pul ustunligi bilan ifodalanadigan qullikning zamonaviy shaklidir.

D.Markush (1934 yilda tug'ilgan) "Ehtiyojlardan ustun diktatura" kitobida sotsial-liberalizm va G'arb sotsial-demokratiyasi dunyoqarashini qabul qilgan, shuningdek bozor iqtisodiyoti va huquqiy davlat prinsiplarini himoya qildi. Olim Sharqiy Yevropa mamlakatlarining G'arbiy Yevropa bilan yaqinlashuvi iqtisodiy muammolarni hal etishga yordam bermaydi, balki, ular fuqarolik jamiyati konsepsiyasini obro'sizlantiradi, aql-zakovat egalari bilan oddiy aholi o'rtasida tengsizlikni murakkablashtiradi, ma'naviy keskinlikni kuchaytiradi, o'rtada katta tafovutlarni yuzaga keltiradi, deb yozgan edi.

Frankfurt maktabining yirik bir vakili **Gerbert Markuze** (1898-1979 yy.) "Bir o'lchamli odam" kitobida jamoa va shaxs psixologiyasini o'rganishga e'tibor qaratgani holda jamiyat qanday tarzda shaxsni o'zgartirishi mumkinligi to'g'risida tadqiqot olib

¹ Валлерстайн И. Конец знакомого мира: Социология XXI века. - М.: Логос, 2003. - 368 с.

boradi. Olim inson uchun jamiyat sinfiylilikni yuzaga keltiradi, unda niqoblangan yangicha totalitarizm hukm suradi, insonlar bir yoqlama fikrlay boshlaydi, ommaviy axborot vositalari har bir shaxs ongiga yolg'on va keraksiz axborotlarni tiqishtiradi, deb yozadi. Uning fikricha, "kapitalizmni rivojlantirishning yuqori bosqichida jamiyat cheklangan plyuralizm tizimidan iborat bo'lib, undagi institutlar shaxs ustidan hukmronlikni mustahkamlashga xizmat qiladi"¹.

Amerikalik sotsiolog, axborot jamiyati nazariyasi asoschisi **Deniel Bell** uchun (1919-2011 yy.) sanoatlashuvdan keyingi jamiyat hokimiyat meritokratiyasi², ya'ni siyosiy darajada maslahatchilar, ekspert yoki texnokratlardan iborat bo'lgan intellektual sinfning paydo bo'lishini nazarda tutadi. D.Bellning fikricha, Fuqarolik jamiyati ichida intellektual tabaqalashuv ro'y beradi. Bunday tabaqada aqliy mehnatga nisbatan salohiyati past odamlar jamiyatning eng quyi pog'onasida qolib ketadi. Bundan tashqari, axborotning nihoyatda ustuvor ahamiyat kasb etishi fuqarolik jamiyati uchun o'ziga xos xususiyatga aylanadi. jamiyatni axborot bilan ta'minlash siyosatda ishtirok etishga qobil bo'lgan boshqaruv tizimi samaradorligini yetarli darajada ta'minlaydigan "vakolatli fuqaro" konsepsiyasiga mosdir.

Amerikalik sotsiolog va futurolog, sanoatlashuvdan keyingi jamiyat konsepsiyasi mualliflaridan biri **Elvin Toffler** (1928 yilda tugilgan) "yaqin kelajakda tashkil etilishi rejalashtirilayotgan institutlarda diniy va shunga o'xshash guruhlar, global korporatsiyalar, atrof-muhit va inson huquqlarini himoya qilish harakatlari va boshqa shakldagi fuqarolik jamiyatlari qay darajada ifodalanadi?" degan savolni o'rta tashlaydi³. "Fuqarolik jamiyatining faoliyat yuritishi uchun keragidan ortiq narsalarni majburan qabul qildirishga va tuzumni abadiylashtirishga qaratilgan tartibotlar bema'nilikdan boshqa narsa emas. Bizni kelajakda hokimiyat uchun global kurashlar kutmoqda, ammo uning asosini zo'ravonlik yoki pul emas, balki zamonaviy bilimlar tashkil qiladi", - deb yozadi E.Toffler.

Amerikalik olim **Frensis Fukuyama** fuqarolik jamiyati to'g'risida quyidagi fikrni bildiradi: "demokratik institutlar sog'lom fuqarolik jamiyatiga suyangani kabi, fuqarolik jamiyati ham o'z navbatida, madaniy darajada o'z o'tmishdoshlari va shart-sharoitlariga ega bo'ladi". Zamonaviy demokratik davlatda fuqarolik jamiyatining an'anaviy siyosiy hamda iqtisodiy liberal doktrinaga xos bo'lgan tarqoq shaxsiyaparast shaxslarni tenglashtirishi yoki cheklashga qodirligi uning ahamiyati va madaniyati darajasini belgilab beradi. Olimning fikricha, haqiqiy kurash aynan fuqarolik jamiyati va madaniyat darajasi o'rtasida ro'y beradi⁴.

Germaniyalik olim, "releksiv modernizatsiya" va "tavakkalchilik jamiyati" konsepsiyasi muallifi **Ulrix Bek** (1944 yilda tug'ilgan) o'rta sinf bilan fuqarolik jamiyatining o'zini o'zi tashkil etishining o'zaro uzviy bog'liqligi haqida so'z yuritib shunday deb yozadi: "Faqat uy-joyi, doimiy ishonchli ishi va kelajagi moddiy ta'minlanadigan odamlargina demokratik qadriyatlarni o'zlashtirish va demokratiyaga

¹ Маркузе Г. Эрос и цивилизация. - М., 1999. - С. 43-47.

² Meritokratiya ("munosiblar yoki loyiqlar hokimiyati", lotincha. meritus - munosib va yunoncha κρατος - hokimiyat, boshqarish) – rahbarlik mansablarini ijtimoiy holati yoki kelib chiqishi yoki moliyaviy ahvoli qanday bo'lishidan qat'iy nazar aqli va dono odamlar egallashi lozimligi.

³ Тоффлер Э. Метаморфозы власти. - М.: АСТ, 2002. -Т.2. - С. 566.

⁴ Фукуяма Ф. Конец истории и последний человек. - М.: Ермак, АСТ, 2005. - С. 46.

hayot bag‘ishlashga qodir fuqarolar hisoblanadi”¹.

Zamonaviy tranzitologiyaning yirik vakili, amerikalik olim **Jeffri Saks** fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun yuqori sifatli ta’lim, sog‘liqni saqlash va yaxshi ovqatlanishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kuchli va samarali dasturlar zarurligini yoqlaydi. Uning fikricha, bularning barchasi – dastlab Skandinaviya davlatlari o‘zlashtirgan “sotsial demokratiya” falsafasining amalga oshirish natijasidir. Bu g‘oya ham oddiy, ham kuchlidir: barcha odamlar yaxshi yashash imkoniyatiga ega bo‘lishga munosibdir va jamiyat ularning har biriga bu g‘oyani ro‘yobga chiqarishga yordam berishi lozim.

Umuman, hozirgi zamon ilg‘or demokratik mamlakatlar jamiyatshunos olimlarining fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi nazariy qarashlari bir tizimga keltirilsa, u holda fuqarolik jamiyati bu - jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma’naviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasi bo‘lib, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli organlar tazyiqlari, aralashishlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyatidir, unda ular o‘zligini namoyon qila olishlari uchun barcha imkoniyatlarga ega bo‘ladilar.

1.3. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishining konseptual asoslari

Mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat barpo etish, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi ta’minlanadigan fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirish strategik maqsad sifatida belgilangan.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda demokratik qonunchilik tamoyillari qaror topdi, fuqarolik institutlarining huquqiy kafolati rivojlanmoqda, milliy g‘oya hayotimizda muhim ahamiyat kasb etdi. Fuqarolik jamiyati zaminlarini barpo etish jarayonlari **“Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari”** tamoyili asosida izchil amalga oshirilmoqda.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy mezonlaridan biri - bu uning huquqiy negizini yaratishdan iborat bo‘lganligi bois, birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini o‘rnatishga, uning asosiy qoida va talablarini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi huquqiy normalarining o‘z ifodasini topishiga alohida e’tibor berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining asosiy qoida va talablarini aks ettiruvchi normalar mustahkamlab qo‘yilgan. Masalan, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’ul ekanligi (2-modda), xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai hisoblanishi (7-modda), O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanishi (11-modda), O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi

¹ Бек У. Что такое глобализация? - М.: Прогресс-Традиция, 2001. - С. 115.

sifatida o‘rnatilishi mumkin emasligi (12-modda) kabilarda fuqarolik jamiyatining prinsipial masalalari aks etgan¹.

Mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha Konstitutsiyamizda qayd etilgan asosiy prinsiplar va normalar asosida davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini isloh etish, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligini ta‘minlash, saylov huquqi erkinligini ta‘minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha tadrijiy islohotlar amalga oshirildi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish va rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni uch bosqichga bo‘lish mumkin:

Birinchi bosqich o‘z ichiga 1991-2000 yillarni qamrab oladi. Bu davrda, birinchi navbatda fuqarolik jamiyatining asoslari yaratildi.

Ikkinchi bosqich 2000-2010 yillarda mamlakatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash bo‘yicha faol jarayonlar davom ettirildi.

Uchinchi bosqich 2011-2016 yillar. Bu davrda fuqarolik jamiyati qurishga doir huquqiy asoslar rivojlantirildi, fuqarolik jamiyatining ijtimoiy tayanchi – o‘rta ijtimoiy qatlam yanada mustahkamlandi.

To‘rtinchi bosqich 2017 yilda boshlanib, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning amaliy jihatlarini namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda fuqarolik jamiyati qurish g‘oyalari “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” va “O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasi”da yanada rivojlantirilib, bu sohadagi tub burilish davrini boshlab berdi. Bu bosqichda fuqarolik jamiyati shiddat bilan rivojlanib, o‘zini har tomonlama namoyon eta boshladi. Bu davrda Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar mazmuni yangi bosqich boshlanganidan dalolat bermoqda.

Mustaqillik yillarida tadrijiy taraqqiyot yo‘liga doir g‘oyalar asosida O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishning o‘ziga xos ilmiy va amaliy asoslari shakllantirildi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov qayd etganidek: “O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat. Bu - mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu – insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, siyosiy e‘tiqodlaridan qat’iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta‘minlab beradigan davlatdir. Xalq davlat hokimiyatining manbaidir. Uning xohish-irodasi davlat siyosatini belgilab beradi. Bu siyosat inson va jamiyatning farovonligini, O‘zbekiston barcha fuqarolarining munosib turmushini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak”².

Taraqqiyotning “o‘zbek modeli” asosida demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining institusional zaminlarini shakllantirish quyidagilardan iborat deb belgilandi:

- Davlat hokimiyatining uchga bo‘linishi prinsipiga asoslanish;

¹ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018. – B. 4-6.

² Karimov I.A. O‘zbekistoning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. – T.: O‘zbekiston, 1992. – B. 15-16.

- Demokratik konstitutsiyaning qabul qilinishi va qonun ustuvorligi tamoyilini ro'yobga chiqaruvchi mexanizmlarini yaratilishi;
- Erkin demokratik saylov tizimini kafolatlanishi;
- Davlat va jamiyat boshqaruvini amalga oshirishda kuppartiyaviylik tizimining yaratilishi;
- Jamoat birlashmalari va nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati yo'lga qo'yilishi;
- Fuqarolar o'z-o'zini boshqarish institutlarini rivojlantirilishi;
- Fuqarolar huquq va erkinliklarini, manfaatlari va ehtiyojlarini ta'minlashning samarali zaminlarini vujudga keltirilishi, ularni fuqarolik jamiyatini shakllantirish manfaatlaridan kelib chiqqan holda barpo etilishi.

Taraqqiyotning "o'zbek modeli"ning mohiyati asosiy g'oyalari dastlab Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" nomli asarida ochib berilgan edi. Keyinchalik mazkur taraqqiyot modelining asosiy mazmuni va o'zagini belgilab beruvchi tamoyillar "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li", "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish yo'lida" nomli asarlarida yanada rivojlantirildi.

Birinchi Prezident I.A.Karimov fuqarolik jamiyati nazariyasi va amaliyoti har bir mamlakat milliy qadriyatlari, xalqning milliy mentaliteti va milliy an'analarini o'zida ifodalashi zarur, deb hisobladi. Shu bois fuqarolik jamiyatining O'zbekiston uchun o'ziga xos quyidagi jihati ilgari surilgan edi: "Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi. Ya'ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush, xatto fojiali natijalarga olib keladi"¹.

Mamlakat birinchi Prezidenti I.A.Karimovning fuqarolik jamiyatiga doir nazariy qarashlari uning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida bayon qilindi. Bu asarda yangi jamiyat qurish muammolari «shaxs-jamiyat-davlat» o'zaro uygunligi asosida tahlil etiladi. Muhimi, davlat shaxs va jamiyat manfaatlari asosida faoliyat yuritadigan siyosiy institut ekanligi, u doimo jamiyatni rivojlanishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlardan farovon bo'lishi hamda barqarorligi uchun mas'ulligi yuqori darajaga ko'tariladi.

Asarda ta'kidlaganidek: "Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart"².

¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. -T.: O'zbekiston, 1996. – B. 9.

² Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. – T.: O'zbekiston, 1998. – B. 151.

Mamlakatda fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan demokratik siyosiy tizimning o'ziga xos xususiyatlari, uning demokratik tamoyillarini rivojlantirish masalalari birinchi Prezident I.A.Karimovning birinchi va ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning sessiyalaridagi (1995-2004 yillar), shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi (2005 yil 28 yanvar) ma'ruzalari **«Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari»** konseptual siyosiy dasturning asosini tashkil etdi.

«Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilini amalda hayotga joriy etish maqsadlari xususida birinchi Prezident I.A.Karimov quyidagi vazifalarni ilgari surdi: “Hammamizga ayonki, bu yo'nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni taqozo etadi. Buning uchun, avvalambor, davlatning iqtisodiy sohaga, xo'jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash lozim... Hayotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining yana bir muhim yo'li - markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlashdir”¹.

Mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish maqsadlarida davlat hokimiyatining aksariyat vakolatlarini mahalliy hokimiyat organlari va o'zini o'zi boshqarish organlariga berish jarayonlari boshlandi. Markaziy davlat hokimiyati tasarrufida esa asosan, faqat konstitusion tuzumni, mamlakatning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish, huquq-tartibot va mudofaa qobiliyatini ta'minlash, inson huqukdari va erkinliklarini, mulk egalarining huquqlarini, iqqisodiy faoliyat erkinligini himoya qilish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, samarali tashqi siyosat olib borish kabi vakolatlarni qoldirish ko'zda tutilgan.

Birinchi Prezident I.A.Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqida (2010 yil 12 noyabr) mamlakatimizda islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini taqdim qildi. Jumladan, parlament va jamoatchilik nazorati institutini rivojlantirish, jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash borasida bir qator takliflar ilgari surildi².

So'nggi yillarda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi³ mamlakatimiz taraqqiyotini yanada yuksak sifat darajasiga ko'tarishga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda islohotlar strategiyasi izchillik bilan davom ettirilgan holda, barcha soha va tarmoqlarda milliy taraqqiyotni yanada jadallashtirish jarayoni kechmoqda. Demokratik islohotlarning konseptual asosini o'zida ifodalagan **“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”** konseptual g'oyasi xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish hamda fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining real himoya qilinishini anglatadi.

¹ Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan xamkorlik yo'li. T.11. – T.: O'zbekiston, 2003. – B. 27-29.

² Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2010. – B. 41-43.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida /Rasmiy nashr. – T.: Adolat, 2018. – 112 b.

Jamiyatning barcha sohalarini modernizatsiyalashga qaratilgan mazkur dasturda asosiy e'tibor, eng avvalo, davlat va jamiyat qurilishini tubdan isloh qilishga qaratildi. Shuning uchun davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish birinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilab olindi va "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" konsepsiyasi qoidalarni to'liq o'zida aks ettirdi. Jumladan, davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning roli oshirilib, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish va ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlari yanada kengaytirildi, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning roli kuchaytirildi, "Elektron hukumat" tizimi takomillashtirildi, davlat xizmatlari ko'rsatishning sifati oshirildi, jamoatchilik boshqaruvi tizimi yangilandi, xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlari joriy etildi, shuningdek mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati takomillashtirildi.

Harakatlar strategiyasida Prezident Sh.M.Mirziyoyev ilgari surgan "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" – prinsipini ijtimoiy siyosiy hayotda amalga oshirishga doir dasturiy maqsadlar mujassamlashgan. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining joylarda ishlarning holatini o'rganish va xalq bilan muloqot qilishga doir faoliyatini tubdan takomillashtirishga oid Oliy Majlis palatalari Kengashlarining qo'shma qarori loyihasini ishlab chiqish, unda hududlardan saylangan deputat va senatorlar har oyda 10-12 kun davomida bir tumanda bo'lib, davlat hokimiyati organlari faoliyatini o'rganib, tahlil qilishi, tegishli rahbarlarning hisobotini xalq deputatlari Kengashlari sessiyasi muhokamasiga kiritishi hamda tegishli xulosalar berishi, shuningdek Qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisi ishtirokida o'rganish natijalari bo'yicha tegishli xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarini o'tkazish, Oliy Majlis Senati tomonidan har bir viloyatda navbatma-navbat namunaviy xalq deputatlari Kengashlari ishini tashkil etish kabi amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 dekabrda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir choratadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek har bir tuman va shaharda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari tuzilishi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi ishga tushirilishida ko'rish mumkin.

Farmonda ularning aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilishga qaratilgan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning sifat jihatidan yangi va samarali tizimi faoliyatini ta'minlash, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, Oliy Majlisga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga, Hukumatga, davlat boshqaruvi organlariga, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, boshqa davlat tashkilotlariga va xo'jalik boshqaruvi organlariga murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqlarining so'zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratilmoqda. Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan hamda

tegishliligi bo'yicha davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlariga yuborilgan murojaatlar ko'rib chiqilishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirilmoqda.

Harakatlar strategiyasi loyihasining bir oy aholi va keng jamoatchilik tomonidan muxokama qilinishi, uni shakllantirishda olimlar, tadbirkorlar, barcha fuqarolarning taklif va tavsiyalarini inobatga olinishi, ularni mehnat jamoalarida keng muhokama qilinishi xalqimizning huquqiy va siyosiy ongini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu chora-tadbirlar o'z o'rnida loyihaning aholining real manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda takomillashtirishga imkon yaratdi.

Harakatlar strategiyasi umumjahon amaliyotida sinab ko'rilgan taraqqiyot dasturlarida nazarda tutilgan maqsadlari, amalga oshirish muddati kabi jihatlari, qo'llash mexanizmlari bilan ulardan farq qiladi: *birinchidan*, ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirish bilan bog'liq vaqt omilining aniq va ravshan tarzda qo'yilishi; *ikkinchidan*, bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini huquqiy va iqtisodiy asoslarini oldindan yaratilishi, modernizatsiya jarayonini moliyalashtirish manbalarini belgilanishi, mamlakatdagi milliy shart-sharoitlarni e'tiborga olinishi v.h. Mamlakatni modernizatsiyalashga oid davlat dasturlarida ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda mamlakatning ichki imkoniyatlari, shu bilan birga, xalqaro maydonda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar ham hisobga olingan. Hozirgi davrda xalqaro munosabatlarning berqaror, tez o'zgaruvchan, yaxshi muvozanatlashmagan xususiyatlar kasb etib borayotganligi hisobga olingan holda "Harakatlar strategiyasi" qisqa muddatli taraqqiyot dasturi sifatida qabul qilinishi uning istiqbolli va samarali strategik maqsad ekanligini ifodalaydi.

O'tgan davrda mamlakatimizning har tomonlama va jadal rivojlanishida fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini tubdan oshirish, ularning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan hamkorligini kuchaytirish maqsadida huquqiy asoslar takomillashtirildi. Jumladan, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi (yangi tahrirda – 2017 yil 11 sentabr), "Toshkent shahar xalq deputatlari tuman Kengashlariga saylov to'g'risida"gi (2017 yil 29 avgust), "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi (2018 yil 12 aprel), "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi (2018 yil 15 oktabr) qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 fevraldagi "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018 yil 4 maydagi "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari qabul qilindi.

Prezident Sh.Mirziyoyev 2017 yilni yurtimizda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qildi. Bundan maqsad, mamlakatdagi demokratlashtirish jarayonlari samaradorligi va sifatini tubdan yaxshilash, fuqarolarning erkinliklari, huquqlari, munosib turmush tarzi va manfaatlarini ta'minlash, bunda davlat idoralari mas'uliyatini kuchaytirish, xalq bilan ochiq muloqotlarni yo'lga qo'yishda yangi samarador vositalar va usullarni joriy etish, **"Inson manfaatlari — barcha narsadan ustun"** shiori ostida ish olib borish hisoblanadi. Xalq qabulxonalarining barcha hududlarda ish boshlagani, xalq bilan keng miqyosda muloqot olib borilayotgani davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiq-oshkoraligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Zero, fuqarolar

ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o'z kundalik hayoti misolida biladi, qabul qilinayotgan qonunlar, davlat dasturlari ta'sirini ro'y berayotgan o'zgarish va yangilanishlar orqali teran anglab yetadi.

O'zbekiston o'tgan davr ichida davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish, iqtisodiyotni liberallashtirish, mulkdorlar ijtimoiy qatlami uchun qulay huquqiy va moliyaviy shart-sharoitlar yaratish, innovatsiyalar va investisiyalarni mamlakatga kirib kelishini rag'batlantiradigan, rivojlangan davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan qisqa muddat ichida e'tirof etilgan davlat sifatida o'zini namoyon qila boshladi. Albatta, bu holat davlatimizni fuqarolik jamiyati sari jadallik bilan intilayotganligini anglatadi. Ma'muriy islohotlarni samarali amalga oshirishning pirovard natijasida "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" g'oyasi hayotga to'liq tatbiq etilmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslari takomillashtirilmoqda, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazorati institutlarning jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning ta'biricha bugungi kunda jamiyatning barcha sohasida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning asosiy maqsadi xalqni rozi qilish, ularga maqbul shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat.

Nazorat uchun savollar:

1. "Fuqarolik jamiyati" tushunchasiga ta'rif bering.
2. "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" fanining ob'ekti va predmeti nima?
3. Fanning maqsadi va vazifalari, qonuniyatlarini aytib bering.
4. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishining bosqichlarining xususiyatlariga izoh bering.
5. "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" konseptual g'oyasini qanday tushunasiz?

2-BOB. HARAKATLAR STRATEGIYASI – O'ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTI YANGI BOSQICHINING ASOSI

Reja:

1. **Strategiya tushunchasi va uning nazariy asoslari.**
2. **Davlat strategiyasining tizimli boshqaruv omillari.**
3. **O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichi.**

O'quv mashg'ulotining maqsadi: "Strategiya" tushunchasi va uning nazariy asoslari, davlat strategiyasining tizimli boshqaruv omillari, O'zbekiston milliy taraqqiyoti yangi bosqichida fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari haqidagi bilimlarni rivojlantirish.

Tayanch iboralar: rivojlanish, innovatsiya, islohot, strategiya, taktika, tamoyil, davlat va jamiyat qurilishi, davlat idoralari, qonun ustuvorligi, sud-huquq tizimi, inson huquqlari, iqtisodiyotni liberallashtirish, valyuta bozori, byudjet siyosati, soliq

va bojxona siyosati, tadbirkorlik, ijtimoiy soha, ijtimoiy himoya, tashqi siyosat, xavfsizlik, qurolli kuchlar, totuvlik, diniy bag'rikenglik.

2.1. Strategiya tushunchasi va uning nazariy asoslari

Davlatchilik rivoji va uning taraqqiyot mezonlari millatning ma'naviy darajasi bilan belgilanadi. Zero, faqat o'zligini anglagan, mushtarak maqsadlarda yakdil, muddaolari uyg'un, or-no'muslari ustun, yagona maslakdagi madaniyatga ega xalqlarning rivojlanish tarixi barqaror va istiqbolli bo'lishi kishilik jamiyati tajribalarida o'zining isbotini topgan. Inchinun, bugungi kunda mamlakatning strategik siyosati milliy davlatchiligimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-madaniy merosini yangicha tafakkur asosida anglash va uni bevosita jamiyat boshqaruviga tatbiq qilish bilan jahon hamjamiyati integratsiyasiga kirishish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko'ra har bir xalq o'z oldiga ulug' va istiqbol maqsadlarni qo'yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatiga kirib keladi. Strategik tafakkurga ega, uzoqni ko'ruvchi siyosatchilar, tom ma'nodagi xalqning haqiqiy xizmatkorlari jamiyatda sodir bo'ladigan muommolarni oldindan ilg'ab, ularning samarali va istiqbolli yechimlarini topa bilganlar. Ayniqsa, millat uchun murakkab va mas'uliyatli sharoitlarda jamiyat rivojini belgilab berishga qodir "arxitektor"larning vujudga kelishi ham davrning taqoza bilan bog'lanadi. Trumen, Cherchil, Yaponiyada Makartur, Singapurda Li Kuan Yu, Xindistonda M.Gandi, Xitoyda Mao Sze-Dunlarning uzoqni ko'ra bilishi millatning farovon kelajagini ta'minlashga erishish salohiyatlari bilan baholanadi. Ayniqsa, Fransiya, Germaniya, Malayziya, Janubiy Koreya davlatlari ikkinchi jahon urushlari talato'plaridan so'ng xalqning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishda misli ko'rilmagan ommaviy safarbarlik va jasorat na'munalarini namoyon qilishi bilan barcha xalqlarga ibrat bo'ldilar.

Tarixiy rivojlanish qonuniyatlari aniq va to'g'ri muljalli strategiya jamiyat orzularini real hayotiy natijalarga aylantirish mumkin ekanligini isbotladi. Bugun O'zbekiston ham o'z tarixining ana shunday mas'uliyatli chorrahasida turibdi. Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan harakatlar strategiyasi istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr bosqichini ifodalovchi milliy g'oyaga aylanmoqda. Shu ma'noda, xalqlar va milliy davlatchilik tarixining murakkab evrilishlar asosida kechgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarini o'rganish bugungi kun istiqbol maqsadlarimizni oydinlashtirish, asoslash, yangi marralar va vazifalarni belgilash kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Shunday ekan, o'z-o'zidan sovol tug'iladi? Rivojlanish nima va u qanday ta'minlanadi? Uning barcha jamiyatlar uchun umumiy yoxud qandaydir alohida qonuniyatlari mavjudmi? Rivojlanishni ta'minlovchi qanday ijtimoiy omillar va talablar hukmronlik qiladi? Ta'limotlarga ko'ra, rivojlanish – bu bir sifatdan ikkinchi bir sifatga yoki bir holatdan boshqa bir holatga o'tishda tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan o'zgarishlar hamda harakatlar turi. Falsafaning hukmron tasavvurlariga ko'ra materiya va ongning yaxlit holatda rivojlanishi spiralsimon cheksizdir. Zero, uning orqaga qaytishi va turg'unligi e'tirof etilsada, uning tamoyillari oddiylikdan murakkab shakllar tomon o'sib boradi. Ya'ni u rivojlanish ob'ektning o'zida mavjud

bo'lgan harakatlarga asoslanadi.¹ Biz buni jamiyat rivojiga daxldor bo'lgan "innovatsiya"lar, "konsepsiya"lar kabi g'oyalar orqali ta'minlaymiz.

Bundan tashqari har qanday rivojlanish jarayoni ijtimoiy o'zgarishdan boshlanadi. O'zgarishlar ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, siyosiy sohalar orqali amalga oshiriladi. Ya'ni har bir sohaning miqdoriy, mazmunli, strukturaviy holatining almashinuvi natijasida sifat ko'rsatkichlar vujudga keladi. Lekin, har qanday o'zgarishlar rivojlanishni ta'minlamaydi. O'zgarishlar ijtimoiy-ommaviy yaxlitlikda rivojlanishga olib keladi. Shunday qilib, rivojlanish jamiyat tizimining murakkablashib, takomillashuvi jarayonida tashqi sharoitlarga samarali moslashuvchanligida, voqelik ko'lamining kengayishida, biron bir sohadagi son o'sishida va uni amalda ta'minlashning strukturaviy qurilmalarning vujudga kelishida namoyon bo'ladi.

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko'ra har bir xalq o'z oldiga ulug' va istiqbol maqsadlarni qo'yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatiga kirib keladi. Shuning uchun tabiiy rivojlanish jarayonlarini bosib o'tish barcha xalqlarga xos, ammo o'tish yo'llarini tanlash, amalga oshirish va ta'minlash jamiyatning milliy-madaniy xususiyatlari bilan belgilanadi. Ya'ni bu maqsadlar davlatning strategik yo'nalishlarida o'z ifodasini topadi. Xo'sh shunday ekan, strategiya nima? U davlatning qanday jabhalarini qamrab oladi? Strategiya davlat va xalq manfaatlarini uyg'unlashtirishning qanday istiqbollari belgilab beradi?

"Strategiya" tushunchasi grekcha so'zdan olingan bo'lib aslida "jang san'ati" ma'nosini bildiradi. Bugungi kunga kelib "strategiya" keng tushuncha bo'lib, turli siyosiy-ijtimoiy sohalarida qo'llanilmoqda. Jumladan, "Davlat strategiyasi" siyosiy termenologiya sifatida bugungi kunda fan nazariyasi va amaliyoti darajasida o'zining alohida tushuncha va kategoriyalariga ega bo'lib;

- 1.) O'zoqqa muljallangan rejalashtirish san'ati.
- 2.) Boshqaruv va rahbarlik mahorat san'ati.
- 3.) Siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni idora qilish san'ati.
- 4.) Aholini ma'lum maqsadlar sari safarbar etish san'ati.
- 5.) Mavjud resurslardan oqilona foydalanish san'ati.
- 6.) Taqsimlash va samaradorlikni ta'minlash san'ati kabi tushunchalarni qamrab oladi.²

Strategiya – bu ta'limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo'lib, u izchillik bilan va to'liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvoffaqiyatni ta'minlaydi. Strategiya bu – strategik fikrlash, chuqur bilim va intuisiya asosida muhitni, kelgusi shartlarning mavjud prognozlarini tizimli tahlil qilish natijasidir. Ushbu tahlilning yakuniy mahsuli – bu o'zidan avvalgi prognoz, vazifa, nuqtai nazar, ustuvorliklar va uzoq muddatli maqsadli vazifalarni rejalashtirish orqali bajarilishini talab qiladi. Strategiya bu – kelajak va no'malumlik parokandaligi orqali sinovdan o'tgan ustuvorliklar va maqsadlar sari yo'naltiruvchi g'oyalar majmuasi. Bu resurs

¹ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – T., 2003. – B. 187.

² Буланова Е.А. Политика и стратегия в механизме государственного регулирования социально-экономических процессов. // Вестник Чувашского университета. 2006. №3. - С. 148.

cheklanganligini baholash orqali harakatlarning to'g'ri tanlangan yo'nalishi bilan boyitilgan donishmandlik¹.

XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi. Strategiya deb, dunyo miqyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartarf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab oladi². Shundan kelib chiqib, davlat strategiyasi bir biri bilan o'zaro bog'liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko'plab tushunchalarda ifodalanadi. Ya'ni, "siyosat", "doktrina", "milliy manfaatlar", "milliy xavfsizlik", "modernizatsiya", "innovatsiya"lar davlat strategiyasining mohiyatini belgilaydi. Shunday qilib, davlatning strategiyasi aniq maqsadlarni belgilash imkoniyatini yaratuvchi vositalarni tanlash asosida samarali boshqaruv ta'minlash orqali jamiyatning ijtimoiy asoslarini rivojlantirishga, mamlakat suvereniteti hamda xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan kompleks harakatlar majmui bo'lib hisoblanadi.

Strategiyaning mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat. Siyosat, strategiya va taktika – strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlari bilan bog'liq uchta mustaqil kategoriyadir. Ularning farqi shundan iborat: strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qubul qilingan bo'lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan ob'ektning yo'l ko'rsatuvchisiga, mayog'iga aylanadi. Taktika esa strategik vazifalarni amalga oshirish bo'yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarni va ularning yechimi bo'yicha tadbirlarni taqozo etadi. Siyosat – bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir. Boshqacha aytganda: **Strategiya + Taktika = Siyosat**³.

Davlatning strategik boshqaruvi boshqa davlat va xalqlarning tarixiy tajribasidan o'zlashtirib yoxud nusxa olib bo'lmaydi. Zero, har bir xalqning o'ziga xos tarixi, siyosiy-ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, madaniy vaziyatlari mavjud. Aynan shu ijtimoiy omillar ma'lum ijtimoiy sharoitlarni vujudga keltiradi. Shunga ko'ra, davlat strategiyasining universal formulasini shakllantiradigan muassasalar mavjud emas. Barcha davlatlar uchun xos bo'lgan umumiy tajribalar ham yo'q. Ular uchun maxsus strategik komandalar, komissiyalar, tezkor guruhlar tuziladi. Strategiya siyosiy partiyalarning dasturiy g'oyalarida yoki davlat apparati tomonidan shakllantiriladi. Strategiya jamiyat tafakkur mahsuli sifatida ochiq va ommaviy yoki qattiq nazorat ostiga olingan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin. Barcha uchun muvoffaqiyatli tartibot jamiyatda turli qarashlarning shakllanishiga imkoniyat va tanqid qilishga sharoit yaratgan muhitning mavjud bo'lishi bilan belgilanadi. Ma'lumki, har qanday davlat mazkur vazifalarni hal etishning strukturaviy mexanizmlariga muhtoj bo'ladi. Davlat strategiyasi – bu davlat idoralari o'z vakolatlari doirasida ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan maqsadlarga erishish yo'lida mavjud resurlardan tizimli ravishda foydalanishi demakdir.

¹ Kvint V. Strategiyalash nazariyasi va amaliyoti. -T.: TASVIR, 2018. - B. 18.

² Юрина А. О стратегии государственного управления. www.odn2ru.

³ Kvint V. Strategiyalash nazariyasi va amaliyoti. - T.: TASVIR, 2018. – B. 44.

2.2. Davlat strategiyasining tizimli boshqaruv omillari

Davlat strategiyasi o'z mazmuniga ko'ra, nazariy va metodologik asoslariga ega, rivojlanib kelayotganlar fanlardan. Bugungi kunda davlat strategiyasini amalga oshirishning tamoyillari, strukturaviy funksional asoslari rivojlangan mamlakatlar ta'limotida nazariy jihatdan muqim shakllanganligiga guvohmiz. Mazkur nazariy metodologik asoslar islohotlarning izchil yo'nalishlarini kafolatlashga xizmat qiladi.

Strategik maqsadlar qanday omillar orqali erishiladi? Bu vazifa umumiy va xususiy, birlamchi va ikkinlamchi omillarni o'zaro bog'liq harakat qonuniyatlarini idrok etish va uyg'un faoliyatini ta'minlashga erishishdan boshlanadi. Hukumatlar aksariyat hollarda milliy strategik muvoffaqiyatlarni YaIMning o'sishida, fuqarolarining farovonlik darajasining yuksalishida deb qaraydi. Yaqin o'tmishda davlatning birlamchi vazifalari hududlarini kengaytirish, hosildorlikni o'stirish, oltin-neftni ko'paytirish, armiyani mustahkamlash bilan izohlangan. Bugun milliy qadriyatlar bilan qurollangan davlatning strategik maqsadi fuqarlarning g'oyaviy e'tiqodi, bilim-salohiyati, jamiyatdagi mukammal qonunlar va barqaror ijtimoiy institutlarning mavjudligi birlamchi omil sifatida qaraladi. G'oyaviy iroda jamiyatni harakatga keltiradi. Harakatsiz harajat nolga teng. Bu nomoddiy resurlarning kengayishi bilan moddiy imkoniyatlarning rivojiga xizmat qiladi. Ya'ni, ilm yangi bilimlarni vujudga keltiradi. Barqaror institutlar iqtisodning rivojiga, jamiyat institutlarining takomillashuviga, provard natijada ijtimoiy farovonlikka olib keladi. Strategik xatoga yo'l qo'ygan davlatlar islohotlarni iqtisodiy omillardan boshlaydi.

Davlat strategiyasining metodologik asoslari amaliy faoliyatni rejalashtirishda ma'lum nazariy me'yorlarga amal qilishni taqozo qiladi.

Birinchidan, ijtimoiy voqelik va vaziyatni anglash. Davlat strategik vazifalarni qabul qilgunicha jamiyatda turg'unlik, mavhumlik yoxud inqiroziy holatlar mavjud bo'ladi. Strategik rejalarning qabul qilinishi bilan mazkur vaziyatning murakkab jihatlari aniqlanadi va maqsadga erishish yo'lidagi mavjud resurslar imkoniyati baholanadi. Shunday qilib, sog'lom pragmatik qarashlar ijtimoiy vaziyatni tan olish orqali strategik maqsadlarga olib keladi.

Ikkinchidan, vorisiylik an'anasiga amal qilish. Hukumat amaldorlarining o'zgarishi vorisiylik kafolatlarini ta'minlansa, unda jarayonlar rivojlanmaydi. Davlat organlari amaldorlarining tez-tez o'zgarishi strategik maqsadlarining shakllanmaganligidan dalolat beradi. Zero, davlat strategiyasi shu maqsadlarga muvoffiq yetakchilarni tanlashni taqozo etadi. Madomiki, shunday ekan, dastavval kadrlar tizimini shakllantirish strategik maqsadning keyingi amaliy bosqichga o'sib o'tish imkoniyatini ta'minlaydi. Inchinun, boshqaruvni samarali maqsadga xos tashkil etish strategiyaning garovi bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, agar davlat e'lon qilgan strategiyasiga sobit bo'lsa, u fuqarlarda hukumatga nisbatan ishonchni uyg'otadi, mutlaqo yangi ijtimoiy qadriyatlarni taklif qiladi, jamiyatda ijtimoiy xamjihatlikning asoslarini belgilab beradi. Ya'ni barcha uchun birdek maqbul bo'lgan g'oya kerak. Bu o'z navbatida fuqaroviy safarbarlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Aslida strategiya davlat va jamiyat o'rtasida o'tish davri uchun kelishuv shakli sifatida namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, davlat strategiyasi siyosiy kuchlarning faoliyatini strategik vazifalar asnosida birlashtirishni taqozo etadi. Rasmiy va oshkora yakdillik jamiyatda

kuchlar muvozanatini yagona maqsad yo'lida uyg'unlashtiradi. Bundan tashqari jamiyatda guruhlar, toifalar, qatlamlar ham mushtarak maqsadlarga intilishlarini ta'minlab beradi. Muvoffaqiyatsizliklarga duch kelgan tajribalardan ma'lumki, ijtimoiy o'zgarishlar yuqorida hokimiyat va mulk taqsimoti doirasidan tashqariga chiqa olmay qolib ketadi.

Beshinchidan, jamiyatda e'lon qilingan strategiya albatta tanqidga olinishi tabiiy. Faqat tanqid konstruktiv, sog'lom va asosli muammolarga qaratilishi lozim. Strategiya mavjud ekan, tanqid taktik masalalarning mohiyatiga qaratiladi va bunday holatni to'xtatish yoki unga tusiqlik qo'yish boshqa illatlarning kelib chiqishiga olib keladi.¹ G'oyalar xilma-xilligi, konstruktiv muholifat, sog'lom raqobat strategik harakatlar jarayonini muolaja qilib turadi.

Zamonaviy strategiyalarning aksariyati aynan, investisiyalar orqali inson kapitaliga va u orqali adolatli qonunlarning, ijtimoiy institutlar qoidalarini tashkil etilishiga qaratiladi. Muammo shundan iborat bo'ladiki, davlatning strategik vazifasini jamiyat a'zolari tomonidan idrok eta olmasligi yoxud aksincha jamiyat talablariga da'vatan davlat boshqaruvi tayyor bo'lmasligi natijasida millatning rivojlanish istiqbollari ro'yoga aylanadi. Shuning uchun har qanday islohotlar inson kapitalini rivojlantirish bilan amalda uning ta'mal toshi mustahkamlanadi. Prezident Sh.Mirziyoyev - "Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart. Chunki jamiyatimizda oliy ma'lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko'p bo'lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo'ladi"², deb davlat strategiyasining ustvor vazifalarini ochib beradi.

Davlat strategiyasini boshqarish tizimlarining nazariy va metodologik asoslari belgilangan uzoq va yaqin muddatli dasturlarning puxta va mukammal rejalar bilan ta'minlashda izohlanadi. Tanlangan maqsadlarning strategik rejasi, tamoyili, izchil va o'zaro bog'liqlik ijrosi, strukturaviy integratsiyalashuvini talab qiladi. Mazkur jarayonlar strategik boshqaruv rejasi va tamoyillari asosida ta'minlanadi. Strategik vazifalarni rejalashtirish qanday me'zonlarga asoslanadi? Ular:

- tashkilot missiyasini aniqlash; tashkilotning mavjudlik mazmunini belgilash, muljallangan, yuklangan mas'uliyatlarni ifodalaydi.

- tashkilot maqsadi va vazifasini shakllantirish; xizmat ko'rsatish turining soni va sifat darajasi rag'batlantirish tizimiga asoslanib faoliyat samaradorligini belgilaydi.

- tashqi muhit ta'sirini baholash va tahlil qilish; ichki xulq-atvorning tashqi munosabatlarga kirish darajasi va natijalari, kommunakativ holat ifodasi. U ob'ektning holati, resurlarning mavjudligi, huquqiy-me'yoriy asoslarning ta'minlanganligi, ilmiy-texnikaviy baza, ijtimoiy-madaniy muhit va infrastrukturaning layoqatlilikini tahlil etadi.

- ichki strukturani baholash va tahlil qilish; belgilangan maqsadlarga erishish yo'lida ichki imkoniyat va salohiyatlarni o'rganish, hisobga olish orqali tashkilot missiyani aniq belgilash mumkin bo'ladi. Ular kadrlar salohiyati, boshqaruvni

¹ Дацюк С. Государственная стратегия. <https://gtmarket.ru/laboratory/expertize/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2018 yil 29 dekabr.

samarali tashkil etish, rejani to'g'ri moliyalashtirish va marketing bilan bog'liq bo'ladi.

- muqobil strategik tavsiyalarni ishlab chiqish va qiyoslash; mazkur yo'nalish strategik rejalashtirishning yuragi hisoblanadi. Zero, unda muqobil tavsiyalardan eng samaralisi tanlanib, maqsadga erishishning maqbul variantlari joriy etiladi.

- strategiyani amalga oshirish; bu yo'nalish eng mas'uliyatli hamda tahlikali jarayon. Agar u real vaziyatni to'liq qamrab olgan yaxlit va bir butun reja bo'lsa, uning muvoffaqiyati ta'minlanadi. Moboda boshqacha bo'lsa, unda turg'unlik yuzaga keladi. Bunga sabab, noto'g'ri tahliliy ma'lumotlar, xulosalar, ko'tilmagan sharoitlar, resurslardan oqilona foydalan olmaslikdir.

- strategiyani baholash va nazorat qilish; bu jarayon strategik rejalashtirishni mantiqiy yakunlovchi omil bo'lib hisoblanadi. U hodisalarning qayta aloqalanish siklini ta'minlash jarayonida strukturaviy bo'g'inlardagi bog'lanish imkoniyatlarini ko'zatadi, tahlil qiladi, baholaydi, aniqlaydi, xulosalar chiqaradi. Zarurotda strategik rejalarni korrekktirovka qiladi.¹

Davlat strategik rejalari aniq va o'zgarmas tamoyillarga bo'ysindirilishi muhim. Ular islohotlarning bir ma'romda, izchil yo'nalishini ta'minlashga xizmat qiladi. Jumladan:

1. Ilmiylik.
2. Maqsadlilik.
3. O'zgaruvchanlik.
4. Birlik.
5. Sharoit yaratish.

Ilmiylik. Rahbar o'z vazifalarini amalga oshirishida turli ilmiy sohalardagi ma'lumotlar va xulosalar bilan qurollanmog'i, bundan tashqari improvizatsiya qilmog'i, quyilgan vazifalar yechimini topishda individual va kreativ yondashuvlarni tashkil etishi.

Maqsadlilik. Strategiyani shakllantirish va strategiyaviy tahlillar maqsadli bo'lishi lozim. Ya'ni davlatning ustuvor maqsadlarini bajarishga yo'naltirilishi lozim.

O'zgaruvchanlik. Mazkur tamoyil oldin qabul qilingan qarorni o'zgartirish ehtimoli yoki o'zgaruvchan vaziyatdan kelib chiqib xohlagan damda qayta ko'rib chiqishi demakdir.

Birlik. Strategik dastur va rejaning uyg'unligi. Turli darajada qarorlarning mustahkam bog'liqligi va xamjihatliliigi muvoffaqiyatning shartli kafolatidir. Mazkur birlik davlat organlarning strukturaviy bug'inlarida strategik harakatlarni birlashtirish, barcha funksional bo'lim rejalalarining kelishuvi bilan ta'minlanadi.

Sharoit yaratish. Strategiyani amalga oshirish imkoniyatini to'g'diradi. Strategik rejaning mavjudligi hali muvoffaqiyatli amalga oshishini kafolatlamaydi. Strategik boshqaruv jarayonida dastur va rejani amalga oshirish uchun tashkiliy sharoit yaratilishi lozim. Ular mustahkam tashkiliy struktura, rag'batlantirish tizimi va boshqaruv tizim samaradorligini oshirishga qaratiladi.²

¹ Шамгун Р.Н. Стратегическое планирование или управление - что выбрать?. www.cfnp.ru.

² Государственное стратегическое управление. Общ.ред. проф. Ю.Кузнецова. – СПб.: Питер, 2014. – С. 134.

Mazkur tamoyillar hokimiyat organlari faoliyatidagi ijro intizomining past su'ratlariga, shaxsiy mas'uliyatsizligiga barham beradi, kadrlar layoqati darajdasini oshirishni talab qiladi, murakkab va chigal ish tartiblarini sodda hamda tezkor yondashuvlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Eng muhimi strategik yo'nalishlarni belgilashning mavhum va noma'lum jihatlarini oydinlashtirish orqali tartiblashtirishga xizmat qiladi.

Bu masalalar quyidagi tamoyillar bilan aniqlashtiriladi:

- **Maqsad** – nega u yoki bu harakatlar birlamchi bo'lib hisoblanadi. Ya'ni nima uchun dolzarb va real vaziyatda, turli ijtimoiy ehtiyojlar talabida, qo'rquv va ikkilanish sharoitida muhim vazifalarni ajratib olish kerak?

- **Tashqi sharoit** - qaysi nuqtada maqsadga erishish ko'zda tutilmoqda. Zarur resurslar mavjudligini aniqlash va amalga oshishi lozim bo'lgan hozirgi va kelgusidagi sharoitlar taqoza qiladimi? Hukumat ana shu ikki nisbat o'rtasidagi omillarni qanday me'zonlar bilan tanlashi lozim?

- **Yo'nalish** – nimaga erishishni hoxlaymiz, belgilangan, istalgan maqsad va natijalar qanday? Bu o'z navbatida keyingi harakatni belgilaydi:

- **Harakat** – hukumat va idoralar belgilangan maqsadga erishishning qanday rejasiga ega: strategiyada ifodasini topgan tamoyillar qanday qonunlar va dasturlarda kafolatlanmoqda, jamiyatni qanday omillar yetaklaydi, rag'batlantiruvchi kuch nimada? Mazkur harakatlar ko'tilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lganligi uchun strategiya ta'limga bog'liq bo'ladi:

- **Ta'lim** – jamiyat tasavvurlarini shakllantirish tizimi sifatida tanlangan yo'nalishni va shuningdek, maqsadni qayta ko'rib chiqish, imkoniyatlarni belgilash asosida qanchalik amaliy natijalarga erishilayotganligi hamda qaysi sohalarda imkoniyatlar boy berilayotganligini aniqlash, taqqoslash, qiyoslash indekatorlarini (ilmiy uslublarni)joriy etish talab etiladi.¹

Davlatning strategik boshqaruvi tizimi belgilangan maqsaddan kelib chiqilgan yangi yo'nalishlarni tanlashdan, shunga muvoffiq hokimiyat organlarining qayta tashkillashtirilishidan hamda umum ijtimoiy-madaniy ahamiyatga molik maqsad yo'lida jamiyat kuchlarini safarbar etish bilan belgilanadi. Davlat strategik boshqaruvi tizimi indekatorlari mazmuni quyidagi savollarga javob topishga qaratiladi.

1. Qachon, qaerda va nega?

2. Ijtimoiy va madaniy ahamiyatga molik maqsadlarni aniqlash (**nimaga?**).

3. Insoniy, tabiiy, texnik-texnologik, moliyaviy, ishlab chiqarish resurslarini aniqlash (**nima uchun, qanday qilib, nima bilan?**).

4. Aholi bunyodkorligi va tashabbuskorligini oshirishda tegishli moddiy ta'minot asoslarini yaratish (**qancha va qanday sifatda?**).

5. Malakali mutaxassislarni tayyorlash (**qancha, qanday harajat va qiymatda?**).

6. Ijtimoiy institutlar va davlat hokimiyati organlarini o'z vaqtida isloh etish (**qanday qilib va qanday vositalar bilan?**)²

¹ Джефф Малган. Искусство государственной стратегии. - М.: изд. институт Гайдар, 2011. – С. 14.

² Юрина А. О стратегии государственного управление. www.odn2.ru.

Davlat strategiyasining funksional vazifalari turli bo'lishga qaramasdan, ularning mazmun-mohiyati uchta asosiy funksiyaning elementlari hisoblanadi. Ularsiz boshqaruv tizimlari, ayniqsa, strategik rahbarlik va boshqaruv tizimlari to'liq samarali ishlay olmaydi. Bular strategik rejalashtirish, strategik rag'batlantirish hamda strategik monitoring va nazorat.

Birinchi element aniq istiqbolli siyosatni shakllantirish jarayonini qamrab oladi. Uning dastlabki ustuni sifatida mazkur siyosatni omma e'tiboriga havola etish, ongiga singidirish, tadbqiq etish vazifalarini belgilashga, imkoniyatlarni hisobga olishga qaratiladi. Ya'ni rejalashtirish.

Ikkinchi element maqsadga erishish yo'lida moddiy va ma'naviy resurslarni to'g'ri taqsimlash, ketma-ket bog'liq vazifalarni aniqlash orqali erishilinadi. Bunda asosiy e'tibor rejalarni amalga oshirish faoliyatini to'g'ri rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb qiladi.

Uchinchi element faoliyat natijalarining monitoringini tashkil qilish, samarali omillarni takomillashtirib borish, nazoratni ko'chaytirish lozim, deb qaraydi. Mazkur unsurlar yaxlit jarayon sifatida biri ikkinchisini mustahkamlashga xizmat qiladi.¹ Agar birinchi vazifalar ta'minlanmasa, qolgan bosqichlar amalga oshmaydi. Yoki rasmiyatchilik holati vujudga keladi. Shu sababdan ushbu qonuniyatlar bir-biri bilan ziddiyatlarga ham kirishishi mumkin. Bunday vaziyatlar strategiya jamiyat sohalarini to'liq qamrab olishga erishmaganligidan dalolat beradi. Masalan, fan-ta'limni rivojlantirmay turib yuqori texnologiyaga erishib bo'lmaydi. Yoki tadbirkorlik va xususiy mulk vakolatlarini kafolatlamasdan turib, iqtisodiyot, investisiya sohalarini rivojlantirib bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, strategiya bu – fundamental fan hisoblanadi. Uning asosiy tamoyillari va ilmiy kategoriyalari har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari asosida takomillashtiriladi hamda muvofiqlashtiriladi. Ammo, har qanday strategiya – strategiyalash ob'ektidan qat'i nazar, umumiy tabiatga ega va, demak, umumiy nazariy asoslarga ega bo'lishi lozim. Shu sababli strategiyaning yaxlit tizimi milliy, mintaqaviy, sohaviy va korporativ strategiyalarni integratsiyalashuvi jarayonlaridan hosil bo'lib boradi.²

2.3. O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichi

Har bir davr o'ziga xos siyosiy vaziyati bilan ijtimoiy hayot rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Har bir davrning o'z ta'limoti va yondashuv tamoyillari yuzaga keladi. Ushbu vaziyatni anglash, shunga mos yo'l-yo'riq tanlash strategik tamoyillarning talablaridan hisoblanadi. Rivojlanishning o'z qonuniyatlari mavjud bo'lgani kabi, favqulotda ijtimoiy o'zgarishlar ham rivojlanishning mohiyatiga zid keladi. Boshqacha qilib aytganda, inqilobiy ta'sirni jamiyatning o'zi inkor qiladi. Tadrijiy ta'limot ijtimoiy qonuniyatlarning jamiyat imkoniyatlariga muvofiqlashtirilgani, uyg'un siyosiy islohotlar belgilangani bilan samarali natijalar beradi. Iqtisodiy islohotlarning bozor munosabatlariga yo'naltirilishi, infratuzulmalarning joriy etilishi, ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etish, mulkdorlar qatlamining o'sib

¹ Джефф Малган. Искусство государственной стратегии. - М.: изд. институт Гайдара, 2011. – С. 232.

² Kvint V. Strategiyalash nazariyasi va amaliyoti. - T.: TASVIR, 2018. - B. 42.

borishi bilan jamiyatda inson manfaatlari, qonun ustuvorligi, ijtimoiy himoya kabi demokratik qadriyatlar ta'minlanadi. Shu tariqa yangi jamiyat asoslariga daxldor ijtimoiy omillar biri ikkinchisini to'ldirishga xizmat qiladi.

Ko'rib turganimizdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar strategik ta'limotlarga to'liq mos keladi. Ular respublikamizning bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davrida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishda namoyon bo'lmoqda. Inchinun, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakat taraqqiyotining kompleks dasturini ilgari surdi. Bu hujjat «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»¹ deb nomlandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yillik tantanalariga bag'ishlangan ma'ruzalarida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Asosiy qomusimiz negizida yaratilgan Harakatlar strategiyasi bugungi kunda jonajon Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishda, innovasion va industrial rivojlanish sari odimlashda beqiyos o'rin egallamoqda"² deb, ulkan o'zgarishlarga dahildor yangi g'oyalarni ilgari suradi.

Mazkur dastur nafaqat ichki va tashqi siyosatdagi islohotlar sari tashlangan qadamda, balki, eng avvalo, davlatning xalqqa bo'lgan munosabatini o'zgarganligida namoyon bo'lmoqda. Davlatimiz rahbarining 2018 yil 28 dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ham mavjud o'tkir muammolarga e'tibor qaratilib, ularni hal etishning aniq yo'llari ko'rsatib berildi. 2017 yil «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb e'lon qilinishi, 2018 yil "Faol tadbirkorlik, innovasion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash" yillarida amalga oshirilgan islohotlar asosida «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan insonparvar g'oya izchillik bilan hayotga tatbiq etishning dasturiy chora-tadbirlari belgilandi. Bu borada davlat organlari hamda fuqarolarning o'zaro munosabatiga bo'lgan yondashuvni tubdan qayta ko'rib chiqishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qayd etildi. Mazkur erishilgan natijalar zaminida 2019 yil "Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" sifatida davlatning strategik yo'nalishlari yanada samarali, mustahkam va izchil qarorlar bilan boyitildi.

Ushbu vazifalar avvalo demokratik islohotlarni chuqurlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament va siyosiy partiyalarning rolini yanada oshirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining ma'muriy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tadbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.

² "Xalq so'zi" gazetasi. 2018 yil 8 dekabr.

rolini oshirishga yo'naltirilgan davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishga qaratiladi. Bu yo'nalishlar qo'yidagi strategik tamoyillarda o'z ifodasini topdi:

O'ZBEKISTON HARAKATLAR STRATEGIYASI

I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari:

1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish.

1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish.

1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish.

II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari:

2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish.

2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash.

2.3. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish.

2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish.

2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash.

2.6. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish.

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari:

3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish.

3.2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish.

3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish.

3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish.

3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish.

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari:

4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish.

4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish.

4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish.

4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish.

4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar:

5.1. Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash.

5.2. Chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat yuritish.

Davlat va jamiyat qurilishi shunday bir murakkab tuzilmaki, uning tarkibidagi bir-biriga bog‘liq bo‘lgan va bir-birini to‘ldiradigan soha va jabhalarni bir vaqtning o‘zida jadal rivojlantirishni talab qiladi. Ularning har biri ikkinchisiga zamin yaratadi. Qaysidir asosiy soha avval rivojlanib, boshqa soha va tarmoqlar uchun lokativ vazifasini ham bajarishi mumkin. Albatta, bu jarayonda har bir sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, ob‘ektiv tahlil qilish, o‘z vaqtida tegishli chora-tadbirlar qabul qilish, ularni rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratish, samarali ishlash mexanizmlarni yangi texnologiyalar asosida tashkil etib berish kabi vazifalarni hal qilish talab etiladi.

Harakatlar strategiyasining yetaklovchi lokativ kuch - bu davlat va uning organlari. Undan chiqdi, islohotlarning garovi va kafolati layoqatli hokimiyatning faoliyati bilan bog‘liq hodisa. Shunday ekan, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimlarini takomillashtirmasdan turib mamlakat hayotini modernizatsiya qilib bo‘lmaydi. Modernizatsiya o‘z umrini poyoniga yetkazgan boshqaruv usullarini yangi sifat va talablar darajasiga ko‘tarish bilan mamlakatni rivojlantirishga olib keladi. Bu jarayonlar bevosita mahalliy hokimiyatlarning hududlarni rivojlantirishga oid masalalarni hal etishda mustaqil qarorlar qabul qilishning huquqiy asoslarini shakllantirishni taqozo qiladi. Shu nuqtai-nazardan Prezident Sh.Mirziyoyev “Murojaati”da parlamentning muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish, ijro hokimiyati tizimini optimallashtirish, ma‘muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usullarini keng qo‘llash, davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish maqsadida davlat xizmatiga malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish, mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas‘uliyatini qayta ko‘rib chiqishimiz, ularning mustaqilligini yanada oshirish vazifalari belgilanadi.¹

Boshqaruvda adolatli davlat boshqaruvi tizimlari shakllanmas ekan, qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari – ikkinchi uzviy bog‘lanuvchi muhim tamoyil ta‘minlanmaydi. Ular sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday tizimning samarali faoliyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta‘minlashning real imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Oliy sud – oliy hakam sifatida jamiyatning yaxshi - yomoni, foyda – ziyonini belgilab beruvchi ma‘naviy barometrga aylanadiki, bunday ijtimoiy muhitda jinoyat qilishdan kura bunyodkorlik qilish avfzalligi ustuvorlik kasb qiladi. Shu ma’noda Prezident Sh.Mirziyoyev sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash maqsadida

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2018 yil 29 dekabr.

sudyalikka nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish lozimligiga ahamiyat berishi strategik maqsadlarning mushtarakligini ta'minlashga qaratiladi.¹

Jamiyatda adolatli boshqaruvning vujudga kelishi shubhasiz iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Ular makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlash, tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish, ayniqsa, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning yangi innovasion texnologiyalarining tadbiiq etilishi imkoniyatlarini yaratadi. Ya'ni rivojlanishning ichki qonuniyatlariga ko'ra, yangi sifat bosqichga ko'tarilishning murakkab, ammo takomillashgan shakllari paydo bo'ladi. Bu o'z navbatida iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institusional va tarkibiy islohotlarni tadbiiq etishni talab qiladi. Natijada mavjud salohiyatidan samarali foydalanish orqali joylarda mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'sish sur'atlari vujudga keladi.

Jamiyatda ijtimoiy ongning o'zgarishi bilan ijtimoiy munosabatlar ham rivojlanib boradi. Jamiyat va uning holati aslida inson ongining in'ikosi. Fuqaro qanday ezgu amallar ma'rifati bilan qurollangan (tarbiyalangan) bo'lsa, ana shu ruhiy qudrat istaklarining hosilasini oladi. Bu jarayon ulkan to'lqin sifatida millatning mushtarak maqsadlarida namoyon bo'ladi. Bu o'z navbatida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida yangi tarmoqlarning, ishchi o'rinlarning paydo bo'lishiga xizmat qiladiki, tabiiy ravishda aholining real daromati va shunga muvoffiq ijtimoiy himoyasi, turmush darajasi ham oshib boradi.

Harakatlar strategiyasining samarali natijasi bevosita mamlakatda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat samaradorligi bilan bog'liq hodisa. Bunday deyishimizga sabab, tashqi siyosat ichki siyosatga, ichki siyosat tashqi siyosatning natijalariga bog'liq bo'ladi. Inchinun, millat ulug' maqsadlari yo'lida sobitqadam va mushtarak bo'lsalar, faoliyat amallari yuksak bo'lsa, bunday xalq jahon xamjamiyatning munosib a'zosiga aylanib borishi bilan o'z qudratini ham mustahkamlab boradi.

Dasturlarda belgilangan harakatlar strategiyasi barcha yo'nalishlari tahlili bir-biriga bog'liq uzviy qonuniyatlar bilan bog'langanligini ko'rsatib turibdi. Ular davlat boshqaruvi tizimlarining murakkablashuvi asnosida fuqarolarning ijtimoiy hayotga ishtirokini soddalashtirilishida, talab va ehtiyojlarga mos ishlab chiqarish vositalarining takomillashuvida, son ko'rsatgichlarning o'sishida, jamiyatning strukturaviy o'zgarishlarida, ijtimoiy sohalarining rivojlanishida namoyon bo'lmoqda. Albatta, startegiyaning muvoffaqiyatli joriy etilishi faqatgina undagi iqtisodiy va texnologik omillar bilan belgilanmaydi, bunda yetakchilar va qaror qabul qiluvchi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2018 yil 29 dekabr.

rahbarlarning obro'si, insoniy fazilatlari, strategiyaga doir shijoati ham muhim rol o'ynaydi¹. Eng katta va hal etuvchi kuch – bu xalqning irodasi bo'lib qoladi.

Nazorat uchun savollar:

1. “Strategiya” tushunchasiga ta'rif bering.
2. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni qabul qilinishining bosh maqsadi va ahamiyatini aytib bering.
3. Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlarni izohlab bering.
4. Strategik vazifalarni rejalashtirish qanday me'zonlarga asoslanadi?
5. Davlat strategik boshqaruvi tizimi indekatorlarini izohlab bering.

3-BOB. DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Reja:

1. **Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilish.**
2. **Davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish.**
3. **Harakatlar strategiyasi doirasida davlat va jamiyat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi.**

O'quv mashg'ulotining maqsadi: demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilish, davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish haqidagi bilimlarni shakllatirish, O'zbekistonda davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirish jarayonlari, xususan Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi haqida ma'lumot berish.

Tayanch iboralar: davlat boshqaruvi, boshqaruv funksiyalari, davlat organlari, boshqaruv shakli, hukumat, davlat vakolatlari, tizimli boshqaruv, funksional boshqaruv, byurokratik apparat, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolik jamiyati.

3.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilish

Dunyo bo'ylab chuqurlashib borayotgan globallashuv sharoitida shakllanib borayotgan tashqi konyunktura hamda keskin raqobat muhiti mamlakatimiz oldiga yangidan-yangi talablarni qo'ymoqda. Endilikda zamonaviy demokratik davlatni barpo etish, inson huquq va manfaatlari eng oliy qadriyat darajasiga yetgan jamiyatni shakllantirish yo'lida istiqbol yillarida erishilgan yutuqlar va orttirilgan tajribani tahlil qilish hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini chuqur o'rganish asnosida mamlakatimiz demokratik taraqqiyotini yanada jadallashtirishning eng muhim yo'nalishlari va aniq marralarini belgilash zarurati paydo bo'lmoqda.

¹ Kvint V. Strategiyalash nazariyasi va amaliyoti. - T.: TASVIR, 2018. – B. 41.

Bugungi kunda yurtimizda belgilab olingan islohotlar strategiyasi izchillik bilan davom ettirgan holda, yangi sifat darajasiga ko'tarish jarayoni kechmoqda. Ya'ni mamlakatimizni taraqqiy ettirish, demokratlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish yurtimiz aholisi uchun farovon hayot asoslarini mustahkamlash uchun muhim bo'lgan navbatdagi strategik zaminlar vujudga keltirilmoqda.

Davlat taraqqiyotining yangi davri va bosqichi, eng avvalo, davlat boshqaruvi tizimini bugungi va ertangi kun talablaridan kelib chiqib, yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Vakillik demokratiyasi tugal ravishda ta'minlanishi uchun xokimiyatning barcha tarmoqlarini xalq bilan, fuqarolar bilan shaffof ravishdagi uzluksiz muloqoti, ya'ni fuqarolarning manfaatlarini ro'yobga chiqarish, qondirish, ularni rozi qilish borasidagi munosabatlar ham keng ko'lamli ravishda amalga oshirib borilishi zarur. Ushbu jarayonda davlat xokimiyati bilan uning manbai bo'lgan xalq o'rtasidagi uzviy bog'liqlik real ta'minlanadi. Faqat mana shunday vaziyatdagina xalq xokimiyatchiligining asosiy prinsiplari ishlaydi. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, keyingi vaqtlarda jamiyatimizda davlat bilan xalq o'rtasidagi munosabatlarning uyg'unligini ta'minlash borasidagi ishlarni yanada kuchaytirishga ehtiyojlar sezila boshlagan edi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz keyingi paytda odamlar bilan muloqot qilishni unutib qo'ydik. Ularning ichiga kirib, ochiq samimiy gaplashish, dardini eshitish bizning faoliyatimizda, afsuski, oxirgi o'ringa tushib qoldi....

Bizning asosiy maqsadimiz "Xalq qabulxonalari"ga qilingan hech bir murojaat e'tiborsiz qolmaydigan tizimni yaratishdan iborat. Muxtasar aytganda, odamlarning dardini eshitish, ular bilan ochiq muloqotda bo'lish, og'irini yengil qilish – aholining davlat va jamiyatga ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi"¹.

2016 yilning 28 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonini qabul qilinishi mamlakatimiz siyosiy-ijtimoiy hayotida nihoyatda ulkan ahamiyatga molik bo'ldi. Ushbu farmonda aholining eng dolzarb muammolarini hal etish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq ishlarni sifat jihatidan yuksak darajaga ko'tarish, bu borada kafolatli va demokratik mohiyatga ega bo'lgan yangi tizimni joriy etish vazifalari belgilab berilgandir. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari - Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek har bir tuman va shaharda (tumanga bo'ysunuvchi shaharlardan tashqari); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi"² tashkil etildi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. // Xalq so'zi, 2016 yil 8 dekabr.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. // Xalq so'zi, 2016 yil 29 dekabr

Mazkur qabulxonalarining asosiy vazifasi sifatida aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni tashkil etish, uning huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish va kafolatli ro‘yobga chiqarish, kabi muhim masalalar belgilab qo‘yildi.

Xalq qabulxonalarining barcha hududlarda ish boshlagani, xalq bilan keng miqyosda muloqot olib borilayotgani davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiq-oshkoraligini ta‘minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Mamlakatimiz aholisi, fuqarolarimizning qonuniy manfaatlari, talab va ehtiyojlarini kafolatli qondirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizning barcha tuman va shaharlarida “Xalq qabulxonalari”ni tashkil etish va uning samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish borasidagi taklifni ilgari surilishi, davlat bilan xalq o‘rtasidagi munosabatlarni demokratik asoslarini mustahkamlashning zamonaviy va ishonchli mexanizmlarini joriy qilishning namunasi bo‘ldi.

Yurtimizda bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarning markaziga **“inson manfaatlarini har tomonlama ta‘minlash”** vazifalari qo‘yilmoqda. Bu esa zamonaviy demokratik taraqqiyotning bosh yo‘nalishni tashkil qildi. Ana shu dolzarb masalalardan kelib chiqib, mamlakatimizda 2017 yilni **“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yo‘li”**, deb e‘lon qilinishi demokratiyaning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lgan xalq hokimiyatchiligini kafolatli ro‘yobga chiqarilayotganidan dalolatdir.

Halq bilan muloqot bu – fuqarolarning va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish, aholi bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yishning yangi samarali mexanizmlari va usullarini joriy etish, barcha darajadagi davlat hokimiyati organlari rahbarlarining aholi oldida hisobot berishi tizimini amaliyotga joriy etish, shu asosda xalqning davlat hokimiyatiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga qaratilgan boshqaruvning yangi shaklidir.

Ta‘kidlash joizki, Davlatimiz rahbari tomonidan 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida mujassam bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlar xalqimiz tomonidan qizg‘in muhokama qilindi. Muhokamalarda aholining keng qatamlari, jamoatchilik va ishbilarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislari yuksak faollik ko‘rsatib, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga alohida qiziqish va daxldorlikni namoyon qildilar.

Loyihalarni muhokama uchun turli axborot maydonlariga joylashtirildi. Xususan, “Qonun hujjatlari ta‘sirini baholash tizimi” (*regulation.gov.uz*) internet portalida bir oy davom etgan jamoatchilik muhokamasi natijalariga ko‘ra 1 310 ta taklif va mulohaza kelib tushdi. Ular asosida Davlat dasturining 41 ta bandi qayta ko‘rib chiqildi¹.

2017 yil 7 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”**gi PF-4947-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon bilan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Harakatlar strategiyasining bosh maqsadi etib yurtimizda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil 8 fevral.

davlat va jamiyatni har tomonlama jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish belgilandi. Bular quyidagilar:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish.
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish.
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish.
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish.
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur

o'ylangan va amaliy ruhda tashqi siyosat yuritish.

Harakatlar strategiyasiga muvofiq, davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor vazifalarini amalga oshirish maqsadida:

- Davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning roli oshirilib, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish va ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlari yanada kengaytirildi, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning roli kuchaytirildi.

Jumladan, Davlatimiz rahbari taklifi hamda Oliy Majlis palatalari Kengashlarining qo'shma qaroriga muvofiq, har oyda 10-12 kun davomida deputat va senatorlar o'zlari saylangan hududlarda davlat hokimiyati organlari faoliyatini o'rganib, tegishli rahbarlarning hisobotini xalq deputatlari Kengashlari sessiyasi muhokamasiga kiritishi hamda xulosalar berishi mexanizmlari joriy etilmoqda. Bunda davlat hokimiyatini isloh qilish, xalq bilan samarali muloqotni ta'minlash eng muhim vazifa bo'lmoqda.

Senatorlar birinchi marta ichki ishlar vazirining mamlakatda jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarlikning oldini olish bo'yicha qilinayotgan ishlar haqidagi isobotini eshitdilar va natijasi bo'yicha zarur kompleks chora-tadbirlar ko'rildi.

Toshkent shahrida tumanlar darajasida xalq deputatlari kengashlari ta'sis etildi. Natijada, Toshkent shahri aholisi ham o'z vakillari – deputatlar orqali tumanlarni boshqarishda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Fuqarolarning kafolatlangan mehnat huquqlarini ta'minlash, Yoshlar hamda Oila va ayollar masalalari bo'yicha Parlament komissiyalari tashkil etilib, ular tomonidan milliy va xalqaro hamkorlik doirasidagi dolzarb masalalarni ochiq muhokama etishda sezilarli darajada faollik ko'rsatildi.

Parlament va ijroiya hokimiyatining hamkorligi ham o'ziga xos tarzda kuchaytirildi, buning amaliy tasdig'i sifatida Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlis palatalaridagi doimiy vakili lavozimi ta'sis etildi va uning huquqiy maqomi belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojlatnomasida "Har bir deputat Xalq qabulxonalari bilan doimiy ishlab, o'z hududida yashayotgan aholi muammolarini yechishda faol ishtirok etishi, odamlarning dardu tashvishlarini tinglashi" taklifi ilgari surildi¹. Bu

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojlatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2020 yil 25 yanvar

esa deputatlar o'z saylovchilariga bergan va'dalari ustidan chiqishiga, xalqning ishonchini qozonishiga xizmat qiladi.

Parlament nazoratining ta'sirchan shakllaridan biri bo'lgan Davlat byudjetini qabul qilish va uning ijrosini ko'rib chiqish amaliyotini yuqori professional darajada yo'lga qo'yish uchun **Oliy Majlis qoshida Davlat byudjeti boshqarmasini tashkil etildi.**

Hozirgi kunda Konstitutsiyaga muvofiq, parlament Bosh vazirni tasdiqlaydi. Lekin vazirlarni lavozimga qo'yishda qatnashmas edi. Shuning uchun Hukumat a'zolari parlament oldida mas'uliyatni yetarli darajada his etamasdi. Shu munosabat bilan davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 2019 yilda **Vazirlar Mahkamasi a'zolarini Oliy Majlis tomonidan tasdiqlash amaliyoti** kiritildi.

Ayni vaqtda joylardagi mahalliy kengashlarda ham viloyat va tuman idoralari rahbarlarini tasdiqlash bo'yicha mana shunday amaliyot joriy etildi. Xalq deputatlari kengashlarining joylardagi dolzarb muammolarni hal etishdagi roli oshirildi. Mahalliy hokimiyat organlari rahbarlarining hisobotlarini eshitish tizimi yangicha, xalqchil ko'rinishda amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi.

Mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqildi, ularning mustaqilligini yanada oshirildi. Shahar hokimi va tuman hokimlariga moliya, iqtisodiyot, investisiya, qurilish, uy-joy va kommunal xizmat sohalari rahbarlarini tayinlash vakolati berildi.

Hokimning ayni vaqtda xalq deputatlari Kengashi raisi sifatida faoliyat ko'rsatishiga doir tartib bekor qilindi.

- "Elektron hukumat" tizimi takomillashtirildi, davlat xizmatlari ko'rsatishning sifati yuksaltirildi.

2017 yilning o'zidayoq davlat xizmatlarini ko'rsatishning sifati va samaradorligini oshirish, iqtisodiyotda davlat institutlarining nazorat funksiyalarini kamaytirish, davlat va xususiy sektorlarning o'zaro foydali hamkorligining zamonaviy shakllarini yanada takomillashtirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

- Jamoatchilik boshqaruvi tizimi takomillashtirildi, xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlari joriy etildi, shuningdek mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyat samaradorligi oshirildi.

Albatta ko'rilayotgan chora-tadbirlar aholi hamda tadbirkorlik sub'ektlarining davlat institutlari bilan hayotiy muhim masalalar bo'yicha o'zaro aloqalarini tashkil etishi uchun keng imkoniyatlar ochmoqda, shuningdek xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

"Mening fikrim" maxsus internet portali orqali jamoaviy murojaatlarni amalga oshirish tartibi joriy etildi.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid va jamoatchilikda alohida qiziqish uyg'otadigan o'ta muhim masalalarga doir qarorlarni davlat organlari tomonidan qabul qilinishida majburiy tartibda jamoatchilik bilan maslahatlar, jamoatchilik eshituvlarini o'tkazish amaliyotini joriy etish dolzarblik kasb etmoqda.

Jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro yaqin hamkorlik o'rnatish maqsadida 2020 yilning 16 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

jamoatchilik palatasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5980-sonli Farmoni qabul qilindi.

Umuman olganda, davlat va jamiyat boshqaruvini demokratlashtirish va modernizatsiyalash umume'tirof etilgan demokratik prinsiplarga, qonun ustuvorligi, davlat hokimiyati va boshqaruvini erkinlashtirish, davlat hokimiyatini tashkil etishda hokimiyat bo'linishi prinsipi, adolat, inson erkinligi va manfaatlari ustuvorligi, saylovlar, ko'ppartiyaviylik kabi mezonlarga asoslanganligi bilan xarakterlanadi. Uni amalga oshirishda har bir xalq, mamlakatning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, milliy ma'naviy xususiyatlari, milliy davlatchiligi negizlari bilan bog'liq xususiyatlari ham hisobga olinishi, hurmat qilinishi demokratiya talablariga mos keladi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi yaqin istiqbolida mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-g'oyaviy sohalarida amalga oshirilishi zarur bo'lgan dasturiy mo'ljallarni belgilab berdi. Bu mustaqil taraqqiyot yo'limizni aniq maqsadlar orqali ifoda etadi hamda demokratik qadriyatlarni yanada chuqurroq hayotimizga singdirishda, demokratik fuqarolik jamiyatini qaror toptirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

3.2. Davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ko'rinishlari, tasnif mezonlariga bog'liq holda, quyidagicha taqsimlanishi mumkin:

- hokimiyatlarning bo'linish tamoyili bo'yicha: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari;

- hududiy miqyosi bo'yicha: mintaqaviy (hududiy), mahalliy hokimiyatlar;

- davlat faoliyati ko'rinishi bo'yicha: fuqarolik, harbiy, huquq-tartibot, maxsus ixtisoslashgan hokimiyatlar;

- tashkiliy-huquqiy me'yorlarga bo'yicha: jamoaviy, yakka tartibdagi hokimiyatlar;

- qaror qabul qilish shakli bo'yicha: kollegial, yakka-tartibdagi hokimiyatlar;

- davlat boshqaruv vazifalarini amalga oshirish shakl va usullari bo'yicha: siyosiy, ma'muriy, moliyaviy, kuch ishlatuvchi, iqtisodiy, jazo, nazorat-kuzatuv, maslahat, muvofiqlashtiruvchi hokimiyatlar;

- yuklatilgan vakolatlarni bajarish xususiyatlari bo'yicha: markaziy hokimiyat boshqaruvi, funksional hokimiyat boshqaruvi.¹

Davlat rasmiy hokimiyat tashkiloti sifatida o'zining ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo'yicha turli vazifalarini bajarar ekan, bu hokimiyatni belgilangan tartibda tashkil etiladigan davlat hokimiyati organlari va boshqaruv idoralari yordamida amalga oshiradi. Bu tizim davlat hokimiyatining yordamchi instituti, uning qarorlarini hayotga joriy etuvchi, hokimiyat vakolatlarini ma'lum huquq va majburiyatlarga muvofiq tarzda amalda ijro etadigan uning tuzilmalari bo'lib hisoblanadi. Demak, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hokimiyat tarmoqlari tizimida funksional, institusional, personal jihatlari bilan ajralib turadi. Uning tizimida juda katta boshqaruv, moddiy va insoniy resurslar to'plangan bo'lib, bu holat

¹ Василенко И.А. Государственное и муниципальное управление. 6-е изд. -М.: Юрайт, 2014. - С. 494.

davlat hokimiyati organlarining jamiyatda tutgan real oʻrni va ahamiyatiga taʼsir etadi.

Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilish boʻyicha islohotlarni amalga oshirish jarayonida hokimiyat tarmoqlari vakolatlari va nazorat funksiyalarini kuchaytirish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Bu borada boshqaruv apparatini demokratlashtirish quyidagilarni anglatadi:

- hokimiyatni markazdan soqit qilish - boshqaruv tizimida quyi pogʻonada turadigan hokimiyat organlari vakolatlarini kengaytirish;
- hokimiyat vakolatini berish - davlat boshqaruvi vazifalarining bir qismini fuqarolik jamiyati institutlari va tashkilotlariga oʻtkazish;
- hokimiyatni demokratlashtirish - boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish¹.

Davlat idoralari davlat hokimiyatini ijro etish va davlat boshqaruv vazifalarini amalga oshirish uchun tashkil qilinadi. Bunda davlat-boshqaruv faoliyatining ijtimoiy maqsadi sifatida quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

- meʼyoriy hujjatlar, insonlarning xatti-harakat qoidalarini qabul qilish bilan bogʻliq muvofiqlashtirish vazifasi;
- huquq-tartibot, qabul qilingan qarorlar ijrosini taʼminlaydigan tashkilotchilik vazifasi;
- fuqarolar xavfsizligini taʼminlash, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iborat muhofaza vazifasi².

Oʻzbekiston Respublikasidagi davlat idoralari davlat hokimiyatini amalga oshirishning yagona tizimini tashkil etadi. Oʻzbekiston fuqarolari davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqini amalga oshirar ekan, saylovlar va oʻz vakillari orqali davlat organlarini shakllantirishga taʼsir koʻrsatishi mumkin. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-moddasiga muvofiq “Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga boʻysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari kengashlari hokimiyatning vakillik organlari boʻlib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini koʻzlab oʻz vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar”³.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasida qayd etilganidek, mahalliy hokimiyat idoralari vakolatiga quyidagilar kiradi:

- qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini taʼminlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish masalalari;
- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yigʻimlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamgʻarmalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xoʻjalikka rahbarlik qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni taʼminlash;

¹ Хутинаев И.Д. Децентрализация государственной власти как элемент теории институционализации // Социология власти. – 2005. - № 6. - С. 83-84.

² Rahmonov A. Oʻzbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi. - T.: Akademiya, 2006. - B. 25-26.

³ Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Oʻzbekiston, 2017.

-normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Yuqoridagi fikrlardan shu narsa aniq bo‘ladiki, O‘zbekistonda davlat organlari tizimi deganda uning markaz, viloyatlar, tuman va shaharlardagi vakillik idoralari hamda mahalliy davlat hokimiyat organlarining yaxlitligi tushuniladi.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni so‘zsiz amalga oshirish, joylarda ishlarni tashkil etish, birinchi navbatda, jamoatchilik oldida hisobot berish shakllari va uslublarni tubdan takomillashtirish, aholining hayot sifati va darajasini yuksaltirish, davlat organlari rahbarlarining mas’uliyatsizligi holatlarining yuzaga kelishiga qat’iy ravishda barham berish hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017 yil 8 avgustdagi PQ-3182-son qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga asosan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha yangicha tizim-sektorlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Unga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hududlari tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) hokimlari, prokuratura, ichki ishlar va davlat soliq xizmati hududiy organlari rahbarlari boshchilik qiladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha 4 ta sektorlarga bo‘lindi¹. Hududlar va tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar ishini tashkil etish **“mahalla-tuman (shahar)-viloyat-respublika”** sxemasiga muvofiq faoliyatini tashkil etilishi mazkur qarorda belgilab qo‘yildi.

Sektorlar rahbarlari tomonidan oilalardagi holat o‘rganilib, ularda aniqlangan aksariyat muammolar joyida hal etildi. Hal etilishi murakkab bo‘lgan muammoli masalalar “yo‘l xaritalari”ga kiritilib, nazoratga olindi.

Ushbu jarayon:

- davlat boshqaruvi organlarining vazifalari, funksiyalari va vakolatlari, ularni amalga oshirish mexanizmlari hamda javobgarlik sohasini aniqlashtirish, muvofiqlashtirish hamda strategik rejalashtirish jarayonlarini markazlashtirishdan chiqarish va takomillashtirishga;

- davlat boshqaruvi organlari faoliyatini tashkil etishning institusional, moliyaviy asoslarini takomillashtirish, davlat xizmatlarining sifati va ulardan foydalanish imkoniyatini oshirish, shu jumladan, ularning elektron shaklda taqdim etilishini to‘laqonli ta’minlashga o‘tish, “Elektron hukumat” tizimini yanada rivojlantirishga;

- iqtisodiyot tarmoqlarini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirish va xo‘jalik boshqaruvi organlari maqomini qayta ko‘rib chiqishga;

- mahalliy davlat hokimiyati organlarini tashkil etish va faoliyatini takomillashtirishga;

¹ Yil sarhisobi. 2017 yil – shiddatli islohotlar yili. - T.: Adolat, 2017. – B. 96.

- professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, davlat boshqaruvi organlari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etishga xizmat qiladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari apparati faoliyatini amalga oshirish vazifalarga ajratilgandir. Shu bois, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida qabul qilinishi nazarda tutilgan, "Davlat xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, shuningdek, davlat boshqaruvi tizimini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tarkibi mazmunini samarali amalga oshirilishini ta'min etuvchi majburiy vazifalar o'zining aniq ifodasini topadi.

3.3. Harakatlar strategiyasi doirasida davlat va jamiyat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko'lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat boshqaruvining mutlaqo yangi va samarali faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni talab qiladi. Bu yo'nalishdagi ishlar davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy tuzilmasi, ularning vazifalari va funksiyalarini qayta ko'rib chiqishdan boshlandi.

Xususan, Harakatlar strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi tizimida yangi zamonaviy g'oyalarni tatbiq etish maqsadida aksariyat vazirlik va idoralarning vazifa va funksiyalari qayta ko'rib chiqildi, ularning ayrimlari qayta tashkil etildi. Tegishli sohalarida to'planib qolgan muammolarni samarali hal etish maqsadida bir qator yangi vazirlik va idoralar tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish, Maktabgacha ta'lim, Tashqi savdo va Innovasion rivojlanish vazirliklari, Turizmni rivojlantirish va Mudofaa sanoati davlat qo'mitalari hamda Loyiha boshqaruvi milliy agentligi kabi qator yangi vazirlik va idoralar shular jumlasidandir.

Mazkur islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2017 yil sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi tasdiqlanib, unga ko'ra davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta ustuvor yo'nalishi belgilandi:

Birinchi yo'nalish – ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining institusional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

Ikkinchi yo'nalish – ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalarini, ularni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohalarini aniqlashtirish;

Uchinchi yo'nalish – iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sirni qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish;

To'rtinchi yo'nalish – vertikal boshqaruv tizimi va ijro etuvchi hokimiyat organlari hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirish;

Beshinchi yo'nalish – davlat boshqaruvi tizimiga strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari, innovasion g'oyalar, ishlanma va texnologiyalarni joriy etish;

Oltinchi yo‘nalish – professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning ta’sirchan mexanizmlarini o‘rnatish.

Maxsus “Yo‘l xaritasi” asosida yana 100 dan ortiq davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqildi. Qisqa vaqt ichida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi doirasida yana bir qator vazirlik va idoralar faoliyatining institusional va tashkiliy-huquqiy asoslari, shuningdek ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalari va funksiyalari hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari takomillashtirildi.

Mahalliy hokimliklarning moddiy-texnik ta’minoti va ularning xodimlari mehnatiga haq to‘lash tizimi qayta ko‘rib chiqilib, hokimlarning kadrlarni joy-joyiga qo‘yishdagi vakolatlari kuchaytirildi. Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va ularni boshqarish bo‘yicha mahalliy organlarning mustaqilligini amalda ta’minlash choralari ko‘rildi.

O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, so‘zsiz, innovasion rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari va jahon standartlarini hisobga olgan holda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishga yangi kuch bag‘ishlaydi.

Mamlakatimizda davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimi izchillik bilan takomillashtirilmoqda va modernizatsiya qilinmoqda, bu aholining hayot sifati, investisiya iqlimi, ishchanlik muhitini yaxshilash va biznesni rivojlantirish imkonini oshirmoqda.

2017 yil 1 apreldan boshlab ro‘yxatga olish tartib-taomillarini 30 daqiqagacha qisqartirish imkonini beruvchi tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning avtomatlashtirilgan tizimi ishga tushirildi, bu esa “Doing Business 2018” global reytingidagi “Biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish” ko‘rsatkichi bo‘yicha O‘zbekistonning mavqeini 24-o‘rindan 11-o‘ringa yaxshilashga xizmat qildi.

Davlat xizmatlardan aholi hamda tadbirkorlar foydalanishining eng qulay imkoniyatlarini yaratish maqsadida elektron davlat xizmatlarining soni oshirildi. Tadbirkorlar uchun bir qator faoliyat turlari bo‘yicha lisenziyalarni olish uchun onlayn ariza yuborish imkoniyatlari yaratildi.

Davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimining aholi va tadbirkorlik sub’ektlari ehtiyojlarini to‘liq qanoatlantiradigan sifat jihatidan yangi darajagi o‘tishiga ayrim tizimli muammolarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 dekabr kuni **“Aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi Farmoni va **“O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”**gi qarori qabul qilindi. Mazkur Faromon va Qaror davlat xizmatlarining sifati, tezkorligi, shaffofligi va foydalanish imkoniyatini tubdan oshirish bo‘yicha kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni, **“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”** degan ulug‘vor g‘oyani so‘zsiz amalga oshiruvchi asosiy g‘oyalarni belgilab berdi. Mazkur g‘oyalarning amalda tatbiq etilishi davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasida **“Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi”** degan muhim tamoyilni joriy etish imkonini beradi. Xususan, mazkur sohadagi davlat siyoatini amalga oshirishga mas’uliyat yuklangan alohida davlat organi - O‘zbekiston Respublikasi Adliya

vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Amalga oshirilayotgan ushbu islohotlarning uyg'unligi va izchilligini ta'minlaydi, davlat xizmatlarini sifatli bajarish uchun vakolatli organlar va tashkilotlarning javobgarligini oshiradi. Shu bilan birga, aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida boshqaruvni amalga oshirishning aniq tashkiliy-institusional asoslarini shakllantirish ta'minlanmoqda. Shuningdek, davlatni aholi bilan o'zaro bog'laydigan yagona joy sifatida Davlat xizmatlari markazlari va Xalq qabulxonalari davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini oshirish, fuqarolarning vaqt va moliyaviy xarajatlarini kamaytirish, shuningdek, ularning davlat organlari faoliyatidan qanoatlanganlik darajasini oshirishga xizmat qilishi joriy etildi.

Davlat va ma'muriy tuzilmalarni yanada chuqurroq isloh qilishga intilish – bu davlat apparatini modernizatsiyalashning evolyusion davomidir. Uning mohiyati davlat boshqaruvining milliy organlarini tuzish bosqichidan ularning ish faoliyatini takomillashtirish bosqichiga o'tish bilan belgilanadi.

Davlat, islohotlar tashabbusi bilan chiqish va ularni amalga oshirish borasidagi vazifalarni bajarar ekan, asta-sekinlik bilan umummilliy vazifalarni amalga oshiruvchi, fuqarolik jamiyatini qurishni tashkiliy jihatdan ta'minlovchi tizimga aylanib bormokda. Shu bilan birga, boshqaruv organlari faoliyatini modernizatsiyalash borasida ham amaliy qadamlar tashlanmoqda.

Boshqaruv organlarini islohtlashtirish markazda va joylarda davlat hokimiyatining yangi organlarini paydo bo'lishiga va rasmiylashuviga yordam berdi, davlat qurilishini konseptual ta'minlash sohasidagi bo'shliqni to'ldiradi, bizga meros bo'lib qolgan boshqaruv tuzilmalarining ma'lum darajada rivojlanish imkoniyatini ta'minlaydi, iqtisodiyotdagi ayrim boshqaruv organlarini davlat tasarrufidan chiqarish hamda mulkchilikning nodavlat shakllariga va amal qilish tamoyillariga asoslangan tashkilotlarni tuzish borasida qo'shimcha turtki bo'ldi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish hamda mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 fevraldagi **“Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmonga muvofiq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning ijrosini samarali ta'minlash maqsadida mahalla fuqarolar yig'ini Kengashi tarkibiga fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosarlarini, hududdagi profilaktika inspektorlarini, ta'lim muassasalari va qishloq vrachlik punktlari (oilaviy poliklinikalar) rahbarlarini kiritish va ularning o'z faoliyati yuzasidan yilning har choragida fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ga hisobot taqdim qilish amaliyoti joriy etildi.

Shuningdek, qayd etib o'tilgan Farmon ijrosi yuzasidan mahalla fuqarolar yig'inidagi xodimlar soni ko'paytirildi. Mahallalardagi bir qator binolarni qurish, rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida tegishli vazifalarni amalga oshirishda munosib hissa qo'shgan tashabbuskor fuqarolar va jamoatchilik tuzilmalari vakillarini rag'batlantirish maqsadida “Mahalla iftixori” ko'krak nishoni ta'sis etildi.

“Obod qishloq” va **“Obod mahalla”** dasturlari orqali mahallalarni obod qilish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. 2018 yilda bu boradagi qurilish va obodonlashtirish ishlariga 3 trillion so'm mablag' yo'naltirildi. Natijada 416 ta qishloq yangicha qiyofaga ega bo'ldi. 2019 yilda ushbu dasturlar doirasida 479 ta qishloq va ovulda, shaharlardagi 116 ta mahallada keng ko'lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Bunga 6,1 trillion so'm yoki 2018 yilga nisbatan 1,5 trillion so'm ko'p mablag' sarflandi. Qishloq joylarda – 17 ming 100 ta, shaharlarda – 17 ming 600 ta, jami 34 ming 700 ta yoki 2016 yilga nisbatan salkam 3 barobar ko'p arzon va shinam uylar qurildi.

Kam ta'minlangan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj 5 mingta oilaga, jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarga ipoteka krediti asosida arzon uy-joy sotib olish uchun 116 milliard so'mdan ziyod boshlang'ich badal to'lab berildi.

O'tgan qisqa davrda aholi muammolarini aniqlash va hal qilish bo'yicha **“mahalla – sektor – Xalq qabulxonasi – mahalla”** tamoyili asosida samarali hamkorlik tizimini joriy etish, mahallani xalq bilan davlat o'rtasida ishonchli “ko'pri” bo'lishini amalda ta'minlash, oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5938-sonli Farmoni hamda “O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-4602-sonli qarori bilan Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan vazirlikning asosiy vazifasi va faoliyat yo'nalishlaridan biri etib jamiyatda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining to'laqonli va samarali joriy etilishida har tomonlama ko'maklashish, oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorlikni o'rnatish belgilandi.

Nazorat uchun savollar:

1. Boshqaruv tushunchasining qanday nazariy yondashuvlari mavjud?
2. Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish borasida nimalarni bilasiz?
3. Davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Ma'muriy islohotlar konsepsiyasining ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?
5. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyati haqida gapirib bering.

4-BOB. QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH VA SUD HUQUQ TIZIMINI YANADA ISLOH QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Reja:

1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish.

2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va iqtisodiy qonunchilikni takomillashtirish.

3. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarlikning oldini olish tizimini takomillashtirish.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish, sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etilishi haqida ma'lumot berish; fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va iqtisodiy qonunchilikni takomillashtirish jarayonlari haqida bilim berish; jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarlikning oldini olish tizimini takomillashtirish yo'llari haqida tushuncha berish.

Tayanch iboralar: sud hokimiyati, sud tizimi, qonunchilik, qonun ustuvorligi, demokratlashtirish, fuqarolarning huquq va erkinliklari, huquqiy ong va madaniyat, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarlik; xavfsizlik, jamoatchilik nazorati.

4.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish

Qonun ustuvorligi - fuqarolik jamiyati barpo etishning asosi bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga adolat mezoni hisoblanadi. Chunki, qonun ustuvorligi ta'minlansagina adolat qaror topadi, insonlar millati, tili, urf-odati, an'anasi, qadriyatlarini, diniy e'tiqodi, jinsi, ijtimoiy ahvoli kabilarda tenglikka erishadilar. U mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida barqarorlik ta'minlanishining asosi hisoblanadi. Qonun oyoq osti qilingan mamlakatda talon-torajlik, tengsizlik, adolatsizlik, zo'ravonlik va boshqa bir qator salbiy holatlar yuzaga keladi. Ana shuning uchun ham qonun ustuvorligi umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Qonun bilan yashashni millat vakillarining dunyoqarashiga aylanishiga erishish, milliy rivojlanishning muhim yo'nalishini tashkil qiladi.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim belgilaridan biri – jamiyat a'zolarining qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning tengligi ta'minlanganligidir. Shuningdek, Konstitutsiya va qonunlarning pirovard maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashdan iborat bo'lmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi mustahkamlanib qo'yilgan (13-modda). Ijtimoiy qadriyatlarning davlat foydasini emas, balki inson foydasini ko'zlab o'zgartirilishi jamiyat tomonidan to'la qo'llab-quvvatlanadi. Zero, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi tamoyilining Konstitutsiyamizda belgilanganligi (11-modda) mustaqilligimizning eng muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki, faqat shunday umume'tirof etilgan, jahon tajribasida sinovdan o'tgan demokratik yo'l bilangina odil sudlov lozim darajada amalga oshirilishi, Konstitutsiyaga va inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarga so'zsiz rioya etilishi, ijtimoiy adolat,

fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlash, qonuniylik va huquqiy tartibotning mustahkamlanishiga erishish mumkin.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Har qanday demokratik islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta'minlanishi bilan bevosita bog'liq.

Qonun ustuvorligi – bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo'lishi shart, deganidir.

Shu boisdan ham barcha bo'g'indagi kadrlar, u xoh vazir, hokim yoki oddiy fuqaro bo'lsin, Konstitutsiya va qonunlarni puxta bilishi, ularning ijrosini to'g'ri tashkil etishi hamda birinchi navbatda bu qoidalarga butun jamiyat a'zolari qat'iy amal qilishi shart bo'lgan muhit yaratishimiz zarur.

"Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – farovon hayot garovi" degan tushuncha fuqarolarimizning ongi va qalbida chuqur o'rin egallashi hamda ijtimoiy ehtiyojga aylanishi uchun quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim, deb hisoblayman"¹.

Bugungi kunda sud hokimiyati davlat hokimiyatining mustaqil tarmog'i ekanligi to'g'risidagi nuqtai nazar to'la qaror topdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106-moddasida va O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonunining 2-moddasida ko'rsatilganidek, sud o'z faoliyatini mustaqillik, sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi prinsiplari asosida amalga oshiradi. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Shaxsning huquqlarini himoya qilish muammolari bilan bevosita bog'liq bo'lan sud nazorati g'oyasi, shubhasiz, ma'naviy jahatlarga ega bo'lib, o'z ildizlari bilan teran o'tmishga singib ketadi. Hokimiyat bo'linishi haqidagi ta'limot amalda dunyodagi barcha demokratik rivojlangan mamlakatlarning konstitutsiyaviy qonunchiligida va davlat qurilishida mujassam bo'lgan.

Mustaqillik davrida sud hokimiyatining tashkil etilishi va amal qilishi asoslarini belgilovchi qonunlarning qabul qilinishi so'zsiz jamiyatni demokratlashtirish borasidagi jiddiy yutuqlar sirasiga kiradi. Ular jumlasiga O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunlari, Fuqarolik, Fuqarolik protsessual, Iqtisodiy protsessual, Jinoyat, Jinoyat protsessual, Ma'muriy javobgarlik, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodekslar va boshqa qonun hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmonlari va qarorlarini kiritish mumkin. Sud hokimiyatining yagonaligi, sudyalarning mustaqilligi, sud korpusining shakllantirilishini belgilaydigan huquqiy qoidalar, shuningdek sudlar faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnika masalalari ayni shu hujjatlarda bayon qilingan. Protsessual kodekslarda esa huquqiy demokratik davlat barpo etish sharoitida odil sudlovni amalga oshirish tamoyillari, sud ishlarini xalqaro andozalarga muvofiq

¹ Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2019 yil 7 dekabr

tarzda yuritish qoidalarini, ya'ni sud ishlarini yuritishda tortishuv, aybsizlik prezumpsiyasi, protsessda tomonlar tengligi kabi tamoyillar o'z aksini topdi.

So'nggi yillarda sud-tergov faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan qonun hujjatlariga bir qator o'zgartishlar kiritildi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning bevosita tashabbusi bilan sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud hokimiyatining fuqarolar huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirish yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirildi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida **“Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish”** ikkinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, sud hokimiyatining tom ma'noda mustaqilligini ta'minlash, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish ushbu sohadagi islohotlarning eng asosiy yo'nalishlaridir.

Sudyalar korpusini shakllantirish tizimini sud hokimiyatining mustaqilligi prinsipiga to'liq moslashtirish, bu jarayonda keng jamoatchilik ishtirokini ta'minlash, ichki ishlar vaziri, Milliy gvardiya qo'mondoni va Bosh prokurorning respublika hududlariga shaxsan mas'ul etib tayinlanishi, “mahalla posboni” lavozimi tugatilib, uning o'rniga profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy etilishi, jinoyat qonunchiligini yanada takomillashtirish va liberallashtirish maqsadida jinoyat va jinoyat-protsessual kodekslari yangi tahrirda qabul qilinishi sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning izchilligi va qat'iyligidan dalolatdir.

O'tgan qisqa davr mobaynida sud tizimi faoliyati samardorligini oshirish, sudyalarni tanlash va joy-joyiga qo'yish tartibini takomillashtirish, har bir ish bo'yicha qonuniy, asoslantirilgan va adolatli sud qarori chiqarilishini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi sud tizimi – Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va uning tarkibida harbiy sudlar, fuqarolik, jinoyat, iqtisodiy va ma'muriy sudlar to'la-to'kis tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga asosan fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ish yurituvchi sohasida sud hokimiyatining yagona oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tashkil etildi, sudlar tomonidan jinoyat ishlarini qo'shimcha tergovga qaytarishdek odil sudlovning mazmun-mohiyatiga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan amaliyotga chek qo'yildi.

Sudyalikka nomzodlarni tanlash va lavozimga tayinlash tartibi tubdan takomillashtirilib, sudyalar hamjamiyatining yangi organi – Sudyalar oliy kengashi ta'sis etildi. Sudlar tizimining amaldagi tuzilmasi va shtat birligi qayta ko'rib chiqilib, sudyalarning xizmat vazifalarini oqilona taqsimlash imkonini beradigan darajada, hozirgi zamon talablarini inobatga olgan holda takomillashtirildi va maqbullashtirildi. Sudyalar vakolat muddatining ilk besh va o'n yillik davri o'tganidan so'ng lavozimda muddatsiz bo'lish amaliyoti joriy qilindi.

Ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy nizolarni, shuningdek ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga

vakolatli bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari, har bir tuman (shahar) ma'muriy sudlari tashkil etildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy sudlari etib o'zgartirildi, ishlarni birinchi instansiyada ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan 71 ta tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlari tashkil etildi.

Ta'kidlash joizki, barcha toifadagi sud ishlarini sayyor sud majlislarida ko'rib chiqish amaliyotining kengaytirilganligi aholi bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish va sud hokimiyatining ochiqqligini oshirish yo'lida ko'rilgan muhim chora bo'ldi. Sudyalar tomonidan aholi bilan ochiq muloqotlar tashkil etilayotgani, mahalla, korxona va tashkilotlarda sayyor sud majlislari o'tkazish yo'lga qo'yilgani tizimning ochiqqligini ta'minlash bilan birga, aholining sud tizimiga, adolatga, davlatga ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Har bir hukmning qonuniy va adolatli bo'lishini ta'minlash maqsadida jamoatchilik fikrini inobatga olish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 avgustdagi "Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora – tadbirlari to'g'risida"gi qarori sudlar faoliyati ochiqqligi, shaffofligi va tezkorligini ta'minlashni, sudlarda ishlarning o'z vaqtida ko'rilishi ustidan samarali nazorat tizimini yaratish maqsadida ularning ishini avtomatlashtirish va faoliyati haqidagi ma'lumotlarni tizimlashtirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, sudlarda ish ko'rilishi samaradorligini ta'minlovchi axborot tizimlari va resurslarini takomillashtirish, sudlar tizimida axborot xavfsizligi va xavfsiz elektron hujjat aylanishini ta'minlash, sudyalar va sud xodimlarining kompyuter savodxonligi va o'z ishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Mazkur qaror bilan 2017-2020 yillarda sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish navbatdagi yangi dasturi tasdiqlandi. Dasturning amaliy ijrosi doirasida 2018 yil sentyabridan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining yangi rasmiy veb – sayti, undagi interaktiv xizmatlar yaratildi, www.sud.uz, www.oliysud.uz va www.supcourt.uz manzillari bo'yicha sayt joylashtirildi. Endilikda ushbu tizim orqali fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga elektron murojaat qilish bilan birga sud majlislarining jadvali, kuni va vaqtdan elektron tarzda xabardor bo'lish, barcha sud qarorlari bilan tanishish mumkin.

O'zbekistonda ilk marotaba doimiy ishlovchi sud majlislarining onlayn translyatsiyasi joriy etildi. Bu holat ayni sud jarayonini Oliy sudning veb-sayti orqali to'g'ridan-to'g'ri kuzatib borish imkoniyatini beradi. Hozirda ushbu tizim sinov tariqasida O'zbekistonning chekka hududlari bo'lgan Xorazm, Surxondaryo va Namangan viloyatlaridagi 12 ta sudga o'rnatildi va ishga tushirildi. 2018 yilning oxiriga qadar 22 ta, 2019 yilda esa 100 dan ortiq sudni onlayn translyatsiya tizimiga o'tkazish rejalashtirilmoqda¹.

Odil sudlovning ochiq-oshkoraligi va undan foydalanish imkoniyatini ta'minlash elektron sudlov tizimini joriy qilish hamda sud faoliyatini AKT bilan

¹ <http://kun.uz/news4376>

to'liq jihozlash borasidagi ishlarning asosiy samarasidir. Bu prinsiplarning hayotga tatbiq etilishi sud axborotidan foydalanish huquqini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir.

Sud jarayonlarini boshqarish bo'yicha ishonchli elektron tizimlarni ishlab chiqilayotganligi va joriy etilayotganligi samarali, zamonaviy hamda hisob beruvchi sud tizimini shakllantirishda, eng muhimi, ishlarni sudda oshkor ko'rib chiqish prinsipini, axborot ochiqligi, odil sudlovdan foydalanish va uning oshkoraligini ta'minlashda texnologik asos bo'lib xizmat qiladi.

4.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va iqtisodiy qonunchilikni takomillashtirish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlari ustuvorligini ta'minlaydi, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqini kafolatlaydi.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 8-moddasida aytilganidek: "Har bir inson unga konstitutsiya yoki qonunlari taqdim etgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda bunday huquqlarning vakolatli milliy sudlar tomonidan samarali qayta tiklanishini talab qilish huquqiga egadir". Bundan tashqari, xalqaro me'yorlar davlatlarning sud himoyasida bo'lish imkoniyatlarini rivojlantirish borasidagi burchini ham ko'rsatib o'tadi ("Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro Paktning 2-moddasi).

Shuni qayd etish zarurki, odil sudlovning amalga oshirilishi bir qator umume'tirof etilgan demokratik tamoyillar: qonunchilik (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 15-moddasi 2-qismi); sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 112-moddasi); barchaning qonun va sud oldida tengligi (Konstitutsiyaning 18-moddasi 1-qismi); fuqarolarning sud himoyasida bo'lishi (Konstitutsiyaning 44-moddasi); aybsizlik prezumpsiyasi (Konstitutsiyaning 26-moddasi); barcha sudlarda ishlarning ochiq ko'rib chiqilishi (Konstitutsiyaning 113-moddasi); sud ishlarini yuritish tili (Konstitutsiyaning 115-moddasi); gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining himoyalaniş huquqi bilan ta'minlanishiga (Konstitutsiyaning 118-moddasi) asoslanadi.

Ushbu tamoyillar dasturiy, dastlabki qoidalar sifatida odil sudlovni tashkil etish, uning organlarining davlat mexanizmidagi va jamiyatning siyosiy tizimidagi, eng asosiysi, inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi roli va o'rni haqidagi masalalarga doir qonunchilikning barcha talablari uchun negiz hisoblanadi.

Mamlakatimizda odil sudlovning rivojlanishi va takomillashishi amaliyotidan kelib chiqib, xalqaro hujjatlarda belgilangan qoidalar asosida odil sudlov demokratik negizlarining mazmuni boyitilib borilmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda bunday jarayon ancha faollashganligini ko'rish mumkin.

Odil sudlovni amalga oshirish sifatini yaxshilash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyasi kafolatlarini kuchaytirish maqsadida,

shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq:

birinchidan, sud organlari faoliyatining shaffofligini yanada ta'minlash, aholi bilan ochiq muloqotni kengaytirish va odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilik roli kuchaytirildi;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi veb-saytida sud qarorlarini tizimli ravishda e'lon qilish tartibi joriy etildi;

uchinchidan, sudlar faoliyati to'g'risida har chorakda viloyat sudlari raislari va ularning o'rin bosarlari tomonidan muntazam ravishda brifinglar o'tkazish yo'lga qo'yildi;

to'rtinchidan, sud hujjatining mazmun - mohiyatini sud protsessi ishtirokchilariga to'liq tushuntirib berish sud amaliyotiga kiritildi;

beshinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlari tomonidan sud ishlarini nazorat tartibida, viloyatlar va ularga tenglashtirilgan sudlar tomonidan sud ishlarini appelyatsiya va kassatsiya tartibida ko'rib chiqish amaliyotining obzorlarini har chorakda e'lon qilish qat'iy belgilab qo'yildi.

2017 yil 13 iyun kuni sud organlari tizimida odil sudlovni ta'minlash borasidagi ishlarning ahvoli, muammolar va istiqboldagi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev fuqarolik jamiyatini barpo etishda qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash eng muhim vazifa ekanligini, shuningdek "fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish orqali xalqning sud tizimiga bo'lgan ishonchini qat'iy mustahkamlash, sudni tom ma'noda **"Adolat qo'rg'oni"ga aylantirish**" lozimligini ta'kidladi.

Prezidentimiz ko'rsatmalari asosida sudyalarni kasbga tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida ixtisoslashgan o'quv muassasasi – **Odil sudlov akademiyasi** tashkil etildi¹.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 iyul "Sud huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining sudyalarni tanlash va lavozimga tayinlashning xolisligi va shaffofligiga ishonchni oshirish maqsadida har bir hududda sudyalar korpusini shakllantirishga ko'maklashuvchi komissiyalar tuzildi.

Inson huquqlarini sud orqali himoya qilish va sud himoyasida bo'lishi muammosiga bo'lgan diqqat-e'tibor butunlay asoslidir. U yoki bu idoralar va mansabdor shaxslarning har qanday noqonuniy qarori, xatti-harakatlari yoki harakatsizliklari ustidan sudlarga hech qanday to'siqsiz murojaat qilish imkoniyati erkinlikning muhim sharti hisoblanadi. Sudga shikoyat bilan murojaat qilish, bunday shikoyat bilan ma'muriy tartibga shikoyat qilishga nisbatan qator afzalliklarga ega, chunki sudda ish ko'rish qat'iy qoidalar asosida bo'lishi qonun bilan tartibga solingan.

Bugungi kunda sudga bema'lol murojaat qilish tamoyilning soni va shularga yetarli bo'lgan sudlar va sudyalar bilan ta'minlanishi; professional yuristlar

¹ Qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash – barcha ezgu maqsadlarimizga erishishning eng muhim sharti // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil 14 iyun

ko'rsatadigan malakali yordamning yetarli bo'lishi; aholining kambag'al qatlamlari uchun ham odil sudlov bo'lishini ta'minlash; sudda ish ko'rishga oid qoidalarining soddalashtirilishi va tabaqalashtirilishi kabi dolzarb vazifalar ijrosiga alohida e'tibor qaratilgan.

Sud-tergov amaliyotida dalillarni to'plash va baholashda qonuniylik va xolislikni ta'minlashga to'sqinlik qiladigan holatlarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmonga binoan O'zbekistonda qiynoqqa solish, ruhiy, jismoniy bosim o'tkazish va boshqa zo'rvonlik holatlariga mutlaqo yo'l qo'yilmasligi, jinoyat ishlari doirasida noqonuniy usullar bilan olingan har qanday ma'lumotlardan, jumladan, audio va video materiallardan, ashyoviy dalillardan foydalanishning qat'iy qat'iy taqiqlanishi belgilandi.

Shuningdek, Farmon bilan advokatlar jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash va taqdim etish huquqiga ega bo'lishi, bu dalillar tergov va sud idoralari tomonidan majburiy tekshirilishi va baholanishi shartligi belgilab qo'yildi. Qiynoqqa solish kabi noqonuniy usullarni qo'llashni qat'iy cheklash maqsadida tergov va vaqtincha saqlash hibsonalari videokuzatuv vositalari bilan jihozlanishi nazarda tutildi.

2019 yilda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi, "Jabrlanuvchi, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Shuningdek, Xalqaro mehnat tashkilotining "Majburiy mehnat to'g'risida"gi, "Sanoat va savdoda mehnat inspeksiyasi to'g'risida"gi konvensiyalari ratifikatsiya qilindi.

So'nggi yillarda jinoyat sodir etgan shaxslarni afv etish bo'yicha 9 ta farmon qabul qilinib, turli sharoitlar tufayli jinoyat sodir etgan, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan, yashash joyi va jazoni ijro etish muassasasida ijobiy tavsiflangan 4 mingdan ziyod shaxslar jazoni o'tash joylaridan ozod qilindi.

2019 yilda Jasliq qo'rg'onidagi jazoni ijro etish koloniyasini yopigani ham ana shunday insonparvar siyosatning amaliy namunasi bo'ldi.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarga pensiya va ijtimoiy sug'urta to'lash tartibi birinchi marta amaliyotga kiritildi. Natijada manzil-koloniyalarda jazoni o'tayotgan pensiya yoshidagi 709 nafar mahkumga pensiya pullari to'lab berilmoqda.

Ma'muriy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha. Ma'muriy qonunchilik davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ma'muriy qonunchilik – ijro etuvchi hokimiyatning tashkil qilinishi va amal qilishi jarayonida, davlat boshqaruvi faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuidir.

So'nggi yillar davomida ma'muriy qonunchilikni takomillashtirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi

qabul qilindi. Shuningdek, eng asosiysi respublikamizda ma'muriy sudlar faoliyati tashkil etildi.

Ma'muriy qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilarni:

- ma'muriy qonunchiligi normalarini ko'rib chiqish va unifikatsiyalash;

- ma'muriy javobgarlik va jazo tizimini takomillashtirish;

- fuqarolarning huquq va erkinliklarini ma'muriy qonunchilik asosida ishonchli muhofaza qilinishini ta'minlash;

- ma'muriy-protsessual qonunchilik normalarini tizimlashtirish va uyg'unlashtirish;

- ma'muriy protsessda shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlarini ishonchli ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha.

Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligining samarali tizimini yaratish davlatning qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, tinchlik va xavfsizlikni ishonchli himoya qilish bo'yicha ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, sud-tergov amaliyoti tahlili, shuningdek, xalq bilan bevosita muloqot natijalari ushbu sohada bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda, jumladan:

birinchidan, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish, jinoyat ishlari bo'yicha sudgacha va sud jarayonida qonuniylikni ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi huquqiy bo'shliqlarning mavjudligi;

ikkinchidan, jinoyatlarni profilaktika qilish va oldini olish, shuningdek, fuqarolarga yuksak huquqiy madaniyat va qonunga hurmat hissini singdirish borasidagi huquqiy mexanizmlarning yetarli darajada samarador emasligi;

uchinchidan, alohida turdagi jinoyatlarni sodir etganlik uchun sanksiyalar qilmishlarning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasiga nomuvofiqligi, jumladan jazoning muqobil turlari, rag'batlantiruvchi normalar va jamoat ta'sir choralari yetarli darajada qo'llanilmasligi va samarasizligi;

to'rtinchidan, tezkor-tergov tadbirlarini o'tkazish sifatining qoniqarsizligi va protsessual qonunchilik talablarini buzgan holda olingan ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanilishi;

beshinchidan, xalqaro amaliyotda e'tirof etilgan jinoyat-huquqiy institutlarning yetarli darajada implementatsiya qilinmaganligi, jumladan yuridik shaxslar jinoiy javobgarligining mavjud emasligi;

oltinchidan, sud-tergov faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish juda past darajada ekanligi va boshqalar.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasida Jinoyat va Jinoyat protsessual kodekslari qariyb 25 yil oldin qabul qilinganligi, o'tgan davr mobaynida jamiyatdagi munosabatlar, odamlarning yashash tarzi, ongi, dunyoqarashi o'zgarganligi va bu kodekslar davr talabiga javob bermay qolganligi ta'kidlandi. Shu maqsadda Jinoyat va Jinoyat protsessual kodekslari yangi tahrirda qabul qilindi. Bugungi kunda zamonaviy xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani

inobatga olgan holda, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning mutlaqo yangi ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 14 maydagi №PQ-3723 - sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi.

Ushbu konsepsiyada quyidagilar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari va vazifalari etib belgilab berildi:

- jinoyat qonunchiligi normalarini unifikatsiya qilish;
- jinoiy javobgarlik va jazo tizimini takomillashtirish;
- fuqarolar huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarining ta'sirchan va ishonchli muhofaza qilinishini ta'minlash;
- jinoyat-protsessual qonunchiligi normalarini tizimlashtirish va uyg'unlashtirish;
- jinoyat protsessida shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlarini ishonchli ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- jinoyat protsessining yangi shakl va tartib-taomillarini kiritish.

Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha. Fuqarolik qonunchiligining asosiy manbalaridan biri bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi 1993 - 1996 yillarda, ya'ni bundan 24 yil avval, iqtisodiyot endigina rivojlana boshlagan, iqtisodiyotni huquq bilan tartibga solishga kirishilgan bir sharoitlarda ishlab chiqilgan va 1997 yil 1 martdan boshlab amalga kiritilgan edi.

O'tgan yillar davomida mamlakatimizda fuqarolik qonun hujjatlarini takomillashtirish va unifikatsiya qilish masalalariga doir bir qator xalqaro konferensiyalar va davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Ta'kidlash lozimki, Fuqarolik va fuqarolik protsessual Kodekslarini takomillashtirish yuzasidan ishlar olib borilar ekan, fuqarolik qonun hujjatlari rivojlanishining strategiyasi hamda uni bosqichma-bosqich taktik jihatdan amalga oshirish masalalari bo'yicha aniq to'xtamga kelish zarur bo'lib hisoblanadi.

Biz qonun hujjatlari yuzasidan nimalarga ega ekanligimizni va yaqin yillar hamda kelajak istiqboldagi 15-20 yil ichida fuqarolik qonun hujjatlarini rivojlantirish bo'yicha qanday ishlar olib borilishi kerakligi yuzasidan aniq tasavvurga ega bo'lishimiz lozim.

Bu boradagi qonunchilik bazasini yaratish, takomillashtirish hamda ularni amalga oshirish yuzasidan tegishli ishlar rejalashtirilishi kerak. Fuqarolik va Fuqarolik protsessual Kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish asosan mazkur kodeksning ayrim institutlari va normalarini yangilashga, bozor iqtisodiyoti sharoitlariga mos kelmaydigan yoki yuridik texnika qoidalarini buzadigan Kodeksdagi mavjud qoidalarni chiqarib tashlashga hamda bir qator moddalarni yangi tahrirda bayon qilishga qaratildi.

Bunda eng asosiy vazifa, chuqur tahlillar va ilmiy asoslarga tayangan xolda fuqarolik qonun hujjatlarida vujudga kelgan ayrim bo'shliqlarni to'ldirish, huquqni qo'llovchi uchun qiyinchilik tug'diradigan holatlarni bartaraf etish, tovarlar, ishlar,

xizmatlar bozorida erkin raqobatni ta'minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratildi.

Fuqarolik qonun hujjatlarini takomillashtirish uchun avvalo quyidagilarga aloxida e'tibor qaratish lozim:

- fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirishga;

- fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalarini to'laqonli bajarishga;

- sud orqali himoyalani sh huquqini ta'minlashga;

- sudga murojaat qilish shakllarini tushintirishga

- fuqarolik ishini yuritish va sud hujjatlarini ijrosini ta'minlashga.

Fuqarolik huquqiy munosabatlarning barqarorligi, fuqarolik protsessi ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida fuqarolik ishi bo'yicha sud qarorini nazorat tartibida qayta ko'rib chiqish imkoniyatini beruvchi muddat **3 yildan 1 yilga** qisqartirildi.

Iqtisodiy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha. Iqtisodiy qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilarni:

- iqtisodiy protsessual qonunchiligi normalarini ko'rib chiqish va unifikatsiyalash;

- iqtisodiy-protsessual qonunchilik normalarini tizimlashtirish va uyg'unlashtirish;

- iqtisodiy protsessda yuridik shaxslarning huquqlarini ta'minlash;

- birinchi instansiya sudida, apellyatsiya va kassatsiya instansiyasida ish yuritish;

- chet ellik shaxslar ishtirokidagi ishlarni yuritish;

- iqtisodiy sudlarning sud hujjatlarini qayta ko'rish bo'yicha ish yuritish, iqtisodiy sudlarning sud hujjatlarini ijro etish mexanizmlarini takomillashtirish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni, qonun hujjatlarining so'zsiz ijro qilinishini ta'minlash maqsadida prokuratura organlari tizimi ham isloh qilindi.

Xususan, energiya resurslari uchun to'lovlar o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishini ta'minlash, elektr va gaz taqsimlash tarmoqlariga noqonuniy ulanish holatlarini aniqlash, oldini olish va bartaraf etish hamda sud qarorlarining so'zsiz ijro etilishini ta'minlash maqsadida Bosh prokuratura huzurida **Majburiy ijro byuro**si tashkil etildi. Qisqa vaqt ichida Byuro tomonidan elektr energiya va tabiiy gaz ta'minoti hamda sud hujjatlari ijrosini ta'minlash sohasida to'p lanib qolgan tizimli muammo va kamchiliklarni hal etishga qaratilgan ta'sirchan choralar ko'rildi.

4.3. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarlikning oldini olish tizimini takomillashtirish

Jamoat tartibini saqlash, avvalambor, voyaga yetmagan va yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning buzg'unchi tahdidlarni barvaqt aniqlash bo'yicha yakdil harakatlarni, ularni hamkorlikda va sifatli bartaraf etilishini ta'minlash maqsadida, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, quyidagilar respublikamizda huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning

jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi:

birinchidan, taraqqiy etayotgan respublikamiz xududlarini xavfsizligining garovi sifatida harakatlar yakdilligi asosida barcha davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o‘zaro hamkorlik qilishning amaliy mexanizmini joriy etish;

ikkinchidan, "Jaholatga qarshi ma’rifat" ezgu g‘oyasi asosida har bir mahalla kesimida diniy-ekstremistik xususiyatga ega bo‘lgan huquqbuzarliklarni sodir etish sabab va shart-sharoitlarini barvaqt aniqlash va bartaraf etishga, birinchi navbatda, ekstremistik oqim mafkurasi ta’siri ostiga tushib qolgan shaxslarni tuzatishga alohida e’tibor qaratish;

uchinchidan, prokuratura organlari tomonidan kundalik asosda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga, shu jumladan, ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlashga amaliy yordam ko‘rsatish, shuningdek, aniqlangan qonunbuzarliklar, sun’iy to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish;

to‘rtinchidan, aholiga eng yaqin bo‘lgan joylarda kuch va vositalar faoliyatini bevosita boshqarish va muvofiqlashtirishning samarali tizimini yaratish maqsadida ichki ishlar organlarining amaldagi tuzilmasini takomillashtirish;

beshinchidan, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibining intellektual va kasbiy darajasini oshirish, ularga qo‘shimcha tadbir va ishlardagi ishtiroki tufayli ortiqcha vazifalar yuklanishini bartaraf etish maqsadida sohaviy xizmatlar o‘rtasidagi vazifalarning aniq chegaralarini belgilash;

oltinchidan, jinoyatlarga choralar ko‘rish va ularni fosh etishda, birinchi navbatda, tezkorlik va muvofiqlashgan hamkorlikni ta’minlash maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlarni "Xavfsiz axoli punkti" apparat-dasturiy kompleksi imkoniyatlaridan keng foydalanishga yo‘naltirish;

yettinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarlikni oldini olish tizimini takomillashtirish uchun tumanlar va shaxarlarda huquqbuzarliklar profilaktikasi, tadbirkorlikni rivojlantirish va muammoli oilalar bilan ishlash ustidan nazorat qilish jamoatchilik kengashlarini tuzish;

sakkazinchidan, jamoatchilik kengashlari tarkibini tuman, shaxar xalq deputatlari Kengashlari deputatlari raisligida mahalla faollari, mehnat faxriylari, fan, madaniyat va san’at vakillari, mashhur sportchilar va boshqa jamoatchilik vakillari hisobidan shakllantirish maqsadga muvofiq.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar – bu davlat organlari va jamoat tashkilotlari bo‘lib, ular o‘z faoliyatini qonun hamda demokratik prinsiplarga asoslangan holda amalga oshiradilar, qonuniylik va huquqiy tartibotni ta’minlaydilar, fuqarolar, mehnat jamoalari, jamiyat va davlatning huquq va erkinliklarini himoya qiladilar, huquqbuzarlikning oldini olish va qonun hamda huquq tartibotni buzgan shaxslarga davlatning majburllov yoki jamiyatning ta’sir choralarini qo‘llaydilar¹.

Ushbu tushuncha o‘zining mohiyatiga ko‘ra barcha davlat organlariga tegishlidir, chunki sanab o‘tilgan funksiyalar ularning barchasiga xosdir. Hozirgi

¹ Robert Peel. History and Structure of American Law Enforcement. Part Two Law Enforcement. Chapter 5. p.142.

kunda huquqni muhofaza qiluvchi faoliyati tushunchasini ta'riflashda unga bir qadar chegaralangan mazmun berish an'anasi keng tarqalgan. Masalan, ayrimlar uchun jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi vakolatli davlat organlari amalga oshirayotgan faoliyat deb hisoblansa, boshqalar uchun esa jamoat tartibini ta'minlash deb qaraladi¹.

Ta'kidlanishicha, huquqni muhofaza qiluvchi organlar jumlasiga ichki ishlar, prokuratura, adliya organlari, davlat xavfsizlik, milliy gvardiya, soliq, bojxona xizmatlari, advokatura va boshqa organlar kiradi.

Mustaqillik davrida mamlakatimizda sud va huquqni muhofaza qiluvchi oranlar faoliyatini tartibga soluvchi mustahkam huquqiy baza yaratildi. Xususan, 2000 yil 14 dekabrda (yangi tahrirda) "Sudlar to'g'risida"gi, 2001 yil 29 avgustda (yangi tahrirda) "Prokuratura to'g'risida"gi, 1995 yil 30 avgustda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi, 1996 yil 27 dekabrda "Advokatura to'g'risida"gi, 1998 yil 25 dekabrda "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi, 2001 yil 23 avgustda "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi, 2016 yil 16 sentyabrda "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000 yil 14 dekabrda "Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risida", sudyalarning malaka darajalari to'g'risida, sud xodimlarining mansab darajalari to'g'risida, harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida nizomlarga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 164-II-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 8 avgustda "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida"gi PF-3644-son, 2004 yil 20 fevralda "Umumiy yurisdiksiya sudlarining ayrimlarini tugatish va qayta tashkil etish to'g'risida"gi PF-3400-son, 2008 yil 1 mayda "O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3993-son, 2016 yil 5 oktyabrda "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848-son, 2016 yil 21 oktyabrda "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4850-son farmonlari hamda 2011 yil 23 avgustda "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1602-son, 2006 yil 31 avgustda "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-458-son qarorlari, 2012 yil 29 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" F-3949-son farmoyishi, shuningdek Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 25 oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqida" 270-son, 1991 yil 2 noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi 278-son, 1997 yil

¹ Jones & Bartlett. The Field of law Enforcement. Chapter 1. 2011. p.2.

30 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi 374-son, 2001 yil 22 sentyabrgi “O‘zbekiston Respublikasi sudlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 383-son, 2010 yil 21 maydagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 98-son, 2009 yil 9 martdagi “Advokatlik faoliyatini lisenziyalash va advokatlik tuzilmalarini tashkil etish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 60-son, 2012 yil 31 oktyabrdagi “Sudyalarga, prokuratura organlari hamda o‘zbekiston respublikasi bosh prokuraturasi huzuridagi soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti xodimlariga imtiyozli shartlarda uy-joy sotib olishga uzoq muddatli ipoteka kreditlari berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni hamda sudyalarga, prokuratura organlari hamda o‘zbekiston respublikasi bosh prokuraturasi huzuridagi soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti xodimlariga uy-joylarni ijaraga olganlik (ijaraga turganlik) uchun har oylik pul kompensatsiyasi to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 312-son qarorlari shular jumlasidandir¹.

Davlat rahbari tomonidan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorning qabul qilinishi ham huquqbuzarliklarning oldini olish va unga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etdi. Unga muvofiq, jinoyatni aniqlab, shaxsni jazolash emas, balki har qanday qonunbuzilishlarini barvaqt oldini olish – barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy vazifasi etib belgilandi.

Barcha darajadagi hokimlar, prokuratura va ichki ishlar organlarining aholi oldida muntazam hisobot berish tizimi joriy etildi. Jamiyatda kriminogen vaziyatni yaxshilash hamda huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida haftaning **har payshanba kuni “Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni”** deb belgilandi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish ishlari olib borildi. Jumladan, Toshkentda “**xavfsiz shahar**”, Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlarida “**xavfsiz turizm**”, Parkent tumanida “**xavfsiz dam olish**” konseptual loyihalarini joriy etish ishlari boshlab yuborildi.

Aholi va jamoatchilik bilan yaqin hamkorlik o‘rnatilishi natijasida **1 ming 243 ta** mahallada bironta ham jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmadi. Uyma-uy yurib aholi muammolarini o‘rganish natijasida 22 mingdan ortiq oilaning notinchligiga barham berildi, **11 mingdan** ortiq oila ajrashib ketishidan saqlab qolindi.

Huquqbuzarliklarga qarshi kurashish borasida uchastka profilaktika inspektorlarining mas’uliyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda, asosiy e’tibor xalq ichida yurgan huquq posbonlarining, ya’ni uchastka profilaktika inspektorlarining moddiy-ijtimoiy ta’minotiga qaratilib, bugungi kungacha **1 500 dan** ortiq inspektorlar avtomobil va turar joy bilan ta’minlandi.

Bugungi kunda huquqni muxofaza qiluvchi organlar va nazorat idoralari ustidan jamoatchilik nazorati hamkorligini oshirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish

¹ Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz

organlari va boshqa tashkilotlar huquqni muxofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi hamda aniqlangan jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar to'g'risidagi axborotni almashadi, shu jumladan elektron shaklda almashadi, shuningdek boshqa axborotni almashishni amalga oshiradi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlashda, jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo'yish, ularni fosh etishda, jinoyat ishlarini tergov qilishda, jinoyatchilarni qidirishda, bedarak yo'qolganlarning turgan joyini aniqlashda, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasida huquqni muxofaza qiluvchi organlar organlariga o'z vakolatlari doirasida ko'maklashadilar.

Nazorat uchun savollar:

1. "Qonun ustuvorligi" tushunchasiga ta'rif bering.
2. Sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar borasida nimalarni bilasiz?
3. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi nimalardan iborat?
5. Aholi va jamoatchilik bilan yaqin hamkorlik natijasida nechta mahallada jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi?

5-BOB. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA USTUVOR YO'NALISHLARI

Reja:

1. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sohasida islohotlar.
2. Milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash.
3. O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti va soliq siyosati

O'quv mashg'ulotining maqsadi: iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sohasida islohotlar haqida tushuncha berish; milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlanishi borasida ma'lumot berish; O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti taqsimoti va soliq siyosati haqida tushuncha berish.

Tayanch iboralar: iqtisodiyot, liberallashtirish, taraqqiyot, barqarorlik, konvertatsiya, investitsiya, innovatsiya, davlat byudjeti, byudjet taqsimoti, soliq siyosati, valyuta-kredit siyosati.

5.1. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sohasida islohotlar

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining uchinchi ustuvor yo'nalishi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va

liberallashtirish” etib belgilanib, bu sohada quyidagi islohotlarni to‘rt yo‘nalishda amalga oshirish ko‘zda tutildi:

- makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘rta sur‘atlarini saqlab qolish;

- tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish;

- qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish;

- iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish.

2017 yilda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy sur‘ati tubdan o‘zgardi. Harakatlar strategiyasiga muvofiq, iqtisodiy rivojlanish, avvalo, aholining hayot darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi bosqichga o‘tdi. Amalga oshirilgan barcha islohotlar **“Inson manfaatlari va farovonligi hamma narsadan ustun”** degan tamoyilga asoslandi.

Bu borada, eng avvalo, mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash, qat’iy pul-kredit siyosatini yuritish, milliy valyuta va ichki bozordagi narxlar barqarorligini ta’minlash, soliq-byudjet islohotlarini olib borishga asosiy e’tibor qaratildi.

Valyuta bozorini liberallashtirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi va 2017 yil 5 sentyabrdan **milliy valyutamiz – so‘mning erkin ayirboshlanishi** ta’minlandi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning o‘z valyuta resurslarini erkin ta sarruf etishlari yo‘lidagi barcha sun’iy to‘siqlar bartaraf etildi va ular tomonidan valyuta tushumlarini sotish majburiyatlari bekor qilindi. Yuridik shaxslar uchun mahsulotlarni import qilishda chet el valyutasini erkin xarid qilish va chet el investorlarining foydani erkin olib chiqish imkoniyati yaratildi. Fuqarolarga chet elda ta’lim olish yoki davolanish, turizm, biznes va boshqa maqsadlar uchun valyuta mablag‘larini hech qanday to‘siqlarsiz qonuniy sotib olishi va sotish imkoniyati yaratildi.

Mazkur islohotlar dunyoning yetakchi moliya institutlari, jumladan, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan e’tirof etildi. 2019 yilda Jahon bankining **“Biznes yuritish” reytingida** O‘zbekiston 7 pog‘ona ko‘tarilib, biznesni ro‘yxatga olish ko‘rsatkichi bo‘yicha dunyoning 190 ta davlati orasida 8-o‘rinni egalladi va eng yaxshi islohotchi davlatlar qatoridan joy oldi.

Inflyatsiya darajasi hamda ichki bozorda iste’mol tovarlar narxlarining barqarorligini nazorat qilish kuchaytirildi. Ushbu maqsadda, resurs bazasi 100 million dollarga teng ichki iste’mol bozorida narx-navoni barqarorlashtirish jamg‘armasi tashkil etildi. Hayot uchun zarur bo‘lgan dori-darmonlarni sotib olish uchun qo‘shimcha 70 million dollar ajratildi. Tashqi savdoni liberallashtirish va samarador bozor iqtisodiyotini yaratish maqsadida bojxona to‘lovlari stavkalari ikki baravar pasaytirildi.

Ichki bozor uchun zarur bo'lgan 8 ming turdan ziyod import tovarlari uchun bojxona to'lovlari keskin pasaytirildi, jumladan, import boji bo'yicha 3 550 ta va aksiz solig'i bo'yicha 1 122 ta mahsulotlarga nisbatan nol darajali stavkalar belgilandi.

Xalqaro andozalarga mos ravishda, hukumat, barcha vazirlik va idoralar hamda Markaziy bank tomonidan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, davlat byudjeti ijrosi, pul muomalasi va oltin-valyuta zaxiralari holati to'g'risidagi barcha statistik va tahliliy ma'lumotlarni doimiy ravishda ochiq chop etib borilishi yo'lga qo'yildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun maksimal qulay sharoit yaratish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida hammaga yaxshi ma'lum bo'lgan **“Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi” tamoyiliga** asoslanildi.

Bunda:

birinchidan, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini rejadan tashqari va muqobil tekshirish bekor qilindi. Tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish ko'rinishida jazo qo'llash taqiqlandi. O'zbekistonning Jahon bankining **“Doing Business 2018”** ma'ruzasida biznes yuritish uchun eng qulay sharoit yaratgan **“top 10” talik islohotchi mamlakatlar** ro'yxatiga kirishi ham olib borilgan islohotlarning natijasidir;

ikkinchidan, tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibotlari tubdan qayta ko'rib chiqilib, ular soni va ro'yxatdan o'tish uchun ketadigan vaqt esa qisqardi;

uchinchidan, Savdo-sanoat palatasi faoliyati to'liq qayta isloh qilindi va **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil instituti (ombudsman)** ta'sis etildi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash Davlat jamg'armasi tashkil etildi;

to'rtinchidan, joriy yilda tijorat banklari va ularning filiallari biznes bilan ishlash, har bir mahallada aholini, avvalo, yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish bo'yicha o'z yondashuvlarini tubdan o'zgartirdi¹.

Iqtisodiyotni isloh qilishning yana bir o'ziga xos ustuvor yo'nalishi, bu davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish, iqtisodiyotda xususiy sektorning o'rni va ahamiyatini oshirishdir. Bunda, eng avvalo, xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishlash, ularning faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, davlat mulkini boshqarish uslublari tamoman o'zgartirilib, quyidagi ijobiy natijalarga erishildi:

birinchidan, korxonalarni xususiylashtirishdan keyingi qo'llab-quvvatlashning yangi amaliyoti joriy etildi, ishlamayotgan korxonalar faoliyatini qayta tiklash bo'yicha investisiya loyihalarini ishlab chiqishda davlat tomonidan ko'maklashish yo'lga qo'yildi.

Tadbirkorlik sub'ektlariga faoliyat yuritmayotgan va to'liq quvvat bilan ishlamayotgan korxonalar maydonlarida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish imkoniyati berildi. Bu esa, yuqori qiymatdagi investisiyalarni o'zlashtirish va minglab ish o'rinlarini tashkil etish imkoniyatini berdi. Ushbu loyihalarni moliyaviy

¹ Yil sarhisobi. 2017 yil – shiddatli islohotlar yili. - T.: Adolat, 2017. – B. 40.

qo'llab-quvvatlash uchun Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish maxsus jamg'armasi tashkil etildi va ushbu jamg'arma tomonidan tegishli kredit liniyalari ochildi.

ikkinchidan, tadbirkorlik sub'ektlariga investisiya kiritish va yangi ish o'rinlarini yaratish majburiyati bilan davlat mulkini "nol" xarid qiymatida berish amaliyoti sezilarli kengaytirildi.

2017 yilda tadbirkorlarga **509 ta ob'ekt "nol" xarid qiymatida** investisiyalar kiritish majburiyati bilan xususiy mulk sifatida berildi. Bu esa, minglab yangi ish o'rinlarini tashkil etish imkoniyatini bermoqda.

uchinchidan, faoliyat yuritmayotgan, bo'shab yotgan va samarali foydalanilmayotgan yirik ob'ektlar va yer uchastkalarida 2017 yil davomida 45 ta **yangi kichik sanoat zonalari** tashkil etilib, ularning umumiy soni 75 taga yetkazildi. Ularda yuqori talabga ega bo'lgan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan yirik investisiya loyihalari amalga oshirildi.

Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy siyosat o'zgartirildi, bunda ish o'rinlarini tashkil etish va odamlar uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish ustuvor maqsad etib belgilandi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish va bozor munosabatlarini chuqurlashtirish jarayonida liberallashtirish, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini demokratlashtirish, milliy xo'jalikda tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtirish makroiqtisodiy mutanosiblikning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib kelmoqda. Liberallashtirish tamoyillari tufayli qator yillar mobaynida mamlakatimizda iqtisodiy o'sish barqaror turibdi. Jumladan, o'tgan yili yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 5,3 foizni tashkil etdi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng ko'lamda rivojlantirish orqali amalga oshirilmoqda. Liberallashtirish uzluksiz, doimiy jarayon sifatida bundan keyin takomillashib boraveradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, oila tadbirkorligini rivojlantirish, **«Har bir oila – tadbirkor» Dasturini** izchil amalga oshirish uning kafolati bo'la oladi. Shu bois tadbirkorlikni keng rivojlantirish va bu soha uchun yangi sharoitlar yaratishga barcha imkoniyatlar safarbar etilmoqda. 2019 yilda **«Har bir oila – tadbirkor» dasturi** doirasida o'z biznesini boshlayotgan oilalarga 5,9 trillion so'm kreditlar ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulotning 81 foizi nodavlat, 19 foizi esa davlat sektorida ishlab chiqarilmoqda. Yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlari, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida nodavlat sektor ulushi 100 foizga yaqinlashib qoldi. Ish bilan band aholining 80 foizdan ziyodi mazkur tizimda mehnat qilayotir.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning ilk bosqichida chakana savdo va umumiy ovqatlanish shaxobchalari, uy-joy va maishiy xizmat ob'ektlari xususiy qo'llarga sotildi, imtiyozli va tekin berildi. Maqsad aholida bozor ko'nikmalarini hosil qilish va mustahkamlash edi. Ikkinchi va uchinchi bosqichlarda o'rta va yirik korxonalar davlat tasarrufidan chiqarildi. Natijada aksiyadorlik jamiyatlari, davlat ulushi bo'lgan kompaniyalar, uyushmalar yuzaga keldi.

Bozor qanchalik mukammal vosita bo'lmasin, barcha muammolarni hal etishga qodir emas. U davlat aralashuvisiz iqtisodiy muvozanatni ta'minlay olmaydi. Global moliyaviy iqtisodiy inqiroz saboqlari buni yaqqol ko'rsatdi. Bozor o'zicha barchaga barobar foiz stavkasi, baho va daromadlar mexanizmini yarata olmaydi. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi nisbatni saqlash mikrodarajada davlat ishtiroki va nazorati bilangina ta'minlanishi mumkin. Xuddi mana shu ikki narsada ishlab chiqarish va aholi daromadlarini o'stirishning beqiyos imkoniyati mujassam.

Mamlakatimizda har yili 30 mingdan ziyod kichik biznes sub'ektlari barpo etilmoqda. Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi 56,9 foizga, sanoat ishlab chiqarishida esa 45 foizga yetkazildi. Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar ulushi 52 foizni tashkil etdi¹.

Keyingi ikki yilda 378 aksiyadorlik jamiyatidagi davlat ulushi savdoga qo'yildi. Qayd etish lozimki, nisbatan muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan «Navoiyazot», «Farg'onaazot», «Urganchekskavator», «Qizilqumtsement», «Jizzax akkumulyator zavodi», «Qo'qon yog'-moy zavodi» kabi aksiyadorlik jamiyatlari, «Aloqabank», «Turonbank» kabi banklar, «O'zagrosug'urta» kompaniyasidagi davlatga tegishli aksiyalar savdoga qo'yildi. Bu nima beradi?

Birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari davlatga tegishli qismining sotilishi davlat g'aznasiga mo'may mablag' keltiradi. *Ikkinchidan*, davlatning qo'li xo'jalik yumushlaridan birmuncha bo'shaydi. *Uchinchidan*, mamlakatda tadbirkorlik muhiti kengayadi. Bundan ham davlat, ham mulkdorlar va oddiy kishilar yutadi.

Davlatning monopol mavqei uglevodorod xomashyosi, rangli metallar, uran qazib olish, temir va avtomobil yo'llari, aviatashuvlar, elektr energiyasi ishlab chiqarish, elektr va kommunal tarmoqlarda saqlanib qoladi. Boshqa sohalardagi davlat aktivlarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish davom etadi. Xususiylashtirilgan davlat mulki ob'ektlari chet ellik investorlarga sotilmoqda. Jumladan, yuzlab mulk majmualari tanlov asosida investisiya kiritish sharti bilan «0» qiymatda yangi mulkdorlarga sotildi. Ular esa investisiya kiritish, minglab ishchi o'rinlarini yaratish majburiyatini oldi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni pirovard maqsad bo'lmashligi kerak. Agar erkinlashtirish sur'atlari, iqtisodiyotning o'sish sifat ko'rsatkichlari, aholi turmush darajasi barobarida kechsa yanada yaxshi bo'ladi. O'zbekiston iqtisodiy o'sish prognozlariga ko'ra, dunyodagi tez rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan joy oldi. Ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida ham oldingi o'rinlarga chiqdi. Ushbu ko'rsatkichlar hozirgi sharoitda ancha yuqori hisoblanadi. Chunki jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hali to'la barham topgani yo'q, davlatlarning bir-biriga sanksiya va embargolar qo'llashi avj olmoqda. Qolaversa, muhim tovarlarga tashqi talab kamayib, narxlar pasayib bormoqda, talabga nisbatan taklif ustunroq. Bu kabi tashqi iqtisodiy va siyosiy beqarorlik milliy iqtisodiyotga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish uchun davlat mulkini xususiylashtirish bo'yicha Dasturida to'la quvvat bilan ishlamayotgan davlat korxonalarini tugatish va ochiq savdolar orqali yangi xususiy mulkdorlar ixtiyoriga

¹ <http://21asr.uz/post/iqtisodiyotni-liberallashtirish-kimga-nima-beradi>.

o'tkazish, strategik ahamiyatga ega bo'lmagan va foydalanilmayotgan davlat ulushini to'la sotish, qator korxonalardagi davlat ulushi aksiyalarini fond bozorida sotish orqali 51 foizgacha tushirish va boshqa chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, bu tadbirlarni o'tkazish mexanizmlari ham takomillashtirildi. Jumladan, davlat aktivlarini sotish muddatlari qisqartirildi, savdolaridagi davlat aktivlariga ikki oy muddatda talab tushmagan taqdirda, ularning bahosini 50 foizgacha, har 15 kunda esa 10 foizga pasaytirish, shunda ham sotilmasa investisiya kiritish va yangi ish o'rinlarini yaratish sharti bilan «0» qiymatda sotish, Markaziy bankning qayta moliyalash yillik stavkasi miqdorida chegirma berish, davlat ob'ektlarini qismlarga bo'lib sotish, xarid to'lovlariga imtiyoz berish, davlat ob'ektlarini ijarachilarga sotilishga ustunlik berish, xo'jalik organlarining ustav kapitalidagi davlat ulushlarini sotishdan tushgan mablag'lar korxonalarini modernizatsiya qilishga yo'naltirilishi mumkinligi va boshqalar belgilab qo'yildi.

Valyuta va tashqi savdo bozorini erkinlashtirish iqtisodiyotni liberallashtirishning muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib, davlat pul-kredit siyosatiga jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab qiladi. Monetar siyosat davlat yoki uning Markaziy banki tomonidan makroiqtisodiy vaziyatga ta'sir ko'rsatish maqsadida muomaladagi pul massasini oshirish yoki pasaytirish orqali amalga oshiriladigan vositadir. Bu siyosat foiz stavkasi va ayirboshlash kursi, to'lov balansi, ustidan nazorat, inflyatsiyani jilovlash, umumiy bandlikni oshirish, baholar darajasini me'yorlash va boshqa tadbirlarni ham o'z ichiga oladi. Monetar siyosat bir amerikalik tili bilan aytganda, "bir tanga ustida umbaloq oshish"dir.

Harakatlar strategiyasiga muvofiq, 2017 yil 2 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Valyuta siyosatini erkinlashtirish to'g'risidagi farmonni imzoladi. Undan asosiy maqsad, barcha bozor ishtirokchilari uchun bir xil sharoit yaratish bo'lib, bozordagi turli-tuman valyuta kurslari o'rniga yagona rasmiy kurs belgilandi.

Bu tendensiya bundan keyin ham davom etishi, so'm o'z qadrini ko'tarib borishi mumkin. Xo'sh, nima uchun so'm bugun o'z pozitsiyasini mustahkamlayapti, giperinflyatsiya yo'q. Chunki, *birinchidan*, dollar kursi pasayishida Markaziy bankning valyuta birjasidagi intervensiyasining ham roli bor. Bu vosita ham ko'pchilik mamlakatlar amaliyotida uchrab turadigan valyuta ayirboshlash kursiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishdir. Bu holat "betaraf" xarakterga ega bo'lib, mamlakat oltin-valyuta zahiralarining keskin kamayib ketishiga olib kelmaydi.

Ikkinchidan, asosiysi, valyuta bozoridagi noaniqlik, nufuzli valyuta kurslarining har kuni, har soatda o'ynab turishi aholida ajiotaj, ya'ni shov-shuv talabni kuchaytirayotgan edi. Endi esa Prezident va Markaziy bank kafolati ostida valyuta bozoriga aniqlik va shaffoflik kiritildi. Bugun o'zbekistonlik turist, biznesmen, talaba yoki davolanuvchi chet elda turib konversion kartasidagi valyutani bankomatdan xohlagan miqdorda naqd mablag' sifatida yechib olishi mumkin. Ikki yil oldin buni faqat orzu qilish mumkin edi.

Uchinchidan, liberallashtirish iqtisodiyotning qaysi sohasida kechmasin, kompleks xarakterga ega bo'lib, ma'lum shart-sharoitlarni taqozo etadi. Ayni paytda mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik va investision faollik saqlanib turibdi, iqtisodiy o'sish bo'yicha davlat dasturlarini ro'yobga chiqarish jadal bormoqda. Soliq

va bank tizimi islohotlari ketmoqda, biznesni yuritish va eksport sohasidagi ma'muriy to'siqlar olib tashlanmoqda. Bular hammasi pul-kredit tizimini takomillashtirish, sohani liberallashtirishga xizmat qiladi.

Valyuta bozori liberallashuvi tashqi savdoga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu sohada raqobatbardoshlikni oshirish, eksport korxonalarini qo'llab-quvvatlash, fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksport faoliyatini rag'batlantirish, ularga imtiyozlar tizimini takomillashtirish, bojxona tartib-qoidalarini soddalashtirish va tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish muddatlarini keskin qisqartirish, tashqi savdo tariflarini pasaytirishga oid hujjatlarni rasmiylashtirishlarning elektron shakliga o'tish va boshqa chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

2017 yil 29 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorda tashqaridan kiritiladigan tovarlarga boj to'lovlari o'rtacha 14,5 foizdan 6,5 foizgacha tushirish ko'zda tutilgan. Ma'lumki, tashqi savdoni keyingi erkinlashtirgunga qadar O'zbekistonda noqishloq xo'jalik mahsulotlariga import stavkalari eng yuqori edi. Qishloq xo'jalik mahsulotlariga esa yaqingacha import bojlari boshqa hamkor mamlakatlarga nisbatan aksincha past edi. O'tgan yil oktyabr oyidan boshlab barcha tovarlarga bojxona import bojlari o'rtacha 2,5 martaga pasaytirildi. Tashqi savdoning liberallashuvi eksport-import operatsiyalari kuchayishiga, milliy iqtisodiyotning dunyo bozoridan o'rin olishini osonlashtirishga, asosiysi mamlakatimizning qo'shimcha qiymat global zanjiriga integratsiyalashuviga xizmat qilishi shubhasiz.

Iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini, jumladan, valyuta bozorini liberallashtirish, davlatning xalqaro imiji bilan bog'liq katta voqea. Lekin ular ustidan, shuningdek, emissiya, chet eldan pul ko'chirmalari ustidan qat'iy nazorat o'rnatilmasa, iqtisodiyotning real o'sishi va muomaladagi pul miqdori o'sish sur'atlari o'rtasidagi farq sifatida doimo paydo bo'ladigan inflyatsiyani keltirib chiqarishi hech gap emas. Monetar siyosat bilan fiskal siyosatni qo'shib olib borish bunday holatlarning oldini olish imkonini beradi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari haqida so'z borar ekan, Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha O'zbekiston dunyo reytingida 187 mamlakat o'rtasida 134-inchi o'rinda turadi. Vaholanki, yurtimiz boy tabiiy resurslarga, katta iqtisodiy salohiyatga ega. Hamma gap ana shu zaxirani xalq manfaati yo'lida oqilona va samarali ishlata olishdadir.

Iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovasion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali mexanizmlar o'z vaqtida joriy qilinmagani jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi iqtisodiy taraqqiyot yo'lida to'siq bo'lmoqda.

Shu nuqtai nazardan davlatning innovasion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investisiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini, yangi sarmoyadorlar sinfini tayyorlash o'ta muhim ahamiyatga ega. Buning uchun

O'zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo'yicha kuchli milliy g'oya, milliy dastur kerak.

2018 yili faol tadbirkorlikni rivojlantirish e'tibor markazida bo'ldi. Bu sohani qo'llab-quvvatlash, biznes sub'ektlarini jadal va barqaror rivojlantirish yo'lidagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'rildi.

Bojxona tartib-taomillarining murakkabligi tadbirkorlikka to'sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan 2018 yildan boshlab, tadbirkorlik sub'ektlari uchun bojxona ko'rigida xavf-xatardan ogoh etish tizimi, ya'ni, tadbirkorlar qanchalik halol ekaniga qarab, ularni **“yashil” va “qizil” yo'laklar** orqali o'tkazish joriy etildi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda puxta va barqaror bank-moliya tizimi ulkan ahamiyatga ega. 2018 yilda bank tizimi faoliyatini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishda banklar bilan tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida samarali va o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tashqi iqtisodiy sohada hali ishga solinmagan katta imkoniyat va zaxiralar mavjud. Bu borada Markaziy Osiyo mamlakatlari va yirik sheriklar – Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya, AQSh, Turkiya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalar kengaytirildi. 2018 yilda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralarni qayta boshlandi. Asosiy maqsad – tashqi bozorga sifatli va sertifikatlangan mahsulotlarni **“o'zbek brendi”** nomi bilan olib chiqishdan iborat.

2019 yili – **“Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”**da investisiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar **4,2 milliard dollarni** tashkil etib, 2018 yilga nisbatan 3,1 milliard dollarga yoki 3,7 barobar o'sdi. Investisiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 37 foizga yetdi.

Mamlakatimiz ilk bor xalqaro kredit reytingini oldi va jahon moliya bozorida 1 milliard dollarlik obligatsiyalarini muvaffaqiyatli joylashtirdi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan O'zbekistonning kreditga doir tavakkalchilik reytingi oxirgi 10 yilda birinchi marta yaxshilandi.

2019 yilda energetika, neft-gaz, geologiya, transport, yo'l qurilishi, qishloq va suv xo'jaligi, ichimlik suvi va issiqlik ta'minoti hamda boshqa qator tarmoqlarda chuqur tarkibiy islohotlar boshlandi. Sanoatning 12 ta yetakchi tarmog'ida modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish dasturlari jadal amalga oshirilmoqda. Natijada o'tgan yili iqtisodiy o'sish 5,6 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, eksport – 28 foizga ko'paydi. Oltin-valyuta zaxiralari 2,2 milliard dollarga ortib, 28,6 milliard dollarga yetdi.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu **turizmdir**. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, 86 ta davlat fuqarolariga vizasiz va 57 ta davlat fuqarolariga soddalashtirilgan viza rejimi joriy etilishi natijasida o'tgan yili yurtimizga **6,7 million nafar xorijiy sayyoh** tashrif buyurdi. Bu 2016 yilga nisbatan 4,7 million nafarga yoki 3,3 barobar ko'p demakdir.

Davlatimiz rahbari iqtisodiyotimizdagi yetakchi tarmoq – qishloq xo‘jaligi sohasidagi eng muhim vazifalarga to‘xtalib o‘tdi. Yurtimizda 51 foizdan ziyod aholi qishloq joylarda yashaydi. Biroq qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 17 foizdan oshmaydi. Agrar soha mahsulotlarini qayta ishlash hajmi esa 10 foizga yetmaydi.

O‘zbekistonni 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida barcha sohalar qatori qishloq xo‘jaligini ham modernizatsiya qilish borasida eng muhim vazifalar aniq belgilanib, ularni izchil amalga oshirib borilayotganligi sohadagi ulkan muvaffaqiyatlarga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

2017 yilning o‘zida qishloq xo‘jaligi sohasiga oid 5 ta qonun, 20 dan ortiq farmon va qaror qabul qilindi, 2 ta yangi qo‘mita va 3 ta uyushma tuzildi. Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi faoliyati tubdan takomillashtirildi. Qishloq tumanlarida hokimlarning qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi joriy qilindi. O‘zbekiston Fermerlari kengashi O‘zbekiston Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi sifatida qayta tashkil etildi.

2017 yilda mamlakatimizda 8 million 377 ming tonna g‘alla, 2 million 900 tonnadan ziyod paxta, 12 ming 450 tonna pilla, 500,8 ming tonna sholi, 22 million tonna meva-sabzavot, 12,3 million tonna go‘sht va sut mahsulotlari yetishtirildi. 2017 yilda birinchi marta g‘alladan bo‘shagan qariyb 1 million gektar maydonga sabzavot, kartoshka, poliz va dukkakli ekinlar ekildi va 5,5 million tonnadan ortiq mahsulot yetishtirildi.

Qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, yer-suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish orqali dehqonlarning daromadini oshirish borasida olib borayotgan tizimli ishlarimiz ham asta-sekin o‘z samarasini bermoqda. Masalan, joriy yilda 96 ming gektar hosildorligi past maydonlarda paxta va g‘alla o‘rniga 32 ming gektar yerda karam, turli sabzavot va ko‘katlar ekildi va bu maydonlardan olingan minglab tonna mahsulotlar eksport qilindi. Shuningdek, 11 ming gektarda intensiv bog‘ va yangi tokzorlar, 1 ming 500 gektarda issiqxonalar barpo etildi. Bu borada Ispaniya, Polsha, Niderlandiya, Gresiya, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya, Vetnam va Indoneziya davlatlarining ilg‘or tajribasidan keng foydalanishga alohida e‘tibor qaratildi. Shuningdek, mamlakatimizda birinchi marta shafran kabi noan‘anaviy ekin ekish yo‘lga qo‘yildi, soya ekish kengaydi.

Suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tadbirlar qo‘llab-quvvatlanib, ularning tashabbuskori bo‘lgan xo‘jalik va tashkilotlarga qo‘shimcha imtiyoz va preferensiyalar yaratib berilmoqda. Natijada, bugungi kunda qariyb 240 ming gektar maydonda ana shunday texnologiyalar, jumladan, 28 ming gektar yerda tomchilatib sug‘orish texnologiyasi joriy qilindi. Qishloq xo‘jaligida sohasiga ilg‘or texnologiyalar va **klaster tizimi** joriy etilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 132 ming tonnasi qayta ishlanib, 100 million dollarlik tayyor mahsulot eksport qilindi. 856 million dollarlik 724 ming tonna ho‘l meva chetga sotildi.

2019 yilning 1 yanvar holatiga 339,0 mingta korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 22,1% savdo, 17,5% sanoat, 9% qurilish, 7,7% qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 6,2% yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 4,1% tashish va saqlash, 2,2% axborot va aloqa,

2,0% sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 29,2% boshqa faoliyat turlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

Hududlar boʻyicha roʻyxatdan oʻtgan korxona va tashkilotlar soni eng koʻpi Toshkent shahri (71318 ta), Toshkent (35385 ta), Samarqand (26297 ta) va Fargʻona (29529 ta) viloyatlari hissasiga toʻgʻri keladi. Aksincha, Sirdaryo (11109 ta), Navoiy (11281 ta) hamda Xorazm (15765 ta) viloyatlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

2020 yilgi Bertel'smann Transformasiya indeksi (ITB) toʻgʻrisidagi eʼlon qilingan hisobotga koʻra, Oʻzbekiston 2018 yildagi soʻnggi hisobotga nisbatan koʻrsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilagan. Xususan, yakuniy indeks 2018 yildagi 3,73 punktdan 2020 yilda 4,08 punktga oʻsdi va iqtisodiy transformasiya koʻrsatkichi 0,25 punktga oʻsib, 4,54 punktni tashkil qilgan.

Bunday xalqaro reytinglar Oʻzbekistonning mavqeini oshirishi alohida ahamiyatga ega va soʻnggi bir necha yil ichida jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida yuz bergan oʻzgarishlarni aks ettiradi. Shu munosabat bilan, ushbu maqolada soʻnggi ikki yil ichida, ITB indeksidagi pozitsiyalarimizni yaxshilash imkonini bergan, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi asosiy oʻzgarishlar tahlil etiladi.

Oʻzbekistonda aholi jon boshiga YaIM 2018 yilda 1540 dollardan 2019 yilda 1740 dollarga oʻsdi. Isteʼmol narxlarining yillik oʻzgarishi (inflyasiya) 2018 yilda 17,5% ni tashkil etdi va 2019 yilda u 14,5% gacha tushdi va XVF maʼlumotlariga koʻra, 2025 yilga kelib yana 5,1% gacha pasayishi kutilmoqda.

Osiyo taraqqiyot bankining (OTB) maʼlumotlariga koʻra, 2018 va 2019 yillarda joriy hisob balansi YaIMning -7,1% va -5,6% ni tashkil etdi. 2019 yilda jami oltin-valyuta zaxiralari 2018 yilga nisbatan 2 milliard dollarga oshdi va 29,2 milliard dollarni tashkil etdi. 2019 yil yakuni boʻyicha Oʻzbekiston oltin-valyuta zaxiralari boʻyicha MDH davlatlari orasida 2-oʻrinni va dunyoda 48-oʻrinni egalladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki maʼlumotlariga koʻra, 2019 yil oxiriga qadar tashqi qarzlarining umumiy hajmi 24,5 milliard dollarni tashkil etdi, shundan 15,8 milliard dollari davlat, 8,7 milliard dollari xususiy sektor hissasiga toʻgʻri keladi. Shuni taʼkidlash kerakki, 2019 yilda davlat qarzi YaIMga nisbati 30,6 foizni tashkil etdi, bu XVF tomonidan Oʻzbekiston uchun tavsiya etilgan 60 foiz chegaradan past boʻlib qolmoqda. Bundan tashqari, umumiy tashqi qarzga xizmat koʻrsatish tovar va xizmatlar eksportiga nisbatan 2018 yilda 19,5% ni tashkil etib, 2019 yilda 15,2% ga tushdi. Ushbu nisbat yanada barqaror boʻlib qolishi kutilmoqda, chunki tovarlar eksporti oʻrtacha surʼatlarda oʻsishda davom etmoqda: 2018 yilda – 11,4%, 2019 yilda – 28,6%, 2020 yilda pandemiya tufayli pasayish kuzatildi (-13,4%), 2021 yilda oʻsish 25% atrofida prognoz qilinmoqda. Yuqoridagi makroiqtisodiy koʻrsatkichlar Oʻzbekistonning iqtisodiy rivojlanishining barqaror xususiyatini aks ettiradi.

Oʻzbekiston iqtisodiyoti barqarorligining boshqa omillari ham mavjud. Oʻzbekiston eng yirik oltin ishlab chiqaruvchilar orasida yiliga 100 tonna ishlab chiqarish hajmi bilan toʻqqizinchi oʻrinni, eng yirik uran ishlab chiqaruvchilar orasida esa yettinchi oʻrinni (yiliga 2385 tonna, bu esa jahonda ishlab chiqarishning 3,9 foizini tashkil qiladi) egallaydi. Oʻzbekiston paxta tolasining eksportini yildan-yilga toʻgʻridan-toʻgʻri qisqartirmoqda va bugungi kunda oʻzbek kompaniyalari dunyoning

50 dan ortiq mamlakatlarga to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilmoqda. So'nggi yillarda chet el investisiyalari ichki iqtisodiyotning turli sohalariga faol jalb qilinmoqda. Investisiyalar va tashqi savdo vazirligining (ITSV) ma'lumotlariga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar (TXI) 2020 yilda 6,6 milliard dollarni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichga, asosan, investisiya dasturi doirasida 197 ta yirik loyihalarni amalga oshirish hisobiga erishildi va shuning natijasida 38 ming ish o'rinlari tashkil etildi. 2021 yilda xorijiy investisiyalar 7,5 milliard dollarga ko'payishi kutilmoqda.

5.2. Milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash

Mamlakat iqtisodiyotini yanada yuksaltirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli investisiyaviy loyihalarning amalga oshirilishi, uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasining hayotga izchil tatbiq etilayotgani sanoat tarmoqlarining rivojlanish imkonini bermoqda. Harakatlar strategiyasida tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan uning raqobatbardoshligini oshirish masalasiga katta e'tibor berildi.

Shundan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, xususan, sanoat tarmoqlari jadal rivojlanishini ta'minlash, buning uchun zamonaviy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va menejment strategiyalaridan keng foydalanish lozim bo'ladi. Ayni paytda respublikamiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ruyobga chiqarishni taqozo etmoqda. Bu sanoat tarmoqlarida menejment strategiyalaridan samarali foydalanishda o'z aksini topadi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so'zlagan nutqida: Barqaror va zamonaviy iqtisodiyotni shakllantirmasdan turib, xalq farovonligi va yuksak hayot darajasini ta'minlashga erishib bo'lmaydi. "Strategiya, bu – yangilanish jarayonlarining haqiqiy harakatlari dasturidir". Iqtisodiyot tarkibida sanoatning rivojlanish dinamikasidagi muhim o'zgarish korxonalar va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishi, texnik va texnologik yangilanish asosida chuqur tarkibiy o'zgarishlar va diversifikatsiyaning amalga oshirilgani hisoblanadi. Sanoat siyosatidagi asosiy ustuvor ahamiyat institusional islohotlarning sifatini oshirish va tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochib berish, sanoat ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-qo'vvatlash, o'rta va uzoq muddatda sanoatni rivojlantirish bo'yicha dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilganligini ta'kidladi¹.

Milliy iqtisodiyotda olib borilgan islohotlar natijasida sanoat korxonalari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, ularning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish maqsadida investisiyalar kiritilmoqda. 2017 yilda sanoat tarmoqlaridagi yirik

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 20 sentabr.

korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxini o'rtacha 8 foizga qisqartirish va raqobatdoshligini oshirishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish yo'llaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining taraqqiyoti hisoblanadi. Shu bois tadbirkorlikni rivojlanishi bozor iqtisodiyoti sharoitida o'ziga xos xususiyatlarni va imkoniyatlar ta'minlab berilishini talab etadi. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlikni vujudga kelishi jamiyatdagi ijtimoiy- iqtisodiy, moddiy-moliyaviy, huquqiy-me'yoriy, tashkiliy-institutsional va boshqa shu kabi shart-sharoitlarga asoslanadi. Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, bozordagi talab va taklif jarayoni, iste'molchilar uchun tovar va xizmatlarning xilmaxil turlarining mavjudligi, moliyaviy imkoniyatlar, xomashyo va ishchi kuchi kabi omillar belgilab beradi. Har qanday davlatda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi ijtimoiy –madaniy shart-sharoitlar bilan uzviy bog'liq holda yuzaga chiqadi. Chunki biznes jarayonlarining izchilligi iste'molchilarning didi va zamonaviy tovarlarni sotib olishga moyilligi bilan bir qatorda ularning xarid qobiliyatiga ham bog'liq bo'ladi. Albatta, amaliy hayotda muntazam ravishda va turli bosqichlarda kishilarning talab tendentsiyasi o'zgarib boradi. Bunga kishilarning ijtimoiy-madaniy turmush tarzi va muhit, dunyo qarashlari va kasbining rivojlanish xususiyatlari, daromadlarining o'sib borishi va boshqalar jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga ishbilarmon va tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini muttasil oshirib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik muhitini belgilashda iqtisodiy omillar bozordagi erkin raqobatda va narx-navo holatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiyotda narxlar va ularning darajasi o'zida ishlab chiqarish omillari xarajatlarini, foiz stavkasini, soliq va majburiy to'lovlarni aks ettirishi tabiiy.

Qishloq joylarda tadbirkorlikning rivojlantirish ham katta imkoniyatlarni ta'minlab beradi. Shuningdek, qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va qayta ishlash sanoatining rivojlanishi faollashadi. Buning uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni huquqiy bazasini yanada mustahkamlash, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ularning ishlab chiqarishini texnologik jihozlar bilan ta'minlashga ko'maklashish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish va faollashtirish jarayonida yoshlarni o'rnini kengaytirish maqsadida ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish ustuvor masalalardan hisoblanadi. Chunki, yoshlarning ilmiy salohiyati va yuksak saviyasi yangiliklar yaratishda va mamlakatimizda bunyodkorlikni amalga oshirishda muhim asos bo'ladi. Zero, bozor iqtisodiyoti yoshlarga xos bo'lgan ishbilarmonlikni, tavakkalchilikni va harakatchanlik qobiliyatini taqozo qiladi. Mamlakatimizda ko'p ukkladli iqtisodiyotning barpo qilinishi va xususiy biznes faoliyatining rivojlanishi har bir shaxsning o'z qobiliyati va iqtidorini namoyon qilishi uchun zamin yaratmoqda.

Milliy iqtisodiyotning umumiy rivojlanishida, iste'mol bozorida tovar va xizmatlar taqchilligini bartaraf etishda kichik o'lchamli ishlab chiqaruvchilarning roli muhim hisoblanadi. Mamlakatimizda mehnat resursi taklifi izchil o'sayotgani va ishlab chiqarishning rivojlanishidagi o'ziga xoslik kichik korxonalar tizimini barpo

qilish orqali qator imkoniyatlarni ta'minlashga sharoit yaratib beradi. Jumladan, mehnat bozoriga yangi kirib kelayotgan ishchilarni band qilish, shaxslarni ishlab chiqarishga keng jalb etish va ularni moddiy, ma'naviy salohiyatini oshirish, sanoat ishlab chiqarishini aholi zich yashaydigan hududlarda joylashtirish va iste'mol tovarlarini yetarli darajada ta'minlashga asos bo'ladi. Shuningdek, kichik va o'rta shaharlarni, qishloq aholi punktlarini rivojlantirish, iqtisodiyotda samarani oshirishga va resurslardan unumli foydalanishga erishish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdan foydalanish muhim hisoblanadi. Shu bois kichik korxonalar tizimini moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'nalishini muntazam chuqurlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, kichik korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni takomillashtirishda ularga xizmat ko'rsatadigan banklar, investitsiya va sug'urta kompaniyalarining faoliyatlarini rag'batlantirish samarali natija beradi. Zero, iqtisodiyotning barcha darajalarida bo'lgani kabi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ham oldindan ko'rib bo'lmaydigan turli-tuman riskli vaziyatlar faoliyatga katta ta'sir ko'rsatadi. Ularga bozor kon'yunkturasining o'zgarishi, xaridorlarning to'lov qobiliyati pasayishi, turli tabiiy ofatlar va boshqalarni kiritish mumkin. Bunday muammolar jahon amaliyotida sug'urta kompaniyalari rivojlanishi va qo'llabquvvatlanishi orqali yechim topgan. Mamlakatimizda ham sug'urta ishini jadallashtirish va kichik korxonalarni rivojlantirishda tijorat risklarini qulay sharoitlarni kafolatlashni kuchaytirish katta ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iborat. Natijada iqtisodiyotda erkin raqobat rivojlanadi, iste'mol bozorida tovar va xizmatlarning turi ko'payadi, mamlakatda xususiy tadbirkor va ishbilarmonlarning keng qatlami shakllanadi. Mamlakatda tadbirkorlarning ko'payishi va ularning ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirishi sog'lom raqobatning rivojlanishiga va mahsulotlarning sifat darajasining ortishiga ulkan asos bo'ladi. Natijada mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim va ustuvor vazifasi bo'lmish islohotlarni chuqurlashtirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish asosida o'z imkoniyat va resurslarimiz hisobiga iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlari, samaradorligi va makroiqtisodiy muvozanatning izchilligi ta'minlanadi.

5.3. O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti va soliq siyosati

O'zbekistonda so'nggi yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida hamda iqtisodiyot sohasini tartibga solish va uni rivojlantirish yuzasidan muhim bo'lgan ikkita qonun qabul qilindi.

- «2019 yil uchun soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari qabul qilinishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasining ba'zi qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun;

- «O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida»gi qonun.

Bu hujjatlarni prezidentning iyun oyida imzolagan «O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini mukammallashtirish konsepsiyasi haqida»gi qarorida belgilangan tamoyillarni amalga oshirishga hizmat qiladi.

2019 yilgi Davlat byudjeti loyihasida 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ko‘zda tutilgan soliq va byudjet siyosati islohotlarning asosiy yo‘nalishlari aks ettirilgan.

2019 yilgi Davlat byudjeti daromadlar qismi 2018 yil iyun oyida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlariga muvofiq shakllantirilgan.

Soliq islohotlarining maqsadi iqtisodiyot va aholiga soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish hamda soliq ma‘murchiligini takomillashtirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida deputatlar O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalarining byudjetlari hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlarini ko‘rib chiqildi. Davlat byudjeti daromadlari 102,6 trln so‘mni, xarajatlari 107,1 trln so‘mni tashkil etishi rejalashtirilmoqda. Byudjet taqchilligi 4,3 trln so‘m, yoki YaIMga nisbatan 1,1 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

2019 yilda Davlat byudjetining xarajatlari **107,1 trln** so‘mni tashkil etadi. Bu o‘tgan yildagiga nisbatan 1,4 baravar ko‘p bo‘lib, bunda Davlat byudjetining xarajatlari asosan ijtimoiy sohalarga yo‘naltiriladi.

2019 yil Davlat byudjeti quyidagicha taqsimlangan:

- Ijtimoiy soha xarajatlari **57,8 trln** so‘mni yoki umumiy xarajatlarga nisbatan 54,0 foizini;
- Maktabgacha ta‘lim muassasalarini moliyalashtirishga **4 trln** so‘m, umumiy ta‘limga **17,1 trln** so‘m, kadrlar tayyorlashga **3,8 trln** so‘m;
- Sog‘liqni saqlashni moliyalashtirishga **12,1 trln** so‘m ;
- Madaniyatni moliyalashtirish uchun **1,0 trln** so‘m
- Ilm-fanga **0,8 trln** so‘m;
- Ijtimoiy nafaqalar, kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam to‘lash va kompensatsiya to‘lovlari uchun **5 267,2 mlrd** so‘m;
- “Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturlarini amalga oshirish uchun barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan **6,3 trln** so‘m ajratildi.

Soliq va byudjet siyosatini takomillashtirish, byudjetlararo munosabatlarni yanada mustahkamlash, aholi turmush darajasini oshirish, aholining muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning manzilliligini oshirishga qaratilgan tizimni yaratish, ish haqi va boshqa to‘lovlarning inflyatsiyaga ta‘sirini baholash asosida tabaqalashtirilgan holda oshirish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlarni 2019 yilda ham davom ettirish ko‘zda tutilmoqda.

Prezidentimizning 2018 yil 29 iyundagi farmoni bilan **Soliq siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi** tasdiqlandi. Uning asosiy yo‘nalishlari doirasida 2019 yildan e‘tiboran:

1) ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirildi: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining yagona stavkasining 12 foiz miqdorida o‘rnatildi va fuqarolarning majburiy sug‘urta badallari (ish haqidan 8 foiz) bekor qilindi, natijada “qo‘lga” tegadigan ish haqi miqdori o‘rtacha 6,5 foizga oshadi; ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to‘lov miqdori 12 foizgacha pasaytirildi.

2) davlat maqsadli jamg'armalariga aylanmadan (oborotdan) 3,2 foiz miqdorida undiriladigan majburiy ajratmalar bekor qilindi;

3) yuridik shaxslarning foyda solig'i stavkalari 14 foizdan 12 foizgacha, tijorat banklari uchun – 22 foizdan 20 foizgacha, dividend va foiz ko'rinishidagi daromadlar bo'yicha to'lov manbaidan soliq – 10 foizdan 5 foizgacha, yuridik shaxslar mol-mulk solig'i – 5 foizdan 2 foizgacha pasaytirildi.

Mazkur choralar natijasida rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko'paydi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Buning hisobidan 2019 yili soliq to'lovchilar ixtiyorida **2 trillion so'm** qoldi. 2020 yilda bu raqam 11 trillion so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bir yilda tadbirkorlar ixtiyorida shuncha mablag' qolishi ularga o'z bizneslarini rivojlantirish uchun juda katta qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Islohotlar natijasida o'tgan yili 93 mingta yoki 2018 yilga nisbatan qariyb 2 barobar ko'p yangi tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etildi¹.

2019 yilgi byudjetda oliy ta'lim muassasalarining o'qituvchilari va ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimlari hamda ularning rahbarlari ish haqlarini 1,5 barobarga, davlat muassasalarining tibbiyot va farmasevtika xodimlarining ish haqlarini o'rtacha 26,5 foizga (2018 yilning 1 dekabridan 20 foizga oshirilishiga qo'shimcha ravishda) oshirish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, byudjet sohasida ishlovchi xodimlarning ish haqlarini inflyatsiya darajasidan kam bo'lmagan miqdorda oshirish hamda ijtimoiy nafaqalarni moliyalashtirishga mo'ljallangan mablag'larni 20 foizga oshirish hisobga olingan.


Investisiya xarajatlari, 11,9 trillion so'm miqdoridagi mablag'lar O'zbekiston Prezidenti va Hukumati qarorlari bilan belgilangan strategik muhim loyihalarni, shu jumladan, ichimlik suvi ta'minoti, suv xo'jaligi ob'ektlarini, transport-kommunikatsiya infratuzilmalarini hamda ta'lim va tibbiy-ijtimoiy muassasalarni rivojlantirish va rekonstruksiya qilish dasturlarini amalga oshirishga yo'naltirildi.

Shuningdek, 2019 yilda sog'liqni saqlash sohasiga 12 trillion so'mdan ziyod mablag' ajratildi. Xususan, tibbiyot muassasalarini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan o'z vaqtida ta'minlash maqsadida qariyb 1 trillion so'm, sog'liqni saqlash sohasidagi asosiy dasturlarni amalga oshirish uchun 661,5 milliard so'm, zamonaviy diagnostika, laboratoriya va davolash uskunalari bilan jihozlashga 58 milliard so'm mablag' ajratildi.

Yagona ijtimoiy to'lov miqdorining pasaytirilishi va fuqarolarning majburiy sug'urta badallari va aylanmadan to'lanadigan majburiy ajratmalarning bekor qilinishi munosabati bilan yuzaga kelgan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining taqchilligini qoplash hamda pensiya va nafaqalarning o'z vaqtida so'zsiz to'lanishini ta'minlash maqsadida 4,7 trillion so'm miqdoridagi subsidiya byudjet xarajatlarida ko'zda tutilgan. Arzon uy-joylar qurish bo'yicha dasturlarni moliyalashtirishda ishtirok etadigan banklarga kredit liniyalari ochish xarajatlariga 3 trillion so'm miqdorida mablag'lar rejalashtirilmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2020 yil 25 yanvar.

O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti taqsimoti va soliq siyosati diagrammalarda quyidagicha ko'rinishga ega¹.



2019 yildan boshlab Davlat byudjeti loyihasi kelayotgan yil uchun byudjet parametrlari hamda kelgusi ikki 2020-2021 yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli byudjet mo'ljallarini o'z ichiga oladi.

¹ Diagramma ko'rinishidagi ma'lumotlar rasmiy saytdan olingan. budget_2019_uzb.pdf

ЎРТА МУДДАТЛИ БЮДЖЕТ МЎЛЖАЛЛАРИ ЎЗ ИЧИГА ҚЎЙИДАГИЛАРНИ ОЛАДИ:


Ўрта мuddатли макроиқтисодий доиралар 	• Бюджетга таъсир кўрсатадиган асосий макроиқтисодий кўрсаткичлар: ЯИМ ўсиши, инфляция даражаси, валюта курси ва ҳоказолар
Бюджет солиқ сиёсати концепцияси 	• Солиқ сиёсати ва Давлат бюджети даромадларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. • Давлат бюджети харажатлари соҳасидаги устувор йўналишлар.
Ўрта мuddатли бюджет доиралари 	• Давлат бюджети даромадларининг умумий ҳажми; • Давлат бюджети харажатларининг умумий ҳажми; • Давлат бюджети тақчиллиги; • Давлат қарзининг чекланган миқдори; • Тармоқлар бўйича харажатларнинг чегаралари (лимитлар)




Byudjetni oʻrta muddatli rejalashtirishga oʻtish makroiqtisodiy va soliq-byudjet barqarorligini qoʻllab quvvatlash uchun zarur. “Rejalashtirish doirasi” bir yil boʻlsa, joriy muammolarni hal etish masalalari strategik maqsadlardan koʻra muhimroq maqsadlarga aylanib qolishi mumkin. Uch yillik moʻljallarning mavjudligi istiqbol uchun ishlashga yordam beradi. Oʻrta muddatli byudjet moʻljallari bugun amalga oshirilayotgan soliq byudjet siyosatining bir necha yildan keyin mamlakat iqtisodiyotiga va aholi turmush darajasiga taʼsirini baholash imkonini beradi.

2019-2021 yillarga moʻljallangan oʻrta muddatli makroiqtisodiy koʻrsatkichlar iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning prognozi, demografik oʻzgarishlar, jahon bozorida strategik tovarlar narxlari oʻzgarishi, tashqi va ichki investisiyalar hajmi, asosiy savdo hamkorlarining iqtisodiyoti rivojlanishi va boshqa omillardan kelib chiqib shakllantirildi.

2019-2021 yillarga moʻljallangan makroiqtisodiy koʻrsatkichlar prognozi

■ кутилатган ижро ■ прогноз







О'рта мuddatli byudjet ko'rsatkichlari

О'рта мuddatli byudjet ko'rsatkichlari ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish prognozlaridan, soliқ islohoti amalga oshirish davrida davlat xarajatlarining o'sishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, tashqi qarzning cheklangan miqdorini belgilash qoidalari asosida tuzilgan.

2019–2021 йилларга мўлжалланган бюджет кўрсаткичлари прогнози





Мамлакатимиз солиқ ислоhotining ustuvor yo‘nalishlari:

- korxonalar va jismoniy shaxslar uchun soliqlarni kamaytirish;
- biznes uchun qulay shart-sharoitlar, hajmi va mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar tadbirkorlik sub’ektlari uchun teng shart-sharoitlar yaratish;
- qonuniy va munosib haq to‘lanadigan ish o‘rinlarini ko‘paytirish;
- mamlakatning investision jozibadorligini oshirish.


О‘zbekiston Respublikasi Soliқ siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida quyidagilar nazarda tutiladi:

- iqtisodiyotga tushadigan soliқ yukini kamaytirish;
- soliқ solishning soddalashtirilgan va umumiy belgilangan tartib bo‘yicha soliqlar to‘laydigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi soliқ yuki darajasi nomutanosibliklarini bartaraf etish;
- o‘xshash soliқ solish bazasiga ega soliqlarni birlashtirish orqali soliqlar sonini kamaytirish;
- soliқ hisobdorligini kamaytirish.

ЖИСМОНИЙ ШАХСЛАР ДАРОМАДЛАРИГА СОЛИҚ СОЛИШНИНГ ЎЗГАРИШИ

АМАЛДАГИ ТИЗИМ		ЯНГИ ТИЗИМ	
	ЖШДС	СУҒУРТА БАДАЛИ	
энг кам ойлик иш ҳақининг 10 бараваридан ортиқ	22,5%	+ 8%	12% + 0%
энг кам ойлик иш ҳақининг 5 бараваридан 10 бараваригача	16,5%	+ 8%	
энг кам ойлик иш ҳақининг 1 бараваридан 5 бараваригача	7,5%	+ 8%	
энг кам ойлик иш ҳақининг 1 бараваригача	0%	+ 8%	

Yagona ijtimoiy to'lov foiz stavkasi



2019 йилда фойдага солинадиган солиқ



Солиқнинг базавий ставкаси ↓ 14 фоиздан 12 фоизга пасайтирилади



банклар учун ↓ 22 фоиздан 20 фоизга




дивидендлар ва фоизга солиқ ↓ 10 фоиздан 5 фоизга




уяли алоқа компаниялари учун ставка ↑ 14 фоиздан 20 фоизга ошади, қўшимча фойда солиғи бекор ҳисобига

ЮРИДИК ШАХСЛАРГА СОЛИҚ СОЛИШДАГИ ЎЗГАРТИРИШ


АМАЛДАГИ ТИЗИМ



ЯНГИ ТИЗИМ



КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИНИ СОЛИҚГА ТОРТИШНИ ЎЗГАРИШЛАРИ



Hukumat Oliy Majlisga 2019 yilgi Davlat byudjeti loyihasini taqdim etdi. Uning parametrlari yalpi ichki maxsulot hajmining 5,4 foizga o'sishi, inflyatsiya 15,5 foiz bo'lishi hisobidan kelib chiqib prognozlashtirilgan.



Давлат бюджети
лойиҳасида

53 703,7 Бюджет ташкилотларида ишловчи
млрд. сўм. ходимларнинг иш ҳақларига

5 267,2 Нафақа ва бошқа
млрд. сўм. ижтимоий тўловларга



Арзон уйлар қуришга:



355
қўп квартирали
уйлар ва





15 010
Қишлоқ
жойларда
уйлар қуришга

Давлат byudjeti daromadlari


2019 yilga mo'ljallangan Davlat byudjeti daromadlari 102,6 trln. so'm yoki YaIMga nisbatan 24,2 foiz miqdorida rejalashtirilgan, bu 2018 yil yakunlari bo'yicha kutilayotganidan 37,8 foizga ko'pdir.

ДАВЛАТ БЮДЖЕТИ ДАРОМАДЛАРИ ТУЗИЛМАСИ





2019 йил давлат бюджети харажатлари тузилмаси, млрд.сўм



Nazorat uchun savollar:

1. Makroiqtisodiy barqarorlik deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish degani nimani anglatadi?
3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilinishi haqida nimalarni bilasiz?

4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan islohotlar haqida nimalarni bilasiz?

5. O'zbekistonda soliq siyosatidagi o'ziga hos islohotlarni aytib bering.

6-BOB. IJTIMOIIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH

Reja:

1. O'zbekistonda aholi bandligi ta'minlash va real daromadlarni izchil oshirilishi.

2. Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borisidagi islohotlar.

3. Arzon uy-joylar barpo etilishi, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishi, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma rivojlantirilishi hamda modernizatsiya qilinishi.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'zbekistonda aholi bandligi ta'minlash va real daromadlarni izchil oshirilishi haqida tushuncha berish; mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borisida olib borilayotgan islohotlar haqida ma'lumot berish; arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishi, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilishdagi ustuvor vazifalar haqida ma'lumot berish.

Tayanch iboralar: *bandlik, aholi daromadlari, ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash tizimi, ijtimoiy-siyosiy faollik, arzon uy-joylar, hayot sharoitlari iste'mol savatchasi, infratuzilma, modernizatsiya, muhandislik kommunikatsiyasi.*

6.1. O'zbekistonda aholi bandligi ta'minlash va real daromadlarni izchil oshirilishi

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida yurtimiz aholisining hayotiy ehtiyoj va manfaatlarini ta'minlash hamda farovon hayot asoslarini mustahkamlash uchun muhim bo'lgan navbatdagi strategik zaminlar vujudga keltirilmoqda.

O'zbekistonda shakllantirilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti ommaviy farovonlikni mo'ljallab olinadi. Unga erishish uchun bozor mexanizmiga xos vositalar ishlatiladi. Hozirgi zamon iqtisodiyoti yuksak rivojlangan texnologiya, sifatli ish kuchi va taraqqiy etgan menejmentga asoslangani uchun farovonlikni ta'minlaydigan yuqori mehnat unumdorligiga erishadi. Yuksak ishlab chiqarishga asoslangan iqtisodiyotda insonparvarlik prinsiplari amal qilishi uchun shart-sharoit yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga ilk tarixiy Murojaatnomasida ta'kidlaganidek: "xalqimiz ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun o'z hayotida ijobiy o'zgarishlarni ko'rishni istaydi. Bizning

mehnatkash, oqko'ngil, bag'rikeng xalqimiz bunga to'la haqlidir"¹. Darhaqiqat yurtimizda har bir inson hayotdan rozi bo'lib yashashiga erishish – hozirda davlat siyosatining bosh maqsadiga aylanmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda taraqqiyot sur'atlari hamda iqtisodiy salohiyatining oshib borishi o'z-o'zidan ijtimoiy soha rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy rivojlanish demokratik davlatlar ichki siyosatida markaziy o'ringa ega yo'nalishlar sirasiga kiradi. Nazariy jihatdan ijtimoiy rivojlanish deganda jamiyatda yangi ijtimoiy munosabatlar, institutlar, me'yorlar va qadriyatlar yuzaga kelishiga olib keluvchi o'zgarishlar tushuniladi.

Harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishi "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" etib belgilib, quyidagilarni nazarda tutadi:

- aholi bandligi va real daromadlarini oshirish;
- aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish;
- arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiya qilish;
- ta'lim va fan sohasini rivojlantirish;
- yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish².

Ma'lumki, **bandlik** deganda fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyati tushiniladi. 1998 yil 1 mayda yangi tahrirda qabul qilingan "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunning 2-moddasiga binoan, majburiy mehnat, ya'ni biron-bir jazoni qo'llash bilan tahdid qilish orqali ish bajarishga majburlash taqiqlanadi, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi etib qayta tashkil qilindi. Farmonda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari, jumladan, yangi ish o'rinlari yaratilishiga davlat buyurtmalarini ishlab chiqish, hududiy va tarmoqlar bandlik dasturlarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarining bandligini ta'minlash, kam ta'minlangan oilalarga nafaqa va moddiy yordam o'z vaqtida to'lanishi monitoringini amalga oshirish va boshqalar belgilandi.

Aholi daromadlari darajasini aniqlashda nominal, ixtiyorida bo'lgan va real daromad tushunchalaridan foydalaniladi. *Nominal daromad* – aholi tomonidan ma'lum vaqtda pul shaklida olgan daromadlarining miqdori. *Ixtiyordagi daromad* – nominal daromaddan soliqlar va turli majburiy to'lovlar chiqarib tashlangandan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: O'zbekiston, 2018. – B. 10.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil 8 fevral. №28 (6722).

so'ng, aholi ixtiyorida shaxsiy iste'mol va jamg'arish uchun qoladigan daromad. *Real daromad* – aholining ixtiyorida qolgan daromadga qancha tovar va xizmatlar sotib olishi bilan aniqlanadi, daromadning xarid qobiliyatini anglatadi yoki real daromad – bu iste'mol etiladigan tovar va xizmatlarda ifoda etilgan daromad bo'lib, muayyan narx-navo sharoitida pul daromadlariga bozorda nima berilishini bildiradi¹.


Real daromad ikki narsaga bog'liq bo'ladi. A) qo'lda mavjud bo'lgan pul daromadining yoki aholi ixtiyorida qolgan daromadning miqdoriga teng. b) pul birligining xarid qobiliyati. Bu bozorda narxga bog'liq bo'ladi, ya'ni narx qimmatlashsa u kamayadi, narx arzonlashsa ortadi.

Bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarishni o'sishi, aholining turmush darajasi ko'tarilayotganligiga qaramay, eng boy va eng kambag'allar o'rtasidagi tafovut oshib bormoqda. BMT ma'lumotiga ko'ra, dunyodagi eng boy 3 odamning boyligi Afrika, Osiyo, Lotin Amerikasi qit'asidagi 48 ta kam rivojlangan mamlakatlarning yillik yalpi ichki mahsulotidan ortiq. Sayyoramizning 225 eng boy odamlarining umumiy daromadi 1 trln dollardan ortiq. Shunday bir vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlarda yashayotgan 4,4 mlrd. aholining 3/5 qismi kanalizatsiyadan foydalanmay, 1/3 qismi toza ichimlik suvidan iste'mol qilishdan, 1/3 qismi sog'liqni saqlash xizmatidan foydalanishdan mahrum etilgan².

Aholi daromadlarini munosib ravishda taqsimlashda aholini ish bilan ta'minlash asosiy vazifalarni bajaradi. Chunki aholining ish bilan ta'minlanganligi uy xo'jaligidagi daromadlarini oshirishilishiga xizmat qiladi, bu esa aholining turmush farovonligini oshirishiga ta'sir qiladi.

So'nggi yillarda aholini banligini oshirishga qaratilgan faol siyosat natijasida 2017 yilda mamlakatimizda mehnat resurslari soni 186 72,5 ming kishini tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 183,6 ming kishiga, yoki 1,0% ga o'sishi kuzatildi. Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi soni 143 57,3 ming kishini (jami mehnat resurslarining 76,9%), iqtisodiy nafaol aholi soni esa 4315,2 ming kishini (23,1%) tashkil etdi. Respublikada ish bilan band aholi soni 135 20,3 ming kishini tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan 1,7% ga o'sdi.

1-rasm. Mehnat resurslari sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi (2017 yil yanvar-dekabr, ming. kishi)³



¹ Макроэкономика: учебник для вузов / Л.П. Кураков, М.В. Игнатьев, А.В. Тимирязова и др. - М.: ИАЭП, 2017. – 336 с.

² Вопросы экономики. -2003. -№3. - С. 46.


³ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari. www.stat.uz

Ish bilan band aholi soni hududlar va iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tahlil etilganda, Jizzax (viloyat bo'yicha jami bandlar soniga nisbatan ulushi 41,8%) va Sirdaryo (48,0%) viloyatlarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi, Navoiy (26,9%), Toshkent (19,9%) viloyatlari va Toshkent shahrida (19,1%) sanoat sohasi, Buxoro (15,2%) va Qashqadaryo (13,9%) viloyatlarida qurilish sohasi hamda Toshkent shahri (68,8%), Namangan (53,6%), Samarqand (52,2%) va Andijon (52,0%) viloyatlarida xizmatlar sohasi yuqori ulushga ega ekanligi kuzatildi.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlariga ko'ra 2017 yilda ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo'lmagan aholi soni (ishsizlar) 837,0 ming kishini, iqtisodiy faol aholiga nisbatan ishsizlik darajasi esa 5,8% ni tashkil etdi. O'z o'rnida, 2017 yil dekabr oyi oxirida ishsiz sifatida mehnat organlarida ro'yxatdan o'tgan ishsizlar soni 14,4 ming kishini tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 2,9 martaga o'sgan.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida aholi umumiy daromadlari 286,3 trln. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 110,3% real o'sish sur'atiga erishildi (2-rasm).

2-rasm. 2018 yilning yanvar-dekabr holatiga O'zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlarining o'sish sur'atlari (2017 yilning mos davriga nisbatan, %)



Aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlari bo'yicha Toshkent shahrida (11 mln 728,5 ming so'm) hamda Navoiy (7 mln 999,5 ming so'm), Buxoro (6 mln 158,9 ming so'm), Toshkent (5 mln 655,7 ming so'm) va Xorazm (5 mln 320,2 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlari qayd etilganligi kuzatildi. Aholi jon boshiga daromadlarning eng quyi ko'rsatkichlari esa Namangan (3 mln 827,2 ming so'm) viloyatida qayd etildi. Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sishi Xorazm viloyatiga (14,1%) to'g'ri keladi. Shuningdek, Surxondaryo (13,6%), Buxoro va Samarqand (11,7%), Namangan (11,0%), Qashqadaryo (10,4%), Andijon (10,1%) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi (10,7%) aholi jon boshiga umumiy daromad ko'rsatkichlari real o'sishi respublika darajasidan yuqorini tashkil etgan.

Aholining umumiy daromadlari hajmining sezilarli darajada o'sishi asosan umumiy daromadlar tarkibida 65,0% ulushga ega bo'lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band

bo'lishdan olingan daromadlar) va 28,6% ni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o'zgarishi hisobiga yuzaga kelgan.¹

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholini daromadlarini oshirishga qaratilgan islohotlar natijasida o'rtacha oylik nominal ish haqi 2018 yil dekabr oyida 2 561,3 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 29,1% ga o'sdi. 2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 822,2 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 25,0% ga o'sdi.

2000-2017 yillarda aholi jon boshiga daromadlar, ish haqi va pensiyalarning yildan yilga o'sib borish tendensiyalarini kuzatish mumkin. Ammo so'nggi yillarda daromadlarning tarkibidagi asosiy manbalaridan hisoblangan ish haqi hamda pensiyalarning o'sish sur'atlari pasaygan bo'lib, bu holat aholining umumiy daromadlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

1-jadval. 2000-2017 yillarda respublika aholisi daromadlari, ish haqi va pensiyalar to'g'risida ma'lumot²

Ko'rsatkichlar nomi	2000 y.	2005 y.	2010 y.	2017 y.
I. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so'mda	96,4	371,8	1765,8	5649,6
o'tgan yilning mos davriga nisbatan real o'sishi, %	124,7	117,4	120,1	108,4
II. Yillik o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi, ming so'mda	13,5	81,5	504,8	1457,8
o'tgan yilning mos davriga nisbatan, %	146	138,7	129,4	112,7
III. Belgilangan o'rtacha pensiya miqdori (yil oxiriga), ming so'mda	7,4	31,7	171,9	556,8
o'tgan yilning mos davriga nisbatan, %	152	143,5	125,9	112,7


O'tgan davr mobaynida aholi jon boshiga daromadlar muntazam ravishda oshib borgan va 2017 yil ma'lumotlari bo'yicha daromadlar 2000 yildagi darajasiga nisbatan 13,2 marta real oshgan. Shuningdek, ushbu davr oralig'ida o'rtacha ish haqi hamda pensiyalar miqdori mos ravishda 24,3 va 18,6 marta ortgani kuzatildi. O'z navbatida, daromadlar tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning ulushi 68,5% ni (2010 yilda 71,6%), transfert shaklida olingan daromadlarning ulushi 25,2% ni (2010 yilda 24,3%), mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 4,1% ni (2010 yilda 2,3%), shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi esa 2,2% ni (2010 yilda 1,8%) tashkil etgan.

Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar natijasida aholining kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi 2017 yilda 55,7% ni tashkil etdi (3-rasm).

3-rasm. O'zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlari tarkibida, kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi, %.

¹ "Xalq so'zi" gazetasi. 2018 yil 29 oktabr <http://xs.uz>.


² O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari. www.stat.uz



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish xaqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sishi iqtisodiy faoliyat turlarining axborot va aloqa (33,8% ga), sanoat (30,6% ga), bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatlarida (29,9 % ga), qurilish (29,2% ga) kuzatildi.

O'rtacha ish haqining yuqori miqdori iqtisodiy faoliyat turlarining bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida - 3 500,5 ming so'm (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 92,1 %ga yuqori), ahborot va aloqada - 3 347,5 ming so'm (83,7% ga), sanoatda - 2 731,1 ming so'm (49,9% ga), tashish va saqlashda - 2 507,4 ming so'm (37,6% ga), qurilishda - 2 297,3 ming so'm (26,1% ga) kuzatildi (4-rasm).

4-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2018 yil yanvar-dekabr)



Respublika bo'yicha o'rtacha real hisoblangan ish haqi 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 1 550,4 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 6,4% ga o'sdi.

So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan aholi daromadlari va turmush darajasini yanada oshirish, fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan

daromadlar, ish haqi va pensiyalar izchil ravishda o'sib borgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarga to'xtalib, ilg'or xorijiy tajriba asosida aholining munosib hayot darajasi uchun zarur bo'lgan daromadlarni aniqlash bo'yicha "iste'mol savatchasi" tushunchasini qonunchilikda mustahkamlash va uni amalda ta'minlash mexanizmlarini yaratish lozimligini qayd etdi¹.

Aholining real daromadlarini oshirishda "iste'mol savatchasi"ga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Sodda qilib aytganda, **iste'mol savatchasi** – muayyan vaqt davomida inson hayoti va uning salomatligini saqlash uchun zarur mahsulotlar, tovarlar va xizmatlarning eng kam to'plami. Hamma ovqatlanishi, kiyinishi, kommunal va boshqa xizmatlar haqini to'lashi, zarur dori-darmonlarni xarid qilishi lozim va h.k. Bularning bari mahsulotlar savatchasini butlash uchun asos hisoblanadi. Uning ma'lumotlaridan, o'z navbatida, **tirikchilik uchun zarur eng kam miqdorni (iste'mol savatchasining qiymat bahosini)** belgilash uchun foydalaniladi².

Iste'mol savatchasi quyidagilarning miqdorlarini belgilash uchun hisob-kitobga asos bo'lmog'i lozim:

- eng kam ish haqi va pensiyalar;
- bazaviy ijtimoiy to'lovlar: ishsizlik, bolani parvarishlash, boquvchisini yo'qotganlik nafaqalari, stipendiyalar va boshqalar.

Savatcha tarkibi: oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlar

Iste'mol savatchasiga kiruvchi tovarlar va xizmatlar to'plami har bir mamlakatda turlicha. Uning tarkibi davlat darajasida belgilanadi va ko'plab omillar: tabiiy-iqlim sharoitlari, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, oziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqarish xususiyatlari, tovarlar va xizmatlarning haqiqatda iste'mol qilinishi va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

An'anaga ko'ra iste'mol savatchasi 3 qismdan iborat bo'ladi:

1–oziq-ovqat mahsulotlari;

2–nooziq-ovqat tovarlari: kiyim-kechak, poyabzal, birinchi navbatda zarur bo'lgan buyumlar, dori-darmonlar, madaniy-maishiy va xo'jalik uchun mo'ljallangan tovarlar va h.k.;

3–xizmatlar: kommunal, transport, madaniy-ma'rifiy va h.k.

Odatda iste'mol savatchasi aholining 3 ta asosiy ijtimoiy-demografik guruhi: mehnatga layoqatli aholi, pensionerlar va bolalar uchun ishlab chiqiladi. Ya'ni aholining turli qatlamlari tirikchiligi uchun zarur eng kam miqdorni belgilashda muayyan davrda iste'mol savatchasidagi barcha ne'matlarni iste'mol qilish normalarini aniqlash zarur. Masalan, oddiy fuqaro normal hayot kechirishi uchun har kuni iste'mol qilishi kerak bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari to'plami va miqdorini hisoblash. Yoki barcha kommunal xarajatlarni qoplashi uchun oyiga qancha summa zarurligini.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 23 dekabr.

² Axmedov D.Q., Ishmuxammedov A.E., Jumayev Q.X., Jumayev Z.A. Makroiqtisodiyot. – T.: TDIU, 2004. 240 b.

Odatda iste'mol savatchasi tarkibiga kishi ularsiz bamaylixtir, sog'lom yashashi mumkin bo'lgan tovarlar: tamaki mahsulotlari, alkogolli ichimliklar, tansiq mahsulotlar, zeb-ziynat buyumlari kiritilmaydi.

Iste'mol savatchasiga qanday xizmatlar kiritiladi

Xizmatlar ham inson uchun muhimlik darajasi va hayotiy zarurligiga qarab farqlanishi mumkin. Aholi tirikchiligi uchun zarur eng kam miqdorni belgilashda qanday xizmatlar to'lovi hisob-kitobga kiritilishi kerak? Birinchi navbatda, bular kommunal va transport xarajatlaridir.

Ayni vaqtda, inson o'z hayotiy faoliyatida boshqa, dolzarbligi jihatidan muhim servis turlaridan ham faol foydalanadi: uyali aloqa va internetdan foydalanadi, tibbiy yordam, turli mutaxassislar maslahatlarini oladi. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar: teatr, muzeylarga borish xarajatlari ham alohida e'tiborga loyiq. Zero kishi nafaqat jismoniy ehtiyojlarini qondirishi, balki aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan yetarli darajada rivojlanishi lozim.

Iste'mol savatchasi tarkibiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Xullas, ichki iste'mol savatchasini ishlab chiqishda quyidagilarni inobatga olish zarur:

- demografik omillar: oilalar katta-kichikligi va tuzilishi, aholining tarkibi va jins-yosh tuzilmasi va boshqalar;
- ijtimoiy-iqtisodiy omillar: oilalarda oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarning haqiqatda iste'mol qilinishi; barcha guruhdagi aholining ehtiyojlari, ularning daromadi darajasi va boshqalar;
- inson salomatligini saqlash va hayotiy faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan eng kam iste'mol hajmlari hamda tovarlar va xizmatlar ro'yxati bo'yicha ilmiy tavsiyalar;
- aholining ijtimoiy himoyalanishini ta'minlashga doir davlatning moliyaviy imkoniyatlari;
- tovarlar va xizmatlarning real bozor narxlari;
- boshqa mamlakatlarning tajribasi va boshqalar.

Yuqorida sanab o'tilganlar, iste'mol savatchasini ishlab chiqilishida aholi daromadlari va aholi turmush farovonligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

6.2. Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borisidagi islohotlar

Ijtimoiy himoya insonning ijtimoiy ehtiyojlarini ta'minlashga, inson huquqlariga amal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi. Ijtimoiy himoya aholining normal yashash sharoitini ta'minlash bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri, maqsadli, davlat tomonidan kafolatlangan tizimdir.

Ijtimoiy himoya choralari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ishsizlikka barham berish (aholining mehnatga layoqatli qatlamini ish bilan ta'minlash);
- mehnatga haq to'lash, nafaqa, stipendiyalarning minimal darasini belgilash;

- mehnatga layoqatsiz, imkoniyati cheklangan va aholining ehtiyojmand qatlamiga yordam puli to'lash; arzon uylar bilan ta'minlash;
- sog'liqni saqlash va madaniyat muassasalari xizmatlaridan foydalanish;
- zamonaviy, malakali ishchi kuchini shakllantirish uchun zarur bo'lgan ta'limni sharoitlarini yaratish va h.k.

Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj toifalarga kam ta'minlanganlar, ko'p bolali onalar, nogironlar, yolg'iz qariyalar va boshqalar kiradi. Adolatli jamiyat hamisha ularni himoya qilishni o'z zimmasiga oladi. Shuning uchun ham mustaqillik davrida kuchli ijtimoiy siyosat taraqqiyotning "o'zbek modeli" tamoyili sifatida belgilangan edi. Chunki bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqasiga, ayniqsa, unga mohiyatan tamoman zid bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tish hamisha murakkab kechadi. Bu aholining muayyan qismi hayotida keskin tarzda aks etadi. Bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tayotganda, xususan, eski ishlab chiqarish tizimi, mavjud iqtisodiy integratsiya tabiiy ravishda izdan chiqadi, ularning barini yangidan shakllantirishga to'g'ri keladi. Shuningdek, mulkka egalik qilishning shakli o'zgaradi, davlat korxonalari, hatto, ekin yerlari egalari o'zgaradi, ishchi kuchi ham bevosita bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida qayta taqsimlanadi. Demak, ijtimoiy himoyaga muxtojlar safi o'zgarib, ya'ni kamayib-ko'payib turishi ham tabiiy holdir.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham ijtimoiy soha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. **"Hamma narsa inson manfaatlari uchun"** tamoyilidan kelib chiqib, ijtimoiy sohada aholi turmush sifatini yuksaltirish bo'yicha bir qator ustuvor yunalishlar belgilab olindi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning dastlabki natijalari aholining hayoti va kundalik turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda, odamlarning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o'sib bormoqda. Ayni vaqtda aholining real daromadlari, ish haqi, stipendiya, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni bosqichma-bosqich oshirish bo'yicha ham amaliy choralar ko'rildi.


2018 yilda namunaviy va arzon uy-joylar qurish ko'lami joriy yilga nisbatan 1,5 barobar ko'paytirildi¹. Shuningdek, 2019 yil 1 yanvardan:

- umumta'lim maktablari o'qituvchilari va rahbarlari ish haqlarini 10 foizga, malaka toifasiga ega bo'lgan o'qituvchilarning ish haqlarini esa tabaqalashgan holda 15 foizdan 25 foizgacha;
- mehnatiga kam haq to'lanadigan byudjet sohasida ishlovchi xodimlar ish haqlarini 5 foizdan 15 foizgacha oshirildi.

Ushbu choralar byudjet sohasida mehnat qilayotgan 360 mingdan ortiq xodimlarni qamrab oladi. Misol uchun, byudjet tashkilotining eng past oylik oluvchi texnik xodimlarining ish haqlari, ustama va qo'shimchalardan tashqari, 502 ming so'mdan 577 ming so'mgacha oshirildi.

¹ <http://taraqqiyot.uz/2018-yil-faol-tadbirkorlik-innovatsion-goyalar-va-tehnologiyalarni-k-ullab-k-uvvatlash-yili>.

ИЖТИМОЙ СОҶА ХАРАЖАТЛАРИ ТАРКИБИ 2019 ЙИЛ, МЛРД.СЎМ.



Аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлашга сарфланадиган харажатлар

АҲОЛИНИ ИЖТИМОЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШГА САРФЛАНДИГАН ДАВЛАТ БЮДЖЕТИ ХАРАЖАТЛАРИ ҚЎЙИДАГИЛАРДАН ИБОРАТ:

- уруш ва меҳнат фахрийлари учун пансионатлар ҳамда санаторийларни, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш муассасаларини сақлаб туриш;
- аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш бўйича мақсадли тадбирлар, шу жумладан болалигидан ногиронларга нафақалар тўлаш;
- бола туғилганда нафақалар тўлаш учун ваколатли органга маблағлар ажратиш;
- айрим тоифадаги шахслар учун қонун ҳужжатларида белгиланган компенсация тўлаш;
- Чернобиль АЭСдаги авария оқибатларини бартараф этишда иштирок этган шахсларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш;
- жамоат ишларни молиялаштириш;
- ижтимоий нафақалар;
- кам таъминланган оилаларга моддий ёрдам ва ҳоказолар.



2019 йилда аҳолига нафақалар тўлаш, моддий ёрдам бериш ва компенсация тўлаш учун Давлат бюджетидан ажратиладиган харажатлар 5267,2 млрд. сўм миқдорида бўлиши кутилмоқда, бу эса 2018 йилдагидан 20 фоизга кўпроқдир.

Ўзбекистонда 2018 йил сентябрдан бошлаб Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 13 сентябрдаги 731сон қарорига мувофиқ ун ва қолипчи нон нархларининг эркинлаштирилиши натижасида Аҳолининг ижтимоий заиф қатламлари учун бунинг оқибатларини юмшатиш мақсадида компенсация тўловлари жорий этилди.

ҚЎЙИДАГИЛАРГА ЭНГ КАМ ОЙЛИК ИШ ҲАҚИНИНГ

10%
МИҚДОРИДА

- ёшга доир, ногиронлик бўйича нафақа, боқувчисини йўқотганлик пенсияси ва нафақаси (ҳар бир боқимандага), болалигидан ногирон бўлган 16 ёшдан катта шахсларга нафақа, ногирон бўлган 16 ёшгача бўлган болаларга нафақа, шунингдек, ёшга доир пенсиянинг белгиланган миқдоридан кам пенсия ва нафақа бўйича ҳар бир нафақа олувчига;
- бола 2 ёшга тўлгунга қадар унга қараш бўйича нафақа олувчи ҳар бир оила, шунингдек фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари орқали моддий ёрдам олувчи ҳар бир кам таъминланган оилага.

КАМ ҲАҚ ТЎЛАНДИГАН ИШЧИЛАР УЧУН ИШ ҲАҚИ МИҚДОРЛАРИНИНГ ОШИШИ

Разрядлар	Бюджет ташкилотларида ишловчилар сони, минг киши	2018 йил 1 январдан			2019 йил 1 январдан		
		Асосий иш хақи, минг сўм	Ойлик иш хақи		Асосий иш хақи, минг сўм	Ойлик иш хақи	
			Устама билан, минг сўм	Соликлардан кейин, минг сўм		Устама билан, минг сўм	Соликлардан кейин, минг сўм
I	166,3	426,5	490,4	427,3	577,3	663,8	583,5
II	65,4	469,4	539,8	462,4	607,7	698,8	614,3
III	135,7	516,4	593,8	511,8	638,2	733,9	645,1
IV	87,6	567,9	653,1	566,6	668,4	768,7	675,7

Davlatimiz rahbarining nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillash-tirishga oid farmoyishi doirasida 8,4 ming nafar nogiron protez-ortopediya mahsulotlari bilan, 9,3 mingdan ziyod ehtiyojmand fuqaro reabilitatsiya texnik vositalari bilan bepul ta‘minlandi. Shuningdek, 23 mingdan ziyod 1941-1945 yillardagi urush faxriylari, yolg‘iz keksalar, pensioner va nogironlarning sanatoriylarda bepul dam olishi ta‘minlandi.

Aholining ehtiyojmand qatlamlarining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi ushbu masalada yetakchi muassasa sifatida belgilandi, unga tegishli vakolat va huquqlar berildi, bir qator yangi mexanizmlar joriy qilindi, jumladan:

- uy-joyi bo‘lmagan yoki eski uylarda yashovchi respublikaning har bir tumani va shahridagi o‘rta hisobda 5 ta oilaga arzon uy-joylarni berish;

- respublikaning har bir tumani va shahridan o‘rta hisobda 70 tagacha oilalarga har yili maishiy texnika yoki bir boshdan qoramol xarid qilib berish;

- og‘ir kasalliklar mavjud bo‘lgan taqdirda tibbiy xizmatlar haqini to‘lash va har bir tuman va shahardan o‘rta hisobda 6 tagacha kam ta‘minlangan oilalarga beg‘araz yordam ko‘rsatish uchun mablag‘lar ajratish asosiy vazifa sifatida belgilab olindi.

“Muruvvat” va “Saxovat” internat uylarida istiqomat qilayotgan nogironlar va keksalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish maqsadida internat-uylarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha homiylik kengashlari, shuningdek Byudjetdan tashqari internat-uylarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 iyuldagi qarori bilan **“Ezgu maqsad” xalqaro xayriya jamoat jamg‘armasi** tuzildi, uning faoliyati aholining ijtimoiy nochor qatlamlari sog‘lig‘ini himoyalash, yetim bolalar va “Mehribonlik” uylari tarbiyalanuvchilariga, “Muruvvat” va “Saxovat” uylarida yashovchilarga yordam ko‘rsatishga yo‘naltirildi.

Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 iyuldagi **“Mehnat faxriysi” ko‘krak nishonini ta’sis etish to‘g‘risida**”gi Qarori muhim voqea bo‘ldi. Ushbu mukofot bilan ko‘p yillar davomida halol va samarali mehnat qilgan nafaqa yoshidagi yurtdoshlarimiz, shuningdek, hayotini oilalar mustahkamligini ta‘minlash ishlariga bag‘ishlab, jamiyatda hurmat qozongan onalar taqdirlanadi¹.

¹ Yil sarhisobi. 2017 yil – shiddatli islohotlar yili. - T.: Adolat, 2017. – B. 79-80.

Mamlakatimizda sogʻliqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiyot xodimlari mehnatini ragʻbatlantirish, davolashning zamonaviy texnologiya va usullarini keng joriy etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Ayni paytda sogʻliqni saqlash sohasini isloh qilish davlat siyosatining eng muhim yoʻnalishlaridan biriga aylandi.

Harakatlar strategiyasining 4,2 bandida aholini ijtimoiy himoya qilish va sogʻliqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga doir vazifalar keltirilgan. Jumladan, aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat koʻrsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yoʻnaltirgan holda sogʻliqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki boʻgʻinini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish; farmasevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan taʼminlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz oʻsishiga yoʻl qoʻymaslik boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; aholi oʻrtasida kasallanish koʻrsatkichlari pasayishini va umr uzayishini taʼminlash; oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishini kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam koʻrsatish, chaqaloqlar va bolalar oʻlimini kamaytirish boʻyicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish masalalarini hal qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi¹.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 martdagi “Oʻzbekiston Respublikasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori bu boradagi vazifalarni amalga oshirishda muhim dasturilamal hujjat vazifasini oʻtamoqda. Qaror birlamchi tibbiyot muassasalari joylashuvini oqilona tashkil etish, ularda koʻrsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, patronaj tizimini sifat jihatdan tubdan yaxshilash, mamlakatda, uning har bir hududi va aholi yashash punktlarida kasallanish darajasini pasaytirish, profilaktika ishlarini yanada yaxshilashga qaratilgan.

2017 yilning 16 mart kuni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni eʼlon qilindi. Shoshilinch tibbiy yordamning tezkorligini, texnologikligi va samaradorligini tubdan kuchaytirishga, aholiga oʻz vaqtida malakali shoshilinch tibbiy yordam koʻrsatish boʻyicha davolash, ilmiy-metodik va taʼlim ishlarining butun kompleksini eng yuqori darajada tashkil etishga yoʻnaltirilgan aholiga shoshilinch tibbiy yordam berish tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida qator muhim yoʻnalishlar belgilab olindi. Tez tibbiy yordam koʻchma brigadalarini tasdiqlangan normativlarga muvofiq dori vositalari, tibbiyot buyumlari va sarflash materiallari bilan bosqichma-bosqich taʼminlash, shu jumladan, ushbu maqsadlar

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni // “Xalq soʻzi” gazetasi. 2017 yil 8 fevral. №28 (6722).

uchun 2017 yilda moliyalashtirish hajmi kamida 2 baravar ko‘paytirilishi keltirib o‘tilgan.¹

2017 yil 1 yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasida 6542 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari mavjud bo‘lib, ularning soni 1991 yilga (3027 ta) nisbatan ikki barobardan ko‘proqqa oshdi. Shifoxona muassasalari soni esa aksincha, 1991 yilda 1388 ta shifoxona muassasasi faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2016 yilga kelib 20 foizga kamaydi, ya’ni 1106 tani tashkil etdi.

1991 yilda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sohasida 75 ming shifokor faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2016 yilga kelib ularning soni 84,1 ming kishini (12 foizga oshdi) tashkil etadi. O‘rta tibbiyot xodimlari soni esa 1991 yilga nisbatan 41 foizga (341,3 ming kishi) ko‘paydi. 10000 aholiga hisoblangan shifokorlar soni 35,5 (1991 yil) dan 26,2 (2016 yil) gacha, o‘rta tibbiyot xodimlari soni esa mos ravishda 114,7 dan 106,3 gacha kamaygan. Mavjud shifokorlarning 34 foizini oliy toifali shifokorlar tashkil etadi.

2-jadval. Aholining tibbiyot xodimlari bilan ta’minlanganligi²

	Jami shifokorlar soni (ming)	10000 aholiga to‘g‘ri keladigan shifokorlar soni	Jami o‘rta tibbiyot xodimlari soni (ming)	10000 aholiga to‘g‘ri keladigan o‘rta tibbiyot xodimlari soni
1991 y.	75	35,5	242,2	114,7
1995 y.	76,2	33,2	249,6	108,9
2000 y.	81,5	32,8	259,7	104,7
2005 y.	76,5	29,1	271	103
2010 y.	79,9	27,4	310,2	106,5
2016 y.	84,1	26,2	341,3	106,3

Qishloqlarda sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘inida samarasiz qishloq vrachlik punktlari qisqartirilib, ularning o‘rniga tunu kun faoliyati ko‘rsatadigan 793 qishloq oilaviy poliklinikasi tashkil etilib, ularda tez tibbiy yordam shahobchasi va kunduzgi stasionarlar ochildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nukus-farm”, “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Boysun-farm”, “Bo‘stonliq-farm” va “Parkent-farm” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinishi mamlakatda farmasevtika sohasini rivojlantirish, dori-darmon vositalari hamda tibbiyot buyumlari ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, mahalliy dori-darmon vositalari bozorini o‘zimizda ishlab chiqarilgan yuqori sifatli preparatlar bilan to‘ldirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4985-sonli Farmoni // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017 yil 17 mart

² O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari. www.stat.uz

qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 400 ga yaqin xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevralidagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmoniga binoan O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasiga qo'shimcha vakolat va imkoniyatlar berildi. Xotin-qizlarni va oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tuzildi. Fond xotin-qizlar bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandlikka keng jalb etishga alohida e'tibor qaratadi.

Shuningdek, Farmonda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilab berildi:

birinchidan, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish;

ikkinchidan, xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarning manzilli ro'yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish;

uchinchidan, xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlash;

to'rtinchidan, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, birinchi navbatda, huquqbuzarlikka moyilligi bo'lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish hamda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va moslashishi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqin hamkorlikni ta'minlash.

Mazkur Farmonning yana bir ahamiyatli tamoni shundaki, tuman (shahar) xotin-qizlar qo'mitasining xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha «**Mo'tabar ayol**» **ko'krak nishoni** joriy etildi. Bu nishon jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko'rsatgan, o'zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shgan xotin-qizlarning rahbatlantirish maqsadida beriladi. Bu ham yurtimizda ayollarga bo'lgan hurmatning belgisi hisoblanadi.

Kollej va litsey hamda umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari bilan psixolog, tibbiyot xodimlari, diniy ulamolar ishtirokida "**Yosh oila quruvchilar maktabi**" o'quv kurslari o'tkazilmoqda. Ishtirokchi yoshlarga oila qadriyatlari,

oiladagi mas'uliyat, uning huquqiy asoslari va tibbiy savodxonlik haqida tushunchalar berilmoqda.

Respublikamizda xotin-qizlar faoliyatini takomillashtirish borasida **“Qizlarjon” klubi** tashkil etildi. Mazkur klub respublikamizdagi barcha ta'lim muassasalari, mahallalar, korxona va tashkilotlarda yosh qizlarning ma'naviyatini yuksaltirish, iqtidorli qizlar safini kengaytirish, ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida jamoatchilik asosida **“Qizlarjon” klublari** tashkil etildi. Klublar faoliyatining asosiy maqsadi qizlarni odob-axloq tamoyillari asosida tarbiyalash, ularni oilaga tayyorlash, kasb-hunarga o'rgatish, kiyinish va muomala madaniyatini, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini yuksaltirish, ongi va qalbini turli g'oyaviy tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan.

"Qizlarjon" klubi faoliyati orqali faol va iqtidorli qizlar safini kengaytirish, o'zaro hamkorligini mustahkamlash, ularning xalqimizning odob-axloq me'yorlari, milliy qadriyatlarimiz hamda istiqloq g'oyalariga hurmat ruhida tarbiyalash, oilaviy hayotga tayyorlash, turli yot g'oyalar, "ommaviy madaniyat" ta'siriga tushib qolishlarining oldi olinmoqda.

2017 yilda xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalari yuzasidan bir qator amaliy tadbirlar o'tkazildi, shu jumladan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan ayollarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratildi, mehnatga layoqati cheklangan xotin-qizlarga tikuv mashinalari berilib, ular kasanachilik asosida ish bilan ta'minlandi hamda ularning ayrimlariga yangi uy-joylar berildi.

6.3. Arzon uy-joylar barpo etilishi, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishi, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma rivojlantirilishi hamda modernizatsiya qilinishi

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisi uchun sifatli va zamonaviy uy-joylar qurish hamda aholini keng ko'lamli uy-joylar bilan ta'minlash dolzarb vazifa sifatida quyilmoqda. Uy-joylar qurilishi natijasida o'z shaxsiy xonadoniga ega bo'lish xalqimizda azaldan qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Bunda uy-joyga shunchaki ko'chmas mulk yoki vaqtinchalik boshpana emas, balki vatan ichidagi mo'jizaviy vatan sifatida munosabatda bo'linadi. Shu bois, ham yurtimizdagi har bir oila moddiy sharoiti, ijtimoiy ahvoli va darajasidan qat'i nazar o'z shaxsiy uyiga ega bo'lishini istaydi.

Keyingi yillarda respublikada qishloq aholi punktlarining me'moriy qiyofasini yaxshilash, namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joylar qurish hisobiga qishloq aholisining hayot darajasi va sifatini oshirish, qishloqda muhandislik va transport kommunikatsiyalarini, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini jadal rivojlantirish bo'yicha ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Faqat 2009-2016 yillarda qishloq joylarda 1308 turar joy massivida umumiy maydoni 9 million 573 ming kvadrat metr bo'lgan

69 557 ta shinam uy-joy qurildi. Qishloqlardagi 83,5 mingdan ortiq oilaning yashash sharoiti yaxshilandi¹.

Bevosita davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan O'zbekistonning ko'p millatli xalqining talab va istaklarini inobatga olib, 2017 yilda imtiyozli ipoteka kreditlari asosida arzon uy-joylar qurish loyihasini amalga oshirishga kirishildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi "2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uyjoylar qurish dasturi to'g'risida"gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur qaror ijrosi qishloq aholisining keng qatlami uchun zamonaviy va shinam uylardan foydalanish darajasini tubdan oshirish, yer resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash va qishloq joylarda yakka tartibda uy-joy qurilishini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda².

Shahar va qishloqlarda aholining haqiqiy ehtiyoji va milliy an'analar to'la hisobga olingan holda turar joy qurilishi va tegishli infratuzilma tarmoqlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, qishloqlarda yangi ikki tipdagi yosh oilalar uchun maqbullashtirilgan yer uchastkasiga ega bo'lgan 2 va 3 xonali turar joy binolari loyihasi ishlab chiqildi. Bu esa, ularning narxini qishloq aholisining barcha qatlamlari uchun maqbul tarzda arzonlashtirish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 oktyabrdagi "2017-2020 yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturini samarali amalga oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3350-sonli qarori va mazkur masalaga doir qator hujjatlar bu sohadagi ishlarni samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda³. Yosh oilalarning, eskirgan uylarda yashovchilarning hamda uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan boshqa toifalardagi fuqarolarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash maqsadida Toshkent shahrida va respublikaning boshqa shaharlarida maydoni 554,8 ming kvadrat metr bo'lgan 191 ta ko'p kvartirali uylar qurilishi va rekonstruksiya qilinishi amalga oshirildi.

Umuman, 2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi doirasida qishloq joylarda arzon uy-joylar toifasiga – hovlidagi imoratlar va obod hovlilar bilan birgalikda ikki, uch qavatli ko'p kvartirali (2-3 xonali) uylar va 0,02 gektar o'lchamli yer uchastkalarida aholi zich tumanlarda joylashtiriladigan hovlisida imoratlari bo'lgan bir qavatli 2 va 3 xonali uylar kurildi. Shaharlarda yangi, zamonaviy ko'p qavatli uylar qurish dasturi qabul qilinib, unga ko'ra shaharlarda yuzlab besh va yetti qavatli uylar foydalanishga topshirildi. 2017-2020 yillarda shaharlarda jami 1236 ta uy yoki 51350 ta kvartira qurilishi rejalashtirilgan. Mo'ljallangan uy-joylarning asosan katta qismi Toshkent shahri va Toshkent viloyatida qurilishi rejalashtirilgan bo'lib, umumiy qurilayotgan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida"gi PQ-2639-sonli qarori // "Xalq so'zi" gazetasi, 2016 yil 25 oktabr

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil 23 dekabr.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2020 yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturini samarali amalga oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3350-sonli qarori. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 24 oktabr

uylarning 29 252 ta kvartirali, ya'ni 56,9 foizini, 727 ta arzon ko'p qavatli uyjoylarning esa 58,8 foizini tashkil etadi.

Arzon ko'p kvartirali uylarda kvartira sotib olish uchun boshlang'ich badalning o'rtacha miqdori 25 foiz darajasida saqlanishi va kvartiralarni qavatlar bo'yicha taqsimlashda suiiste'molchilik faktlarining oldini olish maqsadida kvartiralarni yosh oilalarga, eskirgan uylarda yashovchilarga va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj boshqa toifadagi fuqarolarga sotish shartlari asosida boshlang'ich badalning tabaqalashtirilgan miqdori amaliyotga tatbiq etilishi belgilab qo'yildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda aholining hayot sharoitlar va turmush farovonligini oshirish maqsadida shahar va qishloq joylarida yo'l-transport, muxandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiyalash borasida qator ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagi "Obod qishloq" dasturi to'g'risida"gi PF-5386-son Farmoni bilan qishloq aholi punktlarining me'moriy qiyofasini tubdan yangilash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi hamda ijtimoiy soha ob'ektlarini barpo etish va shu asosda aholining turmush madaniyatini yuksaltirish va dunyoqarashini kengaytirish qaratilgan **"Obod qishloq" Davlat dasturi** qabul qilindi. Quyidagilar dasturning asosiy yo'nalishlaridir:

1) aholini ishonchli tarzda ichimlik suvi bilan ta'minlash, sizot suvlar sathini pasaytirish, qishloqlarni tuman markaziga ulaydigan yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, shuningdek, lizing asosida qishloq va tuman markazi orasida avtobus qatnovini yo'lga qo'yish;

2) qishloq ichki yo'llari va piyodalar yo'laklarini barpo etish va ta'mirlash, yo'lbo'ylarini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, sanitariya inshootlari va irrigatsiya tizimlarini barpo etish, transport to'xtash bekatlarini qurish;

3) elektr ta'minotini yaxshilash, aloqa tizimini modernizatsiya qilish, aholiga suyultirilgan gaz va ko'mir yoqilg'isini uzluksiz yetkazib berish;

4) ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlarni tubdan yaxshilashga e'tibor qaratish, bunda bog'cha, maktab va oilaviy poliklinikalarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;

5) bozor infratuzilmasi ob'ektlarini va servis shoxobchalarini, jumladan, hammom va kichik bozor shoxobchalarini barpo etish;

6) uy-joylarni ta'mirlashda xonadon egalariga amaliy yordam ko'rsatish, avvalambor, qurilish materiallari bilan markazlashgan holda ta'minlash, bu jarayonda keng miqyosda hashar usullarini qo'llash hisobiga hovli va atrof-hududlarni obodonlashtirish, ariqlarni tozalash, oqava suv xandaklarini barpo etish hamda muhtoj oilalar uchun homiylar va ish beruvchi korxonalar mablag'lari hisobidan uy qurib berish (ta'mirlash) va boshqalar.

Dastur doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari huzurida "Obod qishloq" jamg'armalari tuziladi. Respublikaning har bir tumani va shahrida, avvalambor olis va tabiiy-iqlim sharoiti og'ir hududlarda 2018 yilda 2 tadan va keyingi yillarda 3 tadan qishloq (mahalla) qiyofasi zamonaviylashtiriladi va u yerda istiqomat qiluvchi aholining yashash sharoitlarini tubdan yaxshilanadi.

“Obod qishloq” dasturi yurtimizdagi qishloqlarni rivojlantirish bo‘yicha asosiy omillari o‘z ichiga olganligi qishloqlardagi aholini turmush farovonligini oshirishga qaratilgandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi “Obod mahalla” dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan **“Obod mahalla” Davlat dasturi** tasdiqlandi. Ushbu davlat maqsadli dasturi shaharlarda mahallalar hududini obodonlashtirish, mavjud infratuzilmani kompleks rivojlantirish, shuningdek, yo‘l-transport infratuzilmasi, muhandislik kommunikatsiyalari va ijtimoiy soha ob’ektlarini barpo etish hamda shu asosda aholining turmush sharoitini yuksaltirish qaratilgandir. Xususan dastur doirasida 2018 yilda mamlakatimizda 2 tadan va 2019-2022 yillarda kamida 3 tadan mahallalarda qurilish, ta’mirlash va obodonlashtirish ishlari bajariladi. quyidagilar dasturning asosiy yo‘nalishlaridir:

1) har bir mahallada o‘z ichiga mahalla guzarini, tibbiyot maskanlari negizida qulay va arzon dorixonalarni, zarur maishiy xizmat va servis shoxobchalarini, bolalar maydonchasi hamda kichik istirohat bog‘ini qamrab oladigan “mahalla markazi”ni barpo etish;

2) har bir mahallaning tarixan shakllangan tadbirkorlik va hunarmandchilik salohiyatini hamda ma’naviy-madaniy an’analarini qayta tiklash va rivojlantirish;

3) mahalla hududida bo‘sh turgan yer maydonlarini yoki foydalanilmasdan turgan bino va inshootlarni tadbirkor va hunarmandlarga “nol” qiymatda berish asosida mikro sanoat zonalarini va hunarmandchilik markazlarini tashkil etish hisobiga mahalla ahlini ish bilan ta’minlash;

4) mahalla ahlini elektr energiyasi, ichimlik suvi, ko‘mir va tabiiy gaz bilan ishonchli ta’minlash, maishiy chiqindilarni to‘plash va chiqarishning zarur infratuzilmasini yaratish va har bir oila energiya va kommunal xizmatlar uchun to‘lovlarni to‘liq va o‘z vaqtida amalga oshirishi va xonadonlardagi o‘lchov-hisoblash uskunalarining bir maromda ishlashi uchun mahallaning mas’uliyatini keskin oshirish;

5) sug‘orish uchun mavjud suv resurslaridan kelib chiqib ariq-irrigatsiya tizimini moslashtirish, kollektor va drenaj tizimlarini modernizatsiya qilish, sizot suvlar sathini pasaytirish;

6) mahalla ahlining ehtiyojiga mos keladigan, keng ichki yo‘llarni va piyodalar yo‘laklarini qurish hamda ta’mirlash, yo‘l bo‘yini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, tashqi yoritish tizimlarini barpo etish;

7) mahalla hududidagi maktabgacha ta’lim muassasalarini, umumta’lim maktablarini, tibbiyot, madaniyat va jismoniy tarbiya hamda sport tashkilotlari bino va inshootlarini ustuvor ravishda rekonstruksiya qilish va ta’mirlash;

8) ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj oilalarga ularning uy-joylarini ta’mirlashda moddiy va moliyaviy yordam ko‘rsatish hamda aholini qurilish materiallari bilan imtiyozli tarzda ta’minlash;

9) har qanday qurilish, ta’mirlash va obodonlashtirish ishlarini, shuningdek, mahallaning zamonaviy shaharsozlik qiyofasini yaratishga qaratilgan barcha loyihalarni faqat bosh rejaga muvofiq holda amalga oshirish.

Dastur doirasida 2018-2019 yillarda respublika bo‘yicha 220 ta mahallada qurilish, ta’mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi. Xususan, 112 ta

mahalla guzari, 133 ta yakka xususiy ko‘p qavatli uylar, 804 ta bolalar maydonchasi, 49 ta bog‘cha, 15 ta tibbiyot muassasasi, 93 ta hammom, 198 ta savdo majmuasi, 1 ta maktab quriladi.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari orqali mahallalarni obod qilish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. 2018 yilda bu boradagi qurilish va obodonlashtirish ishlariga 3 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Natijada 416 ta qishloq yangicha qiyofaga ega bo‘ldi.

2019 yilda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida 479 ta qishloq va ovulda, shaharlardagi 116 ta mahallada keng ko‘lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Bunga 6,1 trillion so‘m yoki 2018 yilga nisbatan 1,5 trillion so‘m ko‘p mablag‘ sarflandi. Qishloq joylarda – 17 ming 100 ta, shaharlarda – 17 ming 600 ta, jami 34 ming 700 ta yoki 2016 yilga nisbatan salkam 3 barobar ko‘p arzon va shinam uylar qurildi.

Nazorat uchun savollar:

1. Real daromad deganda nimani tushinasiz?
2. O‘zbekistonda aholi bandligi ta‘minlash va real daromadlarni izchil oshirilishi bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning mazmuni nimalarda ifoda etiladi?
3. Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish borasida olib borilayotgan islohotlarning mazmuni nimalarda ifoda etiladi?
4. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borisida olib borilayotgan islohotlarni aytib bering.
5. “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari haqida nimalar bilasiz?

7-BOB. XAVFSIZLIK, MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish.
2. O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik.
3. O‘zbekiston Respublikasining o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosati

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo‘nalishi doirasida mamlakatimizda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat yuritish borisida olib borilayotgan islohotlar haqida tushuncha berish.

Tayanch iboralar: xavfsizlik, konstitutsiyaviy tuzum, suverenitet, hududiy yaxlitlik, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, amaliy tashqi siyosat, Markaziy Osiyo, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari, chegaralar daxlsizligi.

7.1. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish

Ma’lumki, har qanday davlatning mustaqilligi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi, xalqning erki va tinchligi uning o‘z armiyasi, Qurolli Kuchlari tomonidan himoya qilinadi. Mustaqilligini, tinchligini asray olgan davlatgina barqaror rivojlanadi, tinchlik, xotirjamlik, osoyishtalik qaror topgan mamlakat gullab-yashnaydi.

Suverenitet (frans. *souveraineté* - oliy hokimiyat, ustunlik, hukmronlik) davlatning tashqi siyosatda mustaqilligi va o‘ziga tegishli bo‘lgan hududda davlat hokimiyatining to‘la hukmronlik qilishini anglatadi. Suveren davlat o‘z ichki va tashqi ishlarini boshqa davlatlarning huquqlarini, shuningdek, xalqaro huquq qoidalari hamda me’yorlarni buzmaganda mustaqil hal qiladi.

Jahonda shiddat bilan o‘zgarayotgan notinch va murakkab vaziyat, turli mojarolar mamlakatimizda xavfsizlik, osoyishta hayotini ta’minlash hamda tahdid va xatarlarga munosib javob berishga doim tayyor turishni taqozo etadi. Tabiiyki, barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlamasdan turib, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy masalalarni hal qilib bo‘lmaydi.

Ma’lumki, Harakatlar strategiyasining **“Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda tashqi siyosat yuritish”** deb nomlangan beshinchi ustuvor yo‘nalishida quyidagi vazifalar belgilab qo‘yildi:

- O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

- axborot xavfsizligini ta’minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga qarshi o‘z vaqtida va munosib harakatlarni tashkil etish;

- fuqarolar, millatlar va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;

- davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish;

- atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga zarar yetkazadigan ekologik muammolarning oldini olish;

- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

Chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar masalasida esa:

- davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub’ekti sifatidagi o‘rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekistonning tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish;

- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, jahon hamjamiyatiga mamlakatda olib borilayotgan islohotlar haqida xolis axborot yetkazish;

- O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatini normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

- davlat chegarasini demilitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish¹.

Mustaqillik yillarida yurtimizda davr talabi va jahon andozalariga javob beradigan Qurolli Kuchlarni barpo etish, mamlakatimiz mustaqilligi, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash, barqaror va izchil demokratik taraqqiyotimizning ishonchli kafolati bo'lgan milliy armiyamizni shakllantirish yo'lida amaliy ishlar amalga oshirildi. Avvalo, huquqiy poydevor bunyod etildi. Konstitutsiyamizda Qurolli Kuchlarining huquqiy maqomi aniq belgilab berildi. Asosiy qonunning 125-moddasiga binoan Qurolli Kuchlar O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini ta'minlash uchun tashkil etiladi. Shuningdek, Mudofaa doktrinasini, "Mudofaa to'g'risida"gi, "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi va boshqa qonunlar Qurolli Kuchlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini o'zida mujassam etdi.

Ayni paytda butun dunyoda, jumladan, yurtimiz yon-atrofida xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib bormoqda, ayrim hududlarda qurolli to'qnashuvlar hamon davom etmoqda. Ana shunday keskin vaziyatdan kelib chiqqan holda, mavjud tahdidlarga qarshi munosib zarba berishga tayyor bo'lishini, O'zbekistonning tinch va barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida Qurolli Kuchlarini yanada isloh qilish, uning jangovar tayyorgarligi va qobiliyatini yuksaltirish bo'yicha islohotlar izchil davom ettirilmoqda.

Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka tahdidlar tobora kuchayib borayotganini hisobga olib, biz yangi Mudofaa doktrinasini qabul qildik"². Zero, **mudofaa doktrinasini** harbiy sohada O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligini ta'minlashga doir mudofaa xususiyatiga ega prinsiplar va yondashuvlarni belgilovchi rasmiy hujjat hisoblanadi. Ushbu hujjat 2018 yil 9 yanvarda "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasini to'g'risida"gi Qonun bilan tasdiqlandi.

Doktrinaning 2-bandida belgilanishicha, "O'zbekiston Respublikasi hech bir davlatni o'zining dushmani deb hisoblamaydi va barcha mamlakatlar bilan munosabatlarni mamlakat milliy manfaatlarining ustuvorligi asosida hamda xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalarini inobatga olgan holda, o'zaro naf ko'rish, teng huquqlilik hamda boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, barcha nizoli masalalarni tinch vositalar va muzokaralar yo'li bilan hal qilish, davlatlararo shakllangan chegaralarning buzilmasligi va o'zgarmasligini tan olish asosida quradi"³.

Hujjat O'zbekiston tashqi siyosatining ochiqqligi, yaqin qo'shnilar bilan amaliy munosabatlarni rivojlantirish ustunligini mustahkamlaydi va rivojlantiradi, shuningdek, mamlakatimiz mudofaa siyosatining shaffofligini ta'minlaydi, xavfsizlik va mudofaa sohasida boshqa chet davlatlar bilan samarali harbiy-siyosiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil 8 fevral. №28 (6722).

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2018 yil 29 dekabr.

³ "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasini to'g'risida"gi Qonun // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2018. 03/18/458/0537-son

munosabatlar va hamkorlik qilish uchun tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratadi¹.

Mamlakat mudofaasi O'zbekiston Respublikasining suverenitetini, hududiy yaxlitligini, aholisining tinch hayoti va xavfsizligi himoya qilinishini ta'minlovchi siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy, axborotga oid, tashkiliy va boshqa tushdagi chora-tadbirlar tizimini nazarda tutadi.

Mamlakatimiz geostrategik joylashuvining o'ziga xosligi, shuningdek, mintaqada vujudga kelayotgan harbiy-siyosiy holatni hisobga olgan holda, Qurolli Kuchlar birlashmalarining vazifa va tuzilmalari qayta ko'rib chiqildi. Xususan, Mudofaa vazirligining barcha birlashma va qismlarining tarkibiy tuzilmasi to'liq yangilandi. Bo'linmalarga jangovar tayyorgarlik bilan to'laqonli shug'ullanish, harbiy xizmatchilarning kasbiy malakasini oshirish va o'z yo'nalishi bo'yicha vazifalarni aniq bajarish uchun tayyor bo'lishiga alohida e'tibor qaratildik. Bunga imkon bermagan tuzilmalardan butunlay voz kechildi. Hozirgi paytda Mudofaa vazirligi tomonidan qo'shnlarni yangi tashkiliy tuzilmaga o'tkazish ishlari davom etmoqda.

Shuningdek, **O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi** tashkil etilgani tarixiy voqea bo'ldi. Ma'lumki, oxirgi yillarda jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash masalasi bilan bevosita shug'ullanadigan bo'linmalar goh Ichki ishlar vazirligi, goh Mudofaa vazirligi tasarrufida bo'lib kelgan. Holbuki, butun dunyoda mamlakat ichida tartib-intizom va jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan alohida tuzilmalar shug'ullanadi.

Qurolli Kuchlar tizimiga kiruvchi bu maxsus harbiy tuzilma faoliyati jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, aholini turli terrorchilik xatarlaridan, jinoiy va boshqa noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilishga qaratilgan. Qisqa vaqt ichida Milliy gvardiya mamlakat xavfsizligini ta'minlash tizimidagi muhim bo'g'inga aylandi va Qurolli Kuchlar tarkibiy qismlari bilan yaqin hamkorlik o'rnatdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 11 yanvarda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqida ta'kidlanganidek, "bugungi kunda biz **"Xavfsiz shahar – xavfsiz mamlakat"** konsepsiyasi asosida yurtimizda jamoat tartibini ta'minlashga qaratilgan katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Shu munosabat bilan mana shu **yangi tuzilma, ya'ni, Milliy gvardiya tashkil etildi**. Endi bundan buyon har bir shahar va viloyatda xavfsiz hudud loyihasini amalga oshirish, jamoat tartibini saqlash uchun Ichki ishlar vazirligi bilan birga Milliy gvardiya mas'ul va javobgar etib belgilanadi. Bu vazifalarni bajarish uchun Milliy gvardiya joylardagi davlat hokimiyati idoralari, jamoat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib boradi"².

Armiyani yangi qurol-aslaha va zamonaviy harbiy texnika bilan ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Milliy mudofaa-sanoat majmuasi shakllantirildi. Bu ishda birinchi qadam sifatida respublikaning barcha

¹ Mudofaa doktrinasini senatorlar tomonidan ma'qullandi. 21.12.2017. <http://www.uza.uz/oz/politics/mudofaa-doktrinasini-senatorlar-tomonidan-ma-ullan-21-12-2017>

² Mirziyoyev Sh.M. Qurolli kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2018 yil 12 yanvar

ixtisoslashtirilgan korxonalarini birlashtirgan **Mudofaa sanoati davlat qo‘mitasi** tuzildi. Xorijiy hamkorlar bilan birgalikda harbiy va boshqa turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan sanoat quvvatlari yaratish choralari ko‘rildi.

Mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda joylardagi davlat hokimiyati organlarining faolligini va rolini oshirish bo‘yicha ishlar sifat jihatdan butunlay yangi bosqichga ko‘tarildi. **“Milliy armiyamiz – bizning iftixorimiz va g‘ururimiz”** tamoyili asosida hududlarda mudofaa sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, armiya va xalqning yakdilligini ta‘minlash maqsadida **harbiy-ma‘muriy sektorlar** tashkil etildi.

“Armiya va xalq birligi” tamoyiliga tayanib, respublika maktablaridan tortib oliy harbiy ta‘lim muassasalarigacha o‘ziga xos noyob – uzluksiz harbiy-vatanparvarlik ta‘limining yaxlit tizimi yaratildi. **Yangi Qurolli Kuchlar Akademiyasi** shakllantirildi, harbiy bilim yurtlari faoliyati takomillashtirildi, ayrim litsey va kollejlarda yigitlarni oliy harbiy bilim muassasalariga tayyorlash bo‘yicha ixtisoslik joriy qilindi, **“Temurbeklar maktabi”** harbiy akademik litseylari tashkil etildi, Qurolli Kuchlar tizimida Yoshlar ittifoqi birlamchi bo‘linmalari tuzildi. Bu, o‘z navbatida, yosh harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga jalb etish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining mintaqaviy tuzilmalarini tashkil etish orqali mazkur kengashning vazifalari qayta ko‘rib chiqildi va kengaytirildi. Ushbu kengash va uning tuzilmalari bugungi kunda jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati institutlari va harbiy qismlar o‘rtasida yaqin hamkorlikni ta‘minlash bo‘yicha ishonchli ko‘priikka aylandi. Ular harbiy xizmatchilar va chaqiriqqacha bo‘lgan yoshlar o‘rtasida yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, harbiy xizmat nufuzini oshirish, harbiy xizmatchilarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Harbiy xizmatchilar, ularning oilalari va faxriylarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. 2017 yilda uy-joy qurilishi dasturi doirasida 1 200 nafar harbiy xizmatchilar uchun 56 ta ko‘pqavatli uy barpo etildi. Hududlarda ko‘p qavatli uylar bosqichma-bosqich foydalanishga topshirilmoqda. Harbiy xizmatchilarni uy-joy bilan ta‘minlash borasida, jumladan, uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlari berilishini ko‘zda tutadigan yangicha yondashuvlar joriy etilmoqda.

Davlat chegarasini muhofaza qilish va quriqlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha kompleks tashkiliy-amaliy choralar amalga oshirildi.

Xavfsizlik ichki va tashqi omillarga bog‘liq. Shu jihatdan 2018 yil 5 aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Ushbu qonun bilan Davlat xavfsizlik xizmati huquqiy maqomi va faoliyatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi. Qonunning 2-moddasida belgilanishicha, Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini hamda boshqa davlat manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishdan, qonuniylikni mustahkamlash va qonun ustuvorligini

ta'minlashdan, shuningdek Davlat xavfsizlik xizmatining vakolatiga kiritilgan huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berishdan iborat¹.

Davlat xavfsizlik xizmati davlat xavfsizligini ta'minlash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi va o'z vakolatlari doirasida qonunda belgilangan yo'nalishlar bo'yicha faoliyat olib boradi.

7.2. O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik

O'zbekiston Respublikasida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini qo'llab quvvatlash, tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash davlat siyosati markazida bo'lib kelmoqda.

Tez o'zgarib borayotgan hozirgi davrda ilm-ma'rifat va yuksak ma'naviyat mamlakat taraqqiyotiga ko'maklashuvchi muhim omillardan biridir. O'z navbatida, ma'rifat va bag'rikenglik o'zaro uyg'un tushunchalar bo'lib, bir-biri uchun yo'l ochadi. Zero, jamiyatimiz siyosiy madaniyati o'zgarishga yuz tutgan bugungi davrda jamiyat barqarorligi aholi, ayniqsa, yoshlar ongida bag'rikenglik va millatlararo totuvlik g'oyalari mustahkam o'rin egallashiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Bag'rikenglik (lotincha *tolerantia* – sabr) demokratiyaning asosiy qadriyatlaridan biri bo'lib, o'zining e'tiqodi, qadriyatlari va xatti-harakatlaridan bilan farq qiluvchi boshqa odamlarga nisbatan bo'lgan bag'rikenglikni, qonunchilikka zid bo'lmagan har qanday sa'y-harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni anglatadi². **Diniy bag'rikenglik** turli din vakillarining e'tiqodidagi mavjud farqlardan qat'iy nazar yonma-yon, o'zaro tinch-totuv yashashi hamda har bir diniy ta'limotga hurmat bilan qarashini anglatadi, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkin bo'lgani holda, bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini e'tirof etishini nazarda tutadi. Diniy bag'rikenglik jamiyatni turli larzalardan saqlash va uning integratsiyalashuviga erishish hamda ichki barqarorlikni ta'minlash, xalqlar va davlatlarning bo'linishini oldini olish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yurtimizda istiqomat qilayotgan turli din vakillari uchun teng imkoniyatlarning yaratilgan bo'lib, bu sohadagi munosabatlar qonuniy asoslar bilan mustahkamlangan. Konstitutsiyamizning 31-moddasida mustahkamlangan "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi", degan qoida diniy bag'rikenglik uchun dasturul amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, Konstitutsiyamizning 18-moddasidagi "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart", degan norma turli diniy e'tiqoddagi insonlarning dini va e'tiqodidan qat'i nazar qonun oldida teng ekanligi e'tirof etadi. Konstitutsiyaning 61-moddasida qayd etilganidek, diniy tashkilotlar va

¹ "O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni // "Xalq so'zi" gazetasi. 2018 yil 6 aprel. 67(7025)-soni.

² Qarang. Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах: Научно-понятийное пособие. – Т., 2018. – 240 с.

birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi. Davlat diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlaydi hamda ular o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashadi.

Vijdon erkinligi fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqi bo'lib, 1998 yil 1 mayda yangi tahrirda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun bilan mustahkamlangan¹. Qonunining 3-moddasida belgilab qo'yilganidek, fuqaro o'zining dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lim olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi. Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitishga yo'l qo'yilmaydi. Dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi mumkin. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda vijdon erkinligi va diniy e'tiqod erkinligi huquqidan foydalanadilar hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo'ladilar.

Tarixdan ma'lumki, o'lkamizning shaharu qishloqlarida masjid, cherkov va sinagogalar emin-erkin faoliyat ko'rsatib, turli millat va dinga mansub qavmlar hamjihatlikda o'z diniy marosimlarini ado etib kelganlar. Tarixning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagan. Bu esa, millati va diniy qarashidan qat'i nazar, insonni ardoqlash va o'zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish kabi tuyg'ular o'lka aholisining qon-qoniga singib ketganidan dalolat beradi. Aynan shu sifatlar xalqimizga xos bo'lgan diniy bag'rikenglikning ma'naviy asosini tashkil qiladi.

Ma'lumki, har bir dinning o'ziga xos aqidalari mavjud. Ular ba'zan bir-biriga mutanosib bo'lsa, ba'zan zid ham kelishi mumkin. Diniy bag'rikenglik ana shu xilma-xillik asosida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini oladi, turli e'tiqodlarning yonma-yon va bir paytda mavjud bo'la olishi uchun xizmat qiladi.

Mamlakatimizda 16 diniy konfessiyaga mansub 2 ming 256 ta diniy tashkilot faoliyat yuritmoqda. Jumladan, 2063 islom dini bilan bog'liq tashkilotlar, 175 xristianlik tashkiloti, 8 yahudiy, 6 bahoiy jamoalari, "Iegova shohidlari", bitta Krishna jamiyati va bitta Budda ibodatxonasi, shuningdek, O'zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyati mavjud.

O'zbekistonda – ta'lim olish huquqi barcha fuqarolarga ularning dinga munosabatidan qat'iy nazar ta'minlanadi. Bugungi kunda respublikamizda O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi, Toshkent islom instituti, Mir Arab oliy madrasasi, 9 madrasa, shu jumladan, 2 ixtisoslashtirilgan ayollar bilim yurti,

¹ Qarang. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri) // O'zbekistonning yangi qonunlari. 19-tom. –T.: Adolat, 1998.

Toshkent pravoslav seminariyasi, Toshkent xristian seminariyasi kabi o'quv dargohlari faoliyat yuritmoqda.

Mamlakatimizda Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro tadqiqot markazlari tashkil etilgan. Viloyatlarda kalom, hadis, fiqh, aqida va tasavvuf ilmlarini o'rganishga ixtisoslashtirilgan 5 ilmiy maktab ochilgan. Shuningdek, O'zbekiston to'liq Injil xristianlari markazi, O'zbekiston Yevangel xristian-baptistlar cherkovlari uyushmasi va boshqalar faoliyat yuritmoqda.

Mamlakatimizda yosh avlod ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish, yoshlarning ma'naviy kamoloti bilan bog'liq islohotlar bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarda izchillik bilan rivojlantirilmoqda. Jumladan, 2017 yil 19 sentyabrda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiyaning qabul qilish taklifini ilgari surgan edi. Bu hujjatning asosiy maqsadi barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga, jamiyatda bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirishga ko'maklashishdan iborat¹.

2018 yil 12 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining yalpi sessiyasida ushbu maxsus rezolyusiya qabul qilindi. Rezolyusiya BMTning barcha a'zo davlatlari tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlangan va mazkur hujjatga 50 dan ortiq davlat hammualliflik qildi. Rezolyusiyada asosiy e'tibor huquqiy madaniyatni oshirish, diniy ma'rifatni kuchaytirish orqali insonlar ongini sof tuyg'ular bilan oziqlantirishga qaratilmoqda. Ushbu hujjat inson huquqlari, turfa din va e'tiqodlarni hurmat qilish asnosida barcha darajada bag'rikenglik va tinchlik madaniyatini rag'batlantirish maqsadida global muloqotga ko'maklashishga doir xalqaro sa'y-harakatlarni faollashtirishga undaydi².

Islom asoslarini buzib talqin qilish, ilmsiz, tashqi ta'sirga beriluvchan aholini o'z talqinidagi diniy g'oyalar bilan zaharlash, o'zlariga qo'shilmagan kishilarga, davlatlarga va tuzimlarga nisbatan zo'ravonlik, buzg'unchilik, qotillik qo'llash kabi xususiyatlar ekstremistik tashkilotlarning barchasiga xosdir. Afsuski, so'nggi yillarda mazkur guruhlar faoliyati natijasida dunyo bo'ylab har yili 30 mingdan ortiq tinch fuqaro halok bo'lmoqda. O'nlab million aholi o'z uylarini tashlab ketish va dunyoning turli mamlakatlarida sarson-u sargardon bo'lishga majbur qolmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra esa, bir milliondan ortiq yosh bolalar ochlikdan o'lish xavfi ostidadir. Ularning aksar qismi terrorchilik avj olgan, buzg'unchi guruhlar tomonidan egallab turilgan hududlarga to'g'ri keladi. Bugungi kunda Iroq, Suriya, Nigeriya, Afg'oniston, Yaman, Liviya hanuz dunyoning eng qaynoq nuqtalari hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida butun jahon jamoatchiligiga **islom dinining insonparvarlik mohiyatini**, ya'ni islom dini azaliy qadriyatlar mujassam bo'lgan hamda ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da'vat etadigan din ekanligini yetkazishni eng

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 20 sentabr. №189 (6883)

² O'zbekiston Prezidentining tashabbusi jahon hamjamiyati tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi. 14.12.2018. <https://mfa.uz/uz/press/news/2018/12/17061/>

muhim vazifa ekanligini ta'kidladi. Dunyoda islom dini nomidan turli yovuz harakatlar sodir etishga urinishlar kuchayib borayotgan bir paytda, O'zbekistonda yoshlarga muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini tushuntirib berish, ularni teran fikrlaydigan, shiddatli zamon mezonlari asosida yashaydigan ma'rifatli, dunyoqarashi keng, barkamol insonlar etib voyaga yetkazishga muhim ahamiyat berilmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz"¹. Islom dinida o'z ahamiyatiga ko'ra Qur'oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan "Sahihi Buxoriy"ning muallifi Imom Buxoriyning boy merosini o'rganish, ma'rifatiy islom to'g'risidagi ta'limotini keng yoyish maqsadida Samarqand shahrida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, shuningdek, Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazi barpo etilmoqda.

Butun dunyoda millatlararo totuvlikni ta'minlash uchun ularning manfaatlari ruxiyati, intilishlarini muntazam o'rganib borish, ijtimoiy-siyosiy xayotda buni doimo e'tiborga olishish taqozo etadi.

Har qanday ko'p millatli mamlakatning muvaffaqiyatli rivojlanishi ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy-siyosiy asoslar hamda axloqiy mezonlar bilan bir qatorda ko'p jihatdan mamlakatdagi etnik birliklar va diniy konfessiyalar o'rtasida totuvlik hamda mustahkam tinchlikka bog'liq. Ko'p millatli davlatdagi etnoslararo hamda millatlararo tolerantlik milliy xavfsizlikni shakllanishida muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Millatlararo totuvlik umumbashariy qadriyat sifatida bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosi, tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston xududida istiqomat qiluvchi kam sonli etnoslar huquqlarini himoyalaniishi Konstitutsiyamizning 4-moddasida aniq aks ettirilgan: "O'zbekiston Respublikasi o'z xududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi".

Malumotlarga ko'ra, bundan yuz yil avval hozirgi respublikamiz hududida 70 ga yaqin millat vakillari istiqomat qilgan. 1926 yilda respublikamizda 90 millat va elat yashagan bo'lsa, 1959 yilda ularning soni 113 taga, 1979 yilda 123, 1989 yilda esa 130, 2018 yilda 136 taga yetgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 20 sentabr. №189 (6883)

O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisining milliy tarkibi to‘g‘risida ma’lumot¹
(yil boshiga; ming kishi)

	1991 y.		2011 y.		2017 y.	
	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %
Jami aholi	20607,7	100,0	29123,4	100,0	32120,5	100,0
Shu jumladan:						
o‘zbek	14995,3	72,8	23983,2	82,3	26917,7	83,8
qoraqolpoq	431,9	2,1	641,5	2,2	708,8	2,2
tojik	980,7	4,8	1411,6	4,8	1544,7	4,8
qozoq	845,3	4,1	832,7	2,9	803,4	2,5
rus	1593,8	7,7	837,5	2,9	750,0	2,3
qirg‘iz	182,6	0,9	254,6	0,9	274,4	0,9
tatar	414,6	2,0	218,6	0,8	195,0	0,6
turkman	126,6	0,6	174,7	0,6	192,0	0,6
koreys	183,7	0,9	188,0	0,6	176,9	0,6
ukrain	146,8	0,7	78,2	0,3	70,7	0,2
boshqalar	706,4	3,4	502,8	1,7	486,9	1,5

Mustaqillik yillarida ko‘pmillatli diyorimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash va yanada mustahkamlashning muhim omili bo‘lgan millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta‘minlash, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millatga mansub aholining ma‘naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan milliy-madaniy markazlar faoliyatini qo‘llab-kuvvatlash hamda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish borasida 1992 yil 13 yanvarda tashkil etilgan Respublika Baynalmilal madaniyat markazi samarali faoliyat yuritdi.

O‘tgan davr mobaynida Respublika baynalmilal madaniyat markazi atrofida turli milliy madaniy markazlar uyushgan holda faoliyat olib bordi. Bu markazlar o‘z millatlarining tili, madaniyati, urf-odatlarini, an‘analarini saqlab qolishi, yanada rivojlantirishi bo‘yicha faol ish yurityapti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan Respublika baynalmilal madaniyat markazi negizida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tashkil etildi². Shu tariqa bu qo‘mita millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini mustahkamlashga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta‘minlovchi boshqaruv organi maqomiga ega bo‘ldi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandidek do‘st va totuvlikda yashamoqda. O‘zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik va madaniy-ma‘rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, 138 milliy madaniy markaz, shuningdek, 34 do‘stlik jamiyati faoliyati O‘zbekistondagi barcha millat

¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Etnik guruhlar bo‘yicha aholi soni. <https://stat.uz/uz/432-analitcheskie-materialy-uz/2033-o-zbekiston-respublikasining-demografik-holati>.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017 yil 20 may

hamda elatlarning tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari, an'ana va urf-odatlarini asrash, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, jamiyat va davlatni barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Millatlararo munosabatlar yo'nalishidagi yana bir dolzarb masalalardan biri aholining milliy tarkibiga mos keladigan ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish. Bu borada respublikamizda bugungi kunga kelib, 9691 ta maktab faoliyat yuritayotgani, shundan 8853 ta maktabda o'zbek tilida, 862 ta maktabda rus tilida, 366 ta qoraqolpoq tilida, 370 ta maktabda qozoq tilida, 244 ta maktabda tojik tilida, 43 ta maktabda turkman tilida, 42 ta maktabda qirg'iz tilida ta'lim berish yo'lga qo'yilganini ta'kidlash kerak¹. Bular orasida ikki yoki uch tilda o'quv mashg'ulotlari olib borilayotgan maktablar ham bor. Xalq ta'limi vazirligiga qarashli pedagogik institutlarida o'zbek tilidan tashqari rus, tojik, turkman, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq tillarida ham mashg'ulotlar olib boriladigan maktablar uchun mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Respublikamizdagi ommaviy axborot vositalarining faoliyati ham aholi milliy tarkibining rang-barang ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda 8 tilda, ya'ni o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, tojik, turkman, ingliz, koreys tillarida gazeta va jurnallar chop etilmoqda.

O'zbekiston televideniyesi orqali qator xorijiy tillardagi ko'rsatuvlarning muntazam ravishda namoyish qilinishi va maxsus radio eshittirishlarning turli tillarda efirga uzatilayotgani ham diqqatga sazovor. Zero, 12 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, tojik, ozarbayjon, rus, tatar, boshqird, koreys, uyg'ur) teleradioeshittirishlar efirga chiqmoqda.

7.3. O'zbekiston Respublikasining o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosati

Tashqi siyosat deganda davlatning xalqaro munosabatlardagi umumiy yo'nalishi, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, davlat va uning vakillarining xalqaro maydonda milliy va davlat manfaatlariga erishishga qaratilgan harakatlar majmuasi tushuniladi.

1991 yil 31 avgust – O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga keng ko'lamli integratsiyalashuvi uchun poydevor qo'yildi. Mustaqillikka erishgach, O'zbekiston o'z tashqi siyosatini mustaqil ravishda yuritish imkoniyatini qo'lga kiritdi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati mustahkam huquqiy asoslarga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ekti sifatida davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning dahlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanishi belgilab qo'yildi. Davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida turli ittifoqlar tuzishi,

¹ <http://www.uzedu.uz/Xtv/BarchasiPage/67?tp=86>

xamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi, zarur bo'lganda ulardan ajralib chiqishi mumkinligi belgilab berildi.

2012 yil 10 sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi to'g'risida"gi qonun bilan O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi tasdiqlandi. Ushbu konsepsiya davlatimiz tashqi siyosatining fundamental prinsiplari va strategik ustuvor yo'nalishlarini, xalqaro maydondagi maqsad va vazifalarini, o'rta va uzoq istiqbolda O'zbekiston milliy manfaatlarini ilgari surish mexanizmlarini belgilab beradigan qarashlarning yaxlit tizimi hisoblanadi. Hozirda O'zbekiston Respublikasi va xorijiy sheriklar o'rtasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalaridagi o'rta va uzoq muddatli manfaatlariga asoslangan ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasining yangi tahriri ishlab chiqilmoqda.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini beshinchi yo'nalishi tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining rasmiy ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib boradi. Respublikaning zamonaviy tashqi siyosiy kursi dunyoda va mintaqada shiddat bilan o'zgarayotgan vaziyat, hamda mamlakatning ichidagi keng ko'lamli o'zgarishlarga asoslanib shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi – davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o'rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surish. Tashqi siyosatimizning prinsipial pozitsiyasi hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik, boshqa davlatlarning harbiy bazalari va obyektlarini O'zbekiston hududida joylashishiga yo'l qo'ymaslik, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz hududidan tashqaridagi tinchlikparvar operatsiyalarida ishtirok etmasligi, barcha ziddiyat va mojarolarni faqat siyosiy yo'l bilan hal qilishga sodiq qolish bilan izohlanadi. O'zbekiston hech qanday bloklarga a'zo bo'lmasdan turib muloqot uchun ochiq va barcha sheriklari bilan tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor.

Tashqi siyosiy faoliyatning asosiy va birinchi darajali vazifalaridan biri bu 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini samarali amalga oshirishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun tashqi siyosat idorasi oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyat va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish;

- Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot hududiga aylantirish;

- jahonning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko'p qirrali tizimini shakllantirish;

- O'zbekistonning mintaq va jahon siyosatidagi muhim yo'nalishlar bo'yicha xalqaro tashabbuslarini ilgari surish;
- mahalliy mahsulotlarning eksport hajmini oshirish va geografiyasini kengaytirish borasida ko'maklashish;
- milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va ilg'or texnologiyalarni jalb etishda faol ko'mak berish;
- mamlakatimizga turistlarni jalb qilish hamda turistik infratuzilmani rivojlantirish borasida amaliy yordam ko'rsatish;
- transport va tranzit sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirishda hamda xalqaro transport kommunikatsiyalari va logistik infratuzilmalarni rivojlanishiga ko'maklashish;
- xorijdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari huquq va manfaatlarining har tomonlama himoya qilinishini ta'minlash;
- xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash.

Tashqi siyosatimizning bosh ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasidir. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini hal etishga, shu jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni hal qilishga ko'maklashishga qaratilgan. O'zbekiston mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning transport va tranzit infratuzilmasini rivojlantirish, Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolarining suv-energetika resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda mintaqaning ekologik barqarorligini ta'minlash, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini yakuniga yetkazish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston mintaqa davlatlari bilan do'stona va ahil qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlashdan, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishdan, parlamentlar, chegara hududlari, jamoat tashkilotlari va oddiy fuqarolar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirishdan manfaatdor.

O'zbekiston Afg'oniston bilan aloqalarni kengaytirishni, mazkur mamlakatdagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etishga qaratilgan xalqaro sa'y-harakatlarda faol ishtirok etishni davom ettiradi. O'zbekiston tomoni Afg'oniston iqtisodiyotini qayta tiklanishiga, uning transport, ishlab chiqarish, energetik va ijtimoiy infratuzilmalarini rivojlantirishga ko'mak berishda davom etadi. Barqaror va ravnaq topayotgan Afg'oniston Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlikning kafolatidir.

MDH malakatlari bilan hamkorlik ham O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Mazkur davlatlar bilan respublikamiz tarixan shakllangan siyosiy, iqtisodiy, transport-kommunikatsion va boshqa aloqalarga ega. O'zbekiston Hamdo'stlik mamlakatlari bilan tenglik, o'zaro foydalilik, bir-birining manfaatlarini hurmat qilish va e'tiborga olish tamoyillari asosida ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarini qurishni davom etadi.

O'zbekiston Rossiya bilan 2004-yil 16-iyunda imzolangan Strategik hamkorlik, 2005-yil 14-noyabrdagi Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomalar hamda 2012-yil 4-iyunda imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida Strategik hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiya asosida do'stona munosabatlarni har tomonlama mustahkamlash va tadrijiy rivojlantirish ikki

mamlakat manfaatlariga to'liq mos keladi hamda mintaqadagi tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ikki tomonlama munosabatlarning eng muhim vazifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 4-5-aprelida Rossiyaga davlat tashrifi chog'ida erishilgan kelishuvlarni to'liq amalga oshirilishini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi global muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydigan, yaqin mintaqaviy qo'shni Xitoy bilan strategik hamkorlikni kuchaytirish tarafdori. Xitoy bilan munosabatlarni rivojlantirish 2012-yil 6-iyundagi Strategik hamkorlikni o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya va 2013-yil 9-sentyabrdagi ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiyasiga asoslangan. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 11-13-may kunlari Pekinga davlat tashrifi, shuningdek, 2017-yil 14-15-may oyida «Bir makon, bir yo'l» xalqaro forum'da ishtirok etish asnosida erishilgan qarorlar va kelishuvlarni amalga oshirish ikki mamlakat manfaatlariga mos keladi.

O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri, **Amerika Qo'shma Shtatlari** bilan 2002-yil 12-mart oyida imzolangan O'zbekiston va AQSh o'rtasida Strategik sherikchilik va hamkorlikning asoslari to'g'risidagi deklaratsiyasi asnosida o'zaro manfaatli va konstruktiv hamkorlikni har tomonlama rivojlantirishdan iboratdir. O'zbekiston AQSh bilan mamlakatda amalga oshirilayotgan fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash va xalq turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan modernizatsiya jarayoni va islohotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitiaviy-texnologik va madaniy-gumanitar sohalarida hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdor. Ikki tomonlama hamkorlikning muhim yo'nalishlari Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, transmilliy tahdid va xatarlarga qarshi kurashga ko'maklashishdan iboratdir.

O'zbekiston **Yevropa Ittifoqi va Yevropa davlatlari** bilan har taraflama manfaatli hamkorlikka muhim ahamiyat beradi. Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlikni asosiy sohalarini savdo-sotiqni rivojlantirish, investitiya va moliya, zamonaviy texnologiyalar transferi, ilm-fan, texnika, ta'lim, ekologiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va mintaqaviy xavfsizlik kabilar hisoblanadi. O'zbekiston asosiy e'tiborini Yevropaning ilg'or davlatlari, xususan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Italiya, Ispaniya, Latviya va boshqa davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorlikni yanada yuqori darajaga chiqarishga alohida e'tibor beradi.

Respublikamiz ko'p asrlik umumiy tarix, yagona til va din, umumiy qadriyatlar va o'xshash urf-odatlariga ega bo'lgan **Turkiya** davlati bilan do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosatni izchil davom ettiradi. Mamlakatimiz Turkiya bilan har taraflama manfaatli hamkorlikni, jumladan savdo-sotiq, investitsiya va turizm kabi sohalarida rivojlantiradi.

Osiyo-Tinch okeani hududi mamlakatlari, xususan Koreya Respublikasi va Yaponiya bilan hamkorlik O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. O'zbekiston ushbu davlatlar bilan investitsiya, savdo-sotiq, yuqori texnologiyalar, madaniy-gumanitar sohalaridagi keng qamrovli hamkorlikni davom ettiradi.

O'zbekiston **Janubiy-Sharqiy Osiyodagi mamlakatlar** – Malayziya, Indoneziya, Singapur, Vetnam kabi davlatlar bilan hamkorligini rivojlantiradi.

O'zbekiston **Janubiy Osiyo mamlakatlari**, xususan Hindiston va Pokiston bilan savdo-sotiq, transport-kommunikatsiya, turizm kabi sohalarida har taraflama va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishni qo'llab quvvatlaydi.

O'zbekiston **musulmon dunyosi davlatlari** bilan o'zaro manfaatli aloqalarni iqtisodiyot, transport kommunikatsiyasi, moliya, investitsiya va sayyohlik sohalarida, shu jumladan Islom hamkorlik tashkiloti va Islom taraqqiyot banki doirasida faol rivojlantirish va mustahkamlashdan manfaatdor.

O'zbekiston **BMT ishida faol ishtirok etishni** davom ettiradi, hamda uni xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga, tezkor globallashtirish jarayonida davlatlarning barqaror rivojlanishida ko'maklashishga mas'ul bo'lgan yagona universal tashkilot sifatida ko'radi.

Mamlakatimiz Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkilotlari bilan ushbu tuzilmalarning mexanizmlaridan zamonaviy muammolar va tahdidlarga qarshi kurashishda, ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishda samarali foydalanish maqsadida o'zaro sherikchilikni yanada rivojlantiradi.

O'zbekiston xalqaro moliya institutlari bilan, shu jumladan, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki va Yevropa investitsiya banklari bilan energetika, transport, qishloq xo'jaligi, uy-joy qurilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirishda hamkorlikni faollashtirish uchun barcha sa'y-harakatlarni olib boradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi dunyoning 130 dan ortiq davlatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. Toshkentda 45 ta chet el elchixonalari, 8 ta faxriy konsullar, 19 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, 18 ta xorijiy xalqaro hukumatlararo va hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, 1 ta diplomatik maqomga ega savdo vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining 47 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari mavjud. O'zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lib, mamlakatimiz turli xil ko'p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o'zaro sherikchilik aloqalarini rivojlantiradi¹.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, O'zbekiston jahon hamjamiyatiga tobora chuqurroq kirib bormoqda. Ayni paytda mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi mavqei uning siyosiy va iqtisodiy salohiyatini namoyon qiladi.

2017 yilda O'zbekistonning xorijiy sheriklar bilan 200 dan ortiq xalqaro shartnomalar, shuningdek, savdo-iqtisodiy va investitsiya sohalarida qiymati qariyb 60 mlrd. dollarlik kelishuv va bitimlar imzolandi. Chet el mamlakatlari va xalqaro

¹ O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. <https://mfa.uz/uz/cooperation/>

tashkilotlar bilan amaliy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha 40 dan ortiq "yo'l xaritalari" tasdiqlandi¹.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyatiga doir bir qator huquqiy hujjatlar yangi tahrirlarda qabul qilindi. Jumladan, 2019 yil 17 yanvarda "O'zbekiston Respublikasining Konsullik ustavini tasdiqlash to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Qonun bilan **O'zbekiston Respublikasining Konsullik ustavi** tasdiqlandi². Unga ko'ra, ushbu Konsullik ustavi konsullik faoliyatini amalga oshirishning asosiy vazifalari va huquqiy asoslarini, konsullik mansabdor shaxslarining O'zbekiston Respublikasining huquqlari va manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda yuridik shaxslarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida himoya qilishga doir vazifalarini belgilaydi.

2019 yil 6 fevralda "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Qonun O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish, bajarish, ularning amal qilishini to'xtatib turish va ularni tugatish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunning 2-moddasiga binoan, **O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi** – bitta hujjatdan, ikkita yoki bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bir nechta hujjatdan iborat bo'lishidan, shuningdek o'zining muayyan nomidan va tuzilish usulidan (shartnoma, bitim, konvensiya, akt, pakt, bayonnoma, xatlar yoki notalar almashinuvi hamda xalqaro shartnomaning boshqacha nomlari va tuzilish usullaridan) qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi tomonidan chet davlat, xalqaro tashkilot yoxud xalqaro shartnomalar tuzish huquqiga ega bo'lgan boshqa subyekt bilan yozma shaklda tuzilgan, xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan xalqaro kelishuv³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda uning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan o'rta muddatli istiqbolda O'zbekiston Respublikasining asosiy xorijiy sheriklar bilan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy hamkorligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari tasdiqlandi⁴. Unga ko'ra O'zbekiston davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini uzil-kesil nihoyasiga yetkazish tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan. Chegarani huquqiy jihatdan rasmiylashtirishni hal etish masalasini jadallashtirish O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturida ham o'z aksini topgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalari faoliyatiga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi. 12.01.2018.

<https://president.uz/uz/lists/view/1423>

² "O'zbekiston Respublikasining Konsullik ustavini tasdiqlash to'g'risida"gi qonun // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.01.2019-y., 03/19/517/2497-son

³ "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi qonun // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.02.2019-y., 03/19/518/2589-son

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda uning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // "Xalq so'zi" gazetasi. 2018 yil 6 aprel.

Ma'lumki, mintaqa markazida joylashgan O'zbekiston Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari bilan umumiy chegaraga ega. Uning uzunligi 7000 kilometr dan ziyod, jumladan, Qozog'iston bilan – 2356,31, Qirg'iziston bilan – 1476,12, Tojikiston bilan – 1296,9, Turkmaniston bilan – 1831,49, Afg'oniston bilan – 143 kilometrni tashkil etadi.

Keyingi yillarda O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan hamkorligi faollashishi barobarida, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalari bo'yicha muzokaralar jarayoni muntazamlilik kasb etdi. 2016 yil avgust oyidan 2018 yil avgust oyiga qadar O'zbekiston hukumati delegatsiyasi qo'shni mamlakatlar hukumat delegatsiyalari bilan jami 65, jumladan, Qozog'iston bilan 18, Qirg'iziston bilan 28, Tojikiston bilan 9, Turkmaniston bilan 9, Afg'oniston bilan 1 uchrashuv o'tkazdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 5 sentyabrdagi Qirg'iziston Respublikasiga, 2018 yil 9 martdagi Tojikiston Respublikasiga davlat tashriflari davomida o'zbek-qirg'iz davlat chegarasi haqidagi shartnomaning kelishilgan qismi va O'zbekiston-Tojikiston davlat chegarasining ayrim uchastkalari haqidagi shartnoma imzolanishi chegarani delimitatsiya va demarkatsiya qilish, chegaraoldi muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Pirovardida, O'zbekiston Prezidentining ochiq va pragmatik siyosati tufayli O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston o'rtasidagi davlat chegaralarining tutashuv nuqtasini belgilab olish masalasida anglashuvga erishildi. 2017 yil noyabr oyida Samarqandda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo bo'yicha yuksak darajadagi Xalqaro konferensiya doirasida bu borada tegishli shartnoma imzolandi.

Qozog'iston bilan davlat chegarasini delimitatsiya qilish nihoyasiga yetib, ayni paytda bu haqidagi shartnoma uchun zarur hujjatlarni tayyorlash bo'yicha muzokaralar o'tkazilmoqda.

Turkmaniston bilan Davlat chegarasi haqidagi shartnoma 2000 yil sentabr oyida Ashxobodda imzolaniib, unda 10 ta uchastka bo'yicha ishlarni davom ettirishga kelishilgan edi. 2017 yil mart oyida mamlakatimiz Prezidentining Turkmanistonga davlat tashrifi chog'ida Ashxobodda erishilgan yuksak darajadagi kelishuvga muvofiq, uzoq yillik tanaffusdan so'ng chegara masalalari bo'yicha ishchi guruhlar muzokaralari tiklandi.

2018 yil fevral oyida Afg'oniston rasmiylari bilan bo'lgan uchrashuvda Amudaryo sohillari bo'ylab chegara chizig'ini mustahkamlash masalasi ko'rib chiqildi¹.

Markaziy Osiyoni xavfsizlik, barqarorlik, axil qo'shnichilik mintaqasiga aylanishi 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilab qo'yilgan asosiy maqsadlardan biri bo'lib, O'zbekiston atrofida mintaqaviy rivojlanish va farovonlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, do'stlik, o'zaro hamjihatlik va ishonch muhitini shakllantirish, chegaradosh mamlakatlar bilan til topishib, axil qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlashni nazarda tutadi. O'zbekiston tashqi siyosatining

¹ Ilhom Ne'matov. Davlat chegaralarini rasmiylashtirishni jadallashtirish – O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi. 16.08.2018. <http://uza.uz/oz/society/davlat-chegaralarini-rasmiylashtirishni-zhadallashtirish-zbe-16-08-2018>

asosiy yoʻnalishi Markaziy Osiyo mintaqasi boʻlib, mamlakat milliy manfaatlari ushbu mintaq bilan bevosita bogʻliq. Oʻzbekiston qoʻshni mamlakatlar - Turkmaniston, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston, Afgʻoniston bilan ochiq, doʻstona va pragmatik siyosat yuritish tarafdori. Muloqot uchun tayyorlik ushbu ustuvor yoʻnalishning amaliy jihatidir. Mavjud muammo va masalalar muhokamasida chekinmagan holda, oʻzaro manfaatli, oqilona kelishuvlarga erishish uchun ochiqlik Oʻzbekiston rahbariyatining tashqi siyosat sohasidagi birinchi va asosiy mezon hisoblanadi.

2017 yil 10 noyabrda Samarqand shahrida boʻlib oʻtgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yoʻlidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev alohida qayd etganidek, “bizning bosh maqsadimiz – umumiy saʼy-harakatlarimiz bilan Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirishdan iborat”¹.

Yurtboshimiz tashabbusi tufayli mintaq mamlakatlari bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-logistika va madaniy-gumanitar sohalarida hamkorlik aloqalari jadal surʼatlarda rivojlanib boryapti. Masalan, yil boshidan buyon Oʻzbekistonning mintaq mamlakatlari bilan tovar aylanmasi oʻrtacha 20 foiz, ayrim davlatlar bilan esa qariyb 70 foiz oʻsgani ham bu saʼy-harakatlarning amaliy tasdigʻidir.

Oʻzbekiston bahsli, oʻta jiddiy hamda nozik masalalarni tezroq hal qilish va oʻzaro ishonchni yanada mustahkamlash boʻyicha siyosati hamda intilishi qatʼiy ekanligini soʻzda emas, amaliy ishlari bilan isbotlamoqda. Oʻzbek – qirgʻiz davlat chegarasining 85 foizi boʻyicha kelishuvga erishilgani, chegara-oʻtkazish postlari faoliyati qayta tiklangani, chegaradosh viloyatlar aholisining oʻzaro bordi-keldisi ancha yengillashgani buning yaqqol tasdigʻidir. Bularning barchasi Markaziy Osiyoda siyosiy ishonch muhitini mustahkamladi, odamlarimizning kelajakka boʻlgan ishonchini yanada kuchaytirdi².

Markaziy Osiyoda tinchlik hamda barqarorlikni yanada mustahkamlashda qoʻshni Afgʻoniston alohida oʻrin egallaydi. 2018 yilning mart oyida Afgʻoniston boʻyicha oʻtkazilgan yuqori darajadagi Toshkent konferensiyasi, uning yakuni boʻyicha qabul qilingan **“Toshkent deklaratsiyasi”** Afgʻonistonda tinchlik oʻrnatish boʻyicha muhim qadam boʻldi.

Aynan ushbu konferensiyadan soʻng Afgʻonistondagi barcha siyosiy kuchlar, jumladan, “Tolibon” harakati ishtirokida muzokaralar jarayonini boshlashga qaratilgan xalqaro harakatlar yanada faollashdi. Oʻzbekiston Afgʻoniston rahbariyati va mamlakatning yetakchi siyosiy kuchlari, jumladan, “Tolibon” harakati vakillari bilan bir qator muhim muzokaralar oʻtkazdi.

Afgʻonistondagi vaziyatni barqaror etishning muhim sharti – mamlakatni iqtisodiy jihatdan tiklashdan iborat. Bu borada mamlakatimiz Afgʻonistonda transport va logistika, energetika, savdo va taʼlim sohalarida yirik qoʻshma loyihalarni amalga oshirmoqda. Oʻzbekiston tomonidan qurilayotgan Surxon – Puli Xumri elektr uzatish

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yoʻlidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi // “Xalq soʻzi” gazetasi. 2017 yil 11 noyabr. 228(6922)-son.

² <http://senat.uz/uz/news/2017/artides/15-11.html>

liniyasi, Termiz shahrida afg'on fuqarolarini o'qitish uchun ochilgan Ta'lim markazi, bojxona terminaliga ham ega bo'lgan "Termiz-kargo" logistika markazi, Mozori Sharif – Hirot va Mozori Sharif – Kobul – Peshavor temir yo'l liniyasi shundan dalolat beradi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "O'zbekiston afg'on muammosini yechish uchun bundan buyon ham har tomonlama yordam ko'rsatadi.

Biz uchun eng muhim pirovard natija – Afg'onistonda tinchlik muzokaralarini boshlash va milliy yarashuvga erishishdan iborat"¹.

Umuman olganda, Harakatlar strategiyasi asosida O'zbekiston tashqi siyosatini faollashtirmoqda, xalqimizning milliy manfaatlariga javob beradigan, ochiq, pragmatik va chuqur o'ylangan tashqi siyosat yo'lini davom ettirmoqda. Barcha davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini, uzoq muddatli va ko'p qirrali sheriklikni yanada kuchaytirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu o'rinda O'zbekistonning yaxshi qo'shnilik va do'stlikka asoslangan ochiq siyosati murosa qilish va yillar davomida to'planib, qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni rivojlantirish yo'lida g'ov bo'lib kelayotgan eng murakkab masalalarga yechim topish qobiliyatiga ega ekanidan dalolat bermoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. "Suverenitet", "millatlararo totuvlik", "bag'rikenglik", "tashqi siyosat" tushunchalarining mazmun-mohiyatini aytib bering.
2. Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo'nalishda belgilangan vazifalarni aytib bering.
3. Qurolli Kuchlar sohasida qanday islohotlar olib borildi?
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining qaysi moddasida tashqi siyosatining asosiy prinsiplari bayon qilingan?
5. O'zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlashda o'rni haqida gapirib bering.

8-BOB. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH – FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR SHARTI

Reja:

1. **Korrupsiya tushunchasi, korrupsiyaga qarshi kurashishning mazmun-mohiyati.**
2. **Korrupsiya qarshi kurashga doir huquqiy asoslarning yaratilishi va takomillashtirilishi.**
3. **O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashdagi tub burilish davrining boshlanishi.**

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2018 yil 29 dekabr.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Korrupsiya tushunchasi, korrupsiyaga qarshi kurashishning mazmun-mohiyati haqida tushuncha berish; Korrupsiya qarshi kurashga doir huquqiy asoslar haqida bilim berish; O'zbekistonda korrupsiya qarshi kurash borisida olib borilayotgan islohotlar haqida tushuncha berish.

Tayanch iboralar: Korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurash, korrupsiyaviy faoliyat, manfaatlar to'qnashuvi, huquqbuzarlik, fuqarolik jamiyati, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, davlat dasturi, halollik vaktsinasi.

8.1. Korrupsiya tushunchasi, korrupsiyaga qarshi kurashishning mazmun-mohiyati

Insoniyat tarixidan ma'lumki, korrupsiya jamiyatni yemiradigan, shaxsni axloqiy jihatda inqirozga uchratadigan, har qanday davlat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qiladigan ijtimoiy illatdir. Mansabdorlarning ba'zilar o'z manfaatlarini jamiyat hamda davlat manfaatlaridan yuqori qo'ya boshlashi natijasida korrupsiya paydo bo'ladi.

“Korrupsiya” atamasi lotincha *“corruptio”* so'zidan kelib chiqib, “buzish, pora evaziga og'dirish” degan ma'noni anglatadi. Korrupsiya – shaxsni mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyat turidir. Korrupsiyaviy faoliyat xufyona iqtisodiyotning asosiy zararli va yemiruvchi turlaridan biri hisoblanadi. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat mansabdorlari tomonidan o'z shaxsiy manfatlarni ko'zlab boylik orttirish maqsadida fuqarolardan pora olishi, qonunga xilof ravishda boylik orttirishi tushuniladi. Lekin, umuman olganda, davlat mansabdorlarigina emas, balki korxona yoki firmalarning menejerlari ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari bo'lishi mumkin. Bunda ko'pincha poralar pul bilan emas, balki boshqa shakllarda olinadi, korrupsiyaga doir jinoyatlarning tashabbuskorlari ba'zan tadbirkorlar bo'lishi ham mumkin.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev korrupsiyani mohiyati va unga qarshi kurashish zarurligi haqida quyidagi fikrni aytgan edi: “Jamiyat rivojiga g'ov bo'layotgan yana bir illat – bu korrupsiya balosidir. Bunday xatarga qarshi kurashish maqsadida yaqinda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senatga yuborilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonunni tezroq amaliyotga joriy etish chora-tadbirlarini ko'rishimiz lozim. Bularning barchasi, o'z navbatida, inson huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini takomillashtirishga, xalqimizning davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi”¹.

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvarda qabul qilingan **“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi** qonunida “korrupsiya” tushunchaga quydagicha ta'rif berildi: **“Korrupsiya”** – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi; **korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish”². Shuningdek, qonunda **manfaatlar to'qnashuvi** tushunchasiga ham izoh berilgan bo'lib, u shaxsiy (bevosita yoki bilvosita)

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: O'zbekiston, 2017. – B. 110.

² “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonun // “Xalq so'zi” gazetasi. 2017 yil 4 yanvar

manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatdir.

Uzoq yillar tajribasidan kelib chiqib korrupsiyani bir nechta asosiy turlarga ajratish mumkin:

1) sub'ektlarning maqomiga ko'ra:

- a) hokimiyat organlaridagi korrupsiya;
- b) xususiy sektordagi korrupsiya;
- v) siyosatdagi korrupsiya yoki siyosiy korrupsiya;

2) darajasiga ko'ra:

- a) quyi darajadagi korrupsiya;
- b) yuqori darajadagi korrupsiya;
- v) vertikal korrupsiya;

3) ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra:

- a) korrupsiya-qilmish;
- b) korrupsiya-jinoyat.

Hokimiyat (ijroiya, vakillik va sud) organlaridagi korrupsiya hozirgi vaqtda jahonning deyarli barcha mamlakatlari, shu jumladan O'zbekistonda ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu turdagi korrupsiya jinoyatlarini o'zlari qonunga rioya etishlari va uni muhofaza qilishlari lozim bo'lgan kishilar sodir etadi. Aksariyat mamlakatlarda bu jinoyatlar keng tarqalganligi, davlat apparati xodimlari korrupsiya domiga ilinganligi mazkur mamlakatlarning qonunchilarini poraxo'rlik, mansab mavqeini suiiste'mol qilish va boshqa xavfli mansabdorlik jinoyatlariga qarshi qat'iy choralar ko'rishga va, aksincha, mansabdorlarning uncha xavfli bo'lmagan va ko'proq darajada tarqalgan jinoyatlariga jiddiy e'tibor bermaslik (masalan, uncha qimmat turmaydigan sovg'a olish jinoyat hisoblanmaydi) holatlari uchrab turibdi.

Nodavlat tashkilotlar yoki xususiy sektordagi korrupsiya ancha keng tarqaldi. Tashkilot (tijorat yoki jamoat tashkiloti) rahbari o'z shaxsiy manfaatlari yoki boshqa ikkinchi tomon foydasiga o'tkazishi yoki tasarruf etishi, tashkilot manfaatlariga zid bo'lgan harakatlarni sodir etish imkoniyatlariga ega.

Siyosiy korrupsiya korrupsiyaviy jinoyatlarning alohida turi sifatida asosan uchta asosiy shaklini keltiriladi:

1) siyosiy: mansabdor shaxs yuzaga kelgan qarindosh-urug'chilik munosabatlari tufayli qonunga zid harkat qiladi;

2) jinoyat faoliyati bilan bog'liq bo'lib, mansabdor shaxslarni sotib olishga asoslangan. Ular esa mukofot puli olish evaziga g'aëriqonuniy xizmatlar ko'rsatadi;

3) taraflardan biri o'ziga eng qulay tartib vujudga keltirish uchun jinoyatga mansabdor shaxslarning tegishli toifalarini izchillik bilan jalb etishni nazarda tutadi. Korrupsiyaning bu shakli uyushgan jinoyatchilik bilan mustahkam bog'langan bo'lib, mansabdor shaxslarga nisbatan sotib olish, provakatsiya qilish va tahdid solishni anglatadi¹.

¹ Ismoilov B.I. "Korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy asoslari" maxsus kursi bo'yicha ma'ruza matni. - T.,

Siyosiy korrupsiyaning, ayniqsa ko'p uchraydigan shakllari – bu pora olish va pora berish hisoblanadi. Bu holat saylovlarda nomzodlar o'z huquqini qing'ir yo'llar bilan amalga oshirish maqsadida siyosat sub'ektlarini pora evaziga og'dirib olishga urinadi. Faoliyat ko'rsatish darajalariga binoan korrupsiya quyi darajadagi, yuqori darajadagi va vertikal jihatlar bilan bir-biridan farqlanadi.

Quyi darajadagi korrupsiya hokimiyat va boshqaruv organlarining o'rta va quyi darajalarida keng tarqaladi, mansabdorlar va fuqarolarning muntazam o'zaro aloqalari bilan bog'liqdir (masalan, ro'yxatdan o'tkazish, jarimalardan qutilish, lisenziyalar va turli ruxsatnomalar olish va sh.k.).

Yuqori darajadagi korrupsiya yuqori hokimiyat organlarida ishlaydigan siyosatchilar, oliy martabali mansabdorlarni o'ziga qamrab oladi va juda katta boyliklar evaziga o'z foydasiga qarorlar qabul qilish bilan bog'liqdir (qonunlarni ilgari surish va qabul qilish, davlat buyurtmalari, mulk shakllarini o'zgartirish va sh.k.). Aksariyat hollarda korrupsiyaviy bitimdan manfaatdor bo'lgan ikkala tomon ayni bir davlat hokimiyati organida ishlashi mumkin. Masalan, quyi turuvchi davlat organining mansabdori o'zidan yuqorida turuvchi boshliqqa o'zining korrupsiyaviy harakatlariga homiylik qilishi yoki qo'shimcha mablag'lar, resurslar, vakolatlar ajratishi uchun pora beradi.

Korrupsiyaning pora olish va xizmat mavqeini suiiste'mol qilish kabi odatdagi shakllaridan tashqari, yana uning quyidagi amalda namoyon bo'lishi shakllarini bir-birlaridan farqlash mumkin:

- mansabdor shaxslar, davlat xizmati xodimlari, deputatlar tijorat faoliyatida shaxsiy yoki korporativ naf ko'rish uchun bevosita ishtirok etishi; davlat pul mablag'larini o'zlashtirish niyatida tijorat tuzilmalariga o'tkazish uchun o'z xizmat mavqeidan foydalanish;

- o'z korporativ (siyosiy, diniy, milliy va sh.k.) guruhiga davlat resurslari hisobidan imtiyozlar berish; shaxsiy yoki korporativ naf ko'rish maqsadida ommaviy axborot vositalariga tazyiq o'tkazish uchun o'z xizmat mavqeidan foydalanish;

- mansabdor shaxslar va davlat xizmati xodimlari shaxsiy boyish maqsadida tijorat tuzilmalarida soxta shaxslardan va qarindoshlaridan foydalanishi; shaxsiy yoki korporativ naf ko'rish maqsadida axborotni manipulyatsiya qilish (buzib ko'rsatish, bermaslik, berish muddatlarini cho'zish va sh.k.) uchun xizmat mavqeidan foydalanish;

- tor guruhliy manfaatlarda normativ hujjatlar qabul qilish haqidagi qarorlarni ilgari surish; ayrim nomzodlarning saylov fondlariga davlat moliyaviy va moddiy resurslarini taqdim etish.

AQShda korrupsiyaning “kikbeking” degan shakli ancha keng tarqalgan. Uning sxemasi juda sodda: jinoiy til biriktirish ishtirokchilari muayyan narxlarda bitim tuzishga og'zaki kelishadilar, rasmiy bitimni esa balandroq narxlarda imzolaydi. Tafvutning bir qismi bitimga ruxsat bergan mansabdor shaxslarga topshiriladi, ya'ni yashirin tarzda pora beriladi. Pora olishning bu kabi shakli so'nggi yillarda O'zbekistonda ham uchrab turibdi.

Korrupsiya jinoyati nafaqat xufyona, balki korrupsiyaga doir munosabatlarga

kirishgan tomonlarning o‘zaro kelishuviga binoan ochiq tarzda ham sodir etilishi mumkin. Aksariyat hollarda u tegishli hokimiyat organlariga shikoyat berilishiga sabab bo‘lmaydi, chunki g‘ayriqonuniy kelishuvdan har ikkala tomon ham naf ko‘radi. Hattoki, jabrlanuvchilar pora so‘ragan mansabdorlar ustidan ham kamdan-kam holda shikoyat qiladi. Chunki, odamlar korrupsiyaga qarshi kurash jarayonini samara berishiga unchalik ishonmaydi. Bu holatga doir milliy va xorijiy tajriba bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan ob‘ektiv va sub‘ektiv sabablar mavjuddir. Korrupsiya harakatlari odatda davlat faoliyatining mutaxassis bo‘lmagan kishilar tushunishi ancha qiyin bo‘lgan o‘ziga xos turlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham korrupsiya o‘tamoshlashuvchan jinoyatdir.

Korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

1. Ikki xil ma‘noni anglatuvchi qonunlar — ushbu vaziyat huquqni qo‘llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo‘llash imkonini yaratadi. Shuningdek, ayrim mutaxassislar jinoyat, ma‘muriy qonunchilikdagi “vilka” sanksiyalarni ham korrupsiyaga qulay sharoit yaratishi mumkinligi haqida fikr yuritishgan. Ya‘ni, sanksiyaning aniq miqdori yo‘qligi sudyada uni o‘z hohishiga qarab qo‘llashga sharoit yaratib beradi.

2. Aholi huquqiy savodxonligining pastligi — aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o‘zining shaxsiy manfaati yo‘lida qonunlardan foydanishga qulay sharoit yaratadi.

3. Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi — notinchlik birinchi navbatda aholi ongida hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog‘liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida korrupsiyaga qulay sharoit yaratadi.

4. Ijro hokimiyatining birligi tamoyili buzilishi — aynan bitta faoliyatning turli instansiyalar tomonidan tartibga solinishi.

Quyidagi omillar ham katta ta‘sirga ega:

- aholining davlatni nazorat qilishdagi sust ishtiroki;
- davlat xizmatchilarining daromadlari xususiy sektorda topish mumkin bo‘lgan daromadlardan kamligi;
- iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi;
- inflyatsiyaning yuqori darajasi;
- mamlakat yuqori boshqaruv organlarining aholidan uzilib qolganligi;
- mamlakatdagi diniy va axloq qoidalari.

Jahon mamlakatlarida **korrupsiyaga qarshi kurashning bir qator yo‘llari** mavjud.

1. Korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy richagi — jazoning muqarrarliligi va javobgarlik mavjudligida. Qonunlarda javobgarlikni qat‘iylashtirmasdan, har bir harakat uchun jazo muqarrarliligini belgilamasdan, hech qaysi jamiyatda korrupsiyaga qarshi samarali kurash tizimini tashkil etib bo‘lmaydi.

2. Ma‘muriy va moliyaviy ish yuritish uslubini isloh etish kerak. Moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, audit agentliklari rolini oshirish jamiyat hayotida kutilgan va ijobiy yangiliklarga sabab bo‘ladi.

3. Matbuot erkinligi va ma‘lumotlar ochiqligi korrupsiyaning ashaddiy kushandasi hisoblanadi.

4. Parlament oldida mansabdorlar, tashkilot vakillarining hisobdorligini oshirish, bu jarayonlarni keng jamoatchilikka yetkazib borish.

5. Lobbizm va davlat xizmatchilari, ularning yaqin qarindoshlariga oid ma'lumotlar ochiq qilinishi. Davlat xizmatchisi va uning yaqin qarindoshlari qancha mol-mulkka egaligi, orttirayotgan boyligi haqida rasmiy ma'lumot tarqatilishi.

6. Davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasiga yuqori texnologiyalarni joriy etilishi. Bu orqali mansabdor shaxs xizmat vazifasini suiste'mol qilishi oldi olinadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash masalasi siyosiy iroda bog'liq ko'rinsa-da, unga befarqlik oqibatlari siyosiy, iqtisodiy inqirozlarga olib keladi.

8.2. Korrupsiya qarshi kurashga doir huquqiy asoslarning yaratilishi va takomillashtirilishi

Dunyoda XXI asrga kelib ham korrupsiyaga barham berish masalalari hal etilgani yo'q. BMT ma'lumotlariga ko'ra dunyoda berilgan pora hajmi keyingi uch yil ichida yiliga o'rtacha 1 trln. AQSh dollarini tashkil etmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida bir qator xalqaro huquqiy hujjatlar bo'lib, ularning aksariyati BMT tomonidan qabul qilingan. Jumladan:

1) "Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksi" (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1979 yil 17 dekabrda qabul qilingan);

2) Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksini samarali amalga oshirilishi uchun rahbariy prinsiplar (BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi rezolyusiyasi bilan 1989 yil 24 mayda qabul qilingan);

3) Davlat mansabdor shaxslarining Xalqaro xulq-atvor kodeksi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996 yil 12 dekabrda qabul qilingan);

4) BMTning Xalqaro tijorat operatsiyalarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash to'g'risidagi Deklaratsiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996 yil 16 dekabrda tasdiqlangan);

5) Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro konvensiya (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1999 yil 9 dekabrda qabul qilingan);

6) BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2000 yil 15 noyabrda qabul qilingan);

7) BMT Forumining ofshorlar bo'yicha Kommyunikesi (Kayman orollari, 2000 yil 30-31 mart);

8) BMT Bosh kotibining korrupsiyaga oid ma'ruzasi (Vena, 2001 yil 8-17 may);

9) Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlar to'plami (2001 yil iyun);

10) Korrupsiyaga qarshi kurash choralari. Pulni tozalashga qarshi kurash choralari. Jinoyatchilik va odil sudlov: XXI asr chorloviga javoblar to'g'risidagi Vena deklaratsiyasini amalga oshirish harakat Rejasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2002 yil 15 aprelda qabul qilingan)

11) BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan).

Yevropa Kengashi va Yevropa Ittifoqi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash

borasidagi ko‘plab huquqiy normalar va xalqaro hujjatlar qabul qilindi¹. Shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tarmog‘ining Istanbul harakatlar dasturi (2003 yil 10 sentabr) ham mintaqada darajasida korrupsiyaga qarshi kurash sohasini tartibga soladi.

Albatta, Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi eng asosiy xalqaro hujjat bu - shubhasiz, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi hisoblanadi. Barcha xalqaro tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashga doir huquqiy normalari ushbu hujjat tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Mustaqillik davrida mamlakatimizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning strategik maqsadini amalga oshirishda qonun ustuvorligini ta‘minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish, korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish muhim ustuvor va dolzarb vazifalar sifatida qarab kelindi. Mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta‘minlashning huquqiy asoslari shakllantirildi, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi yaratildi.

2008 yilda O‘zbekiston mazkur xalqaro hujjatga bir nechta bildirishlar, bayonotlar va shartlar bilan qo‘shildi. Jumladan, O‘zbekiston Konvensiyaning “Noqonuniy tarzda boylik orttirilishi”ni jinoyat deb baholagan 20-moddasi va “Yuridik shaxslarning javobgarligi”ni nazarda tutuvchi 26-moddasiga qo‘shilmagan. O‘zbekiston ushbu Konvensiyadan korrupsiya jinoyatlari sodir etgan shaxslarni tutib topshirish masalalarida ushbu Konvensiyaning boshqa Ishtirokchi-davlatlari bilan hamkorlik qilish uchun huquqiy asos sifatida foydalanishini bildirgan.

Shuningdek, O‘zbekistonning 2010 yili Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tarmog‘ining Istanbul harakatlar dasturiga qo‘shilishi korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash va uning oldini olish bilan bog‘liq huquqiy asoslarni takomillashtirishga qaratilgan qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, Byudjet, Bojxona kodekslari (yangi tahrirda), “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to‘g‘risida”gi, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi, “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi, “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta‘minlash to‘g‘risida”gi, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi, “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunlar shular jumlasidandir.

¹ Yevropa Kengashining korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1999 yil 27 yanvar); 2) Yevropa Kengashining korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1999 yil 9 sentabr); 3) Yevropa Kengashining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni tozalash, aniqlash, olib qo‘yish va musodara qilish to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1990 yil 8 noyabr); 4) Korrupsiyaga qarshi kurashning yigirmata prinsipi (Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 1997 yil 6 noyabr); 5) Davlat xizmatchilari uchun Model xulq-atvor kodeksi (Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2000 yil 11 may); 6) Siyosiy partiyalarni va saylov kampaniyasini moliyalashtirishda korrupsiyaga qarshi yagona qoidalar (Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2003 yil 8 aprel); 7) Moliyaviy tizimdan pulni tozalash maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi Yell Direktivasi (1991 yil 10 iyun); 8) Pulni tozalashga qarshi Parij deklaratsiyasi (Yevropa Ittifoqining pulni tozalashga qarshi parlamentar konferensiyasining Yakuniy deklaratsiyasi 2002 yil 8 fevral).

Korrupsiya va uni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabablar va omillarning oldini olish maqsadida iqtisodiyotni erkinlashtirish, mehnat jamoalarida ishchanlik va oshkoralik muhitini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar tashkil etish, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish hamda davlat organlari tomonidan lisenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, davlat xaridlari mexanizmini takomillashtirish, davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlashga oid qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2017 yil 4 yanvarda "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Qonunning 5-moddasida korrupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilab qo'yildi:

- aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlikni shakllantirish;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyadan ogohlantirish bo'yicha choralarni amalga oshirish;
- korrupsion huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ular oqibatlari, sabablari va keltirib chiqargan sharoitlarni bartaraf etish hamda korrupsion huquqbuzarliklar sodir etilgani uchun muqarrar jazolash tamoyilini tadbqiq etish¹.

Qonunga binoan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bevosita faoliyat amalga oshiruvchi davlat organlari sirasiga Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti kiradi.

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirishda keng jamoatchilikning ishtiroki ta'minlanmasa, undan kutilgan natijalarga erishib bo'lmaydi. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatda qonun hujjatlariga muvofiq o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat va notijorat tashkilotlar, OAV ishtirok etishi mumkin. Qonunga muvofiq, keng jamoatchilik, o'zini o'zi boshqarish organlari yoki nodavlat tashkilotlar:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda;
- jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi mumkin.

Qonun bilan har qanday fuqaro turli tashkilotlar va davlat organlari faoliyati, o'ziga yoki boshqa shaxslar guruhiga taalluqli qabul qilinayotgan me'yoriy aktlar to'g'risida ma'lumot olish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yildi. Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlar tomonidan OAVga korrupsiya bilan bog'liq hodisalar, dalillar, voqealar va jarayonlar to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etishi uchun qulay sharoitlar yaratildi.

¹ "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil 4 yanvar

Shu bilan birga, Qonunda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyadan ogohlantirish bo'yicha qator choralar belgilandi. Jumladan, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini ta'minlash, parlament va jamoatchilik nazorati, mansabdor shaxslar faoliyati sifatini baholash hamda ishga qabul qilish va mansab pillapoyalaridan ko'tarilishda ochiqlik va xolislik tamoyili asosida tanlovlar asosidagi saralashlarga amal qilish mexanizmlarini joriy etish belgilandi. Davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomi aniqlanib, ularni ijtimoiy himoya qilish, moddiy ta'minotini oshirish va mehnat faoliyatini har tomonlama rag'batlantirish choralari ko'rishga shart-sharoitlar yaratildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy va tadbirkorlik sohalarida korrupsiyani yuz bermasligi yoki undan voqif etish qator choralar qatoridan ma'muriy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, turli ro'yxatga olish, ruxsat berish va lisenziyalash jarayonlarini soddalashtirish va ularni rasmiylashtirish tezkorligini oshirish, davlat organlarining nazorat-tekshiruv vakolatlarini optimallashtirish hamda ular bilan tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning uzoqdan masofaviy tarzda bog'lana olish shakllarini joriy etish belgilandi.

Shuning uchun ham qonunda davlat organi xodimi biror bir shaxs tomonidan uni korrupsion huquqbuzarlikni sodir etishga da'vat qilish holati, shuningdek, boshqa xizmatchilar tomonidan shu kabi holatlarning amalga oshirilishi bo'yicha unga oshkor bo'lgan ma'lumotlarni o'z rahbari yoki huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat etish huquqlari belgilab qo'yildi. Mazkur majburiyatlarning amalga bajarilmasligi qonunchilikka muvofiq tegishli ravishda jazolanishi qoidasi o'rnatildi. Korrupsion jinoyat to'g'risida axborot bergan shaxs davlat himoyasi ostiga olinadigan bo'ldi. Shuningdek, mazkur qoida yolg'on ma'lumotlarni taqdim etuvchi fuqarolarga nisbatan amal qilmasligiga e'tibor qaratildi.

Shu bilan birga, qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasini tashkil etish ham nazarda tutildi. Idoralararo komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanishi nazarda tutildi. Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar tashkil etilishi belgilandi.

Mazkur qonunda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida uchrashi mumkin bo'lgan korrupsiyaga oid jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish samaradorligini oshirish uchun zarur barcha tartib-tamoyillar hamda ularning huquqiy asoslari mustahkamlab qo'yildi. Bu esa mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashni takomillashtirishga oid islohotlarning yangi davri boshlanganligidan va bu soha davlatning ustuvor vazifasi ekanligidan dalolat beradi.

8.3. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashdagi tub burilish davrining boshlanishi

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida korrupsiyaga qarshi kurashni samarali tashkil etish bo'yicha vazifalar qo'yildi. Uning 2-yo'nalishi qonun ustuvorligini

ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish vazifalarini o'z ichiga olib, uning 4-bandida jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish vazifalari qo'yildi. Xususan unda korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish tizimini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

2017 yil 2 fevralda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2752-sonli Prezident qarori mamlakatda korrupsiyaga barham berish va unga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etdi. Qarorga asosan 2017-2018 yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi tasdiqlandi, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etildi. Bu komissiyaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta'minlash;

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta'minlash;

- korrupsiyaning holati va tendensiyalari to'g'risidagi axborotni yig'ish hamda tahlil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish¹.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashining tizimli faoliyatini yo'lga qo'yilishi, uning tashabbusi bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi, prokuratura va sud-huquq tizimini isloh etilishi, Prezident va Xalq qabulxonalariga kelib tushayotgan murojatlarni tahlil etib borish qoidalarini o'rnatilishi, mansabdorlar xizmatini oxirgi natijalariga qarab baholanishi qoidalarini o'rnatilishi kabi chora-tadbirlar o'z natijasini bera boshladi. Yuqori davlat organlari bilan chatishib ketgan bir necha uyushgan jinoiy ishlar fosh etildi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2752-sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 37-son, 982-modda.

2018 yilda korrupsiyani sodir etgan 1 ming 177 nafar mansabdor shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilgani buning yaqqol dalilidir¹.

Oliy Majlisning palatalarida **Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo'yicha qo'mitalar** tashkil etildi. Ushbu qo'mitalar barcha bo'g'indagi davlat idoralarida korrupsiyaga qarshi kurashni yanada kuchaytirishga vakillik organi sifatida munosib hissa qo'shadi.

Tadbirkorlik faoliyati uchun yer maydonlarini ajratishdagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish, tizimdagi korrupsiya holatlariga barham berish maqsadida mahalliy hokimliklar tomonidan yer ajratish amaliyoti tubdan isloh qilindi. Endilikda yer maydonlarini elektron auksion orqali ajratish tartibi joriy etildi.

Mamlakatimizda har payshanba kuni **“Huquqbuzarliklarni oldini olish kuni”** deb e'lon qilinib, bu kunlari mehnat jamoalari va yashash joylarida huquqni himoya qilish organlari vakillari aholini ro'y berayotgan jinoyatlardan ogoh etib borish, aholini huquqiy madaniyatini oshirish tadbirlarini o'tkazish an'anaga aylandi. Shuningdek, payshanba kunlari ichki ishlar tayanch punktlarida **“ochiq eshiklar kuni”** o'tkazish, fuqarolarni qabul qilish ishlari olib borish qoidasi o'rnatildi.

2019 yil 27 mayda “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-sonli Prezident farmoni qabul qilindi. Farmon bilan 2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlandi. Komissiyaga bosh prokuror raislik qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarining tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalarini tashkil etish tavsiya qilindi.

Farmonga binoan mamlakatimizda o'rta istiqbolda davlat aksilkorrupsiyaviy siyosatining ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash, sudyalarga har qanday tarzda qonunga xilof ravishda ta'sir o'tkazish shart-sharoitlarini istisno etish;
- davlat xizmatchilarini tanlov asosida saralab olish, lavozimga tayinlash va yuqori lavozimlarga ko'tarishning shaffof tartibiga asoslangan davlat xizmati tizimini shakllantirish, ular uchun cheklovlar, taqiqlashlar, rag'batlantirish choralari hamda korrupsiyaning oldini olish boshqa mexanizmlarining aniq ro'yxatini belgilash;
- davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va ularning ish haqi yetarli darajada bo'lishini ta'minlash, shuningdek, davlat xizmatini o'tashda manfaatlar to'qnashuvini hal etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan shaxslarni himoya qilishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish;

¹ Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // “Xalq so'zi” gazetasi. 2018 yil 8 dekabr

– davlat organlari va tashkilotlarining hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish;

– fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatining chinakam erkinligini ta'minlash va ularni korrupsiyaga qarshi choralarni tayyorlash, o'tkazishda va ijrosini monitoring qilishda ishtirok etishga jalb qilish.

Farmonga ko'ra, 2019 yil 1 iyuldan boshlab davlat organlari zimmaga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiya xavf-xatarlarini vaqti-vaqti bilan majburiy baholab boradi hamda tegishli qonuniy choralarni ko'radi.

2019 yil 1 sentyabrdan boshlab ta'lim muassasalari yoshlarga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta'lim berish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqadi va tatbiq etadi.

2019 yil 1 avgustdan boshlab eksperiment tariqasida, dastlabki bosqichda **kapital qurilish va oliy ta'lim sohalarida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshiriladi**, 2020 yil 1 apreldan boshlab loyihani boshqa sohalarga ham bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Korrupsiyaga kurashish va korrupsiya darajasini tadqiq etish bo'yicha xalqaro nodavlat tashkiloti **Transparency International** tomonidan 2019 yil yakunlari bo'yicha e'lon qilgan yillik hisoboti asosida tuzilgan «**The Corruption Perceptions Index**» («Korrupsiyani qabul qilish indeksi») reytingida O'zbekiston 180 ta davlat orasida 153-o'rinni egalladi. 2018 yilgi ko'rsatkich – **158-o'rin** edi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek: "... afsuski, jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda.

Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investisiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi.

Tadbirkorlar hanuzgacha yer ajratish, kadastr, qurilish, lisenziya, bojxona, bank, davlat xaridlari kabi sohalarda korrupsiyaga duch kelayotganini Prezident nomiga kelib tushayotgan ko'plab murojaatlar ham, matbuot va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar ham yaqqol ko'rsatib turibdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak"¹.

Ana shu vazifalar ijrosini tizimli tashkil etish maqsadida davlatimiz rahbari tomonidan parlament va Prezidentga hisob beradigan, korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul bo'ladigan alohida organ tashkil etishni taklif etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bilan **O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi** tashkil etildi. Agentlik korrupsiyaning

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2020 yil 25 yanvar.

oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Agentlik o'z faoliyatini qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida boshqa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari oldida hisobdordir.

Farmonga binoan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari belgilab berildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi va uning hududiy idoralararo komissiyalari **O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi** va uning hududiy kengashlari etib qayta tashkil etildi. Agentlik Milliy kengashning ishchi organi etib belgilandi.

Xulosa qilganda, o'tgan uch yil ichida O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning zamonaviy huquqiy asoslari ishlab chiqildi, ular amaliyotda qo'llana boshlandi. Muhimi, aholining Prezident va Xalq qabulxonalari vositasida yuz berayotgan korrupsiyaviy jinoyatlarni davlat hokimiyati organlariga to'g'ridan-to'g'ri yetkazish imkoniyati yaratildi. Korrupsiyaga barham berish uchun maxsus davlat hokimiyati organlari tuzilmalari shakllandi, ularning xalq oldidagi mas'ulligi oshirildi. Qisqa davr ichida korrupsiyaviy jinoyatlar ancha kamaydi. Mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan shakllari va taribotlari shakllantirildi, bu sohadagi muhim vazifa sifatida aholi huquqiy madaniyatini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Nazorat uchun savollar:

1. "Korrupsiya" tushunchasining mazmun-mohiyatini aytib bering.
2. Korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni aytib bering.
3. Korrupsiyaga qarshi kurash doir xalqaro huquqiy hujjatlar sanab bering.
4. Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
5. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash sohasida qanday islohotlar amalga oshirildi?

9-BOB. SAYLOV HUQUQI ERKINLIGI – FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM MEZONI

Reja:

1. Saylov tushunchasi, mohiyati va turlari.
2. Saylovlarning demokratik prinsiplari.
3. O'zbekistonda demokratik saylovlar tizimining shakllanishi va rivojlanishi.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: saylov – demokratik, fuqarolik jamiyatining asosiy belgisi sifatida mohiyatini ochib berish; fuqarolarning siyosiy-ijtimoiy jihatdan yetukligi ularning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishi bilan belgilanishini asoslab berish; Saylovning turlari, saylov prinsiplari, xalqaro saylov standartlari, erkin saylovlarni o'tkazishda ommaviy axborot vositalarining roli haqida ma'lumot berish; Saylovga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining rivojlanishi haqida bilim berish.

Tayanch iboralar: *erkin saylovlar, saylov huquqi, saylov prinsiplari, teng saylov huquqi, to'g'ridan-to'g'ri saylash huquqi; yashirin ovoz berish huquqi, saylov oldi tashviqoti, saylov komissiyalari, ovoz berish.*

9.1. Saylov tushunchasi, mohiyati va turlari

Jamiyat a'zolarining davlat hokimiyati organlariga bo'lgan saylovlardagi keng ishtiroki demokratik siyosiy jarayonning tarkibiy qismidir. Demokratik saylovlar davlat va jamiyatni, ularning takomillashgan modellarini shakllantirish maqsadida tarixiy rivojlanishning ziddiyatli izlanishlari natijasi o'laroq paydo bo'lgan institutdir. Fuqarolik jamiyati bilan saylovlarning aloqadorligi asosan shu bilan belgilanadiki, fuqarolik jamiyati, fuqarolarning fikrlari va manfaatlarining xilma-xilligiga asoslangan holda, tashkil etiladi, davlat organlari fuqarolarning ishtiroki bilan adolatli saylovlar asosida tashkil etilmaydigan bo'lsa, fuqarolarning ixtiyoriy ravishda qonunga itoat etishini ta'minlashga, o'tkir ijtimoiy qarama-qarshiliklardan qochib-qutilishga imkoniyat bo'lmaydi, Demokratik saylovlar – hokimiyat masalasining kuch bilan hal etilishini tamoman inkor etadi.

Saylov demokratiyaning asosiy ko'rinishi bo'lib, yoqlab yoki qarshi ovoz berishni anglatadi. Saylovlar, referendum kabi, xalq irodasini to'g'ridan-to'g'ri namoyon etilishining qonunlashtirilgan shaklidir. Saylovlar orqali fuqarolar davlat hokimiyati organlarining shakllanishida ishtirok etadilar va bu bilan davlat boshqaruvidagi o'zining konstitutsiyaviy huquqini amalga oshiradilar. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egalar. Bu huquq fuqarolarning referendumlarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida va davlat hokimiyatining vakillik organlari saylovlarida qatnashishi orqali amalga oshiriladi.

Saylovlar bir vaqtning o'zida ikkita yirik vazifani yechishga xizmat qiladi: Birinchidan, saylovlar demokratiyani amalga oshirishning bevosita shakli bo'lib, fuqarolarni uyushgan holda o'zlari yashab turgan davlat va jamiyatni boshqarish jarayonlariga safarbar etadi. Haqiqatdan ham “xalq hokimiyatining bevosita oliy ifodasini erkin saylovlar tashkil etadi”¹. Bunda fuqarolar har qanday jarayonning ishtirokchisi bo'lganidek, saylov jarayonida ishtirok etib o'ziga siyosiy tajriba orttiradilar. Ular, avvalambor, o'zlarining siyosiy ongini charxlab, siyosiy-huquqiy madaniyatini oshiradi va bu jarayonda ishtirok etishning tashkiliy-huquqiy jihatlarini takomillashtirib boradilar. Shuningdek, fuqarolar uyushqoqlik, hamjihatlik bilan, o'z harakatlarini kelishuv asosida namoyon qilishlarida siyosiy tajriba va ko'nikmalarini

¹ Qarang: Баглай М.В. Конституционное право Российской Федерации. – М.: ИНФРА, 2000. – С. 107.

orttirib boradilar. Shunday qilib, saylovlar davlat hokimiyati organlarining butun tuzilmasiga oliy boshlang'ich legitimlikni beradi"¹.

Saylov tizimi – huquqiy me'yorlarda mustahkamlab qo'yilgan, shuningdek, davlat va jamiyat institutlari faoliyatlari tajribasida shakllangan vakillik organlari yoki ayrim rahbarlik vakilini saylashni o'tkazish va tashkil etishga doir tartibotdir. Saylov tizimi – siyosiy tizimning tarkibiy qismidir. Saylov tizimi *keng ma'noda* hokimiyat vakillik organlarini va O'zbekiston Respublikasi Prezidentini saylash tartibidir. *Tor ma'noda* majoritar, proporsional va aralash saylov tizimlariga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasi saylov tizimi majoritar saylov tizimiga asoslangan.

Majoritar tizimda nomzod yoki nomzodlar ro'yxati qonunda belgilanganidek, eng ko'p ovoz olgandagina u yoki bu vakillik organiga saylangan, deb hisoblanadi. Ko'pchilik ovoz olish mutlaq yoki nisbiy bo'lishi mumkin. Mutlaq ko'pchilik – 50%+1 ovoz, nisbiy ko'pchilik – nomzodlarning nisbatan ko'proq ovoz olishi. Majoritar tizimdagi saylovlarda muayyan ko'pchilikning o'z raqiblariga nisbatan ko'proq ovoz olishi ular nomzodining g'alaba qilganligini bildiradi. Masalan, Fransiyada parlamentga deputatlar saylashning birinchi bosqichida mutlaq ko'pchilikning ovoz olish tizimiga amal qilinsa, ikkinchi bosqichda esa nisbatan ko'pchilikning ovoz olish tizimi qo'llaniladi.

Proporsional tizim ikki xil ko'rinishga ega: birinchisi, umumdavlat darajasidagi proporsional saylov tizimi (saylovchilar butun mamlakat doirasida siyosiy partiyalar uchun ovoz beradilar, unda saylov okruglari belgilanmaydi); ikkinchisi, ko'p mandatli okruglarga asoslangan proporsional saylov tizimi (deputatlik mandatlari partiyalarning saylov okruglariga nisbatan ta'siri asosida taqsimlanadi)².

Majoritar va proporsional tizimlarning yaxshi tomonlari bir-biri bilan uyg'unlasha boshladi. **Aralash tizim** doirasida ma'lum bir qism deputatlik mandatlari majoritar tamoyillar asosida taqsimlanishi, qolgan qism mandatlari esa proporsional tizim asosida taqsimlanishi rusumga kirdi. Saylov tizimini demokratlashtirish va takomillashtirishda bu aralash saylov tizimi siyosiy barqarorlikka erishish yo'lidagi eng samarali yo'l ekanligini rivojlangan mamlakatlar tajribalari isbotlab bermoqda.

Shu bilan birga, saylovlar tizimining o'zi ham boshqa tizimlar kabi tizilmaviy qismlarga bo'linadi: ularning ichida ikkitasi alohida ajralib turadi: birinchisi, fuqarolarning saylov huquqi – nazariy-huquqiy komponent; ikkinchisi esa saylov jarayonlari – amaliy-tashkiliy komponentdir.

Fuqarolarning saylov huquqi ularning saylovlardagi ishtirokini, saylovchilar va saylanuvchi organlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, shuningdek, keyinchalik saylovchilar ishonchini oqlamagan vakillarni chaqirib oluvchi tartibotlarning huquqiy me'yorlari majmuasidir. Fuqarolarning saylov huquqi tushunchasi fuqarolarning saylovlarda ishtirok etish huquqi sifatida – saylovchi sifatida (faol saylov huquqi) yoki saylanuvchi sifatida (passiv saylov huquqi) qo'llaniladi.

¹ Konstitutsiyaviy huquqda legitimlik deb (lotinchadan legitimus – qonuniy) davlat hokimiyati organining yoki oliy mansabdor shaxslarning huquq va vakolatlarini qonuniy deb topilishi ularni konstitutsiyaga va xalqni qonuniy bildirilgan irodasiga aniq mos kelishi tushuniladi.

² Qarang: Саидов А.Х. Избирательное право в Республике Узбекистан. Вопросы реформы законодательства и зарубежный опыт. – Т.: Узбекистан, 1993. – С. 9-11.

Faol saylov huquqi – saylash huquqi. Har bir fuqaroning davlatni boshqarishda o‘z vakillarini saylash bilan ishtirok etishini ko‘zda tutadi. **Passiv saylov huquqi – saylanish huquqi.** Nomzodning saylovchilar tomonidan e‘tirof etiladigan kerakli kasbiy va aqliy fazilatlariga bog‘liq jarayon.

BMT Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan Inson huquqlarining umumjahon Deklaratsiyasining 21-moddasida demokratik prinsiplar asosidagi saylovlar inson huquqi sifatidagi o‘rni quyidagicha ta’riflanadi: “Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali o‘z mamlakati boshqaruv ishida qatnashish huquqiga egadir. Xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo‘lishi kerak; bu iroda yashirin ovoz berish yoki ovoz berish erkinligini ta’minlovchi boshqa shunga teng ahamiyatga ega bo‘lgan umumiy va teng saylov huquqi asosida ifodalanishi lozim”¹.

Saylov jarayoni saylovlarni tashkil etish va o‘tkazish yuzasidan amalga oshiriladigan tadbir va choralar yig‘indisidir. O‘zbekistonda bu jarayonni doimiy asosda faoliyat yurituvchi Markaziy saylov komissiyasi boshqaradi.

Saylov komissiyalari tizimi. O‘zbekiston Respublikasida saylov komissiyalari tizimi – doimiy asosda ish olib boruvchi Markaziy saylov komissiyasi hamda saylov jarayonlarida tashkil etiladigan va saylovlar nihoyasiga yetganidan keyin tugatiladigan okrug va uchastka saylov komissiyalaridan iborat.

Ma’lumki, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab fuqaroning saylov huquqlari va erkinliklari mavzusi nufuzli xalqaro tashkilotlar jiddiy shug‘ullanadigan masalaga aylandi. Hozirgi paytda dunyoda insonning saylov huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, erkin demokratik adolatli saylovlarni tashkil etish va o‘tkazish sohasiga doir 20 dan ziyod xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar mavjud². BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan bir qator xalqaro hujjatlarda xalqaro saylov standartlari o‘z ifodasini topdi. Ular asosan quyidagilardan iboratdir:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan);

2. 1950 yildagi Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasi;

3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (BMT, 1966 yil 16 dekabr).

4. “Irqiyl kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risida” BMT deklaratsiyasi (1963 yil).

5. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining insoniylik mezonlari bo‘yicha konferensiyasi Kopengagen Kengashining hujjati (Kopengagen, 1990 yil 29 iyun).

6. 1994 yilda qabul qilingan “Erkin va adolatli saylovlar mezonlari to‘g‘risida”gi Parij deklaratsiyasi.

2005 yil 27 oktyabrda qabul qilingan BMTning “Saylovlarni xalqaro kuzatish prinsiplari Deklaratsiyasi”da haqiqiy demokratik saylovlar – bu mamlakat aholisining suveren huquqlarining ifodasi, hukumat vakolatlari va qonuniyligining asosi bo‘lmish

¹ Inson huquqlarining umumjahon Deklaratsiyasi. – T., 1998. – B. 30.

² Саидов А.Х. Международное право и избирательное законодательство – Т.: ТГЮИ, 2004. – С. 19-33.

erkin xohish-irodasining bildirilishi, degan qoida mustahkamlab qo'yilgan. YeXHTning saylov prinsiplari eng muhim yettita: **universallik, tenglik, erkinlik, adolatlilik, yashirinlik, shaffoflik va hisobot berish** so'zlarida o'z ifodasini topgan. Bu har bir ovoz hisobga olinishini va har bir fuqaro davlat hokimiyatining vakolatli organlarini shakllantirishi mumkinligini anglatadi.

YeXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (DIIHB) o'z faoliyatini 1991 yilning may oyida boshladi va YeXHTga a'zo davlatlarga yordam ko'rsatish bo'yicha YeXHTning asosiy instituti hisoblanadi. DIIHB – Yevropada saylovlarni kuzatish sohasida yetakchi institutdir. U YeXHT mintaqasida o'tkaziladigan saylovlarni muvofiqlashtiradi hamda ularning milliy qonunchilikka va xalqaro standartlarga muvofiqligini baholash uchun har yili minglab kuzatuvchilardan iborat guruhlarini tashkil etadi. DIIHB saylov jarayonining barcha bosqichlari monitoringi uslubiyotini ishlab chiqqan. DIIHB o'z-o'ziga ko'maklashish loyihalari vositasida YeXHTga a'zo davlatlarga ularning saylov tizimlarini yaxshilashda yordam ko'rsatadi¹.

XX asrga kelib davlat hokimiyati organlarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan demokratik saylovlar jahondagi aksariyat mamlakatlar siyosiy hayotidagi tabiiy bir jarayonga aylandi. Shu bilan birga, har qanday saylovlarni ham demokratik qadriyatlar qatoriga kiritish ham qiyin masaladir. Saylovlarni davlat va fuqarolik jamiyati o'zaro muvozanatidagi holatlaridan kelib chiqib bir necha turlarga bo'lish mumkin.

Umume'tirof etilgan xalqaro demokratik tamoyillardan biri quyidagicha ifodalanadi: "Demokratik idora etish erkin va adolatli saylovlar davomida muttasil ifodalanib boradigan xalq irodasiga asoslanadi"². Turli mamlakatlarda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi darajasini saylov huquqi prinsiplariga muvofiq ravishda, ya'ni ularda o'tkazilgan saylov tizimini ifoda etuvchi saylovlarini tasniflash asosida belgilash mumkin.

Fuqarolik jamiyati davlat hokimiyatiga bo'ysundirilgan mamlakatlarda avtoritar rejimga xos saylovlar amal qiladi. Deputatlar tarkibi va saylovoldi dasturlar mazmuniga doir barcha asosiy qarorlar oldindan mamlakat siyosiy rahbariyati xohishiga mos ravishda shakllanadi. Bu kabi saylovlarda deputatlar nomzodlari oshkor etilmaydi, ularning shaxsi va dasturlari to'g'risida saylovchilar yaxshi tasavvurga ega bo'lmaydi. Deputatlikka nomzodlar saylovchilar vakili sifatida emas, balki idora etuvchi partiyaviy-davlat vakillari sifatida namoyon bo'ladilar.

Totalitar siyosiy tizim mafkuraviy niqoblar ostida o'zining haqiqiy mazmunini turli usullar bilan niqoblab, "xalq irodasini", shuningdek "oliy darajadagi demokratiyaga mansub ekanligini" ifodalashga da'vogarlik qiladi. Bu siyosiy tizim demokratiyaning nomuqobil shaklidan foydalanib, umumxalq qo'llab-quvvatlashi ko'rinishini shakllantirishga intiladi.

Saylovlarning ikkinchi turi davlat bilan fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro muvozanat beqaror bo'lgan mamlakatlar uchun xosdir. Bu kabi mamlakatlarda saylovlar demokratik rejimlar chuqur ildiz otmagan, davlat yetakchilarining demokratik intilishlari aksildemokratik kuchlar qarshiligiga uchraydigan

¹ Saidov A. Prezident saylovi: xalqaro amaliyot va O'zbekiston milliy tajribasi. – T.: O'zbekiston, 2016. – B. 41-42.

² Парижская хартия для новой Европы, 21 ноября 1990 г. // Обязательства ОБСЕ в области человеческого измерения. Справочное пособие. – Варшава: БДИПЧ ОБСЕ, 2001. – С.258.

mamlakatlarda uchrab turadi. Bu kabi mamlakatlarda ko‘pincha xalq tomonidan saylangan hokimiyatning vakillik organlari turli kuchlar va bosimlar ostida o‘zining yashash qobiliyatini yo‘qotadi.

Ko‘rinib turibdiki, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish demokratik saylovlar vositasida ro‘y beradi. Saylovlarga doir takomillashmagan qonunchilik, demokratik an‘analar va saylovlarning borishi ustidan xalq nazoratining yetishmasligi davlat bilan fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi o‘zaro muvozanati beqaror bo‘lgan mamlakatlar uchun xarakterlidir. Bu kabi holatlar saylovlar natijalarini soxtalashtirishlarga olib kelishi ham muqarrardir. Shuning uchun ham bu mamlakatlar uchun har bir o‘tkazilgan haqiqiy demokratik saylovlar huquqiy davlat qurishning mashaqqatli yo‘lidagi kichik, lekin shu bilan birga, eng zaruriy bo‘lgan muhim qadamdir.

Saylovlarning uchinchi turi – demokratik rejimlardagi, ya‘ni davlatlar fuqarolik jamiyatiga bo‘ysungan mamlakatlar uchun xosdir. Fuqarolik jamiyati qurishni rivojlantirishning muhim sharti – davlat, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi o‘zaro muvozanat, tenglik, bir maromdagi rivojlanishning mavjudligidir. Ular o‘rtasida yuz berishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlar qo‘rqitish intizomi va hukmronlik usullari bilan emas, balki qonun oldida mas‘ul bo‘lgan davlat hokimiyati, huquqiy va siyosiy vositalar bilan muvofiqlashtiriladi.

Fuqarolik jamiyati fuqarolarning o‘z irodalarini erkin ifodalashlariga, barcha markaziy organlarni xalq tomonidan saylanishi yo‘li bilan davlat hokimiyatida vakillik munosabatlarini shakllanishiga asoslangan liberal-demokratik yoki konstitusion legitimlikning rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Legitimlikning bu kabi shakli G‘arb jamiyatining uzoq davrlar sotsio-iqtisodiy va sotsio-madaniy evolyusiyasi natijasi o‘laroq shakllanib, u hozirgi davrda jahon taraqqiyotining yetakchi tamoyiliga aylandi¹.

Demokratik jamiyatda saylovlardagi kurashlar siyosiy partiya faoliyatining asosiy kurashlar maydoni hisoblanadi. Har bir partiya o‘z elektoratini ko‘paytirishga intiladi. Elektorat saylovlarda u yoki bu partiyaga ovoz beradigan saylovchilardir.

9.2. Saylovlarning demokratik prinsiplari

Demokratik saylovlarni vakillik mexanizmi sifatida amal qilishini betakror qadriyatga aylantirgan, umume’tirof etgan qator prinsiplar mavjud. Bu prinsiplar saylov qonunchiligida o‘z ifodasini topadi va ular muhim inson huquqlaridan biri bo‘lgan – saylash huquqi yoki ovoz berish huquqini ta‘minlaydi.

Saylov huquqi prinsiplari saylov jarayonini tashkil qilish va o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan ustuvor qoidalar yig‘indisi bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

- umumiy saylov huquqi prinsipi;
- teng saylov huquqi prinsipi;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi prinsipi;
- yashirin ovoz berish huquqi prinsipi.

Ko‘plab demokratik mamlakatlari qonunchiligida fuqarolarni yashirin ovoz berish orqali umumiy va teng saylovlar huquqlarini e‘lon qilgan. **Umumiylik prinsipi** barcha

¹ Общая и прикладная политология: Учебное пособие. / Под общей редакцией В.И. Жукова, Б.И. Краснова. –М.: МГСУ: Союз, 1997. – С. 257-258.

aholini saylovchi sifatidagi faol huquqi, hokimiyat organlariga saylanish uchun saylovlarda nomzod sifatidagi passiv saylov huquqini anglatadi¹. **Umumiy saylov huquqi** deganda, voyaga yetgan, ruhan sog'lom va ayni damda ozodlikdan mahrum etish joylarida jazo o'tamayotgan fuqarolarning saylovlarda qatnashish huquqi tushuniladi. Bu prinsip O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga kirgan har bir fuqarosi saylov huquqiga egaligida, saylovchilar ro'yxatiga saylov uchastkasi hududida saylovchilar ro'yxati tuzilayotgan paytda muqim yoki vaqtincha yashab turgan barcha fuqarolar kiritilishida, har bir saylovchi faqat bitta saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi mumkinligida, barcha fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan saylov huquqlari davlat muhofazasiga olinganligida namoyon bo'ladi.

Hozirgi davr demokratik saylovlar prinsiplaridan biri – **teng saylov huquqi** hisoblanadi. Uning amaldagi ifodasi shundan iboratki, qonun chiqaruvchi organga har bir deputat deyarli teng miqdordagi fuqarolar vakili hisoblanadi, shuningdek, har bir fuqaro – ijtimoiy kelib chiqishi, irqi va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyati, shaxsiy, ijtimoiy va mulkiy mavqeidan qat'iy nazar ovoz berishda teng saylov huquqiga (1 ovozga) ega bo'ladi. Bu prinsipga amal qilish saylov okruglari chegaralarini to'g'ri belgilash bilan bog'liq. Teng saylov huquqi prinsipi yana bir qator talablarni taqozo etadi: nomzodlar ko'rsatish davrida ular uchun teng imkoniyatlar yaratish, nomzodlarni qo'llab-quvvatlash uchun yig'iladigan ovozlarni va saylovoldi targ'ibotlari imkoniyatlarining tengligi. Shuningdek, nomzodlarning moddiy imkoniyatlari turlicha ekanligi va ularning bu imkoniyatlaridan qanday darajada foydalanishlarini nazorat qilish mushkul ish ekanligiga e'tibor berilsa, bu yo'nalishda tenglikni ta'minlash ko'plab muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham aksariyat mamlakatlarda nomzodlar moddiy shart-sharoitlari tengligini ta'minlash uchun saylov kampaniyalarini davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

Demokratik saylovlarning yana bir mezonlaridan biri – **saylovlarni to'g'ridan-to'g'ri o'tkazish prinsipi** hisoblanadi. Parlament demokratiyasi rivojlangan aksar mamlakatlarda saylovchilar saylovlarda shaxsan ishtirok etadi va bevosita (delegatlar yoki vakillar vositasisiz) prezident, parlament va boshqa siyosiy hokimiyat organlarini saylaydilar. Shu bilan birga, ba'zan oz sonli maxsus saylovchilar saylov okrugidagi yoki mamlakatdagi barcha saylovchilar irodasini ifoda etishi asosida saylaydigan shaklan bilvosita, mazmunan bevosita saylovlar ham amaliyotda uchrab turadi. Bu kabi shaklan to'g'ridan-to'g'ri bo'lmagan saylovlar AQSh prezidentini saylashda qo'llaniladi². To'g'ridan-to'g'ri saylovlar barcha saylovchilarni ovoz berishda ishtirok etishiga imkoniyatlar yaratib, saylov kampaniyasini legitimlik asosida kechishini ta'minlab kelmoqda. O'zbekistonda mahalliy kengashlar deputatlari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining deputatlari, mamlakat Prezidenti fuqarolar tomonidan bevosita, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri saylanadi.

Barcha demokratik mamlakatlar tomonidan tan olingan prinsiplardan yana biri – **yashirin ovoz berish** hisoblanadi. Saylovchi yashirin ovoz berish jarayonida, ya'ni saylov byulletenida o'zi ovoz berishni istagan nomzodning nomini ko'rsatmoqchi

¹ Руководство БДИПЧ по наблюдению за выборами. – Варшава: БДИПЧ ОБСЕ, 1999. – С. 7-8.

² Каранг: Избирательное право и принципы его реализации. / Россия: партии, выборы, власть. Под ред. Краснова Б.И. –Москва: 1996. –С.18-23.

bo'lgan jarayonda uni hech kim kuzatishga haqqi yo'q. Saylovchi kimga ovoz berganini sir tutishi, u ovoz berishni tugallab tashqariga chiqqanida undan kimga ovoz berding, kimning nomzodini qo'llab-quvvatlading, degan savollarga javob bermasligi mumkin. Saylov organlari esa saylovchiga yashirin ovoz berish uchun sharoit yaratib berishlari shart. Ovoz beruvchilarning xohish-irodasi nazorat qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Saylovlarda yashirin ovoz berish natijasida saylovchiga tashqaridan tazyiq yoki ta'sir o'tkazishning oldi olinadi, har bir saylovchining erkin bo'lishi, o'z xohish-ixtiyorini amalga oshirishi uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Saylov huquqining asosiy konstitutsiyaviy prinsiplaridan tashqari quyidagi qo'shimcha prinsiplari ham mavjud bo'lib, ular: **erkinlik; oshkoralik; adolatlilik; mas'ullik.**

Demokratik mamlakatlardagi saylovlar o'tkazish prinsiplaridan biri – **saylovlarning erkinligi** va ularda fuqarolarning ishtirok etishining ixtiyoriyligi hisoblanadi. Bu prinsipning mohiyati shundaki, hech kim fuqaroning saylovda erkin o'z xohishini bildirishiga yoki saylovda ishtirok etishi va etmasligiga ta'sir o'tkaza olmaydi. Saylovchilarning haq-huquqlari amaldagi qonunlar bilan muhofaza etiladi.

Oshkoralik prinsipi. Bunda saylovlarni ochiqdan ochiq, saylov vaqti va ovoz berish joylari oldindan e'lon qilingan holda o'tkazilishi va uning borishi va natijalari haqida axborot berilishi tushuniladi. Har bir fuqaro saylovlarning borishi haqida xabardor bo'lishi va o'zining saylovchilar ro'yxatiga kirganligini tekshirishga haqli. Shuningdek, saylovlar ustidan xalq nazoratini amalga oshirish hisoblanadi. Saylovlar kampaniyalarida milliy va xorijiy kuzatuvchilarning ishtirok etishi saylov o'tkazilayotgan davlatning obro'-e'tiborini oshiradi.

Adolatlilik prinsipi. Bu prinsip saylov jarayonlarida barcha saylovchilar uchun ham, nomzodlar uchun ham bir xil sharoitlarning yaratilishida o'z aksini topadi. Hamma nomzodlarga tashviqot yuritish uchun bir xil vaqt ajratiladi, bir xil sharoit yaratiladi. Bu prinsip nomzodlardagi turli moddiy yoki siyosiy imkoniyatlar ularning ba'zilariga ustunliklar va imtiyozlar yaratilishini oldini oladi.

Mas'ullik prinsipi. Mas'ullik prinsipi ham saylov jarayonida saylovchi va saylangan shaxsning keyingi faoliyati uchun o'ta muhim. Bu prinsip saylovchining xalq oldidagi, saylangan shaxsning saylovchilari oldidagi mas'ulligida ko'rinadi. Shu sababli ham saylovchi ovoz berayotgan nomzodi haqida, uning saylanayotgan lavozimiga yoki hokimiyat vakillik organiga naqadar munosib yoki munosib emasligi haqida hech qanday ehtirolarga berilmasdan, g'araz va boshqa past niyatlarni ko'zlamasdan chuqur va teran mushohada yuritishi lozim bo'ladi.

Ayrim mualliflar **musabaqadoshlik yoki o'zaro raqobatdoshlik**ni demokratik saylovlarning muhim prinsiplaridan biri sifatida ko'radilar. Ya'ni u saylovlarda turli xil ijtimoiy guruhlar yoki qatlamlar manfaatlarini ifodalovchi turli partiyalar va nomzodlarni ishtirok etishini anglatadi. Siyosiy partiyalar turli xil mafkura va turli ijtimoiy qatlamlar siyosiy manfaatlari asosida saylovlarga barcha toifadagi fuqarolarni jalb qilish imkoniyatlariga egadir. Ko'ppartiyaviylik asosidagi raqobatdoshlik demokratiya rivojlangan mamlakatlar uchun xos bo'lib, u turli ijtimoiy manfaatlarni tinch musobaqalashuv asosida ifodalashni ta'minlab, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligiga katta hissa qo'shadi. Shu bilan birga, raqobatdoshlik asosidagi saylovlar turli ijtimoiy mojarolar tinch yo'l bilan barham topishiga imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, yana bir prinsip – saylovlarni boshqa muddatlarga ko‘chirish yoki uni bekor qilishga yo‘l qo‘ymaslik maqsadidagi **saylovlar muddatini cheklash prinsipi** hisoblanadi. Chunki saylovlarni o‘tkazish muddati ayrim siyosiy kuchlar xohishiga bog‘liq bo‘lsa, saylovlar o‘z qadr-qimmatini yo‘qotishi mumkin. Saylovlarni aniq bir xil muddatlarda o‘tkazilishi saylovchilarning o‘z manfaatlari asosida hokimiyat organlarini o‘zgartirib turishiga keng imkoniyatlar yaratib beradi¹.

Saylov bir qator **senzlar** bilan chegaralanadi. **Saylov senzleri** saylovchi va saylanuvchilarga qo‘yiladigan talablardir. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylovlarga nisbatan **yosh va o‘troqlik senzleri** (ma‘lum muddat muqim yashaganlik) mustahkamlangan.

Yosh senzi – fuqarolarning saylovda ishtirok etishlari uchun muayyan yoshga yetishlari talab etilishidir. O‘zbekistonda saylov kunigacha **18 yoshga to‘lgan fuqarolar** saylash huquqiga ega bo‘ladilar. Saylanish uchun esa yosh senzleri quyidagicha:

- Mahalliy kengashlari deputatligiga – **21 yosh**.
- Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati va Senati a‘zoriga – **25 yosh**.
- Prezidentlikka nomzodlar uchun – **35 yosh**.

Saylovlarda o‘troqlik (muqimlik) senzi – muayyan bir hududda ovoz bergan fuqarolar, aynan o‘sha hududda, saylovgacha ma‘lum muddat davomida muqim yashagan bo‘lishlari talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanish uchun fuqaro, bevosita saylovgacha kamida o‘n yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan bo‘lishi haqidagi talab o‘troqlik senzi tushunchasini beradi.

Shuningdek, **ma‘naviy senzlar** ham mavjuddir: sud qarori bilan ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar huquqi ham cheklanadi. Umume’tirof etilgan qoidalardan tashqari boshqa senzlarini o‘rnatish saylovlarning umumiylik prinsipini cheklaydi yoki uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri buzadi.

Demokratik saylovlar tamoyillari va bu sohada shakllangan qadriyatlar fuqarolik jamiyatining muhim jihatlaridan biri – fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokining nechog‘li ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. BMTning “Inson huquqlarining umumjahon deklaratsiyasi”da ifodalangan “xalq irodasi hokimiyatning asosi bo‘lishi kerak”, degan demokratik qoida asosan saylovlar vositasida amalga oshirilib, unda jamiyat a‘zolarining xohish-istaklari asosida siyosiy hokimiyatning shakllanishi ro‘y beradi. Ana shu qoidani amaliyotda qo‘llash natijasida fuqarolik jamiyatining hokimiyat organlari faoliyatini nazorat qilishlari uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Umuman olganda, saylovlarning erkin va adolatli o‘tishi fuqarolik jamiyatining rivojlanish darajasini bildiradi va unga yashovchanlik qobiliyatini baxsh etadi.

9.3. O‘zbekistonda demokratik saylovlar tizimining shakllanishi va rivojlanishi

Saylovlar orqali davlat hokimiyat vakillik organlarini shakllantirish demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir. Saylovlar mamlakat aholisining kayfiyati

¹ Общая и прикладная политология: Учебное пособие. / Под общей редакцией В.И. Жукова, Б.И. Краснова. – М.: МГСУ: Союз, 1997. –С.261-266.

va kimni afzal bilishini namoyon etuvchi ko'rsatkich sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda bevosita saylovlar yo'li bilan Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylanadilar. Saylanish yo'li bilan mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari ham shakllantiriladi. Shu tariqa saylanadigan davlat hokimiyati vakillik organlari vakolatiga davlat va jamiyat hayotidagi eng muhim masalalarni hal etish kiritilgan. Bu barcha darajadagi saylovlarning o'ta muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston saylov qonunchiligi erkin demokratik saylovlar o'tkazish bo'yicha xalqaro saylov andozalari majmuini tashkil etuvchi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga to'la mos keladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddimasida qayd etilganidek, yurtimizda "xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligi"¹ tan olinadi. Konstitutsiyamizda va milliy saylov qonunchiligimizda saylov xalq o'z hokimiyati va xohish-irodasini to'g'ridan-to'g'ri ro'yobga chiqarishining oliy ifodasi, davlat hokimiyati organlarini demokratik tarzda tashkil etishning negizi ekani qayd etiladi. Fuqaroning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqlari Konstitutsiyamizda mustahkamlandi, uni amalga oshirish tartib-qoidalari saylov qonunchiligida aniq belgilab qo'yildi.

1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi milliy saylov tizimimizni yaratilishiga asos soldi. Jumladan, uning 7-moddasida "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir", "O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi" deyilgan muhim konstitutsiyaviy qoidalarining belgilanishi konstitutsiyaviy tuzumning asosiy prinsiplari sifatida mustahkamlandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylov huquqi Konstitutsiyaning 32-moddasida alohida mustahkamlangan. Unga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini-o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish ... yo'li bilan amalga oshiriladi". 60-moddada "Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar", deb belgilangan. 77-moddada O'zbekistonda saylovlar ko'ppartiyalik asosida o'tishi mustahkamlangan².

Eng asosiysi, Konstitutsiyaning "Saylov tizimi" deb nomlangan XXIII bobi O'zbekistonning saylov qonunchiligini shakllantirishda poydevor vazifasini o'tadi. 117-moddada "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi" degan muhim konstitutsiyaviy tamoyillar o'z aksini topdi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2017. – B.3.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2017. – B. 40.

Mustaqillik davrida O'zbekistonda milliy saylov qonunchiligi tizimi xalqaro huquq andozalari va talablar, ilg'or xorijiy yuridik tajriba va milliy-tarixiy an'analar hamda konstitutsiyaviy prinsiplar asosida shakllandi. Uning asosiy qoidalari "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi (1991 yil 18 noyabr), "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi (1993 yil 28 dekabr), "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi (1994 yil 5 may), "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (1994 yil 5 may), "O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi (1998 yil 30 aprel) qonunlarda o'z aksini topdi. Milliy saylov qonunchiligi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning uzviy tarkibiy qismi bo'lib, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan totalitar tuzumdan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish sari qo'yilgan qadam bo'ldi.

Saylov tizimi huquqiy asoslarining yaratilishi, rivojlanishini va saylov amaliyotini, fikrimizcha, quyidagi asosiy bosqichlarga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich (1991-1995 yy.) – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi va O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti saylovi, bir palatali Oliy Majlisni ko'ppartiyaviylik asosida shakllantirish davrini o'z ichiga oladi. Bu davrda "O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarning qabul qilinishi umume'tirof etilgan taomoyillar asosida saylovlarni tashkil etishning huquqiy asosini yaratdi.

1994 yil 5 mayda "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilinganligi fuqarolarning saylov huquqlarini amalga oshirish va ularning o'z xohish-istaklarini erkin ifodalash mexanizmini huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi. Yangi saylov qonunchiligi amaliyotda 1994 yilda ko'ppartiyalilik asosida o'tkazilgan parlament saylovlarida sinab ko'rildi. Uning natijasida birinchi chaqiriq Oliy Majlis uchta siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organlari, tashabbuskor guruhlar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar asosida saylangan deputatlardan shakllandi. Shu asosda, konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlar orqali yagona partiyaning "etkachilik roli"ga asoslanuvchi "sho'ro" siyosiy tizimidan demokratik shakllangan, ko'ppartiyaviylikka tayanadigan milliy parlament vujudga keldi.

Ikkinchi bosqich (1995-2000 yy.) – milliy saylov qonunchiligining birinchi bosqichda o'tkazilgan parlament saylovlarida to'plangan amaliy tajribaga tayanib saylov tizimining demokratik asoslarini mustahkamlash va qonunlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, saylovlarni tashkil etish va natijalarini aniqlashga qodir mustaqil organ – Markaziy saylov komissiyasi tuzish talabidan kelib chiqib, "O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi (1998 yil 30 aprel) qonun qabul qilindi. Bundan tashqari, deputatlikka mustaqil nomzodlarni ilgari surishni kuchaytirish, O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik va siyosiy fikrlar xilma-xilligini kuchaytirishga keng shart-sharoitlar yaratish maqsadida saylov qonunchiligidan "besh foizlik to'siq" haqidagi qoida chiqarib tashlandi va saylovchilar tashabbuskor guruhlarini bevosita nomzod

ko'rsatish huquqlari mustahkamlandi. Shuningdek, 1999 yil 19 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar hamda xalq deputatlari, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risidagi qonunlarga bir qator jiddiy to'ldirishlar va o'zgartirishlar kiritildi.

1996 yilning dekabrda "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, saylov jarayonining muhim sub'ektlari sanalgan siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy tartibga solinishi 1999 yildagi parlament saylovlariga yangi huquqiy zamin yaratdi¹. Siyosiy partiyalarda o'z yondashuvini Oliy Majlisda uyushgan holda o'tkazish uchun parlament fraksiyalarini tashkil etishning qonuniy kafolatlari vujudga keldi. Eng muhimi, siyosiy partiyalar saylov tartib-qoidalariga rioya qilinishini nazorat etish bo'yicha vakolatlari kengaydi va nomzod ko'rsatgan siyosiy partiya har bir saylov uchastkalariga o'z kuzatuvchilarini tayinlash huquqiga ega bo'ldi.

Uchinchi bosqich (2000-2009 yy.) – faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri bo'lib, bevosita ikki palatali Oliy Majlis tizimiga o'tilishiga doir saylov qonunchiligining takomillashuvi uchinchi bosqichning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etdi. Bunda parlament quyi palatasi – Qonunchilik palatasini shakllantirishning bosh prinsipi asosan partiyaviy vakillik prinsipi bo'ldi. Bu siyosiy partiya vakillarining o'z ijtimoiy-siyosiy qarashlarini va saylovlar manfaatlarini ifodalash uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Parlamentning yuqori palatasi – Senat teng huquqli hududiy vakillik organi sifatidagi vakolatlari hamda u pog'onali saylovlar asosida shakllanishi qonunda mustahkamlab qo'yildi.

Shunday qilib, ikki palatali parlamentga saylovlar uchun zarur normativ-huquqiy baza amalda yaratildi. Unda saylov huquqining xalqaro standartlari va saylov tizimlarini rivojlantirish tajribasi, shuningdek mamlakatda parlamentarizm taraqqiyotining milliy xususiyatlari e'tiborga olindi. Masalan, 2004 yilgi saylovlarga qadar saylov qonunchiligiga joriy etilgan eng muhim yangiliklar qatorida – mahalliy Kengashlarning deputatlikka nomzodlar ko'rsatish huquqi bekor qilinganligi, siyosiy partiyalar deputatlikka nomzodlar ko'rsatganida xotin-qizlar uchun kvota belgilangani, shuningdek saylovoldi tashviqotini olib borishda partiyalar faoliyatini moliyalashtirish masalasining hal etildi. 2004 yil 30 aprelda "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi qonun esa partiyalarga saylovoldi kurashini faol va teng tarzda o'tkazishga qo'shimcha imkon berdi².

Bundan tashqari, 2008 yil 19 noyabrda qabul qilingan "Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun saylov jarayonining huquqiy asoslarini yanada rivojlantirdi. Ushbu qonunga muvofiq, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasidagi deputatlik o'rinlari soni 120 tadan 150 taga oshirildi. Bunda 135 ta o'rinni siyosiy partiyalardan ko'ppartiyaviylik asosida bir mandatli okruglarda saylanadigan deputatlar egalladi. O'zbekiston ekologik harakatidan esa Qonunchilik palatasining 15 deputati harakatning oliy organi (Konferensiyasi) tomonidan Markaziy saylov komissiyasi belgilagan muddatlarda

¹ "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1996 yil 26 dekabr // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 1997. – № 2. – 36-modda.

² "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 2004. – № 5. – 86-modda.

saylanadigan bo'ldi. Shuningdek, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz berayotgan real jarayonlarda siyosiy partiyalarning roli kuchayib borayotganligi inobatga olinib saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan deputatlikka nomzodlar ko'rsatish instituti bekor qilindi.

Uchinchi bosqich (2010-2016 yy.) – mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi davridir. Konsepsiyada ilgari surilgan taklif va tavsiyalar asosida 2012 yil 19 dekabrda “Saylov erkinligini yanada ta'minlanishi va saylov qonunchiligi yanada rivojlantirilishi munosabati bilan “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi hamda “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi qonun qabul qilindi¹.

Ushbu qonunda saylov tizimi va uning mazmun-mohiyati, saylov tizimining asosiy tamoyillari, saylash va saylanish huquqi, saylovlarni tashkil etish, o'tkazish, ovoz berish natijalarini aniqlash, fuqarolarning saylovlardagi ishtiroki, saylov huquqining kafolatlari, saylovlarni moliyalashtirish va shu kabi o'ta muhim masalalarni huquqiy tartibga solish mezonlari belgilandi. Saylov qonunchiligiga kiritilgan o'zgartishlardagi ahamiyatli jihati shunda bo'ldiki, “qamoqda saqlash joylarida” saqlanayotganlar ham ovoz berish jarayonlarida ishtirok etish huquqiga ega bo'ldi. Aybsizlik prezumpsiyasiga asosan, shaxs sud xukmi bilan aybdor deb topilmagunga qadar, aybsiz hisoblanadi. Aybi isbotlanmagan, qamoqda saqlash joylarida saqlanayotgan shaxslar ham ovoz berish huquqiga ega.

2016 yilning 4 dekabrda mamlakatimizda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, hech shubhasiz, yangi tariximizdagi beqiyos katta ahamiyatga ega bo'lgan hodisa bo'ldi. Chunki aynan ana shu saylovda bugun O'zbekiston xalqi o'zining buyuk siyosiy irodasi, huquqiy madaniyatini namoyon etib, mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyoti, xalqimiz, farzandlarimizning yorug' kelajagi uchun ovoz berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi siyosiy partiyalar o'rtasida sog'lom raqobat va kurash, prezidentlikka nomzodlarning saylovoldi dasturlarini erkin muhokama qilish sharoitida hamda demokratik prinsiplarga to'liq mos keladigan oshkoralik va ochiqlik ruhida o'tdi. Saylov jarayonida 5 ta xalqaro tashkilot hamda 46 ta davlatdan 600 nafarga yaqin kuzatuvchilar ishtirok etdilar. Jumladan, ilk bor Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosining 32 ta mamlakatga mansub 200 nafarga yaqin tarkibdagi to'laqonli missiyasi kuzatuvchilari qatnashdilar.

Saylovning ochiqligi va oshkoraligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari nihoyatda muhim o'rin tutdi. Prezident saylovini 615 milliy hamda 272 xorijiy ommaviy axborot vositasi, shu jumladan, 315 ta xorijiy va milliy internet nashri yoritib bordi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini yoritish bo'yicha Respublika matbuot markazi va okrug saylov komissiyalarining matbuot markazlari tomonidan mamlakatimiz hamda chet elning 1 ming 400 nafardan ziyod jurnalistlari ishtirokida saylov kampaniyasining muhim bosqichlariga bag'ishlangan 180 ta

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 51-son, 574-modda.

matbuot anjumani va onlayn brifinglar o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazish bilan bog'liq 22 ming 700 dan ortiq maqola va axborot materiallari e'lon qilindi, ko'rsatuv hamda eshittirishlar e'fira uzatildi.

Albatta, saylovchilarning nomzodlarga turli darajada va keskin farqlangan holda ovoz berishiga quyidagi jihatlar ta'sir etdi: xalq o'zining azaliy va an'anaviy mentelitetidan kelib chiqib nomzodlarning xalq farovonligi va yurt obodonchiligidagi shaxsiy ishtiroklari, davlat hokimiyatini boshqarish tajribasi va yetakchilik xususiyatlari, saylovchilar bilan muloqotlar olib borish mahorati, saylov oldi va'dalarini amalga oshirish uchun nechog'liq insoniy va boshqa resurslarga ega ekanligi kabi omillar muhim rol o'ynadi yoki saylov natijalarini hal etdi. Yuksak saviyada o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Tadbirkorlar va ishbiarmonlar Harakati – O'zbekiston Liberal demokratik partiyasidan nomzod sifatida ishtirok etgan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev saylovchilar umumiy sonining 88,61 foiz ovozini olib g'olib bo'ldi¹.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi saylov tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha islohotlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda saylov tizimini adolat prinsiplari asosida rivojlanishida 26 yil davomida xalq deputatlari kengashisiz faoliyat yuritgan Toshkent shahrining 11 tumanida Prezident Sh.M.Mirziyoevning tashabbusi bilan xalq deputatlari tuman kengashlari tashkil etildi. 2017 yil 24 dekabrda o'tkazilgan saylovlarda tashkil etilgan barcha 330 saylov okruglaridagi deputatlarning hammasi saylandi².

Harakatlar strategiyasida "davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish" bo'yicha belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida saylov qonunchiligi me'yorlarini unifikatsiyalash va takomillashtirish ishlari amalga oshirildi. Saylovga doir 5 ta qonunda ifodalangan normalarni yaxlit bir hujjatda mujassamlashtirildi. Shu tariqa 2019 yil 25 iyunda Saylov kodeksi qabul qilindi. Saylov kodeksi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari saylovlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xohish-irodasi erkin bildirilishini ta'minlovchi kafolatlarni o'zida jamladi³.

Ushbu kodeks bilan bir qator yangi qoidalar ham o'rnatildi. Xususan:

– Qonunchilik palatasida deputatlik o'rinlari uchun Ekologik harakat vakillariga kvota ajratish instituti chiqarib tashlandi, lekin amaldagi deputatlik o'rinlari (150 o'rin) saqlab qolindi;

¹ 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. - T.: Ma'naviyat, 2017. - B. 5.

² Toshkentdagi saylovning yakuniy natijalari e'lon qilindi. 09.01.2018. <https://www.gazeta.uz/uz/2018/01/09/saylov>.

³ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.06.2019 y., 03/19/544/3337-son

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga nomzod ko‘rsatish tartibi bekor qilindi;
- Saylovchilarning yagona elektron ro‘yxatini shakllantirish tartibi qonun bilan tartibga solinadi;
- muddatidan ilgari ovoz berish va saylov kuni ovoz berish uchun yagona saylov byulletenini joriy etish orqali “saylov varaqasi” tushunchasi chiqarib tashlandi;
- saylovlarni o‘tkazish yoki tashkil etishning boshqa masalalari yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish tartibi kiritildi;
- siyosiy partiyalar tomonidan imzo yig‘ish jarayonida saylovchilarning bir yoki bir nechta nomzodlarni yoxud partiyalarni qo‘llab-quvvatlab imzo qo‘yishi mumkinligi belgilandi;
- ovoz berish tugaganidan keyin uchastka saylov komissiyasi tomonidan amalga oshiriladigan ishlar (ovozlarni sanab chiqish, bayonnoma tuzish va boshqalar) aniq ko‘rsatildi;
- Qonunchilik palatasiga, mahalliy Kengashlarga saylov bir vaqtda o‘tkazilgan taqdirda yagona saylov uchastkalarini tuzish nazarda tutilmoqda;
- ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning saylovda ishtirok etishini cheklovchi normalar chiqarib tashlandi;
- muddatidan oldin ovoz berish saylovga 3 kun qolganida tugashi belgilandi;
- Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatligiga nomzodlarning ishonchli vakillari soni 3 dan 5 kishigacha ko‘paytirildi¹.

“Yangi O‘zbekiston – yangi saylovlar” shiori ostida 2019 yil 22 dekabrda bo‘lib o‘tgan saylovlar natijasida respublikamizda demokratik islohotlarni yuqori bosqichga olib chiqish uchun zarur bo‘lgan yangi siyosiy muhit vujudga keldi. Saylovlarda 5 ta siyosiy partiya ishtirok etdi, shu jumladan O‘zbekiston ekologik harakati negizida 2019 yilning yanvar oyida ta‘sis etilgan yangi O‘zbekiston ekologik partiyasi qatnashdi. Saylovlar ochiq-oydin, xalqaro standartlar asosida o‘tkazilishini nazorat qilish uchun 50 ga yaqin davlatdan hamda 10 ta xalqaro tashkilotdan 825 nafar kuzatuvchi ishtirok etdi. Saylovlarni ilk bor YeXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosining 316 kishilik to‘laqonli missiyasi kuzatdi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Xalqaro kuzatuvchilar saylovlar erkin raqobat muhitida, siyosiy partiyalar o‘rtasidagi qizg‘in tortishuv va bahs-munozaralar sharoitida o‘tganini, bu jarayonda ommaviy axborot vositalarining roli sezilarli darajada oshganini alohida e’tirof etdilar. ...

... Bu borada saylov komissiyalari va aholining saylov madaniyatini yuksaltirish, siyosiy partiyalarning o‘z elektorati bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish, partiyalarning siyosiy faolligini oshirish oldimizda turgan muhim masalalardan biridir.

Shu bilan bir qatorda, mahalliy kengashlarga saylov o‘tkazishning uch pog‘onali tizimini optimallashtirish, bunda tuman va shahar saylov komissiyasining rolini oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim”².

¹ Saylov kodeksi birinchi o‘qishda qabul qilindi. 18.02.2019. https://www.norma.uz/uz/bizning_sharhlar/saylov_kodeksi_birinchi_uqishda_qabul_qilindi

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojlatnomasi // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2020 yil 25 yanvar

Umuman olganda, saylovlar fuqarolarning davlat hokimiyati organlaridan roziligini aniqlash, hokimiyat boshqaruv organlarining xalq oldida mas'ulligini his qilishi kabi demokratik qadriyatlarni rivojlantirish omili bo'lmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Saylov tushunchasiga ta'rif bering.
2. Saylovlar va fuqarolarning siyosiy-ijtimoiy faolligi o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
3. "Saylov - demokratiya ko'zgusi" iborasiga izoh bering.
4. Xalqaro saylov standartlarini aytib bering.
5. O'zbekiston Respublikasi saylov qonunchiligi rivojlanishiga izoh bering.

10-BOB. O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI VA MAHALLIY O'Z-O'ZINI BOSHQARISH

Reja:

1. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va rivojlanishi.
2. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining huquqiy asoslari.
3. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va ularning faoliyati.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va rivojlanishi haqida tushuncha berish; "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyat sari" konsepsiyasini ochib berish; fuqarolik institutlari va o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asoslari, mahalla hamda davlat hokimiyati organlari o'rtatidagi o'zaro hamkorlik haqida ma'lumot berish.

Tayanch iboralar: *siyosiy partiya, ko'ppartiyaviylik tizimi, fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari, o'zini-o'zi boshqarish, nodavlat notijorat tashkilotlar, uchinchi sektor, mahalla, nomarkazlashuv.*

10.1. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va rivojlanishi

O'zbekistonda demokratik prinsiplar va fuqarolik jamiyati talablari asosida siyosiy partiyalarni tuzish faqat mustaqillik davrida amalga oshirildi. Mamlakatimizda rivojlangan davlatlar tajribasi va milliy an'analardan kelib chiqib siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi huquqiy maqomi shakllandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasida siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi quyidagicha belgilangan: "Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini moliyaviy ta'minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar".

Konstitutsiyaning 56-moddasiga binoan siyosiy partiyalar "jamoat birlashmalari" sifatida e'tirof etiladi. Mazkur Konstitutsiyaning 58-moddasida esa "davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek

jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi”, deyiladi. Bu bilan siyosiy partiyalar davlat hokimiyatiga daxldor emasligi ta’kidlanadi.

Konstitutsiyaning 34-moddasida jamiyatdagi muxolifiy huquqni himoya qilish maqsadlarida quyidagi qoida mustahkamlangan: “Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muholifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas”.

1991 yil 14 fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonun mamlakatda ko‘ppartiyaviylik tizimi shakllanishining huquqiy jihatlarini ta’minlab berishi natijasida mamlakatda yangi siyosiy partiyalarning shakllanish jarayonlari boshlandi. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimini qaror topishida 1996 yil 26 dekabrda Oliy Majlis qabul qilgan “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonun muhim o‘rin tutdi. Qonun 17 ta moddadan iborat bo‘lib, unda siyosiy partiyalarning demokratik qoidalar asosida faoliyat yuritishlari uchun rivojlangan mamlakatlar mezonlari talablariga xos bo‘lgan huquqiy asoslar yaratildi.

Qonunning 5-moddasiga binoan, **siyosiy partiya** O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmasidir.

Qonunning 5-moddasiga binoan, “davlat siyosiy partiyalar huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza etilishiini kafolatlaydi, ustavda belgilangan o‘z maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi”. Siyosiy hayotda birinchi marta qonunning 12-moddasida siyosiy partiyalarning huquqlari aniq va ravshan ko‘rsatib berildi: “Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega:

- o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni erkin tarqatish, o‘z g‘oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ‘ib qilish;
- saylab qo‘yiladigan davlat organlaridagi o‘z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish;
- qonunda belgilab qo‘yilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;
- partiya faoliyati bilan bog‘liq yig‘ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o‘tkazish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta’sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;
- O‘zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq (blok) tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlari o‘rnatish”.

Fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri, bu - siyosiy institutlarda va siyosiy jarayonlarda turli xil fikrlarning erkin ifoda qilinishiga huquqiy asoslar yaratib berish, shuningdek, huquqiy davlat fuqarolari – plyuralistik fikrlashga qobil bo‘lgan shaxslarni shakllantirishdir. Shu maqsadlarda qonunning 13-moddasida Oliy Majlisdagi partiya fraksiyalarining erkin faoliyat yuritishlari, ularning hozirgi davr

ilg'or mamlakatlaridagi me'yorlar talablariga muvofiq jamiyatning siyosiy rivojlanishiga hissa qo'sha olish darajasiga ko'tarilishlarining huquqiy jihatlardan ta'minlashga asos solindi.

Siyosiy partiyalarning jamiyatdagi va siyosiy munosabatlardagi funksiyalarini to'la bajara olish qobiliyatini shakllantirish uchun ularning faoliyatlarini moliyaviy jihatlardan ham kafolatlash tajribasi O'zbekistonga ham kirib keldi. 2004 yil 30 aprelda ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning XIV sessiyasi "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi. Xususan, siyosiy partiyalarga moliyaviy yordam berish partiyalarning siyosiy raqobatdagi imkoniyatlar notengligini kamaytiradi, ularning alohida jismoniy yoki huquqiy shaxslar guruhlariga nisbatan qaramligini yo'qotadi. Natijada siyosiy partiyalar korrupsiyaga qarshi kurashning ta'sirchan vositasiga aylanadi. Qonunning 7-moddasiga muvofiq, "Siyosiy partiya, agar u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov yakunlari bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuniga muvofiq Qonunchilik palatasida siyosiy partiya fraksiyasini tuzish uchun zarur miqdorda deputatlik o'rinlarini olgan bo'lsa, o'zining ustavda nazarda tutilgan faoliyatini moliyalashtirish uchun davlat mablag'larini olish huquqiga ega bo'ladi". Shuningdek, qonunda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi davlat mablag'larini "olish huquqiga ega bo'lgan siyosiy partiyalar o'rtasida ularning Qonunchilik palatasida olgan deputatlik o'rinlari miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlaydi". Shu bilan birga, mazkur qonunga binoan siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasi va davlat hokimiyatining boshqa vakillik organlariga saylovda ishtirok etishi, shuningdek, Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya fraksiyalarining faoliyati ham davlat tomonidan moliyalashtirilishi belgilab qo'yildi.

2007 yilning 1 yanvaridan kuchga kirgan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunning qabul qilinishi mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish uchun huquqiy asoslarni mustahkamlab, siyosiy partiyalar demokratik tamoyillar asosida faoliyat yuritishlari uchun imkoniyatlar yaratadi.

2010 yilda taqdim qilingan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da siyosiy partiyalarga hukumatni shakllantirish sohasida muhim davlat ahamiyatiga ega bo'lgan qaror qabul qilish vakolati berish taklifi ilgari surildi. Natijada qonunchiligimizda "O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi" qoidasi kiritildi.

Ko'rinib turibdiki, siyosiy partiyalar saylovchilar (xalq) irodasini ifodachisi sifatida namoyon bo'lib, hukumatni shakllantirishda eng asosiy siyosiy institut sifatidagi maqomga ega bo'ldi. Albatta, bu holat fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri bo'lib, partiyalar vositasida shakllangan hukumat xalqchil siyosat olib borishga intiladi.

Milliy mustaqillik davrida tashkil topgan siyosiy partiyalardan biri, bu – **O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidir (O‘zXDP)**. Partiyaga 1991 yilning 1 noyabrida bo‘lib o‘tgan ta‘sis qurultoyida asos solindi. O‘zXDP o‘zini asosan ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar manfaatlarini himoya qilishi, mamlakat siyosiy kuchlarining so‘l qanoti sifatida faoliyat yuritishini e‘lon qildi. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga va himoyaga ehtiyojmand fuqarolari manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi. Bular – iqtisodiyotda band bo‘lmagan mehnatga layoqatli aholi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadigan va ishga joylashishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan odamlar; doimiy ish joyi va muqim maoshga ega bo‘lmagan aholi qatlami, boshqa ijtimoiy sohalarning xodimlari va mutaxassislari, kam ta‘minlangan va ko‘p bolali oilalar, pensionerlar hamda imkoniyatlari cheklangan kishilar. O‘zXDP davlat tomonidan ushbu toifa kishilarining manfaatlarini ko‘zlab izchil siyosat olib borilishiga harakat qiladi, ularni o‘zining elektorati deb hisoblaydi va saylov kampaniyalarida ularning qo‘llab-quvvatlashiga umid bog‘laydi;

– katta hayotga kirib kelayotgan yoshlarning kasb-hunar tanlashi, ta‘lim olishi va o‘qishni bitirganidan keyin ish o‘rniga ega bo‘lishi uchun adolatli, barcha uchun teng hamda ijtimoiy ochiq shart-sharoitlar yaratish; pensionerlar, mehnatga layoqatsiz nogironlar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bolalarning hayotiy ehtiyojlarini to‘laqonli qondirishga kafolat beradigan pensiya ta‘minoti va ijtimoiy nafaqalar tizimini shakllantirish;

– xalq deputatlari mahalliy Kengashlaridagi partiya guruhlarining hududiy ish o‘rinlari yaratish hamda o‘rta maxsus va oliy ma‘lumotli mutaxassislarni tayyorlash dasturlariga moslashtirilgan xizmat va tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga doir o‘rta muddatli investisiya dasturlarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash borasidagi tashabbuslarini yanada rivojlantirish; shu o‘rinda mahalliy xomashyodan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va mavjud resurs hamda talab asosida xizmatlar ko‘rsatishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Hozirgi davrda O‘zXDPda 9955 ta boshlang‘ich tashkilot faoliyat ko‘rsatadi. Partiyaning Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 22 nafar deputatdan iborat fraksiyasi faoliyat olib boradi. Partiyaning markaziy nashrlari: o‘zbek tilida chop etiladigan “O‘zbekiston ovozi” gazetasi; rus tilida chop etiladigan “Golos Uzbekistana” haftaligi.

O‘zbekiston “Vatan taraqqiyoti” partiyasi (VTP) 1992 yilning 24 mayida tashkil topdi. VTPning dasturida belgilanganidek, partiya jamiyatning siyosiy tizimidagi faoliyatini parlament partiyasi sifatida tashkil etdi. Partiya o‘z siyosatini davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga saylangan vakillari orqali o‘tkazdi.

VTP tarkibida 2000 yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar, 12 viloyat, 220 dan ziyod shahar va tuman kengashlari faoliyat ko‘rsatdilar. Partiyaning markaziy matbuot nashri – “Vatan” ijtimoiy-siyosiy haftalik gazetasi 2000 yil aprelga qadar faoliyat ko‘rsatdi.

Mamlakatda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyami va “Vatan taraqqiyoti” partiyasi tashkil topishi bilan bir partiyaviylik tizimiga butunlay barham berildi. Shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning qonun chiqaruvchi hokimiyatdagi manfaatlarini ifoda etadigan siyosiy oqimlar va tashkilotlar shakllandi. O‘zbekiston Konstitutsiyasidagi demokratik tamoyillar, shuningdek amalga oshirilgan huquqiy va

siyosiy islohotlar mamlakatda yangi partiyalarning tuzilishiga keng imkoniyatlar yaratib berdi. 2000 yilning aprel oyida “Vatan taraqqiyoti” partiyasi “Fidokorlar” Milliy Demokratik partiyasi bilan birlashdi.

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi (SDP) 1995 yil 18 fevralda tashkil topdi. Partiya milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda halqaro sotsial-demokratik harakatining asosiy negizi bo‘lgan “Adolat”, “Erkinlik”, “Birdamlik” shiorlarini qo‘llab-quvvatlashini va o‘z faoliyatini o‘zini o‘zi boshqarish, oshkoralik va shaffoflik, qonuniylik, ko‘ngillilik, partiya hayotida faol qatnashish, partiya saflariga kirish va undan chiqish erkinligi, partiya a‘zolarining teng huquqliligi asosida olib borishini e‘lon qildi. O‘zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining asosiy maqsadi: demokratik, huquqiy davlatni, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishda hamda O‘zbekiston hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan, fuqarolarning qonun oldida tengligi, birdamligi, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ta‘minlangan ma‘naviy jipslashgan jamiyatni shakllantirishda faol ishtirok etish.

O‘zbekiston “Adolat” SDPning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlarda, shuningdek, barcha tuman va shaharlarda partiyaning mahalliy kengashlari faoliyat olib bormoqda. 4033 ta boshlang‘ich partiya tashkilotlari mavjud. Partiyaning Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 24 nafar deputatdan iborat fraksiyasi faoliyat olib boradi. “Adolat” ijtimoiy-siyosiy gazetasi partiyasining rasmiy nashri hisoblanadi, gazeta 1995 yil 22 fevralda tashkil etilgan.

O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi (O‘zMTDP) 1995 yil 3 iyunda tashkil topdi. 2008 yil 20 iyun oyida **“Fidokorlar” Milliy Demokratik partiyasi** bilan saylovlar davrida va parlament faoliyatida o‘z ta‘sirilarini oshirish, elektoratning ko‘proq qismini jalb etish maqsadlarida yagona partiyaga birlashdi. Tuzilgan yangi partiyaning nomi O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi deb atashga qaror qilindi. Partiyaning asosiy maqsad-vazifasi milliy an‘analarni va qadriyatlarni saqlashdan iborat. Partiya huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish, fan-texnika taraqqiyotini va O‘zbekistonning globallashib borayotgan jahonda munosib o‘rin egallashini ta‘minlashni yoqlaydi. U biz faxrlanadigan milliy an‘analar va qadriyatlarni saqlab qolish tarafdorlari bo‘lgan insonlar manfaatlarini himoya qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Bunday shaxslar – partiyaning asosiy ijtimoiy qatlamidir. Partiya mustaqillik yillarida boshlangan milliy qadriyatlarni tiklash, o‘zlikni anglash, milliy g‘oyalarni shakllantirish va milliy mustaqillik mafkurasini mustahkamlash, xalqning ma‘naviy hayotida diniy an‘analarni tiklash kabi xayrli ishlarni izchil, bosqichma-bosqich va tizimli ravishda davom ettirish, sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarish tarafdoridir.

O‘zMTDP davlatning yangi xalqaro sharoitlarda va geosiyosiy voqelikda milliy manfaatlarni ro‘yobga chiqarish va himoya qilish yuzasidan amaliy qadamlarining taktik va strategik maqsadlari va vazifalari zahirida milliy tiklanish va rivojlanishning umumiy mafkurasini va keng qamrovli dasturi mavjudligi, yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoti, xalq farovonligi – umummilliy g‘oyasi atrofida jamiyatimizni birlashtirishga asoslangan yo‘lini qo‘llab-quvvatlaydi.

Partiya tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, shahar va tuman kengashlari 5578 ta boshlang‘ich tashkilot birlashtirib turadi. Partiyaning Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 36 nafar deputatdan iborat fraksiyasi faoliyat olib boradi. Partiyaning matbuot nashri – “Milliy tiklanish” gazetasi hisoblanadi.

“Fidokorlar” Milliy Demokratik partiyasi (FMDP) 1998 yil 28 dekabrda ta’sis qurultoyida tashkil topib, 1999 yilning 3 yanvarida Adliya vazirligi ro‘yxatidan o‘tdi. Partiyaning asosiy maqsadi – bozor iqtisodiyotiga asoslangan, mulkchilikning turli shakllari amal qiladigan jamiyatga o‘tish. Partiyaning ijtimoiy ideali - bu insonning o‘z-o‘zini kamol toptirish, shaxs manfaatlari uning huquq va erkinliklarini to‘la darajada ro‘yobga chiqarish uchun siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy shart-sharoitlarni kafolatlovchi fuqarolik jamiyatini barpo etishdir. Partiya 2008 yili O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi bilan bir partiyaga birlashgandan so‘ng o‘z faoliyatini to‘xtatdi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O‘zLiDeP) 2003 yil 15 noyabrda tashkil topdi. Partiya o‘rta qatlam – tadbirkorlar va ishbilarmonlarning ilg‘or vakillarining siyosiy manfaatlari va irodalarini ifoda etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. O‘zLiDePning asosiy maqsadlari quyidagicha:

- Siyosiy kuch sifatida birlashgan holda tadbirkorlar, ishbilarmonlar va fermerlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning mazkur qatlami manfaatlarini himoyalash va ertangi kunini ta‘minlash. Shu ijtimoiy toifa nomidan O‘zbekistonning siyosiy sahnasiga chiqish va o‘zining munosib o‘rnini egallash.

- Mamlakatning milliy manfaatlari va taraqqiyotining strategik istiqbollari javob beradigan dasturni Konstitutsiya tamoyillariga suyanib, boshqa siyosiy partiya va harakatlar bilan hamkorlikda ishlab chiqish va amalga oshirish uchun partiyaning kuch va imkoniyatlarini safarbar etish. O‘zbekiston tanlagan ochiq, bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik, huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojiga keng yo‘l ochib berish va demokratik qadriyatlarni xalq, avvalo yoshlar ongi va hayotiga singdirish.

- Davlatni boshqarish, jamiyatda shakllanayotgan qarashlarga ta’sir o‘tkazish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etish, ijtimoiy muammolarni hal etishda ko‘maklashish, O‘zbekistonning xalqaro obro‘sin oshirishda, yurt tinchligi va osoyishtaligini saqlashda, millatlararo va fuqarolararo ahillik va totuvlikni mustahkamlash ishida faol qatnashish. Yoshlarni milliy g‘oyaga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat, o‘z elim, o‘z yurtim, jon O‘zbekistonim deb g‘ururlanib yashash ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo‘shish, har qanday sharoitda mustaqillik yo‘lini, qadriyatlar, milliy va diniy an‘analar va urf-odatlarini qadrlash barobarida, barcha millat va elatlar qadriyatlarini kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, bunday xurujlarga qarshi kurash olib borish.

- Partiyaning siyosiy platformasi - liberal-demokratik g‘oya va qadriyatlarni keng omma ongiga singdirish, bu borada har tomonlama chuqur o‘ylangan tashviqot va targ‘ibot ishlarini olib borish, o‘z safini kengaytirish. Shu g‘oyalarni hayotga tatbiq qilishda fidoyilik ko‘rsatgan faollarni deputatlikka nomzod sifatida ko‘rsatish va

saylovchilar ishonchini qozongan o'z deputatlari zimmasiga davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarida vakillik vazifasini yuklash hamda ularning faoliyatini boshqarish.

O'zLiDePning Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyat, shahar va tumanlarda partiya kengashlari, 10228 boshlang'ich tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Partiyaning Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 53 nafar deputatdan iborat fraksiyasi faoliyat olib boradi. Partiyaning bosh nashri –“XXI asr” gazetasi 2003 yil 15 noyabrdan boshlab chiqmoqda.

O'zbekiston ekologik partiyasi 2019 yil 8 yanvarda ta'sis etildi. Ushbu partiya 2008 yil 2 avgustdan faoliyat yuritib kelgan O'zbekiston Ekologik harakati negizida tashkil etildi. Partiyaning ustuvor vazifalari quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

- ekologiya, atrof muhit muhofazasi, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda davlat siyosatini amalga oshirishga ko'maklashish;

- tabiatni asrash va ekologiyani yaxshilashga oid milliy qonunchilikni takomillashtirish;

- “yashil iqtisodiyotni” rivojlantirish;

- ekologik ta'lim tizimini joriy qilish, ekologik madaniyatni shakllantirish va h.k.

O'zbekiston ekologik partiyasining Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 15 nafar deputatdan iborat fraksiyasi faoliyat olib boradi.

Shu tariqa, mamlakatda mustaqillik yillarida siyosiy partiyalarning siyosiy tizim sub'ektlari sifatida faoliyat ko'rsatishlari, ularning siyosiy tizimga ta'sir eta olish qobiliyatlarining shakllanishi natijasida demokratik tamoyillardagi ko'ppartiyaviylik tizimi shakllandi. Siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati organlaridan mustaqil ravishda rivojlanishi va keng faoliyat ko'rsatishi uchun ijtimoiy-siyosiy kengliklar yaratildi. Parlament, Prezident saylovlari va mahalliy kengashlarga saylovlar ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishi an'anaga aylandi.

10.2. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining huquqiy asoslari

Fuqarolik jamiyati institutlari deganda fuqarolar tomonidan tashkil etilgan, muayyan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga, shaxsiy yoki ijtimoiy guruhlar muammolarini hal etishga qaratilgan uyushmalarni tushuniladi. Ko'pincha bunga ijtimoiy harakatlar, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ixtiyoriy jamoat birlashmalari, fuqarolik tashabbuslarini birlashtiradigan tuzilmalar, jamoatchilik kengashlari, jamoatchilik palatalari, mustaqil ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini kiritish mumkin. Shubhasiz, **“uchinchi sektor”** deb nom olgan fuqarolik jamiyati institutlari jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasidagi «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar» kabi fuqarolarning jamiyat institutlarida ishtirok etishini ta'minlab beradigan huquqiy asoslarning e'tirof etilishi respublikada jamiyat taraqqiyoti insoniyat hayotining bir necha asrlar mobaynidagi tajribalari va sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan erkinlik jamiyati - fuqarolik jamiyati sari intilayotganligini anglatadi.

Hozirgi davrda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati bir qator qonunlar bilan tartibga solinadi. Xususan, «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonun (1991 y. 14 fevral), «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonun (1996 y. 26 dekabr), «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» yangi tahrirdagi qonun (1998 y. 1 may), «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi qonun (1999 y. 14 aprel), «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonun (2007 y. 15 yanvar), «Kasaba uyushmalari to'g'risida»gi qonun (2019 y. 6 dekabr), «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida» yangi tahrirdagi qonun (2013 y. 22 aprel).

Mustaqillik davrida mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining asosi bo'lgan demokratik institutlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga doir islohotlar yildan-yilga chuqurlashib bordi. O'zbekistonda nodavlat tashkilotlarga doir qonunchilik rivojlangan mamlakatlar tajribasi, xalqaro huquqiy me'yorlar va milliy an'analar asosida shakllantirilgan bo'lib, u o'zida demokratik prinsiplar va qadriyatlarni mujassamlashtiradi. «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi qonunining 1-moddasiga binoan, **nodavlat notijorat tashkiloti** jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir. Nodavlat notijorat tashkiloti (NNT) jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

Ushbu qonunda nodavlat notijorat tashkilotlar bilan davlatning hamkorligi shunday o'z ifodasini topganki, davlat organi, ya'ni parlament qonun qabul qiladi, bu qonunga binoan «uchinchi sektor» a'zolari va jamiyat manfaatlarini uchun xizmat qiladi. Qonunda qayd etilgan ijtimoiy foydali maqsad tushunchasi nodavlat tashkilotlar faoliyatini aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltiradi. Davlat organlarining muhim funksiyalaridan biri aholini ijtimoiy himoya qilish ekanligini e'tiborga olsak, bu sohada davlat organlari bilan nodavlat tashkilotlarning o'zaro hamkorligi uchun huquqiy asoslarning yaratilganligi namoyon bo'ladi.

«Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi qonunga binoan NNTlarning maqsadlari quyidagi yo'nalishlardagi faoliyatlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- birinchidan, keng ma'nodagi madaniy maqsadlarga erishish ko'zlab tuzilgan. Bunda maorif, ilm-fan, madaniyat sohalarida faoliyat olib boriladi;

- ikkinchidan, mamlakat aholisining sihat-salomatligini ta'minlashni ko'zlab faoliyat yuritish (sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi, turli xil xastaliklarning oldini olish va ularni davolashning ilg'or tajriba ham usullarini targ'ib etuvchi tashkilotlar);

- uchinchidan, turlicha faoliyat yo'nalishidagi huquqni muhofazalovchi tashkilotlar (masalan, iste'molchilar huquqini himoyalash jamiyati);

- to'rtinchidan, fuqarolarning ma'naviy va boshqa xildagi nomoddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tashkilotlar (nosiyosiy uyushmalar, ijtimoiy jamg'armalar va boshqalar);


-beshinchidan, xayr-ehson ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar.

Qonunning 4-moddasi NNTlarning davlat organlari bilan o'zaro munosabati asoslarini belgilab beradi. Davlat, bir tomondan, qonuniy asosda nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqi va qonuniy manfaatlarini mustahkamlaydi, ikkinchi tomondan, nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqi va qonuniy manfaatlarini huquqiy jihatdan himoya qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqi va qonuniy manfaatlari amalga oshishini kafolatlovchi shart-sharoitlar yaratadi, barcha davlat organlari va mansabdor shaxslarning zimmasiga qonun talablarini so'zsiz ijro etish vazifasini yuklaydi, zarur holatlarda nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqi va qonuniy manfaatlarini har xil tajovuzlardan himoyalaydi. NNT o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya etilishini mavjud barcha huquqiy usullar bilan muhofazalashga haqlidir.


Mustaqillik davrida mamlakatimizda NNT mustaqilligini ta'minlash, ularning fuqarolik jamiyatining muhim institutiga aylanishini ta'minlash maqsadida davlatning «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» konseptual siyosiy dasturi qabul qilindi va u mamlakatda jamiyatni rivojlantirishning asosiy tamoyiliga aylandi. Mamlakatimizda NNT fuqarolik instituti jamiyat hayotiga izchil kirib bordi. 1991 yilga kelib respublikada 95 ta respublika ahamiyatiga molik nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2019 yilga kelib bu ko'rsatkich 9235 taga yetdi. Shuningdek, O'zbekistonda 29 ta xalqaro va xorijiy nohukumat tashkilotlarining filial va vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda.

1-rasm. O'zbekistonda NNTlarning o'sish sur'atlari



2019 yilda respublikamizdagi mavjud nodavlat notijorat tashkilotlari quyidagi sohalarda faoliyat yuritgan: tadbirkorlik rivojlantirish, sportni rivojlantirish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ekologiyani muhofaza qilish, nogironlarni himoya qilish, xodimlarning huquqlarini himoya qilish, madaniyat, tarix va ma'rifat, fahriylarga yordam ko'rsatish, ayollar huquqlarini himoya qilish, ta'lim, fan va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, sog'liqni saqlash, millatlararo totuvlikni ta'minlash va h.k.

2-rasm. O'zbekistonda NNTning faoliyat sohalari



O'zbekistonda NNT o'z faoliyatlarini hududiy mansubligiga bog'liq holda quyidagi darajalarga bo'linadi:

- **umummamlakat** ahamiyatiga ega bo'lgan NNT. Ular o'z tuzilmaviy quyi tashkilotlariga (mahalliy tashkilotlari, filiallari, bo'limlari, vakolatxonalari va boshq.) ega bo'lib, butun mamlakat miqyosida faoliyat yuritadi;

- **mintaqaviy** NNT. Ularga Qoraqalpog'iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hududlarida faoliyat yuritadigan NNT kiradi;

- **mahalliy** NNT. Ularga tumanlar, shaharlar, shaharcha va boshqa kichik hududlarda faoliyat yurituvchi NNT kiradi.

Bundan tashqari, NNTlar qatoriga turli shakllarga mansub bo'lgan tashkilotlarni kiritish mumkin:

- Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar;
- Kasaba uyushmalari;
- Diniy tashkilotlar;
- Turli sport federatsiyalari va uyushmalari.

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlantirish maqsadida 2005 yil 10 iyunda **O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy Assotsiatsiyasi** tashkil etildi. Uning asosiy maqsadlari sifatida qo'yidagi faoliyat yo'nalishlari belgilandi:

- ixtiyoriy ravishda a'zo bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotini yanada erkinlashtirish va demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish, demokratik qadriyatlarni mustahkamlashdagi ishtirokini, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayotdagi faolligini, huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash va inson haq-huquqlarini himoya qilishdagi o'rnini yanada kengaytirish;

- davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan muvozanatda o'zaro va ikki tomonlama manfaatli muzokaralar orqali jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari manfaatlarini ifoda etishda nodavlat notijorat tashkilotlarning ishtirokini ta'minlash¹.

O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy Assotsiatsiyasiga 400 dan ortiq turli respublika miqyosidagi va viloyatlarda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar a'zo bo'lib kirdi.

Mamlakatda mustaqil, barqaror, aholining turli qatlamlari qo'llab-quvvatlaydigan fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirishga, ijtimoiy ahamiyatli muammolarni hal etishdagi, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy va ish faolligini oshirishdagi rolini kuchaytirish maqsadida 2005 yil 26 iyulda **O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash fondi** tashkil topdi. Uning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- zarur moddiy vositalar va moliyaviy mablag'larni yig'ish, jumladan fuqarolik jamiyati institutlarining, eng avvalo, aholi qo'llab-quvvatlaydigan, mustaqil respublika fuqarolarining u yoki bu manfaatlarini qondirish va himoya qilish bo'yicha ularning oldida turgan vazifalarni mustaqil hal etuvchi nodavlat notijorat tashkilotlarining rivojlanishini rag'batlantirish uchun mo'ljallangan mahalliy, chet el, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlarning grantlarini jalb etish;

- eng muhim gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa ijtimoiy ahamiyatli muammolarni hal etishdagi fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga, fuqarolik jamiyatining institutlarini rivojlantirishga qaratilgan nodavlat notijorat tashkilotlar loyihalari va dasturlarini moliyalash².

2007 yilda "Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunda nodavlat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash va ularning erkin hamda mustaqil faoliyatlarining mavjud qonunchilik va davlat organlari tomonidan kafolatlanishi asosiy maqsad qilib olindi. Qonunga ko'ra NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyati davlat tomonidan subsidiya, grant, ijtimoiy buyurtmalar berish shaklida qo'llab-quvvatlanmoqda.

2008 yildan hozirga qadar Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi ko'magida NNTlar ijtimoiy ahamiyatga ega loyiha, dastur, ustav vazifalari amalga oshiradilar. Albatta, o'z o'rnida, NNT ijtimoiy muammolarni hal qilish, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat va san'atni qo'llab-quvvatlash, fuqarolar huquqiy madaniyatini oshirish, fuqarolarni jamiyatni boshqarishdagi ishtirokini kengaytirish kabi faoliyati bilan fuqarolik jamiyatini rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish maqsad va vazifalari xususida ta'kidlaganidek, "Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirayotgan islohotlarimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va roli beqiyos ekanini alohida ta'kidlash joiz"³.

¹ O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy Assotsiatsiyasining ustavi. – T., 2005. – B. 3-4.

² O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash fondi ustavi. – T., 2005. – B. 3-4.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil 23 dekabr.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi fuqarolik jamiyati institutlarining demokratik prinsiplar asosida rivojlanishi yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. **“Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak”** tamoyilining e‘lon qilinishi davlat boshqaruvi va xizmatini fuqarolik jamiyati talablariga mos holga keltirish, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini yanada oshirishga xizmat qiladi.

10.3. Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va ularning faoliyati

Fuqarolik jamiyati institutlari tizimida o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘rni beqiyosdir. Ko‘plab mamlakatlardan farqli o‘laroq, mahalla instituti yurtimizda ming yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning hozirgi bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida xalqimizning urf-odatlarini, an‘analari va qadriyatlarini saqlab qolish, ularni jipslashtirish kafolati sifatida maydonga chiqayotmoqda.

Mahalla o‘zbeklarning tarixan shakllangan jamiyat taraqqiyotini yuksaltirish uchun yagona maqsad bilan yashab, faoliyat ko‘rsatish makoniga aylangan. U o‘zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, milliy an‘analarini, urf-odatlarini, axloqiy-ma‘naviy qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi maskan bo‘lib kelgan. Mahalla insonlarning millati, yoshi, jinsi, dini, irqi, tili, e‘tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar ularni ezgulik yo‘lida jipslashtiruvchi va birlashtiruvchi katta oila hisoblanadi.

Mahalla sharqona an‘analar, urf-odatlar va marosimlarni jamoada amalga oshirib, avloddan-avlodga yetkazib kelmoqda. Mahalla faollari an‘anaviy, oilaviy to‘ylar, bayramlar, motam marosimlarini o‘tkazish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirishda bosh-qosh bo‘lishadi. Ularni dabdabasiz, isrofgarchiliksiz, ortiqcha xarajatlarsiz, ixcham qilib o‘tkazish, mahalla oqsoqoli va maxsus mutasaddi komissiyalarga bog‘liq. Mahallada o‘tayottan har bir tantana yoki marosim uchun mahalla ahlining kattayu kichigi birday mas‘uldir. Bunday tadbirlarda kattayu kichikka, boyu kambag‘alga, mansabdoru oddiy fuqaroga bir xil hurmat va ehtirom ko‘rsatiladi. Chunki mahallaning barcha a‘zosi yagona, teng huquqli va mustahkam bitta oila hisoblanadi.

Mahallada kelajak avlod tarbiya topadi. Bu yerda o‘sayotgan har bir yigit-qizning axloq-odobi uchun butun mahalla ahli mas‘uldir. Shuning uchun ham “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona” naqli bejiz paydo bo‘lmagan. Yoshlarning har bir xatti-harakati barchaning diqqat-markazida bo‘ladi. Mahalladoshlarning har bir yosh taqdiriga javobgarligi, ularni nazorat qilishi – barkamol insonni tarbiyalab yetishtirishning negizidir. Xulq-odobi yaxshi har tomonlama namunali farzand mahallaning obro‘sidir, noqobil, axloqan nomaqbul farzand esa mahalla uchun qora dog‘idir. Mahalladan yurtga taniqli insonlar yetishib chiqsa, butun mahalla ahli, ularning avlod-ajdodlari g‘ururlanadilar.

Mahalla jamiyatimizda vaqt sinovidan o‘tgan turmush shaklidir. Mustaqillik yillarida mahalla fuqarolarning demokratik o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida qayta tiklandi, rasmiy huquqiy maqomga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasining 105-moddasida qayd etilishicha, shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular raisni (oqsoqolni) saylaydi.

2013 yil 22 aprelda yangi tahrirda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunga binoan **fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi** deganda fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyati tushiniladi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun hujjatlari bilan berilgan o'z vakolatlarini tegishli hudud doirasida amalga oshiradi.

2018 yil 15 oktabrda qabul qilingan "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi qonun binoan, fuqarolar yig'ini raisini fuqarolar yig'ini tomonidan saylanish tartibi belgilandi.

Mahalla tuzilmasi va funksiyasi vaziyatga qarab o'zgarib turgan, ammo u o'zini o'zi boshqarish tamoyilini saqlab qolgan, o'z hududida istiqomat qiluvchi kishilar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirib turgan. Mustaqillik yillarida mahallalar jamiyatning moddiy-ma'naviy asoslarini yaratish tayanchiga aylanib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-siyosiy masalalarni hal etib, fuqarolar yig'inida demokratiya tamoyillarini shakllantirish, inson omilini qadrlash makoni sifatida tiklanmoqda.

Mamlakatimiz hududida 10 000 dan ortiq mahalla fuqarolar yig'inlari mavjud bo'lib, jamoat tartibini saqlash va yosh avlodga to'g'ri tarbiya berishning kafolati bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, tizimda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari hamda "Mahalla" ma'rifiy teleradiokanal faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'lab quvvatlashda Respublika "Mahalla" xayriya jamoat fondining roli katta. Respublika "Mahalla" xayriya jamoat fondi 1992 yilda tashkil etilgan bo'lib, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining qonunchilikda belgilangan huquq va vakolatlarini samarali tatbiq etishda, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi o'rnini yuksaltirishga ko'maklashadigan jamoat tashkiloti hisoblanadi.

Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari turli masalalar yuzasidan o'zaro munosabatlarga kirishadilar. Ushbu munosabatlar fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash, mahalliy boshqaruvdagi ishtirokini ta'minlash, shuningdek mahalliy hokimiyat organlarini o'zini o'zi boshqarishni yo'naltirishdan iborat.

"Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunning 7-moddasiga muvofiq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi, shuningdek, davlat organlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur sharoit yaratadi, qonun hujjatlari bilan berilgan vakolatlarni amalga oshirishda ularga ko'maklashadi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zamonaviy talablari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 fevraldagi "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni samarali hal qilishdagi rolini oshirish, fuqarolar yig'inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqini ro'yobga chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni belgilab berdi¹.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashiga yuridik shaxs maqomini bergan holda uni fuqarolar yig'inlarining uyushmasi shaklida tashkil etildi.

Farmonga binoan, mahalla fuqarolar yig'inlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etish bo'yicha mustaqilligini ta'minlash, o'zini o'zi boshqarish tizimida ortiqcha bo'g'inlardan voz kechish maqsadida tarkibida mahallalar tuzilgan shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig'inlarini mahalla fuqarolar yig'inlariga birlashtirish va bo'lish yo'li bilan qayta tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Tumanlar va shaharlar markazlarida "Mahalla markazi" majmualari binolarini namunaviy loyihalar asosida barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi. Tashabbuskor fuqarolar va jamoatchilik tuzilmalari vakillariga taqdim etish uchun "Mahalla iftixori" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-sonli Farmoni bilan har bir mahallada **"Obod va xavfsiz mahalla" tamoyiliga** asoslangan quyidagi yo'nalishlarni nazarda tutuvchi yangi tizim joriy etilmoqda:

- jamiyatning betakror ijtimoiy tuzilmasi hisoblanadigan mahalla institutini aholining chinakam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylantirish, uning roli va ahamiyatini oshirish;

- xotin-qizlar ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish;

- jamiyat va oilada sog'lom va barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tubdan isloh qilish;

- mahalla institutining ichki ishlar organlari, boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlari bilan uzluksiz, tizimli hamkorligini yo'lga qo'yish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil 4 fevral.

– fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari va ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika (katta) inspektorlarining roli va mavqeini yanada oshirish, mustaqilligi hamda vakolatlarining amaliy samaradorligini ta‘minlash;

– sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hamda xodimlarning mehnatini munosib rag‘batlantirish va moddiy-texnika ta‘minotini yaxshilash.

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4602-sonli qarori binoan Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan vazirlikning asosiy vazifasi etib fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorlikni o‘rnatish belgilandi.

Yuqoridagi farmonga ko‘ra, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi, shuningdek “Nuroni” jamg‘armasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) bo‘limlari tugatildi. Vazirlar Mahkamasi tuzilmasidagi Bosh vaziri o‘rinbosari – Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi lavozimi tugatildi. Shuningdek, hududlarda mahalliy davlat hokimiyati organlaridagi tegishli lavozimlar tugatilib, ularning o‘rniga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi o‘rinbosari – mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vaziri lavozimi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) hokim o‘rinbosarlari – mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash hududiy bo‘linmalari boshliqlari lavozimi kiritildi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi hamda “Mahalla” o‘quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot markazi negizida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi va vazirlik tuzilmasiga o‘tkazildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha maslahat kengashi, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va keng jamoatchilikning fuqarolar yig‘ini raisi **besh yil muddatga** saylanishi hamda 22 mart sanasini **“O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari kuni”** deb e‘lon qilish haqidagi takliflari ma‘qullandi.

Farmon bilan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan tashqari funksiyalarni faqatgina davlat organlari va tashkilotlar bilan haq to‘lashni nazarda tutuvchi shartnoma asosida amalga oshirish huquqi berildi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tuzilmasi yangidan tashkil etilmoqda, jamoatchilik tuzilmalari tugatilmoqda. Jumladan, quyidagi lavozimlar kiritilmoqda: fuqarolar yig‘ini raisining huquq-tartibot masalalari bo‘yicha o‘rinbosari; fuqarolar yig‘ini raisining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma‘naviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari; fuqarolar yig‘ini raisining obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari; oila va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha mutaxassis; fuqarolar yig‘ini raisining yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi; fuqarolar yig‘ini raisining keksalar va faxriylar ishlari bo‘yicha maslahatchisi. Shuningdek, quyidagi komissiyalar tashkil qilinmoqda: oilaviy

qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi; ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik nazorati bo'yicha komissiya.

Farmon bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, mahalla tizimini rivojlantirish va jamiyatda "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilini joriy etishning 2020-2024 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Nazorat uchun savollar:

1. "Siyosiy partiya", "ko'p partiyaviylik" tushunchalariga ta'rif bering.
2. Fuqarolik jamiyati institutlari deganda nimani tushunasiz?
3. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari qaysi sohalarda faoliyat yuritadi?
4. Fuqarolik jamiyati tizimida o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni qanday?
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga izoh bering.

11-BOB. JAMOATCHILIK NAZORATI VA DAVLAT ORGANLARI FAOLIYATINING OCHIQLIGI

Reja:

1. **Jamoatchilik nazorati tushunchasi va mohiyati.**
2. **O'zbekistonda jamoatchilik nazoratining huquqiy-me'yoriy asoslari**
3. **O'zbekistonda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari.**

O'quv mashg'ulotining maqsadi: "Jamoatchilik nazorati" tushunchasi va uning mohiyati ochib berish; O'zbekistonda jamoatchilik nazoratining huquqiy-me'yoriy asoslari, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari haqida ma'lumot berish.

Tayanch iboralar: *jamoatchilik nazorati, davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqaro, fuqarolik jamiyati instituti, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasi, Jamoatchilik palatasi.*

11.1. Jamoatchilik nazorati tushunchasi va mohiyati

Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lumki, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat shakllanayotgan bir sharoitda davlat hokimiyati organlarining samarali faoliyatiga ko'p jihatdan jamoatchilik nazorati ta'sirida erishiladi. Jamoatchilik nazorati bo'lmagan yoki jamoatchilik nazorati yetarli darajada kuchga ega bo'lmagan mamlakatda fuqarolik jamiyati shakllanishini ham tasavvur qilish qiyin.

Fuqarolik jamiyatida **jamoatchilik nazorati** jamiyatning alohida fuqarolar timsolida hamda fuqarolik jamiyati institutlari vositasida davlat organlarining qonunlarni qabul qilish va o'z qarorlarini amalga oshirish, shuningdek bu jarayonlar natijalarini baholash mexanizmi tushuniladi. Shu jihatdan **jamoatchilik nazorati** – bu fuqarolar, fuqarolik

jamiyati institutlari – jamoat va nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, kasaba uyushmalarining davlat va mahalliy hokimiyati organlarini qonunlarga amal qilishga majbur etish, o‘z vazifasini bajarishida mas’uliyatni his etishi, o‘z majburiyatlarini sifatli bajarishi kabi faoliyatlari ustidan turli shakldagi tekshiruvlarni amalga oshirishidir. Bunday nazorat alohida fuqaro yoki jamiyatning qonuniy manfaatlarini davlat organlari oldida himoya qilishni nazarda tutadi.

Hozirgi davrda jamoatchilik nazorati ijroiya va boshqa hokimiyat tarmoqlarini qonunga amal qilishni, o‘z huquq va vakolatlarini malakali tarzda bajarishga undaydi. Jamoatchilik nazorati kuchsiz bo‘lgan holatlar ko‘pincha o‘tish davrini o‘z boshidan kechirayotgan davlatlarda uchraydi. Albatta, tadqiqotlarda bu kabi holatning asosan uchta sababi ko‘rsatiladi:

- hokimiyat faoliyatini shaffoflik (ochiqlik) bilan ro‘y berishini ta‘minlaydigan mexanizmlarning yetishmasligi;
- o‘rta sinf hali jamoatchilik nazoratining bosh ijtimoiy bazasini tashkil etishga ulgurmaganligi;
- davlat hokimiyati organlari mansabdorlarida va fuqarolarida jamoatchilik nazoratining moxiyati, usullari, shakllari va mexanizmlari to‘g‘risida zarur bilimlar va tasavvurlar yetishmasligi.

Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘liq tarzda rivojlanib boradi. Fuqarolik jamiyati rivojlanib borgan sari jamoatchilik nazorati uchun kengroq imkoniyatlar va istiqbollar paydo bo‘ladi. Ikkinchi tomondan, jamoatchilik nazoratining rivojlanishi fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga olib keladi. Rivojlangan jamoatchilik nazoratini fuqarolik jamiyatisiz tasavvur qilib bo‘lmaganidek, fuqarolik jamiyatining rivojlanishini ham jamoatchilik nazoratisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Jamoatchilik nazorati jamiyatga ham, davlat hokimiyatiga ham foydali bo‘ladi. U davlat hokimiyati organlarining ma’sul bilan faoliyat yuritishiga - qonunning ishlashini ta’minlashga, inson huquqi va erkinliklarini xurmat qilishga va himoyalashga, umumiy farovonlikka samarali va ijobiy ta’sir ko‘rsatishga undaydi. Jamoatchilik nazorati davlat hokimiyati organlarini doimiy va muttasil ravishda takomillashib borishini rag‘batlantiradi.

Jamoatchilik nazoratining faollashuvi natijasida raqobatbardosh iqtisodiyot rivojlanadi, kadrlarning ichki salohiyati ro‘yobga chiqadi, xalqning turmush darajasi oshadi, kuchli fuqarolik jamiyati shakllanadi, “fuqaro – jamiyat – davlat” muloqotida shaffoflik ortadi va jamiyat barqarorligi mustahkamlanadi, inson kapitali va uning resursi hayotda ishga tushadi. Bularning barchasi pirovard natijada mamlakatni salohiyatli bo‘lishiga olib keladi, jamiyat gullab-yashnaydi.

Jamoatchilik nazoratining maqsadlari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlash;
- davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatida qonuniylikni ta’minlash;
- jamiyat manfaatlarini himoya qilish.

Jamoatchilik nazoratining vazifalari quyidagilardan iborat:

– davlat organlari va jamiyatning o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini ta’minlash;

– davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qonunlarga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi va ularning ta’minlanishi ahvoli to‘g‘risida fuqarolarni xabardor qilish;

– davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qonunga rioya qilmaslik holatlarini aniqlash va keng jamoatchilikni xabardor qilish, ularni jamoatchilik yordamida bartaraf etish, jamiyatda ijtimoiy adolat prinsipini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;

– fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash sohasida fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlarining hamkorligi.

Fuqarolarning hokimiyat organlari yoki alohida mansabdor shaxsning faoliyati ustidan o‘z nazoratlarini amalga oshirish asosan ikkita asosiy usul bilan amalga oshiriladi.

1) fuqarolar irodasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) talabi bilan; 2) bilvosita (vakolatli), ular saylagan idoralar vositasida.

Jahon amaliyotidan ma’lumki, jamoatchilik nazoratining bevosita usulida fuqarolar irodasining namoyon bo‘lishi quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- fuqarolarning hokimiyat faoliyatiga oid axborotlardan voqif bo‘la olishi;

- jurnalistik tekshiruv;

- arznomalar – fuqarolarning davlat hokimiyati organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga yakka tartibdagi yoki jamoaviy murojaatlari;

- fuqarolarning mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolar yig‘inlari, ommaviy tarzda tinglashlari vositasida jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtiroklari;

- jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi va boshqaruvchi eng yuqori doiradagi rahbarlarga ta’sir ko‘rsatadigan ilmiy-tadqiqotlar, publisistik va badiiy asarlar;

- qonun loyihalari va davlat hayotiga oid boshqa muhim masalalarni ommaviy muhokama qilish;

- xalqning qonunchilik tashabbuslari;

- qonun loyihalarining jamoatchilik tomonidan ekspertiza qilinishi;

- sudlar maslahatchilari.

Jamoatchilik nazoratining bilvosita – vakolatli usuli o‘zining turli shakllariga egadir. Ularga parlament nazorati, hudud (shtat, o‘lka, viloyat) qonun chiqaruvchi organlarining nazorati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning vakolatli organlari nazoratlari kiradi.

Jamoatchilik nazoratining to‘g‘ridan-to‘g‘ri usulining muhim shakli – bu fuqarolarning davlat va mahalliy hokimiyat organlari faoliyati to‘g‘risidagi axborotdan foydalana olishlari hisoblanadi. Fuqarolarning hokimiyat faoliyati to‘g‘risida to‘liq va o‘z vaqtida xabardor bo‘lishi inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash hamda himoyalash, davlat organlarining samarali boshqaruvi va ijtimoiy xizmatlarini sifatli bo‘lishi uchun ularga ta’sir ko‘rsatadi. Amerikalik siyosatshunos olim B.Peydj fikricha: “Jamiyat hukumat ustidan haqiqiy nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun uning faoliyatidagi barcha tafsilotlardan yaxshi xabardor bo‘lishi, fuqarolar esa mamlakatda paydo bo‘layotgan barcha muhim muammolarni muhokama qilishda faol ishtirok etishlari talab etiladi”¹.

¹ Page B. Who deliberates? Mass Media in modern democracy. - Chicago, 1996. – p ..5.

Jamoatchilik nazorati quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- u jamiyat va uning alohida institutlarini boshqarish, jamiyatning barcha a'zolari ehtiyojlari va manfaatlarini uyg'unlashtirish shakli sifatida namoyon bo'ladi;
- mamlakatdagi turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini uyg'unlashtirishda va bu manfaatlar o'rtasida nizolar kelib chiqishining oldini olishda muhim vosita hisoblanadi.
- jamiyatdagi tezkor hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalarni bajarishda jamiyatning kuch-g'ayratini birlashtirish va muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi.
- jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy me'yorlarning bajarilishini kafolatlaydigan vosita hisoblanadi.

Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini olib boruvchi institutlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mamlakatdagi turli ijtimoiy-madaniy hamda kasbiy guruhlarining manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy partiyalar. Saylovchilar saylov jarayonida u yoki bu partiyaga ovoz berar ekan, ijroiya hokimiyati organlari faoliyatini bilvosita nazorat qiladi;
- mehnatkashlarning manfaatlarini taqdim va himoya qilish maqsadida tuzilgan kasaba uyushmalari;
- notijorat xarakterga ega bo'lgan jamoat tashkilotlari va uyushmalarining turli-tumanligi. Mazkur uyushma va tashkilotlar davlat hokimiyati organlari oldida fuqarolarning huquq va manfaatlarini taqdim qilish va himoya qilish maqsadida tuziladi;
- mamlakatda jamoat-davlat tuzilmalarining mavjudligi. Bunday tuzilmalar qatoriga turli vazirliklar va idoralar qoshida tashkil etilgan jamoatchilik kengashlari va uyushmalarini kiritish mumkin;
- mamlakat hududida jamoatchilik hokimiyatining quyi bo'g'ini hisoblanadigan o'zini o'zi boshqarish organlarining mavjudligi. O'zbekistonda mahalla institutining faoliyati aholini o'z ehtiyoj va manfaatlarini qondirish va himoya qilish maqsadida uyushtirishga qaratilgan bo'ladi.

11.2. O'zbekistonda jamoatchilik nazoratining huquqiy-me'yoriy asoslari

Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda huquqiy me'yorlar poydevor vazifasini bajaradi. Mustaqillik davrida fuqarolik jamiyati institutlarining turli sohalarida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishiga doir qoidalar **40 dan ortiq** me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (2-, 35- va 60-moddalarida) hamda milliy qonunchilikda jamoatchilik nazoratining ustuvor qoidalari mustahkamlandi.

2014 yil 16 aprelda Konstitutsiyaning 32-moddasiga fuqarolar davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish yo'li (xalq hokimiyatchiligining eng muhim elementi) sifatida **“davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi”** prinsipi kiritildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi, “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida”gi, “O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida”gi,

“Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi va boshqa qator qonunlarda fuqarolar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlar tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishga doir moddalar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasiga muvofiq “Har kim fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo‘lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin”¹. Mazkur konstitutsiyaviy huquq asosida 1997 yili 24 aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Axborot olish erkinligi va kafolatlari to‘g‘risida”gi, 2002 yili 12 dekabrda “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunlarning qabul qilinishi OAV tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga huquqiy asoslar yaratdi. O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda qabul qilingan “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunining 4-moddasiga binoan “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har kim axborotni moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqiga ega. Axborot olish faqat qonunga muvofiq hamda inson huquq va erkinliklari, konstitutsiyaviy tuzum asoslari, jamiyatning axloqiy qadriyatlari, mamlakatning ma‘naviy, madaniy va ilmiy salohiyatini muhofaza qilish, xavfsizligini ta‘minlash maqsadida cheklanishi mumkin”².

Mustaqillik davrida mamlakatda "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining asoslari haqida"gi, "Siyosiy partiyalar to‘g‘risida"gi qonunlarda davlat hokimiyati organlarining fuqarolik jamiyati institutlari oldidagi mas‘uliyatlari huquqiy jihatlardan mustahkamlab qo‘yildi.

Mamlakatdagi milliy qonunchilikka binoan kasaba uyushmalari mehnat, mehnatni muhofaza qilish va kasaba uyushmalari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini olib boradilar. 2019 yil 6 dekabrda qabul qilingan “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida qayd etilishicha, fuqarolarning o‘z faoliyati yoki o‘qishi turi bo‘yicha umumiy kasbiy manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lgan, ularning mehnatga oid, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish kasaba uyushmalarining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Mamlakatda davlat hokimiyati organlari va mansabdorlar ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 5 mayda qabul qilingan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonun muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur qonun davlat hokimiyati organlari faoliyatini shaffof kechishi ustidan jurnalistlar, o‘z huquqini himoya qilish istagidagi tadbirkorlar, fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda muhim ilgari siljish bo‘ldi. Qonunning 4-moddasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligining asosiy prinsiplari sifatida quyidagilar e‘lon qilindi:

– ular tomonidan taqdim etiladigan axborotdan hammaning foydalanishi mumkinligi, uning o‘z vaqtida berilishi va ishonchliligi;

¹ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2017. - B. 12.

² O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 yil, №1, 2-modda.

- ular faoliyatining oshkoraligi va shaffofligi;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risidagi axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligi;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to‘g‘risida axborot taqdim etishda fuqarolarning o‘z sha‘ni va qadr-qimmatini tajovuzlardan, o‘z shaxsiy hayotiga aralashuvlardan himoya qilishga bo‘lgan huquqlari va qonuniy manfaatlariga, shuningdek fuqarolar va yuridik shaxslarning o‘z ishchanlik obro‘sinini himoya qilishga bo‘lgan huquqlariga rioya etish¹.

Albatta, mazkur qonun mamlakatda jamoatchilik nazoratini shakllanishi va fuqarolar huquqiy madaniyatini rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Mamlakatda OAV, tadbirkorlar, nodavlat notijorat tashkilotlar faollari mazkur qonunga tayangan holda nafaqat o‘z haq-huquqlarini himoya qildi, balki fuqarolik jamiyatiga xos bo‘lgan demokratik qadriyatlardan xabardor bo‘ldi, ularning fuqaroviylik pozitsiyalari shakllana boshladi.

2013 yil 22 aprelda yangi tahririda qabul qilingan “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasida mahalla fuqarolar yig‘ini tomonidan jamoatchilik nazoratining quyidagi shakllari belgilab qo‘yildi:

- qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining, shuningdek o‘z qarorlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;
- yilning har choragida tuman, shahar va viloyat hokimliklari rahbarlarining fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitish;
- atrof muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish masalalari yuzasidan o‘z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitish”².

1991-2015 yillarda mamlakatimizda jamoatchilik nazoratining shakllanishi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratildi. Jamoatchilik nazorati fuqarolar huquqiy madaniyatining bir unsuri sifatida namoyon bo‘la boshladi. 2017 yildan jamiyatni isloh etishda tub burilish davri boshlandi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan **“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”** tamoyili asosida mamlakatimizda fuqarolik jamiyati shakllanishi yangi sifat bosqichiga chiqdi.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida **jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari** belgilab berildi. Harakatlar strategiyasida **jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish** bo‘yicha quyidagi vazifalar qo‘yildi:

- xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish;
- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish;
- fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuni. http://senat.gov.uz/uz/laws/urq-369_05.05.2014.html.

² O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni. http://www.senat.uz/uz/laws/urq_22.04.2013.html.


- mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'zni va faoliyati samaradorligini oshirish;

- ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish¹.

Ana shu konseptual maqsadlarni ijrosini ta'minlash uchun aniq va ravshan chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, davlat organlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish samaradorligining oshishiga, ular tomonidan inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga rioya etilishiga, fuqarolarning murojaatlarini, ularda ko'tarilgan muammolarni joyida hal etishda davlat organlari rahbarlari tomonidan qay darajada munosabat bildirilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishga imkon berishi kabilar amaliyotga qo'llash maqsadida 2018 yil 12 aprelda "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

Qonunning 3-moddasida jamoatchilik nazoratining sub'ektlari sifatida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari belgilangan. Jamoatchilik nazorati jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoatchilik tashkiliy tuzilmalari tomonidan ham qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Qonunda "jamoatchilik nazoratining ob'ekti davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari" sifatida belgilanishi uning mohiyatini fuqarolik jamiyatini davlat hokimiyati ustidan nazorat olib borishini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, davlat jamiyatning siyosiy instituti sifatida faoliyat yuritadi, u jamiyat oldida hisobdordir.



Qonunda **5 ta yo'nalishdagi faoliyatga nisbatan jamoatchilik nazoratini** amalga oshirish belgilab qo'yilgan:

1. Qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek rivojlanish davlat, tarmoq va hududiy dasturlarida jamoatchilik manfaatlarini, jamoatchilik fikrini hisobga olish;
2. Yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlari talablarining ijro etilishini ta'minlash;

¹ "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

3. Davlat organlari zimmasiga yuklatilgan, jamoatchilik manfaatlariga daxldor bo'lgan vazifalar va funksiyalarni bajarish;
4. Davlat xizmatlarini ko'rsatish;
5. Ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni bajarish.

Ko'rinib turibdiki, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlanishiga shart-sharoitlar va iimkoniyatlar yaratish uchun davlat hokimiyati organlarini jamiyat oldida hisoborligini ta'minlaydi, fuqarolarning samarali va qulay davlat xizmati asosida o'z manfaatlarini qondirish, muammolarini hal etish imkoniyatiga erishadi, qonun yaratgan huquqiy erkinliklar fuqarolarning faollashuviga, ularning davlat boshqaruvi jarayonida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Muhimi, Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir islohotlar jarayoni xalq nazoratida bo'ladi, bu yo'ldagi og'ishlar yoki chetga chiqishlar jamoatchilik nazorati vositasida bartaraf etib boriladi. Mamlakatda jamoatchilik nazorati maqomi va nufuzini yuqori darajaga ko'tarilishi – bu davlatimizning huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati talablariga moslashib borayotganligini anglatadi.

11.3. O'zbekistonda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari

"Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida jamoatchilik nazoratining 8 ta shakllarda amalga oshirilishi belgilab qo'yildi: davlat organlari murojaatlar va so'rovlar; davlat organlarining ochiq jamoaviy majlislarida ishtirok etish; jamoatchilik muhokamasi; jamoatchilik eshituvi; jamoatchilik monitoringi; jamoatchilik ekspertizasi; ijtimoiy fikrni o'rganish; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ijroiya hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari hisobotlarini eshitishi.

Davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar – jamoatchilik nazorati sub'ektlari davlat organlariga arizalar, shikoyatlar va takliflar bilan murojaat qilishga, ularga so'rovlar yuborishga haqli. Ushbu murojaatlar va so'rovlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Jamoatchilik nazorati sub'ektlarining axborot olishga bo'lgan huquqi, agar mazkur axborot shaxsga doir ma'lumotlar yoxud davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar jumlasiga kiritilgan bo'lsa, cheklanishi mumkin.

Davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish – jamoatchilik nazorati sub'ektlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish huquqiga ega. Davlat organlari o'zining ochiq hay'at majlislarida jamoatchilik nazorati sub'ektlari ishtirok etishi uchun sharoitlar yaratadi.

Jamoatchilik muhokamasi – ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlar, davlat organlarining boshqa qarorlari loyihalarini ommaviy muhokama qilish. Faqat NNT, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va OAV o'tkazishi mumkin. Jamoatchilik muhokamasi ommaviy va ochiq o'tkaziladi. Jamoatchilik muhokamasi turli ijtimoiy guruhlarining vakillari, shu jumladan muhokama etilayotgan masala o'z huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan yoki daxldor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar ishtirokida o'tkazilishi mumkin.

Jamoatchilik eshituvi – davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining faoliyatiga taalluqli va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yoxud fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat manfaatlariga daxldor masalalarni muhokama qilish uchun tashkil etiladigan yig'ilish. Faqat NNT, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va OAV o'tkazishi mumkin.

Jamoatchilik monitoringi – davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining faoliyatini jamoatchilik manfaatiga daxldor axborotni yig'ish, umumlashtirish va tahlil etish orqali kuzatish. NNT, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoatchilik nazoratining boshqa sub'ektlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda o'tkazishi mumkin. Jamoatchilik monitoringining tashkilotchisi jamoatchilik monitoringining ob'ekti, uni o'tkazish muddati va tartibi to'g'risidagi axborotni oldindan e'lon qiladi.

Jamoatchilik ekspertizasi – normativ-huquqiy hujjatlar va davlat organlarining boshqa qarorlari loyihalari fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat manfaatlariga muvofiqligini aniqlash uchun ularni o'rganish hamda baholash. NNT, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va OAV qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda o'tkazishi mumkin.

Jamoatchilik fikrini o'rganish – turli ijtimoiy guruhlarining normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to'g'risidagi, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining qonun hujjatlari talablariga rioya etishiga, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini ta'minlashga doir faoliyati to'g'risidagi fikrini baholash maqsadida axborotni yig'ish, umumlashtirish hamda tahlil etish. Jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarni NNT, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va OAV qonun hujjatlariga muvofiq o'tkazishi mumkin.

Masalan, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi 1997 yil iyul oyida O'zbekistonning bir qator jamoat va nodavlat tashkilotlari tashabbusi bilan tashkil etilgan bo'lib, nodavlat mustaqil ilmiy tadqiqot muassasasi hisoblanadi. Markaz respublikamizning barcha mintaqalarida aholining turli qatlamlari orasida, turli miqyosda sotsiologik so'rovlarni amalga oshiradi, shuningdek O'zbekiston jamoatchiligi turmush faoliyatining turli masalalari haqida kompleks, maqsadli va ekspress-so'rovlar o'tkazadi.

Qonunning 14-moddasida **Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitishi** shakllari belgilandi. Unga ko'ra, fuqarolar yig'ini:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining fuqarolar yig'inlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini;

- ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining, joylardagi ta'lim muassasalari rahbarlarining hisobotlarini;

- tegishincha oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlari rahbarlarining axborotini;

- tegishli hududda joylashgan tashkilotlar rahbarlarining atrof-muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish masalalariga doir hisobotlarini eshitadi.

Qonunning 17-moddasiga binoan, jamoatchilik nazoratining natijalariga ko'ra bayonnoma, xulosa, ma'lumotnoma shaklida yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shaklda yakuniy hujjat tayyorlanishi mumkin. Yakuniy hujjat axborot va tavsiya xususiyatiga ega bo'ladi.

Yakuniy hujjatda bayon etilgan axborot, tavsiya va takliflar davlat organlari tomonidan majburiy tartibda ko'rib chiqiladi hamda ular yuzasidan qonuniy qarorlar qabul qilinadi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida **“Jamiyat – islohotlar tashabbuskori”** degan yangi g'oyani amalda ro'yobga chiqarish, davlat va jamiyat o'rtasida yaqin hamkorlik o'rnatish maqsadida Jamoatchilik palatasini tashkil etish taklif qilgan edi.

2020 yil 16 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasini tashkil etish to'g'risida”gi PF-5980-sonli Farmoni** qabul qilindi. Jamoatchilik palatasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- davlat, fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatni yanada jadal va har tomonlama rivojlantirishiga qaratilgan sa'y-harakatlarini birlashtiruvchi zamonaviy shakldagi tizimli hamda samarali muloqotni yo'lga qo'yish hamda ularning ijtimoiy manfaatlari kelishishligini ta'minlash;

- fuqarolarning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtirokini faollashtirishga hamda davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga ko'maklashish;

- aholi fikrini tizimli o'rganib borish, joylarda va sohalarda aholini, fuqarolik jamiyati institutlarini hamda jamoatchilikni tashvishlantirayotgan dolzarb masalalarni muhokama qilish, shuningdek, ularning yechimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlisi palatalariga va Hukumatga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha takliflar kiritib borish;

- ilmiy-ekspert guruhlarini ishtirokida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borish yuzasidan tashabbus ko'rsatish, bu boradagi davlat siyosati va uning amaliy natijalari haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli o'rganish, umumlashtirish va tahlil qilishni tashkil etish;

- fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan hamkorligi darajasi, ularning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qo'shayotgan hissasini baholovchi ko'rsatkichlarni ishlab chiqish hamda ular asosida fuqarolik jamiyatining holati va rivojlanish tendensiyalari to'g'risida yillik milliy ma'ruzalarni tayyorlash;

- BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda fuqarolik jamiyati institutlarining amaliy va samarali hamkorligini yo'lga qo'yishga ko'maklashish hamda mazkur masala bo'yicha jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish;

- davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini kuchaytirish, ularga uslubiy va boshqa amaliy yordam ko'rsatish;

- norma ijodkorligi sifatini tubdan yaxshilashga ko'maklashish, jumladan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid va jamoatchilikda alohida qiziqish

¹ O'zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2018 y., 03/18/474/1062-son

uyg'otadigan o'ta dolzarb masalalarga doir normativ-huquqiy hujjat loyihalarini jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazish, ularni jamoatchilik bilan maslahatlashuv va eshituvlari asosida takomillashtirishga ko'maklashish;

- fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari va blogerlarni so'z erkinligi, fuqarolarning axborot olish va tarqatish huquqini amalga oshirish, axborot erkinligi kafolatlarini ta'minlash bo'yicha muhokamalarga jalb etish hamda mazkur masalalarga oid amaliy takliflar ishlab chiqish;

- jamoatchilik nazoratining samarali tizimini shakllantirish, “jamoatchilik eshituvi”, “jamoatchilik ekspertisasi”, “jamoatchilik monitoringi” kabi ta'sirchan zamonaviy nazorat shakllarini amalda joriy etish;

- islohotlar va davlat dasturlarining joylarda va sohalarda amalga oshirilishi ustidan jamoatchilik monitoringini tashkillashtirish, ularni sifatli bajarish uchun qo'shimcha choralar ko'rish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, erishilgan ko'rsatkichlar, ijobiy o'zgarishlar va mavjud muammolar to'g'risidagi axborotni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlisi palatalari va Hukumatga muntazam kiritib borish;

- “xalq diplomatiyasi” institutini rivojlantirish, jumladan mamlakat tashqi siyosatining ustuvor vazifalarini hayotga tatbiq etish, uning nufuzli xalqaro reytinglarda egallagan o'rnini yaxshilashda fuqarolik jamiyati institutlarining imkoniyatlaridan keng foydalanish hamda xorijdagi vatandoshlar bilan yaqindan aloqalar o'rnatish, nodavlat notijorat tashkilotlariga xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda yordam ko'rsatish¹.

Jamoatchilik palatasining **18 nafar a'zosi** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan jamiyat rivoji, huquqiy davlatni shakllantirish va milliy qonunchilikni takomillashtirish, aholining huquqiy madaniyatni oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, O'zbekiston ilm-fani, sporti, madaniyati va iqtisodiyoti rivoji, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga katta hissa qo'shgan, el-yurt izzat-hurmatiga sazovor bo'lgan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari vakillari orasidan tayinlanadi.

Jamoatchilik palatasining **18 nafar a'zosi** respublika miqyosida faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari (chet el nodavlat notijorat tashkilotlari vakolatxonalari va filiallari bundan mustasno), ommaviy axborot vositalari va keng jamoatchilik vakillari taqdim etgan nomzodlar orasidan tanlov asosida Jamoatchilik palatasi qaroriga asosan a'zo etib qabul qilinadi.

Jamoatchilik palatasining **14 nafar a'zosi** hududiy jamoatchilik palatalari vakillari bo'lib, ular lavozimi bo'yicha hududiy jamoatchilik palatalari raislari hisoblanadi.

Jamoatchilik palatasi va hududiy jamoatchilik palatalari a'zolarining vakolat muddati Jamoatchilik palatasi va hududiy jamoatchilik palatalarining birinchi umumiy yig'ilishlari o'tkazilgan kundan boshlab, **3 yil** etib belgilandi.

Jamoatchilik palatasi tashkil etilganligi munosabati bilan hamda uning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga oid vakolatlari boshqa organ va jamoatchilik tuzilmalari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasini tashkil etish to'g'risida”gi PF-5980-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.04.2020 y., 06/20/5980/0450-son

vazifalari bilan takrorlanishining oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi tugatildi. **“Mening fikrim” veb-portali** Jamoatchilik palatasi tasarrufiga o'tkazildi.

Umuman olganda, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun huquqiy asoslar yaratilgan. Ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligiga sharoit yaratiladi. Bu esa, jamoatchilik nazoratining jamiyatda ijtimoiy adolatning qaror topishi, shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o'zaro mas'uliyat va javobgarlikka xizmat qiluvchi asosiy omil ekanidan dalolatdir.

11.4. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik nazorati va davlat axborot siyosatining uyg'unligi

Bugun jahonda global mohiyat kasb etayotgan axborot va aloqa tarmoqlari axborot bilan ta'minlash, ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazorati va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini nazariy jihatdan o'rganishni dolzarb masala qilib qo'yimoqda. Globallashuv jahon taraqqiyotiga, xususan, ommaviy axborot vositalari va jurnalistikaga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Butun dunyoda, xususan, jamiyatimizda yuz berayotgan keng miqyosli islohotlar ommaviy axborot vositalari tomonidan muntazam yoritib borilayotgani jamoatchilik fikrining shakllanishida, ular faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning ko'plab demokratik davlatlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, jamoatchilik nazorati faqatgina jamiyat uchun emas, balki davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatini samarali tashkil etishda ham o'ta foydalidir. Axborotlashgan jamiyat sharoitida jamoatchilik nazoratini shakllantirishning muhim vositalari, institusional jihatlarini ijtimoiy-siyosiy jihatdan ilmiy tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi. Negaki, jamiyat rivojlangani, yuksak bosqichlarga ko'tarilgani sari davlatning nazorat qilish va yana ko'pgina vazifalari, roli va ahamiyati tobora kamayib, o'z o'rnini fuqarolik jamiyati institutlari – jamoat va nodavlat tashkilotlariga, fuqarolar uyushmalari va idoralariga berishi hamda bu jarayon to'xtovsiz kuchayib borishi zarur.

O'zbekistonda o'tgan yillar davomida fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini ta'minlash, ijro etuvchi hokimiyat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning samarali mexanizmlarini yaratish, jamoatchilik nazorati funksiyalarini yanadakuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda ijro hokimiyati faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning samarali mexanizmlari shakllantirildi. Shuning uchun jamoatchilik nazoratining davlat axborot siyosatida aks etishi, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlashda ijtimoiy kommunikasiyaning o'rnini har tomonlama o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalari va tarmoqlarining shiddatli rivojlanishi, davlat boshqaruvida axborot faoliyati samaradorligining o'sishi va rolini belgilashdagi ahamiyati ortib borishini hisobga olgan holda, matbuot – demokratik jamiyatning asosiy belgisi sifatida jamoatchilik nazoratini ommaviy axborot vositalari orqali chuqurlashtirish istiqbollari vamuammolariga doir ilmiy qarashlarni rivojlantirishning talablari

o'zgarayotganligi bilan belgilanadi. Shu ma'noda axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik nazorati va davlat axborot siyosatining uyg'unligiga doir nazariy-metodologik yondashuvlarni siyosiy fan talablari asosida tizimli o'rganish dolzarbdir.

Dunyo bo'ylab yuz berayotgan global xarakterdagi demokratik jarayonlarning shiddati nafaqat fuqarolar, o'z navbatida, soha tadqiqotchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklamoqda. Mazkur zaruriyat, ayniqsa, fuqaro – jamiyat – davlat munosabatlarida o'ziga xos ilmiy yechimlarni talab etmoqdaki, bu bevosita jamoatchilik nazorati va uni shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy institut – ommaviy axborot vositalari (OAV) taqdiri va kelajagiga chambarchas bog'liq.

“2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”da jamoatchilik bilan muloqot, fuqarolarning davlat boshqaruvi ishidagi faol ishtirokini ta'minlash va jamoatchilik nazoratini o'rnatishda OAVning rolini oshirish alohida ahamiyat qaratilgan. OAV o'z vazifasi nuqtai nazaridan jamiyatda umumiy kayfiyatni shakllantiruvchi eng sog'lom g'oyalar atrofida aholini birlashtiruvchi, yo'naltiruvchi kuch hisoblanadi. Uning aholi qatlamining barcha yo'nalishlariga kirib borishi, qamrab olishi muhim ahamiyatga ega. Ikkinchi tomondan so'zning qudrati va jozibasini to'la namoyon etmog'i lozim. Bunda jurnalist mahorati, matbuot xodimlarining kasbiy, ijodiy mahorati muhim ahamiyatga ega. Demakki, matbuotning hozirjavoblighi, prinsipiialligi, islohotlar jarayonini butun mohiyati bilan tushunib targ'ib eta olishi odamlar siyosiy ongini yuksaltirishda eng muhim vosita hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyatida aholining davlat organlari bilan o'zaro aloqasida axborot muhim o'rin egallaydi. Ochiq jamiyatda ommaviy axborot vositalari barcha kuchlar tuzilmalarining ochiq-oshkoraligiga, siyosiy jarayonning ochiqqligiga hissa qo'shmoqda. Rivojlangan davlatlarda OAV orqali targ'ibot qilishda siyosiy jarayonlarga xizmat qilish – jamoatchilik nazoratini tashkil etishning ta'sirchan usulidir. Buning asosini biz Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish haqidagi Yevropa Konvensiyasi, Yevropa Kengashining “Jurnalistik erkinlik va inson huquqlari to'g'risida”gi rezolyusiyasi, “OAV sohasidagi kelajak siyosati to'g'risida”gi deklaratsiyasi, “OAV va sabr-toqatli bo'lish madaniyatini shakllantirish to'g'risida”gi, “Jinoiy jarayonlarga daxldor axborot manbalarini himoya qilishda jurnalistlarning huquqi to'g'risida”gi tavsiyalarda aniq ko'rishimiz mumkin.

Yevropa mamlakatlarida OAV faoliyatining huquqiy asoslarini ta'minlovchi bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, Shvesiyadagi 1776, 1812, 1949 yillarda axborot erkinligi to'g'risidagi qonunlar, Finlyandiyaning 1951 yildagi “Rasmiy hujjatlarning oshkoraligi to'g'risida”gi hamda 1999 yilda qabul qilingan “Hukumat faoliyatining ochiqqligito'g'risida” gi qonunlarida bular o'z aksini topdi. Shuningdek, Buyuk Britaniyaning 2000 yildagi “Axborot erkinligi to'g'risida”gi Qonuni fuqaroning davlat organlari axborot tizimiga kira olishi va uni nazorat qilishda ishtirok etishini belgilab berdi. Natijada hokimiyat organlari ustidan nazoratni kuchaytirishning yangi instituti paydo bo'ldi.

Ayni damda jahon tajribasida jamoatchilik nazorati orqali davlat boshqaruvida ishtirok etish istagi kuchayib bormoqda. O'tgan asr siyosiy jarayonlarida nazar

tashlansa, fuqarolarning siyosiy mafkura ta'siri asosida yashashi va jamiyatning siyosiylashuvi kuchayganiga guvoh bo'lish mumkin. MDH davlatlarida jamoatchilik nazoratining shakllanish dinamikasiga e'tibor berilsa, ularda siyosiy sohaga siyosatdan xabardor bo'lmagan odamlarning aksariyati jalb qilinmaydi.

Bugun mamlakatimizda ham nodavlat va jamoat tashkilotlari, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni va ahamiyatini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh qilish, hayotning barcha sohalarida liberallashtirish jarayonlarini jadallashtirish, eng asosiysi, qonunlar ijrosini to'la ta'minlashda davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, mazkur yondashuv va undan o'sib chiquvchi tamoyillar zamonaviy dunyo boshqaruvida o'zini har tomonlama oqlayotgani va chinakam demokratik qadriyatlar ulug'lanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani bilan ham e'tiborlidir.

Mamlakatda ro'y berishi mumkin bo'lgan ichki nizolarni bartaraf etish, shuningdek, tashqi siyosiy, g'oyaviy tahdidlarga ham qarshi turish choralarini ishlab chiqish bilan bog'liq siyosat yuritishda davlatning, birinchi navbatda, OAVga kuchli mafkuraviy, ma'naviy va ma'rifiy vosita sifatida tayanishi ta'kidlanadi.

OAV to'rtinchi xokimiyat sifatida fuqarolik jamiyatining asosini tashkil kiladi. OAV erkinligini ta'minlash orqali ijtimoiy-siyosiyhayotning zarur muammolarini ilgari surish, jamiyat a'zolarini o'ylantirayotgan, mavjud bo'lgan muammolarini keng xalq ommasiga havola qilish, jamiyatni boshqaruv tizimi faoliyati hamda qabul qilayotgan qarorlariga xolisona baho berishga erishish mumkin.

Fuqarolik jamiyatining har qanday boshqa institutlari singari OAVham boshqa jamoatchilik tashkilotlari, davlat intitutlari bilan o'zaro ta'sirda bo'lib, jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga, davlat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarga ta'sir ko'rsatishga intilib boradi.

Mamlakatimizda nodavlat OAVni qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnik bazasini va kadrlar salohiyatini yanada oshirish maqsadida bir qator tadbirlar amalga oshirildi: Axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat Fondi tashkil qilindi; Nodavlat elektron OAV milliy Assosiasiyasi tuzildi.

Hozirgi kunda respublikamizda 1500 dan ziyod ommaviy axborot vositasi faoliyat ko'rsatmoqda. Vaqt o'tgani sayin OAVning tarkibi ham tubdan o'zgarib bormoqda. Buni yurtimizdagi barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat OAV ekani hamtasdiqlaydi¹.

Jamoatchilik nazoratida xalq va hukumat o'rtasidagi muloqot shakllari xususida gap ketganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida: "Rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini monitoring qilish jarayonigafuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlari bilan ochiq muloqotni ta'minlaydigan jamoatchilik bilan hamkorlikning zamonaviy shakllari (virtual qabulxonalar, "ishonch telefonlari") ni keng joriy etish"² masalasi alohida qayd etilganligini ta'kidlab o'tish kerak. Dissertasiyaning "Axborotlashgan jamiyatda davlat axborot

¹ Mirziyoyev Sh.M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil 28 iyun soni

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5185-son Farmoniga 1-ilova. www.lex.uz

siyosati va jamoatchilik nazorati” deb nomlangan ikkinchi bobida jamoatchilik nazoratining davlat axborot siyosatida aks etishi masalalari tadqiq etilgan. “Axborot siyosati” tushunchasi mavjud axborot oqimlari varesurslari bilan ishlovchi usullarga kiradi. “Axborot siyosati”ga garchi milliy va umumbashariylik nisbati o‘laroq qaralsa-da, aslida ma'lumotni qabul qilish va tarqatishning yaxlit tizimi barpo etilishi jamiyat uchun nihoyatda muhim hisoblanadi. Chunki bugungi globallashuv sharoitida xolis va uydirma axborotni bir-biridan farqlay olish, iste'molchi haq-huquqlari poymol etilmasligini ta'minlash, eng asosiysi, noto'g'ri ma'lumotlar tarqatilishining kengayib ketishiga yo'l qo'ymaslik, bu yo'nalishda qilinishi zarur bo'lgan amaliy ishlarni jamiyat oldiga ko'ndalang qilib qo'yadi. Biz buni davlat axborot siyosatida “ma'lumotlar banki” sifatida ham baholashimiz mumkin. Masalan, norma, pravo, lex.uz tizimlari. Bilamizki, “Axborot siyosati” jamiyatda manfaatlarni amalga oshirishning eng samarali usuli va axborot oqimlarini nazorat qilishning eng muhim omili ko'rinishida namoyon bo'ladi. Tadqiqot tili bilan aytganda, “axborot siyosati” quyidagilarni anglatadi:

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

Davlat va OAV o'rtasida konstruktiv muloqotni ta'minlash;

Fuqarolar uchun axborotning ochiqligi va ularning axborot olish borasidagi huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi prezumpsiyani tan olish;

Axborotning erkin aylanishini ta'minlash;

Davlat va hukumatga bo'lgan ishonchni oshirish;

O'zbekistonning boshqa mamlakatlar bilan samarali aloqa o'rnatishidagi muhim o'rni shular jumlasidandir.

Axborotning aynan siyosatga xizmat qilishining asosiy sababi, uning hozirda o'zaro ta'sir ko'rsatish instrumenti sifatidagi ahamiyatining ortib borayotganligi bilan izohlash mumkin.

2017 yil 12 iyuldagi O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston ekologik harakati vakillari bilan uchrashuvi mamlakatni yanada demokratlashtirish borasida yangi qutbni ochib berdi. Unda, parlament, siyosiy partiyalar va mahalliy kengashlar noiblari faoliyatiga tanqidiy ko'z bilan qarash barobarida kelgusida qilinishi lozim bo'lgan rejalar belgilab olindi. Jumladan, davlat rahbari: “Demokratiya qaerdan boshlanadi – parlamentdan boshlanadi. “Parlament – demokratiya maktabi”, deymiz. Shunday ekan, milliy parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi kerak”¹, дея ta'kidlab o'tadi.

O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 12 aprelda qabul qilingan “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi Qonuni alohida ahamiyatga ega. Zero, aynan mazkur huquqiy hujjat orqali jamoatchilik nazoratining sub'ektlari, uni amalga oshirish shakllari va huquqiy mexanizmlari aniq belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida chiqish qilar ekan: “Inson huquqlarini himoya qilish masalalari bo'yicha milliy va xalqaro

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentyabrdagi “O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5185-son Farmoniga 1-ilova. www.lex.uz

nodavlat tashkilotlar bilan ochiq muloqotimiz faollashib bormoqda. Endilikda, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi barcha huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati parlament va fuqarolar tomonidan doimiy nazorat qilib borilmoqda. Mamlakatimizda siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyatining roli ortib bormoqda, sud organlarining chinakam mustaqilligi ta'minlanmoqda. Ommaviy axborot vositalarining o'rni sezilarli darajada ortib bormoqda"¹, deya fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni va ahamiyatini alohida qayd etgan edi. Prezidentimizning xalqaro nufuzli tashkilot minbarida turib bildirgan fikrlaridan ma'lum bo'lmoqdaki, O'zbekiston o'z taraqqiyotining navbatdagi bosqichida, mamlakatni idora etishda jamoatchilik nazorati sub'ektlariga qat'iy tayanadi.

Davlat organlari faoliyati bo'yicha jamoatchilik nazorati deyilganda, mustaqil va qonun tomonidan o'rnatilgan hamda davlat organlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan bilimdon sub'ektlarni ijtimoiy nazorat qilish tushunilishi lozim.

Har qanday zamonaviy davlatda bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasida ham davlat hokimiyati organlari faoliyatini ijtimoiy nazorat qilish tizimida qonun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Davlat o'z organlari va amaldor shaxslari nomidan, eng avvalo, fuqarolar, xalq, jamiyat irodasini ijro etadi.

Shu jihatdan mazkur bobda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlashda ijtimoiy kommunikasiyaning o'rni va rolini belgilashda O'zbekiston demokratik, huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyatini tobora rivojlantirish yo'lidan jadal borayotganligi ko'rsatib o'tilgan. O'z taraqqiyot yo'lining ilk kunlaridan boshlab demokratiyaning eng muhim talabi – imkoniyati, salohiyati hisoblangan OAVni rivojlantirish, qo'llab-quvvatlashga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilganini ta'kidlash lozim.

Shu jihatdan mazkur bobda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlashda ijtimoiy kommunikasiyaning o'rni va rolini belgilashda O'zbekiston demokratik, huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyatini tobora rivojlantirish yo'lidan jadal borayotganligi ko'rsatib o'tilgan. O'z taraqqiyot yo'lining ilk kunlaridan boshlab demokratiyaning eng muhim talabi – imkoniyati, salohiyati hisoblangan OAVni rivojlantirish, qo'llab-quvvatlashga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilganini ta'kidlash lozim.

2018 yil 9 yanvarda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev raisligida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ko'tarilgan masalalar ham ishning amaliy jihatlar uchun muhim hisoblanadi. Unda qayd etilishicha, axborot texnologiyalari sohasining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi Janubiy Koreyada – 9 foiz, Yaponiyada – 5,5 foiz, Xitoy va Hindistonda – 4,7 foiz, O'zbekistonda atigi 2,2 foizni tashkil etadi. Buni axborot-kommunikasiya rivojlanish indeksi reytingidagi 176 ta mamlakat ichida O'zbekiston 95-o'rinni egallagani isbotlab turibdi. Shunisi aniqki,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 19 sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqid. [Elektron manba] www.uza.uz.

xalqaro tajribani, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalarini inobatga olgan holda, “2018–2021 yillarda “Elektron hukumat”¹ tizimini yanada rivojlantirish strategiyasi”ni ishlab chiqish bugun har qachongidanda dolzarb masalaga aylangan.

O‘zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish, ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazorati uchta: shakllanish, rivojlanish va yangi bosqich davrlari mavjud. Zero, ilmiy tahlil, xalqaro e’tirof va aholi siyosiy ongi darajasini belgilaydigan sosiologik so‘rovnomalar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, demokratiya va jamoatchilik nazorati Birinchi Prezident Islom Karimov davrida shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o‘tagan bo‘lsa, Prezident Shavkat Mirziyoevdavrida yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Bu jarayon izchillikda davom etmoqda. Masalan, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonun loyihasi Birinchi Prezident davrida parlament muhokamasiga qo‘yilgan bo‘lsa, puxta holatga keltirilgach, Shavkat Mirziyoev rahbarligi davrida qabul qilinganligi muhim ahamiyatga ega.

“2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da “Davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligini ta‘minlash, ularning fuqarolik jamiyati institutlari, ya‘ni nodavlat va notijorat tashkilotlari bilan hamkorligini yanada mustahkamlash, bu hamkorlikning huquqiy mexanizmlarini yaratish, ular faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish”² zarurligi alohida qayd etib o‘tilgan. OAVning asosiy vazifasi insonlarda demokratik va bozor munosabatlari ehtiyojidan kelib chiqib, fuqarolik jamiyati talablariga javob beradigan ijtimoiy-psixologik sifatlarni, qarashlarni, fikrni hosil qilishga qaratilgan jamoatchilik ongini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi hamda ularda hosil bo‘lgan ishonch va fikrdan moddiy hamda ma‘naviy hayotda amaliy natijalarga erishish yo‘lida foydalanishga imkon yaratib berishdan iborat. OAVga fuqarolik jamiyati instituti sifatida qarar ekanmiz, demak, uning asosiy vazifasi jamiyat integratsiyasi bilan bog‘liq vazifalar bo‘lishi kerak.

OAVning zamonaviy jamiyatimizda bajaradigan roli quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

- aholiga ma‘lumot (ya‘ni, axborotdan xabardor qilish) berish; jamoatchilik fikrini safarbar etish va shakllantirish;

- fuqarolarning siyosiy savodxonligi, tarbiyasi, siyosiy ijtimoiylashuviga ko‘mak berish;

- jamiyatdagi turli xil manfaatlarni artikulyatsiya qilish;

- davlat va mahalliy boshqaruv organlarini nazorat qilish va ularning faoliyati bo‘yicha tanqidiy fikrlar bildirish;

- siyosat sub'ektlarini integratsiyalash.

Global jarayonlar tez sur‘atda kechayotgan bugungi davrda OAV siyosiy partiyalar yoki ma‘lum ijtimoiy guruhlar manfaatlarini himoya qilishga intilishi, muayyan ijtimoiy nuqtai nazarlarni yoqlashga harakat qilishi tabiiy bir holga aylandi. Shu bilan birga, OAV o‘ziga tarafdor bo‘lgan siyosiy partiya yoki ijtimoiy guruhlar

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 avgustdagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyiha boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-3245-son Qarori. <http://lex.uz>.

² Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. /Nashrga tayyorlovchilar: M.Bekmurodov, Q.Quronboyev, L.Tangriev. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.

manfaatlarini himoya qilish doirasida cheklanib qolmasdan umumjamiyat manfaatlariga ham xizmat qiladi, o'z o'quvchilari e'tiborini jalb etishga intiladi. Davlat siyosatini targ'ib etuvchi, unga xayrixoh bo'lgan OAV davlat organlarining rasmiy nashri hisoblanadi¹.

OAV tashkil etadigan anjumanlar, xususan, matbuot konferensiyalari davlat siyosatini keng jamoatchilikka yetkazishda, jamoatchilik fikrini shu siyosatga yaqinlashtirishda, jamiyat barqarorligini ta'minlashda davlat rahbarlari uchun eng qulay vositadir. Jurnalistlar uchun esa bu kabi anjumanlar siyosiy tahlil uchun manba vazifasini o'taydi.

Hozirgi davrda O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Milliy matbuot markazi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assosiasiyasi, Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi kabi tashkilotlar muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Ular qatoriga qo'shilgan Xalqaro press-klub tez fursatda jamoatchilik nazoratining muhim ko'zgusiga aylandi.

Shu o'rinda keng ko'lamli ravishda amalga oshirilayotgan islohotlar chet ellik mutaxassislar tomonidan yuqori baholanayotganini, jamoatchilik nazoratida milliy mentalitetimizga xos bo'lgan jihatlar alohida aks etganligini ta'kidlash kerak. Masalan, Malayziyaning Maara universiteti professori Noraida Qosim: "O'zbekistondagi barcha islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarning natijasidir. Shu o'rinda "O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida" gi Qonunning qabul qilinishiga alohida to'xtalib o'tish lozim. Shubhasiz, davlat hokimiyati organlari faoliyati tartib-taomillarining aniq belgilanganligi va jamoatchilik oldida ular faoliyatining ochiqqligi respublikaning barcha fuqarolari manfaatlariga xizmat qiladi", deya e'tirof etadi.

Xorijlik mutaxassisning bu boradagi fikrlariga "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ham: "Ayrim davlat funksiyalarini jamoatchilik nazorati sub'ektlariga o'tkazish yo'li bilan tartibga solish vositalarini takomillashtirish, rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini monitoring qilish jarayonida jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlikning zamonaviy shakl va 20 mexanizmlaridan keng foydalanish"² masalalari aks etganligini iqtibos sifatida keltirib o'tish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda o'tkazilgan qo'shma yig'ilishidagi Davlatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'z ma'ruzasida: "Fuqarolarning erkinligi hamda axborotni olish, uni va o'z g'oyalarini tarqatish huquqlarini amalga oshirish kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan fuqarolarning axborot sohasidagi erkinligi hamda huquqlarini ta'minlash O'zbekistonda demokratik jamiyatni qurishning tamal toshi hisoblanadi", deya ta'kidlagan.

¹ Киргизбоев М., Холбеков А. Роль средств массовой информации в формировании общественного мнения // Методология изучения общественного мнения в Узбекистане. –Т.: ЦИОМ «Ижтимоий фикр», 2004. – С. 166-171.

² Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. /Nashrga tayyorlovchilar: M.Bekmurodov, Q.Quronboyev, L.Tangriev. –Т.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.

Yurtimizda qonun loyihalari muhokamasining turli shakllariga doirmuayyan normativ-huquqiy baza yaratilgan va amalga oshirilmoqda. Qonunchiligimizga binoan, parlament faoliyati masalalarni birgalikda va erkin muhokama qilishga, oshkoralikka, jamoatchilik fikrini hisobga olishga asoslanadi. Qonun loyihalari ustida ishlash uchun parlamentda nodavlat notijorat tashkilotlari, ilmiy muassasalar vakillari, shuningdek, ekspertlar, mutaxassislar va olimlar, xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarning vakillaridan iborat ishchi guruhlari tuzilishi mumkin. Loyihalar ilmiy ekspertiza o‘tkazish uchun davlat organlariga, boshqa tashkilotlarga, mutaxassislar va olimlarga yuborilishi mumkin. Qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ekti qonun loyihasini parlamentga kiritguniga qadar jamoatchilik fikrini o‘rganishni tashkil etishga haqlidir.

Katta ijtimoiy ahamiyatga molik qonun loyihalari ustidan jamoatchilik ekspertizasining samarali faoliyat yuritishida asosiy prinsiplar hisoblanmish: qonuniylik, xolislik, asoslilik, baholashning kompleksliliigi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamoatchilik asosidagi qonun loyihalari ekspertisasi jamoat birlashmalarining va fuqarolarning tashabbusiga ko‘ra, ularning mablag‘lari hisobidan yoki jamoatchilik asosida tajribali ekspertlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Boshqaruv va vakillik organlarining yoki boshqa manfaatdor shaxslarning jamoatchilik ekspertisasi ekspertining faoliyatiga aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi. Katta ijtimoiy ahamiyatga molik qonun loyihalarining jamoatchilik ekspertisasi tanlov asosida o‘tkazilishi mumkin. Jamoatchilik ekspertisasi tashkilotchilari uni o‘tkazish to‘g‘risida OAVda e‘lon berishlari, jamoatchilik ekspertisasi davlat ekspertisasi o‘tkazilishidan qat‘i nazar amalga oshirilishi mumkin. Jamoatchilik ekspertisasi amalga oshirishga to‘sqinlik qilish taqiqlanadi.

Jahon amaliyotida jamoatchilik nazoratini shakllantirishga doir yaxlit qabul qilingan model' yo‘q. Uning siyosiy mentalitet bilan bog‘liq o‘ziga xos murakkabliklari, ehtiyotkorlik, demokratik qadriyatlarni bosqichma-bosqich joriy etish amaliyoti mavjud. Shuningdek, tahlillar natijasi ko‘rsatmoqdaki, huquqiy jihatdan “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi normalar hamma davlatlar qonunchiligida alohida hujjat sifatida uchramaydi. MDH miqyosida Rossiya Federatsiyasi 2015 yilda, O‘zbekiston 2018 yilda ayni shu yo‘nalishda alohida qonun qabul qilgan. Qozog‘iston Respublikasida hali loyiha bosqichida bo‘lsa, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘izistonda esa bu amaliyot qonunosti me‘yorlaridagina mavjud.

O‘zbekistonda demokratlashtirish, ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazoratini uchta: shakllanish, rivojlanish va yangi davr bosqichlariga ajratish mumkin. Ya'ni bu jarayon O‘zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligi paytida shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o‘tagan bo‘lsa, Prezident Shavkat Mirziyoev siyosatida yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Shuningdek, istiqlolning chorak asrlik davrida sosiologik so‘rovnomalarga asoslangan “ijtimoiy fikr” tushunchasi Prezident Shavkat Mirziyoev davrida virtuallik kasb etib, “Mening fikrim” platformasiga aylandi.

Jamoatchilik nazorati – jamoat birlashmalari, ya'ni o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, kasaba uyushmalari, ijtimoiy fondlar, federatsiyalar, OAV va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat shaklidir. Yuridik jihatdan esa jamiyat a'zolari va uning alohida

boshqaruvchisub'ektlari va boshqa ijtimoiy guruhlarining xatti-harakatlari umum qabul qilingan me'yorlar va qadriyatlarga muvofiq ravishda amalga oshirilishini kafolatlaydigan usul va vositadir.

Jamoatchilik nazoratiga oid qoida va normalar mamlakatimizning amaldagi 30 dan ortiq qonunlarida, shu jumladan, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarifaoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi, “Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, qonunlar, shuningdek, sog‘liqni saqlash, ekologiyaga oid boshqa qonun hujjatlarida o‘z aksini topgan. 6. Fikrimizcha, davlat organlari faoliyati bo‘yicha jamoatchilik nazorati deyilganda, mustaqil va qonun tomonidan o‘rnatilgan hamda davlat organlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan bilimdon sub'ektlarni ijtimoiy nazorat qilish tushunilmog‘i lozim¹.

Hozirda murojaatlarni axborot-kommunikasiya texnologiyalari yordamida qabul qilish, to‘plash, tasniflash va tizimlashtirish, shuningdek, ularning to‘liq, o‘z vaqtida hamda sifatli ko‘rib chiqilishi ustidan monitoring va nazoratni amalga oshirish imkonini beruvchi kuchli axborot tizimi bu – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi ekanligi reallik kasb etmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Jamoatchilik nazoratining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Jamoatchilik nazoratining qanday usullari mavjud?
3. Mamlakatimizda jamoatchilik nazorati huquqiy asoslari qanday rivojlandi?
4. “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonunning mazmun-mohiyati aytib bering.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi qanday vazifalarni bajaradi?

12-BOB. IJTIMOIIY SHERIKLIK

Reja:

1. Ijtimoiy sheriklik: tushuncha va mohiyati
2. Ijtimoiy sheriklik modellari va xorij tajribasi
3. O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklikni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: “Ijtimoiy sheriklik” tushunchasining mohiyatini ochib berish; ijtimoiy sheriklikning modellari va xorij tajribasi haqida

¹ Маматов Ф.С. Ахборотлашган жамиятда жамоатчилик назорати ва давлат ахборот сиёсатининг уйғунлиги (Ўзбекистон Республикаси мисолида) // Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. - Тошкент, 2020. - 50 б.

bilim berish; O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikning rivojlanishi xususiyalari, amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari haqida tushuncha berish.

Tayanch iboralar: *ijtimoiy sheriklik, demokratiya, fuqarolik jamiyati, bipartizm, tripartizm, ijtimoiy muloqot, jamoaviy muzokara, birinchi sektor, ikkinchi sektor, uchinchi sektor.*

12.1. Ijtimoiy sheriklik: tushuncha va mohiyati

XX asrning o'rtalarida T.Parsons va Yu.Xabermaslar tomonidan yaratilgan konsensus nazariyasi ijtimoiy sheriklikning keng miqyosda yoyilishiga katta turtki berdi. Bu nazariya ijtimoiy shartnoma nazariyasi o'rniga kelib, ijtimoiy sheriklikning nazariy metodologik asosi vazifasini bajara boshladi.

Ijtimoiy sheriklik bozor munosabatlariga o'tish va demokratik institutlarni rivojlantirishning muhim sharti ekanini jahon amaliyoti tasdiqladi.

Fuqarolik jamiyatining yuksalishi ko'p jihatdan fuqarolarning jamiyat hayoti barqarorligiga samarali ta'siri, siyosiy jarayonlardagi ishtiroki va faolligiga bog'liq. Kuchli fuqarolik jamiyatini, avvalambor, o'z huquq va erkinligini to'g'ri anglab yetgan fuqarolarsiz tasavvur etish qiyin. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadi davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning eng ustuvor yo'nalishi etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasiga binoan, "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi"¹.

Mustaqillik davrida vujudga kelgan nodavlat notijorat tashkilotlar o'zlarining faoliyatini ijtimoiy sheriklik tamoyillariga asoslanib olib bora boshladi. Bundan tashqari, aholining qo'llab-quvvatlashiga erishish uchun hokimiyat organlari vakillari ham ijtimoiy sheriklik texnologiyalariga murojaat qila boshladi. Dastlab mehnat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida shakllangan ijtimoiy sheriklik hozirgi kunda turli ijtimoiy guruhlar, sub'ektlar va jamoalarning o'zaro munosabatlarini ham tartibga solishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy sheriklik ko'proq strategik rejalashtirish, hududlarni kompleks rivojlantirish hamda boshqaruv qarorlari qabul qilishda borgan sari ko'proq va muhimroq rol o'ynamoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida islohotlarning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini ta'minlash, aholi farovonligini oshirishda jamiyat sa'y-harakatlarini birlashtirish, davlat hamda keng aholi ehtiyojlarini ifodalaydigan, turli jamoat tashkilotlari manfaatlariga javob beradigan mexanizmlarni yaratish ko'zda tutilgan².

Harakatlar strategiyasi asosida mamlakatimizda erkin va farovon hayot, adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu ezgu maqsad zahirida inson va uning manfaatlari mujassam bo'lib, uning samaradorligi xalqimiz ma'naviy-ruhiy qarashlaridagi yangilanish, jamiyatimiz ongu

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2017. – B. 5.

² Qarang. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. - T.: Adolat, 2017.

tafakkuridagi yuksalish bilan uzviy bog‘liq. Shu ma’noda, hozirgi davrda mamlakatimiz fuqarolarida tafakkur erkinligi shakllanib bormoqda.

Har bir fuqaro, o‘z huquq va erkinliklarini mamlakat ozodligi, uning istiqboli bilan bog‘lagan holda uyg‘un ko‘radi. Shunda fuqaroning burchi bilan erkinligi o‘zaro uyg‘unlashadi. Ular o‘z xohishlari asosida, ongli holda demokratik jarayonlarda ishtirok etadi¹.

Ma’lumki, ijtimoiy sheriklik fuqarolik jamiyatining asosiy tamoyillaridan biridir. “Fuqarolik jamiyati” va “ijtimoiy sheriklik” tushunchalari shaxsning, bir tomondan, davlatga mansubligini bildirsa, ikkinchi tomondan, shaxsning erkin jamiyat a’zosi ekanligidan dalolat beradi. Shuning uchun ijtimoiy sheriklik davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligi uchun eng qulay muvozanatni ta’minlaydigan ijtimoiy munosabatlarining alohida turi hisoblanadi.

“Ijtimoiy sheriklik” keng tushuncha bo‘lib, uning mazmunini ham mehnat munosabatlari, ham davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining manfaatli aloqalari tashkil etadi. “Ijtimoiy sheriklik” tushunchasiga nisbatan xilma-xil qarash va yondashuvlar mavjud.

Birinchidan, ijtimoiy sheriklik umumiy va mutlaqo farq qiluvchi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy manfaat va qarashlarga ega tomonlar o‘rtasidagi munosabatdir.

Ikkinchidan, bu tomonlarning qarama-qarshiligiga emas, balki ijtimoiy konsensusga erishishga asoslanadi.

Uchinchidan, bu shunday munosabatlar turiki, uni amalga oshirishdan barcha ijtimoiy guruhlar hamda davlat manfaatdor bo‘ladi. Chunki aynan ijtimoiy sheriklik jamiyat barqarorligi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun maqbul sharoit yaratib beradi. Bu jarayon umumiy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy maqsadlarga erishishda tomonlar manfaatlarining uyg‘unligini ta’minlaydi.

12.2. Ijtimoiy sheriklik modellari va xorij tajribasi

Ijtimoiy sheriklikning tarixiy taraqqiyotiga e’tibor qaratsak, dastlabki sheriklik sub’ektlari ikki tomonni tashkil etgan: ishchi va ish beruvchi (ishlab chiqarish vositasi egalari). Bunday ikki tomonlama sheriklik keyinchalik **“bipartizm”** nomini oldi. Shundan so‘ng sheriklar tarkibi sezilarli darajada o‘zgardi, chunki muzokaralar jarayonida davlat ham ishtirok eta boshladi. Natijada yuzaga kelgan uch tomonlama sheriklik (**“tripartizm”**) deb nomlandi.

Xorijiy tajribada ijtimoiy sheriklik asosan bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan ijtimoiy-mehnat munosabatlarining alohida tizimi bo‘lib, u davlat, ish beruvchilar va xodimlar manfaatlarini muvozanatini ta’minlashga xizmat qiladi. Bunday sheriklikni amalga oshirish mexanizmi esa jamoa shartnomalari va kelishuvlari, qo‘shma qarorlar, lokal hujjatlar, kasaba uyushmalari bilan kelishib qabul qilinadigan boshqa hujjatlarni tuzish va tatbiq etish asosida amalga oshiriladi.

Xalqaro mehnat tashkilotining hujjatlarida bu tamoyil **“ijtimoiy muloqot”** deb yuritiladi hamda **“tripartizm”** (ya’ni davlat, ish beruvchilar va xodimlar o‘rtasidagi uch tomonlama hamkorlik) asosida amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan². Ijtimoiy

¹ Alimardonov T. Erkinlik ruhi. – T.: Nishon-Noshir, 2014. – B. 240.

² Qarang. <http://www.ilo.org/dyn/normlex/en/fp>

sheriklik tizimida xodimlar manfaati – kasaba uyushmalari tomonidan, ish beruvchilar manfaati – ishlab chiqaruvchilar ittifoqlari tomonidan himoya qilinadi. Tomonlar manfaatlarini o‘zaro kelishtirish jarayonida davlat bevosita ishtirokchi bo‘ladi, shu bilan birga, qabul qilingan qarorlar bajarilishiga kafil bo‘lib hisoblanadi. Manfaatlarning kelishuviga muzokaralar orqali erishiladi, muzokaralar jarayonida tomonlar, xodimlarning mehnat sharoitlari, unga haq to‘lash, xodimlarning ijtimoiy muhofazasi kabi masalalar xususida kelishuvga erishadilar. Bunday shakldagi munosabatlar mamlakatimiz uchun yangilik emas. Mamlakatimizda esa mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik to‘rtta, ya’ni umummilliy, tarmoq, xududiy va lokal miqyoslarda amalga oshiriladi.

Ayni shu ma’noda, ijtimoiy sheriklik mehnat munosabatlari nuqtai nazaridan jamoa shartnomalari ish beruvchilar va xodimlar vakili bo‘lmish kasaba uyushma qo‘mitalari o‘rtasida imzolangan muhim lokal hujjat sifatida yangicha ma’no-mazmun kasb etmoqda. Kasaba uyushmalari faoliyatining asosini ham aynan ijtimoiy sheriklik tamoyillari tashkil etadi.

Ijtimoiy sheriklik natijasida nodavlat notijorat tashkilotlari yoki fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari davlat yoki uning muayyan organiga teng hamkor sifatida maydonga chiqadi. Bunday hamkorlik inson manfaatlarini har tomonlama ta’minlashga yo‘naltiriladi.

Hozirgi kunda bu modellar jahonda keng tarqalgan yollanma ishchilar va ish beruvchilar o‘rtasida davlatning bevosita yoki bilvosita ishtiroki bilan ijtimoiy-mehnat munosabatlarining tartibga solinishi ko‘rinishidagi ijtimoiy sub’ektlarning o‘zaro ta’sir jarayoni – individlar yoki ijtimoiy guruhlarining ehtimolli nizolarini hal etishga yordam bermoqda. Bugungi kunda xorij amaliyotida ijtimoiy sheriklik turli shakllarda namoyon bo‘layotganligini ko‘rish mumkin. Ko‘pgina ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy sheriklikning German (Avstriya, Germaniya, Shveysariya), Skandinav (Shvesiya, Norvegiya, Daniya) va Amerika (AQSh, Angliya) modellari haqida so‘z boradi.

Mazkur masalani retrospektiv nuqtai nazardan o‘rganish hozirgi davrda ushbu sohaga oid adabiyotlarda ijtimoiy sheriklikning quyidagi uch modeli alohida qayd etilishidan dalolat beradi:

1. Moslashtiriluvchi model. Ijtimoiy va iqtisodiy hamda siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda tadbirkorlar uyushmalari davlat bilan birga kasaba uyushmalari ham ishtirok etadi. Bu model uchun jamoaviy-shartnomaviy jarayonning yuqori darajali markazlashuvi xos.

2. Aksilkasaba uyushmaviy model. Ijtimoiy sohada qarorlar qabul qilish jarayonida kasaba tashkilotlari rolini boqichma-bosqich kamaytirib borish, bunda jamoaviy shartnomalar samaradorligining pastligi sabab qilib ko‘rsatiladi.

3. Plyuralistik model. Jamoaviy muzokaralar nomarkazlashgan bo‘ladi va alohida korxonalar, ba’zan ularning filiallari darajasigacha tushiriladi. Birinchi model Skandinaviya, Avstraliya, Niderlandiya, qisman Germaniya va Shveysariya;

ikkinchisi – Fransiya, Italiya (1950 y.); uchinchisi – Buyuk Britaniya, Kanada va Yaponiyaga xarakterli hisoblanadi¹.

Shimoliy Yevropa mamlakatlari – Shvesiya, Finlyandiya, Norvegiya, Belgiyada keng tarqalgan modelga ko‘ra, davlat mehnat munosabatlari va ularni boshqarishda faol qatnashadi. Bundan tashqari, mazkur modelda umummilliy, tarmoq va korxona-muassasa darajasidagi sherikchilik muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Belgiyada umummilliy darajada mehnat bo‘yicha milliy kengash faoliyat yuritadi. Unga har uchala hamkor hisobidan teng sonli ishtirokchilar kiritilgan. Davlat qonunchilik vazifasini o‘z zimmasiga oladi. Tarmoq darajasida esa «paritet komissiyalar» tuziladi. Korxona-muassasa darajasida masalalar ikki tomonlama, ya’ni ish beruvchi – kasaba uyushmasi munosabatlari asosida kechadi. Ba’zi mutaxassislarining fikricha, aynan mana shu sherikchilik tufayli jamiyatda ijtimoiy barqarorlik saqlab qolinmoqda².

AQSh, Kanada, Yaponiya va Lotin Amerikasi mamlakatlarida ijtimoiy sheriklik korxona-muassasa darajasida amal qilishi bilan ajralib turadi. Bunda ish beruvchilar birlashmalari xuddi kasaba uyushmalari singari, o‘z vakillari orqali qonun chiqarish jarayoniga, shu orqali ijtimoiy sheriklarga o‘z ta’sirlarini o‘tkazishga urinadilar³.

Germaniya, Avstriya, Gollandiya, Shveysariya kabi davlatlarga xos modelni birinchi va ikkinchi modellarni bog‘lovchi halqa sifatida tasavvur etish mumkin. Bu modelda asosiy e’tibor tarmoq darajasiga qaratiladi. Butun mamlakat miqyosida uch tomonlama kelishuvlar qabul qilinmaydi, balki majburiy bo‘lmagan maslahatlar bilan kifoyalaniladi. Asosiy muzokara jarayoni esa tarmoqlarda kechadi. Korxonalarda jamoa shartnomalari tuzilmaydi. Korxona tarmoq shartnomasiga amal qiladi va uning talablarini bajaradi. Bunday modelni tatbiq etishning shakllaridan biri “namunaviy” shartnomadir. Misol uchun, Germaniya sanoatidagi “JGMetall” kompaniyasining sheriklik shartnomasi uzoq vaqt butun nemis iqtisodiyoti uchun namuna vazifasini o‘tab kelgan.⁴

Umuman olganda, Yevropa Ittifoqi (YeI) mamlakatlari darajasida ijtimoiy sheriklik faol rivojlanmoqda. YeI uch tomonlama modelni qo‘llab kelyapti. Xususan, 1992 yili Maastrixt shahrida YeI ijtimoiy sheriklari tomonidan (Buyuk Britaniyadan tashqari) imzolangan hujjatda ittifoq o‘zining chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish maqsadida ish beruvchilar va ishchilar vakillarini sheriklar sifatida e’tirof etdi⁵.

Uch tomonlama (tripartizm) modeli 1995 yilda Kopengagen shahrida BMT shafeligida o‘tkazilgan ijtimoiy taraqqiyot mavzusidagi yig‘ilishda ham ma’qullangan. Mazkur anjumanda ijtimoiy taraqqiyotga yolg‘iz bozor mexanizmiga tayangan holda erishib bo‘lmasligi alohida qayd etilgan edi. Shundan kelib chiqqan

¹ Qarang. Шипитько А.Б. Современные модели социального партнерства в социально-трудовой сфере // Изв. Саратов. ун-та. Серия. Социология. Политология. – 2013. -№1. – С. 35-40.

² Каргалова М.В. От социальной идеи к социальной интеграции. Становление социальной политики Европейского Союза. – М.: Интердиалект, 1999. –318 с.

³ Семигин Г. Социальное партнерство в современном мире. – М.: Мысль, 1996. –200 с.

⁴ Социальное партнерство: социальная трансформация институтов и практик. Сборник статей и материалов Международного казанского научного форума (19-20 октября, г.Казань). Под ред. А.Г.Большакова. – Казань: КГУ 2013. –320 с.

⁵ Каргалова М.В. От социальной идеи к социальной интеграции. Становление социальной политики Европейского Союза. – М.: Интердиалект, 1999. –318 с.

holda, qashshoqlikka qarshi kurash va ish bilan ta'minlash asosiy vazifalar sifatida belgilab olingan.¹

Shu nuqtai nazardan shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy sheriklik tizimi mahalliy qonun hujjatlari va huquqning qo'llanish amaliyotini, shu jumladan, chet mamlakatlar qonun hujjatlari va huquqni qo'llanish amaliyotini (Fransiya, Belgiya, Italiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Kanada, Buyuk Britaniya kabi davlatlar tajribasini), shuningdek, xalqaro huquqiy hujjatlarni atroflicha tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ma'lumki, Fransiya va Germaniyada joylarda ijtimoiy sheriklik loyihalarini rejalashtirish, muvofiqlashtirish, amalga oshirish va moliyalashtirish uchun mas'uliyatning katta qismi hududiy, okrug va munisipal ta'lim (o'zini o'zi boshqarish organlari) zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, Yaponiya va Koreya Respublikasida joylardagi davlat hokimiyati organlari NNTlar orasida ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishga qaratilgan turli dastur va grantlar e'lon qilishni ko'zda tutuvchi tanlovlarni o'tkazish huquqiga egaligi belgilab qo'yilgan.

Ushbu modellarning asosiy maqsadi jamiyatda ijtimoiy kelishuv va muvozanatni qaror toptirish bo'lsa-da, samaradorlik ko'rsatkichi bo'yicha ular bir-biridan farq qiladi. E.Dyurkgeym fikricha, "Tartiblashgan fuqarolik jamiyatining bosh quroli – bu faoliyat turlari, ijtimoiy vazifalarni adolatli bo'lib berishdan iborat, natijada ijtimoiy omillarga muvaffaqiyatli va samaraliroq faoliyat olib borishga imkon beradi"². O'z navbatida, bu turli vazifalarni bajaradigan sub'ektlar murojaati uchun ijtimoiy aloqalar, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini kuchaytirish zaruratini keltirib chiqaradi. Xususan, german modeli uchun ijtimoiy sheriklik demokratiyani mustahkamlash, mehnat munosabatlarini tinch yo'l bilan hal qilish, ijtimoiy keskinlikning oldini olish vositasi bo'lsa, skandinav modelida ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Amerika modeli uchun esa iqtisodiy o'sishni ta'minlash ustuvorlik qiladi. Avstriyada ijtimoiy sheriklik maslahat kengashlari va qo'mitalari filiallari, umummilliy va tarmoqlar bo'yicha esa tenglik asosidagi komissiyalar orqali amalga oshiriladi³.

12.3. O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari

Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda ijtimoiy sheriklik ijtimoiy mehnat chegarasidan chiqib ketgan, hamkorlikda ishtirok etuvchi tomonlar doirasi esa nihoyatda kengayib bormoqda. 2014 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuniga binoan, ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorligi bo'lib, quyidagi shakllarda amalga oshirilishi belgilangan:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish;

¹ Семигин Г. Социальное партнерство в современном мире. – М.: Мысль, 1996. – 200 с.

² Дюркгейм Э. О разделении общественного труда /Пер. с франц. Гофмана А.Б.; Примеч. Сапова В.В. / Серия: «История социологии в памятниках». – М.: Канон, 1996. – 432 с.

³ Модель И.М., Модель Б.С. Власть и гражданское общество в России: от социального взаимодействия к социальному партнерству. – Екатеринбург: Уро РАН, 1998. – 240 с.

- normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish;

- davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlari faoliyatida ishtirok etish;

- birgalikda tadbirlar, maslahatlashuvlar va muzokaralar o'tkazish;

- ijtimoiy sheriklik to'g'risida bitimlar va shartnomalar tuzish;

- birgalikdagi loyihalar va rejalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

- o'zaro qo'llab-quvvatlash, axborot almashish¹.

Shuningdek, ushbu qonunda ijtimoiy sheriklikning asosiy sohalari sifatida quyidagilar ko'rsatilgan:

- aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qo'llab-quvvatlash va uning ijtimoiy faolligini oshirish;

- aholining bandligini ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, fermerlikni rivojlantirish;

- atrof muhitni, aholining sog'lig'ini muhofaza qilish va sog'lom turmush tarzini qaror toptirish;

- har tomonlama barkamol va sog'lom yosh avlodni shakllantirish, yoshlarga bilim berish, ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va kasbga yo'naltirish;

- onalik va bolalikni, shuningdek, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy hayotida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash, sog'lom oilani shakllantirish;

- fan, ta'lim, axborotlashtirish, madaniyat va sportni rivojlantirish;

- aholining huquqiy bilimlari, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash;

- millatlararo, madaniyatlararo totuvlik va fuqarolar totuvligi g'oyalarini mustahkamlash, ko'p asrlik, an'anaviy ma'naviy-axloqiy hamda tarixiy-madaniy qadriyatlarni tiklash va saqlash;

- iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish.

Mamlakatimizda amaliyotga tatbiq etilgan ijtimoiy sheriklik modeli shunisi bilan ahamiyatliki, u xalqimizning kayfiyati, huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq barcha sohalarni qamrab oladi. Ayni paytda, ijtimoiy sheriklikda qatnashadigan sub'ektlar ko'lamida juda keng bo'lib, bu jamiyatdagi barcha aholi qatlamlari manfaatlarini samarali ta'minlash imkonini yaratadi².

Jahon iqtisodiyotidagi beqarorlik tufayli turmush sifatining pasayishi jamiyat siyosiy tizimi samaradorligiga putur yetkazishi mumkin. Ijtimoiy sheriklik esa jamiyatda ehtimoliy nizolarni maqbul yo'l bilan hal etish, jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Chunki barcha qatlamlarning asosiy qiziqishlari alohida hisobga olinadi. U davlat organlari, tashkilotlari, fuqarolik jamiyati va uning institutlari o'rtasidagi muloqot modeliga asoslanadi. Shu ma'noda, ijtimoiy sheriklik muayyan tizim sifatida namoyon bo'ladi,

¹ O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 39-son, 488-modda.

² Axmedshayeva M., Najimov M. Ijtimoiy sheriklik – demokratik yangilanishlarning muhim omili // "Xalq so'zi" gazetasi. 2014 yil 22 oktabr.

bu jarayonda u o'zida umumiy qadriyatlar, ma'naviy va g'oyaviy asoslarga tayanib, o'zaro yon berish, shuningdek, jamoaviy-kelishuv shartnomalarini (ishtirok etayotgan barcha ijtimoiy sub'ektlar tomonidan) aks ettiradi¹.

Hozirgi davrda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib olgan davlatlarda o'zaro manfaatli hamkorlik, ijtimoiy muloqot, huquq va manfaatlarda tenglik, zimmaga olingan majburiyatlarga sodiqlik kabi elementlardan iborat ijtimoiy sheriklik modeli shakllanmoqda. Biroq har bir mamlakatga xos turli omillar bunda o'z ta'sirini o'tkazadi. Ba'zi bir mamlakatlarda ijtimoiy sheriklik jarayonlarini tashkil qilish va boshqarish uzoq muddatli tadrijiy rivojlanish natijasida, boshqalarida esa ma'muriy yo'l bilan yoki muayyan islohotlar orqali amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, jamiyatda ijtimoiy munosabatlar rivojlangani sari uning uch sektori (*birinchi sektor – davlat organlari, ikkinchi sektor – tijorat tashkilotlari, uchinchi sektor – fuqarolik jamiyati institutlari*) rivojlanib, ularning manfaatlari kengayib boradi. Shu ma'noda, ijtimoiy sheriklik – ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda har uch sektorning o'zaro hamkorligi hamda ularning manfaatlari muvofiqlashuvidir. U intellektual potensialni, inson, moddiy-texnik va moliyaviy resurslarni birlashtirib, mavjud muammo yechimiga yo'naltirish imkonini beradi.

Shu o'rinda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari munosabatlarini zamon ruhiga mos ravishda belgilangan shakl va tamoyillar asosida rivojlantirish muhimdir. Shu bois mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirilayotgan bugungi kunda ijtimoiy sheriklik tamoyillari turli ijtimoiy qatlam vakillarining e'tiborini tobora ko'proq tortayotganligi bejiz emas.

Mamlakatimizda davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida muayyan masalalarni hal qilish bo'yicha o'zaro hamkorlikning o'ziga xos tajribasi shakllangan. Yurtimizda ijtimoiy sheriklik tizimini shakllantirishda muhim va hal qiluvchi rol davlatga tegishlidir. Davlat fuqarolik jamiyati institutlariga ijtimoiy sheriklik jarayonida mulkiy, axborot, maslahat, tashkiliy, o'quv-uslubiy jihatdan yordam beradi. Masalan, ijtimoiy sheriklik sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlarga qonunchilikda belgilangan tartibda davlat mulki bepul yoki imtiyozli shartlarda faqat ko'zda tutilgan maqsadda foydalanish uchun vaqtincha berilishi mumkin. O'z navbatida, fuqarolik jamiyati institutlariga moddiy yordam ko'rsatayotgan yuridik yoki jismoniy shaxslarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha imtiyoz taqdim etiladi.

Shuningdek, Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi, ushbu fond mablag'larini boshqarish bo'yicha parlament komissiyasi faoliyat olib bormoqda. O'z navbatida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan jamoat fondlari tuzilishi va jamoat komissiyalari tashkil etilgan. Mazkur fondlar orqali fuqarolik jamiyati institutlariga davlat subsidiyalari, grantlari va ijtimoiy buyurtmalarni berish hamda

¹ Каранг. Грин Дж. Возвращение в гражданское общество: социальное обеспечение без участия государства. Пер. с англ. – М.: Новое изд-во, 2009. – 220 с.

o‘zaro sheriklik tadbirlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash davlat tomonidan ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish shakllari hisoblanadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy sheriklik intensiv rivojlanmoqda. Asta-sekin davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar xarakteri o‘zgarmoqda, ular huquqiy-me‘yoriy hujjatlar asosida, yanada erkin bo‘lib rivojlanmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlarining faol harakatlari tufayli davlat hokimiyatining mohiyati o‘zgarmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini ta‘minlashda nodavlat-notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari rolini kuchaytirishda ijtimoiy sheriklik tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa fuqarolar uchun munosib turmush sharoitlarini ta‘minlash ustuvor bo‘lgan tizimni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy sheriklik, o‘z mohiyatiga ko‘ra, konsensus, jamiyatda tinchlik, barqarorlik hamda turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlardagi taranglikni kamaytirishga yordam beradi. Hozirgi kunda ijtimoiy sheriklik munosabatlari jamoatchilik nazorati instituti bilan bir qatorda, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini kafolatlovchi ishonchli vositaga aylanmoqda. Albatta, jamiyat a‘zolarining huquqiy ongi va madaniyati yuksalishi, aholining siyosiy-huquqiy hamda ijtimoiy faolligi tobora oshib borishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoyalashda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat hokimiyati organlari bilan o‘zaro hamkorligi mexanizmlarini takomillashtirilishi ijtimoiy sheriklik munosabatlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi hamda mamlakatimizda fuqarolik jamiyati asoslarini yanada mustahkamlaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. “Ijtimoiy sheriklik” tushunchasiga ta‘rif bering.
2. Nima uchun ijtimoiy sheriklik rivojlangan mamlakatlar barqarorligiga xizmat qilgan?
3. Ijtimoiy sheriklikning sub’ektlari kimlar bo‘lishi mumkin?
4. Ijtimoiy sheriklikning zamonaviy shakllarini ko‘rsating.
5. O‘zbekistondagi ijtimoiy sheriklik xususiyalariga izoh bering.

13-BOB. FAOL FUQAROLIK POZISIYASIGA EGA BO‘LGAN YOSH AVLODNI TARBIYALASHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Reja:

1. Yoshlar siyosati borasidagi xalqaro huquqiy asoslar va amaliyot.
2. Mustaqillik davrida O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining shakllanishi va rivojlanishi
3. Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirishning yangi bosqichi.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: yoshlar siyosati borasidagi xalqaro huquqiy asoslar va amaliyot haqida tushuncha berish; mustaqillik davrida O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining shakllanishi va rivojlanishi haqida bilim berish;

mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirishning yangi bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida tushuncha berish.

Tayanch iboralar: *yoshlar, yoshlar siyosati, faol fuqarolik pozitsiyasi, barkamol avlod, yoshlar tashkiloti, yoshlar bandligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, yosh tadbirkorlar, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish.*

13.1. Fuqarolar faolligi va yoshlarda fuqarolik pozitsiyasi: tushuncha va mohiyat

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlaydigan zamonaviy demokratik davlat va siyosiy hokimiyatning samarali tizimining shakllanishi siyosiy jarayonlarda aynan fuqarolarning o'zi faol ishtirok etishi bilan chambarchas bog'liq. Bugungi zamonaviy dunyoda siyosiy hayotga nisbatan o'z shaxsiy yoki tor guruhiiy manfaatlari yo'lida siyosiy munosabatlar va jarayonlarda ishtirok etayotgan alohida individning emas, balki manfaatlari uyushma, tashkilot, birlashmalar doirasida institutlashgan fuqarolarning o'zaro xatti-harakatlari sifatida qarala boshlandi.

Tadqiqotlar mohiyatan fuqaroviiy faollik fenomenini o'rganishni izchil ravishda ancha qadimdan, Yunonistonda polislar mavjud bo'lgan davrlardan boshlashni taqozo qiladi. Yunon faylasuflarining boshqa fuqarolarning manfaatlari haqida qayg'urish, qonunga itoat etish va ongii ravishda jamiyat uchun xatti-harakatlarni amalga oshirish, polisda qonuniiy, to'g'ri va adolatli qarashga ega bo'lgan yaxshilik qiluvchi insonlarning xatti-harakatlari, siyosiy boshqaruv va uning qanchalik samara berishi fuqarolarning faolligi bilan bog'liqligi, fuqarolar o'zining qonun tomonidan belgilangan majburiyatlarini jamiyatning umumiiy farovonligini nazarda tutgan holda birgalashib amalga oshirishi kabi qarashlari negizida fuqaroviiy faollik ifodasi shakllandi.

Fuqaroviiy faollik shaxsning ma'lum bir ehtiyojlar va manfaatlarga qaratilgan ichki intilishlari, harakatlari oqibatida shakllanadi, bu bilan shaxs nafaqat o'zining ichki dunyosini o'zgartirish, balki butun bir jamiyatni o'zgartirish imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, fuqaroviiy faollik davlat doirasida emas, balki jamiyat ichidagina kechadi.

Inson o'zining mavjudot ekanligi va o'z mohiyatidan kelib chiqib, tabiiy ravishda siyosiy va ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etishga intiladi. Fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda faol ishtirok etishga undovchi ehtiyojlari va zaruriyati esa ularning har biri manfaatlarni guruhiiy harakatlarda ifodalash va qondirish mumkin ekanligini anglab yetishiga zamin yaratadi¹.

M.Qirg'izboyev O'zbekistonda fuqarolarda fuqaroviiy faollik xususiyatini shakllantirishga doir islohotlar mohiyatini ilmiy tahlil qiladi. Olimning fikricha, siyosiy ong va siyosiy madaniyat yuksalishida fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokining ahamiyati beqiyosdir.

Olim nazarda tutgan va taxmin qilgan o'zgarishlar bugungi kunda qaysidir ma'noda o'z samarasini ko'rsatmoqda. Fuqaroviiy faollikni oshirishda ularning siyosat va hokimiyat hodisalariga nisbatan shaxsiy munosabatlarini ifodalovchi baholash hukmlari ahamiyatga molik ma'naviiy hodisadir. Bunday shaxsiy-mazmuniy

¹ Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: O'zbekiston, 2010. – B. 94.

munosabatlarning mavjudligi insonning o'z fuqarolik burchini anglab yetgan siyosiy sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsata olishini ifoda etadi¹.

Fuqaroviy faollik masalasi A.Jalilovning tadqiqotlaridan ham o'rin olgan. Olim fuqaroviy faollikning negizini anglash uchun, avvalo, fuqaroviylikning nazariy mohiyatini tushunish talab etilishini ta'kidlaydi va – o'z vatani taraqqiyoti uchun har qanday yo'l bilan; jismoniy yoki ma'naviy mehnat bilan xizmat qilgan kishi haqiqiy fuqaroga aylanadi, - deb yozadi. — Sho'ro davrida fuqaroviylik albatta vatanga sadoqat va vatanparvarlik sifatida talqin etilsa-da, ko'proq mafkuralashgan ko'rinishda namoyon bo'lgan. Ko'pgina hollarda fuqaroviylik vatanparvarlik bilan aralash ifodalangan. Aslida esa vatanparvarlik fuqaroviylikning bir ko'rinishi, xolos.

Fuqarolik jamiyati fuqarolarning oddiygina yig'indisi bo'lmagani singari fuqaroviylik ham individual ahamiyatga ega bo'lgan hodisa emas. Fuqaroviylik bir mamlakat hududida yashovchi fuqarolarning o'z vatanlariga sodiqligi, qonunlarni hurmat qilishi, ularga bo'ysunishi, shuningdek, vatanni himoya qilish va umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarda faollikni nazarda tutadi. Fuqaroviylikka nisbatan berilgan fikrlarni umumlashtirgan holda uni quyidagicha ta'riflash mumkin: fuqaroviylik bir tarafdin jamiyatda shaxsning oliy darajada mustaqilligini, ikkinchi tarafdin esa kishilarning jamiyat hayotidagi ishtirokida namoyon bo'ladigan yuqori darajadagi birdamlikni nazarda tutuvchi qarashlar majmuini ifoda etadi².

Quyidagilar fuqaroviylikni ifoda etuvchi muhim jihatlar qatoriga kiradi:

- fuqaroning o'z haq-huquqlarini tushunishi va uni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi;

- boshqa fuqarolarning haq-huquqlarini hurmat qilish;
- fuqaroning o'z xatti-harakati uchun shaxsiy javobgarligi;
- davlat va jamiyat oldida o'zining huquqiy va axloqiy mas'uliyatini anglash;
- fuqarolarning tengligi;
- yuksak ma'naviy-axloqiy mezonlarga asoslangan holda ijtimoiy voqelikka nisbatan ob'ektiv va tanqidiy yondashuv;

- hokimiyat bilan, boshqa fuqarolar va jamoat birlashmalari bilan ijobiy muloqot yuritish qobiliyati;

- bir mamlakat, jamiyat va davlatga, shuningdek unga tegishli huquqiy, madaniy va til makoniga mansublikda ifodalangan fuqaroviy o'zlikni anglash va hokazolar.

Fuqaroviylikni faollik nuqtai nazaridan shartli ravishda darajalarga ham ajratish mumkin:

- fuqaro mas'uliyatli, ongli va vijdonli bo'lsa u dastlabki pog'onada, ya'ni fuqaroviy xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar qatoriga kiritish mumkin;

- agar fuqaroda atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan ma'lum bir munosabati shakllangan bo'lsa uni fuqaroviy pozitsiyasiga ega bo'lgan shaxs sifatida e'tirof etish mumkin;

- agar fuqaroda o'z haq-huquqlari hamda burchi uchun amaliy harakatni bajarish ko'nikmasi mavjud bo'lsa uni faol fuqaro sirasiga kiritish mumkin.

¹ Shodiyev N. Siyosiy modernizatsiya jarayonida fuqarofiy faollikni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish. Diss. siyo.f.f.d. – T., 2020. – B. 32.

² Jalilov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati asoslari. – Toshkent, 2015. – B. 85.

Fuqaroviylilikni faollik nuqtai nazaridan shartli ravishda darajalarga ham ajratish mumkin. Fuqaro mas'uliyatli, ongli va vijdonli bo'lsa u dastlabki pog'onada, ya'ni fuqaroviy xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar qatoriga kiritish mumkin. Agar fuqaroda atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan ma'lum bir munosabati shakllangan bo'lsa uni fuqaroviy pozitsiyasiga ega bo'lgan shaxs sifatida e'tirof etish mumkin. Agar fuqaroda o'z haq-huquqlari hamda burchi uchun amaliy harakatni bajarish ko'nikmasi mavjud bo'lsa uni faol fuqaro sirasiga kiritish mumkin. Olimning ta'rificha, fuqaroviy faollik o'z kuchiga ishonish, mavjud vaziyatni o'zgartirishga qodirlik hissining yaqqol namoyon bo'lishi bilan vujudga keladi.

Fuqaroviy faollik individga xos va turli fuqarolar birlashmalariga oid sotsial manfaatlarni amalga oshirishni maqsad qiladi. U inson va butun jamiyatning siyosiy, ma'naviy, madaniy qadriyatlari bilan bog'liq. Fuqaroviy faollik faollikning shunday shaklidirki, unga ega bo'lgan shaxs jamiyatdagi muammolarga befarq bo'lolmaydi, o'z fuqarolik pozitsiyasini namoyon qilishni istaydi, shaxsiy hamda jamoaviy manfaatlar va huquqlarini himoya qila olish jur'atiga ega bo'ladi. Unda shaxsiy mas'uliyat va jamiyat hayotiga daxldorlik hissi mavjud bo'ladi¹.

Fuqaroviylilik shaxsning siyosiy jihatdan komillikka erishishi bilan bog'liq bo'lib, bunday darajaga yetgan kishi siyosiy jarayonlar va hodisalarga qiziqish bilan qaraydi, ro'y berayotgan voqelikni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Aynan ana shunday qobiliyatga ega bo'lgan fuqaro kezi kelganda o'z vatani taqdiri uchun amaliy harakat qilish uchun zarur bo'lgan qarorga kelish qobiliyatiga ega bo'ladi. Vatanparvarlik ruhiga, mas'uliyat, siyosiy madaniyat va taraqqiy topgan siyosiy ongga ega bo'lgan jamiyat a'zosini fuqaroviylikka ega bo'lgan shaxs sifatida e'tirof etish mumkin.

Fuqaroviy faollik – bu shaxsning ongu tafakkuri, axloqi va xatti-harakati birligiga asoslangan, jamiyat manfaati yo'lidagi ongli, maqsadli va tashabbuskor faoliyat.

Fuqaroviy faollik ko'p ma'noda insonning shaxsiy imkoniyatlarini aniqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u shaxsning o'zligini anglashiga ko'maklashadi.

Zamonaviy siyosiy nazariyalarda fuqaroviy faollik tushunchasi shaxs sotsial faolligining alohida ko'rinishi sifatida qayd etiladi. Unga ko'ra, shaxs ongli va maqsadli ravishda o'zining siyosiy, iqtisodiy, sotsial va boshqa huquqlarini himoya qilish hamda yanada kengaytirish maqsadida siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etadi.

Fuqaroviy faollik shaxsning o'z menini anglashida, o'ziga nisbatan munosabatda, shuningdek, atrofini o'rab turgan dunyoga nisbatan munosabatida shakllana boshlaydi. Zero, o'zini anglash refleksi fuqaroviy faollikning aks etishida juda muhim unsur hisoblanadi. "Men" va "Men emas" o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning ifodasi ro'y beradi. Bu jarayonda yuzaga kelgan qaror esa fuqaroviy faollikning muhim pallasidir.

¹ Shodiyev N. Siyosiy modernizatsiya jarayonida fuqarofiy faollikni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish. Diss. siyo.f.f.d. – T., 2020. – B. 33.

Fuqaroviy faollikning institusional shakllari: siyosiy jarayonlarning sub'ektlari hisoblangan siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlar, kasaba uyushmalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari resurslaridan foydalaniladi.

Fuqaroviy faollikning noinstitutlari shakllari: bunda aniq rasmiy ko'rinishlar va shakllar kuzatilmaydi. Ammo zamonaviy shart-sharoitlarda aynan fuqaroviy faollikning noinstitutlari shakllari siyosiy faollikning katta qismini namoyon etmoqda¹.

Axborot-kommunikasion fuqaroviy faollik hukumat va davlat xizmatchilari bilan onlayn muloqotni misol qilib keltirish mumkin. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlarda, forumlarda siyosiy xarakterdagi masalalar muhokamasida, xabarnomalar tarqatish orqali o'z tarafdorlarini birlashishga chaqirish kabilarni misol qilish mumkin.

Aynan fuqaroviy faollik yoshlarning to'laqonli rivojlanishi, undagi imkoniyatlarning to'liq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Fuqarolik pozitsiyasi hamda fuqaroviy faollikka ega bo'lish yon atrofda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni va voqea-hodisalarni va mavjud muammolarning yechimini anglashni taqozo etadi. Fuqaroviy faollik bugungi kunda davlat uchun muhim ko'makchiga aylanmoqda. Turli ijtimoiy loyihalarga birlashgan fuqarolar ro'y berayotgan, tug'ilayotgan va mavjud muammolarni muhokama qilish, ularning yechimini topish va hukumatga taklif etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Fuqarolar, xususan, yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagi faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartidir.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, globallashtirish davri salbiy hodisalari xavfini kamaytirish va yoshlarni ma'naviy yetuk shaxslar etib tarbiyalash uchun ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish zarur. Zero, fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlarga jamiyatning asosiy maqsadlari nimadan iboratligini tushunib, xalq va jamiyat oldidagi mas'uliyatini chuqur anglaydi.

Faol fuqarolik pozitsiyasi nima degan savolga aniqlik kiritish lozim bo'ladi. Avvalo, fuqarolik fuqaroning huquqiy holatidir. Fuqaroviylik – bu shaxsning o'zi tegishli bo'lgan fuqarolik jamiyati: davlat, oila, mahalla, professional yoki boshqa jamoat oldidagi burch va mas'uliyatini anglashda, uning huquqlari va manfaatlarini har qanday tajovuzlardan himoya qilish va bunga tayyorligi bilan ifodalangan axloqiy pozitsiyadir. Fuqarolik pozitsiyasi esa inson faoliyatining barcha (mehnat, jamoatchilik, ma'naviy-axloqiy va boshqa) sohalarida namoyon bo'ladi.

Fuqarolik faolligi shaxsning dunyoqarashi, uning e'tiqodi, hayotga munosabati va qadriyatlariga asoslanadi. Bunda *vatanparvarlik* (Vatanga, shaharga, maktabga, oilaga muhabbat); *fuqaroviylik* (jamoaga, maktabga, shaharga, mamlakatga daxldorlik); *faol hayotiy pozitsiyasi*; *ahloqiylik*; *ijodkorlik* (qobiliyatlarni ro'yobga

¹ Shodiyev N. Siyosiy modernizatsiya jarayonida fuqaroviy faollikni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish. Diss. siyo.f.f.d. – T., 2020. – B. 56.

chiqarish, kreativlik, o'z taqdirini o'zi belgilash) kabi qadriyatlar piramidasining yuqorisida "odam"ning o'zi turadi.

Faol fuqarolik pozitsiyasi ijtimoiy ishlarga qiziqish, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, o'z qadrini anglash va tashkilotchilik ko'nikmasi mavjudligini nazarda tutadi. Faol fuqarolik pozitsiyasining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy faollik;
- shaxsning fuqarolik ongi;
- fuqarolik fazilatlari.

Ijtimoiy faollik mehnatga va ijtimoiy-siyosiy faoliyatga ongli, ijodiy munosabat sifatida ta'riflash mumkin, buning natijasida shaxsning chuqur va to'liq o'zini o'zi anglashi ta'minlanadi.

Shaxsning fuqarolik ongi shaxsning hayotiy pozitsiyasiga asoslanib rivojlanadi: onglilik, shaxs tomonidan o'z bilimlari, axloqiy qiyofasi va manfaatlari, ideallari va xulq-atvor motivlari baholanishi, o'zini arbob, jamiyat a'zosi, ijtimoiy ahamiyatga ega pozitsiyaning tashuvchisi sifatida his qilish va yaxlit baholashi.

Fuqarolik ongi jamiyat hayotida turli shakllarida namoyon bo'ladi. Yoshlar shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar borasida o'z qarashlari, tasavvurlari, qadriyatlari, intilishlari, me'yorlarini turli ko'rinishlarida namoyon etishadi. Jamiyat, guruhlar, shaxsning ijtimoiy manfaatlari namoyon bo'ladigan fuqaroviy manfaatlar tizim holiga keladi. Aynan tizim holida bo'lganligi tufayli fuqaroviy manfaatlar har bir shaxsning qadriyatlarini hayotga tatbiq etadi, uning jamiyatga, davlatga, boshqa fuqarolarga nisbatan munosabatini shakllantiradi. Fuqaroning mas'uliyati maqsadlari, vazifalarini belgilashga, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarini shakllantirishga ko'maklashadi. Ana shu tarzda shakllangan fuqaroviy ong fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qiluvchi qadriyatlar, me'yorlar, g'oya hamda tasavvurlarni shakllantirish, jamiyatni komillik va erkinlikka yetaklashga xizmat qiladi.

Fuqarolik fazilatlari ijtimoiy muhit ta'sirida va shaxsning o'z sa'y-harakatlari bilan Vatanga muhabbat tuyg'usini, o'z qilmish va harakatlari uchun mas'uliyat hissini, tashabbuskorlikni, mustaqillikni tarbiyalaydigan maxsus sharoitlarda shakllanadi.

Fuqarolik pozitsiyasi shaxs yashayotgan muhit, sharoitlar ta'sirida shakllanadi hamda jamoatchilik ishlarida shaxsning ijtimoiy faolligi, uning faoliyati samaradorligi va fuqarolik sifatleri orqali namoyon bo'ladi.

Faol fuqarolik pozitsiyasi – bu shaxsning jamiyatdagi ongli ishtiroki, uning atrof-muhitga nisbatan ongli xatti-harakatlari, shaxsiy va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi nisbatni oqilona belgilashi, ijtimoiy qadriyatlarni ro'yobga chiqarishidir.

Faol fuqarolik pozitsiyasi:

- o'z mamlakati, uning tarixi va madaniyati bilan g'ururlanish tuyg'usiga asoslanadi;
- to'g'ri maqsadlarni va ularga erishish uchun qonuniy usullarni tanlashda ishonch beradi.
- nafaqat o'z oilasi, balki mamlakat taqdiriga ham daxldorlik tuyg'usini beradi.
- agar buni ongli ehtiyoj sifatida idrok etilsa, erkinlik tuyg'usini beradi.
- qonunlar va davlat institutlariga hurmatni rivojlantiradi.

- har qanday vaziyatda inson qadr-qimmatini namoyon bo'lishi uchun kuch beradi.

Shundan kelib chiqib, **yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish** – yosh avlodda o'z xalqining tarixi, ma'naviy qadriyatlari, Vatanining imkoniyatlari va istiqbolini bilish va qadrlash, undan faxrlanish, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi uchun daxldorlikni his qilish, o'z huquqi bilan birgalikda burch va majburiyatlarini yaxshi bilish hamda ularni to'laqonli amalga oshirish, har qanday holatda ham milliy manfaatlarini himoya qila olish fazilatlarini tarbiyalash demakdir.

Faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan odam befarqlikka qarshi bo'ladi, faqat o'zi va o'z manfaatlariga e'tibor berishdan tiyiladi. Ko'pincha, u jamiyat hayotiga daxldor masalalar bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini xolis va ochiqchasiga bildiradi va shu bilan mamlakatda erkinlik, adolat va inson qadr-qimmatini hurmat qilish tamoyillari yashovchangligini ta'minlaydi. Aynan shunday insonlar tufayli, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari jamiyatning qadriyat yo'nalishlari bilan uyg'unlashadi.

Fuqarolik jamiyati nafaqat fuqaroviylik xususiyatlariga ega ongli fuqarolar vositasida, balki faol bo'lgan fuqarolar bilan barpo etiladi. Ko'pincha fuqaroviy faollik yoshlarda kuzatiladi. Albatta fuqaroviy faollikka ta'sir ko'rsatuvchi omil faqat yosh bilan chegaralanmaydi. Bilim darajasi, dunyoqarash, tarbiya va hatto yashash manzili ham bunga ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi – yoshlarda shaxs sifatida yuksak axloqiy fazilatlarini shakllantirishdan iboratdir. Axloq bo'lmasa inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi.

Yoshlarning qonunga itoatkorligi ularning yuksak huquqiy onglilik, jamiyat va davlat manfaatlarini chuqur tushunib yetib, ijtimoiy burch, davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyat tuyg'ularida namoyon bo'ladi. Yoshlar qonun me'yorlariga jazolanishdan qo'rqib emas, balki ixtiyoriy ravishda amal qilishlari zarur. Bu ularning ichki e'tiqodlariga aylanmog'i lozim. Qonunlarga rioya qilish odati chuqur anglangan ehtiyoj bo'lmog'i kerak. Buning uchun yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish lozimdir.

Huquqiy madaniyat belgilangan huquqiy me'yor va qonunlarga mos holdagi faoliyat, qarashlar majmui hamda uning madaniyatda ifodalanishidir. U madaniyatni huquqiy jihatdan kafolatlaydi, uning qonuniy asosi bo'lib xizmat qiladi. Huquqiy madaniyat qonunlarni madaniyat orqali ifodalanishi yoki madaniyatni qonunga mos namoyon bo'lishidir. Kuchli fuqarolik jamiyatiga erishish uchun fuqarolar (jumladan, yoshlar) o'z huquq va erkinliklari bilan birga burch va majburiyatlarini yaxshi bilishlari zarur. Zero, inson huquqlari va asosiy erkinliklari xalqaro huquqning yetakchi tamoyillari sirasiga kiradi¹.

Yoshlar huquqni bilsa, tasavvur qilsa-yu, ammo huquqiy ko'rsatmalarni ijro etishga passiv munosabatda bo'lsa, bu holat yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanmaganligini yaqqol ko'rsatadi. Shu bois, shaxs kamolotida huquqiy tarbiya vositalaridan keng va samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

¹ Pirnazarov G'.N. Faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashda huquqiy tarbiyaning o'rni // Zamonaviy ta'lim / Современное образование. 2016, №3. - B. 4-5.

Xullas, yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish zamonaviy huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning dolzarb vazifasi va talabidir. Talaba-yoshlarning huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish va ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda oliy ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil qilishda alohida e'tibor berish hamda o'tkaziladigan tadbirlarning hayotiyligi va ta'sirchanligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

13.2. Barkamol avlodni tarbiyalash – demokratik taraqqiyotning uzviy qismi

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "... farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratish..."¹ vazifalari izchil amalga oshirildi.

XX asrning so'ngi o'n yilliklarida sezila boshlagan va asrimiz boshlarida o'zini yanada yorqin namoyon qilayotgan tendensiyalar mohiyatidan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, mustaqil taraqqiyot barqarorligiga, jamiyatda demokratiya tamoyillarining chuqur o'rnatilib borishiga bevosita daxldor bo'lgan omillar soni nihoyatda ko'payib bormoqda. Shu bilan bir qatorda bunday omillarga nisbatan tom ma'nodagi yangicha yondashuvlar talab etilmoqda.

Zero, zamonaviy demokratiya tamoyillarining jamiyat sotsial-madaniy asoslari bilan uyg'unlashuvchi masalalari, jamiyat a'zolarining umumiy ijtimoiy-madaniy va ma'naviy darajasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni tobora oshirib bormoqda. Shu bois ham suveren davlatning barqaror taraqqiyoti, demokratiyaning uzluksiz rivojlanishi hamda uning istiqbollari jamiyat bag'rida mislsiz katta quvvatga ega bo'lgan sotsial, antropologik manbalarni tinimsiz ravishda shakllantirib borishni taqazo qilmoqda. Bu o'rinda asosiy fikr mamlakat aholisining sifat ko'rsatkichlarini muttasil ravishda rivojlantirib borish, mamlakat fuqarolarining demokratik yangilanishlarning to'la ma'nodagi tayanchiga, istiqbol sari yetaklab boradigan kuchiga aylantirib borish ustida bormoqda.

Sir emaski, dunyoda avvalgi davrlarda ham inson omili mustaqil demokratik taraqqiyot markazida turgan bo'lsa-da, oxir oqibatda demokratiya institutlari va umumiy qoidalariga bo'lgan e'tibor ustuvorlik qilar edi. Hozirgi vaqtda esa vaziyat butunlay o'zgardi. Hech qachon bugungi kundagidek demokratik taraqqiyot uchun inson omilining sifat ko'rsatkichlariga nisbatan kuchli talablar qo'yilmagan edi. Bunday holat yashab turgan davrimiz sharoitlari, jumladan, suveren davlatning xavfsiz taraqqiyotiga nisbatan xalqaro globallashuv bag'rida mavjud bo'lgan ayrim

¹ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. –T.: O'zbekiston, 2010. – B. 74-75.

salbiy tendensiyalar ta'siri hamda zamonaviy demokratiya mezonlarining kengayishi va inson omilining mohiyatida yashiringan potensial imkoniyatlarni harakatga keltirish, safarbar qilish vazifalari bilan izohlanadi.

Shu bois ham mustaqil demokratik taraqqiyotning institutsional asoslari bilan bir qatorda, uning sotsial imkoniyatlarini kuchli ravishda rivojlantirish, zamonning eng dolzarb talablaridan kelib chiqqan holda, demokratik yangilanishlar jarayonining xal qiluvchi ustuniga aylantirish orqaligina mustaqil demokratik taraqqiyotning kelajagini kafolatli ravishda ta'minlash mumkin bo'ladi.

Mazkur holatdan kelib chiqqanda, mamlakatimizda istiqlolning ilk kunlaridanoq o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, yurtimiz aholisining siyosiy, huquqiy madaniyatini, ma'naviyatini yuksak darajada shakllantirish vazifalarini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanganligi, mustaqil davlatchilikni amalga oshirishning, zamonaviy demokratiyani, jamiyat bag'rida chuqur qaror toptirishning eng oqilona yo'li sifatida e'tirof qilish lozimdir.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muxim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.

"Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi" deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi"¹.

Ma'lumki, mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, ma'naviy kamoloti bilan bog'liq izchil islohotlarning konseptual asoslari va huquqiy zaminlari bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan strategik g'oyalarda izchillik bilan rivojlantirilmoqda. Hozirgi kunda har tomonlama bilimli va vatanparvar bo'lgan, shuningdek, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan yoshlarni kamol toptirish davlatimiz siyosatining yetakchi yo'nalishiga aylandi.

Yurtimiz mustaqilligi e'lon qilingandan keyin o'tgan nihoyatda qisqa vaqt davomida qabul qilingan dastlabki qonunlardan biri aynan yoshlar masalasiga bag'ishlangan edi. 1991 yilning noyabr oyida O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan edi. Ushbu qonun mamlakatimiz yoshlarining siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy sohadagi keng qamrovli huquqlarini kafolatlab berishi bilan birga, barkamol avlod tarbiyasi uchun dastlabki va xal qiluvchi xuquqiy asoslarni belgilab berdi.

2016 yilning 14 sentyabrida mamlakatimiz yoshlari manfaatlarini har tomonlama ro'yobga chiqarish, yoshlar ravnaqining siyosiy-xuquqiy, ijtimoiy-madaniy va ma'naviy asoslarini yanada mustahkamlash va rivojlantirish borasida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosatning muhim samarasi sifatida O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi yangi qonuni qabul qilindi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild – T: "O'zbekiston", 2017 – B. 504-505

Ta’kidlash joizki, 4 bob, 33 modddan iborat bo’lgan mazkur qonun normalarida yoshlar manfaatlarini ro’yobga chiqarish, yoshlarning jamiyatning faol a’zosi bo’lishi, hususan, yuksak ilmiy salohiyatga erishishi uchun zarur bo’lgan barcha imkoniyatlarning huquqiy zaminlari mustahkamlandi.

Jumladan, qonunning “Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari” deb nomlangan 5-moddasida belgilab qo’yilganidek, “Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari quyidagilardan iborat:

Yoshlarning huquq erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini ta’minlash;

Yoshlarning hayoti va sog’lig’ini saqlash;

Yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va ahloqiy jihatdan kamol topishiga ko’maklashish;

Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash;

Yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish”¹.

Ta’kidlash joizki, davlatimiz rahbarining 2017 yilning 7-fevral kuni qabul qilingan Farmoni bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasida mamlakatimiz yoshlariga oid davlat siyosatining konseptual asoslari yanada rivojlantirildi va yoshlar manfaatlarini ro’yobga chiqarishning prinsipial jihatdan yangi bo’lgan innovatsion asoslari belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoniga 1-ilovaning “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” deb nomlanuvchi bo‘limida quyidagi muhim vazifalar o‘zining chuqur ifodasini topdi: “Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jaryonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

O‘rta maxsus kasb-hunar va Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

Yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro’yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish...”²

E’tirof qilib o’tish joizki, Harakatlar strategiyasining zaminida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan bir qatorda, jamiyatimizda faoliyat yurituvchi turli tashkilotlar, jumladan, barcha turdagi ta’lim muassasalari, madaniyat, sport, iqtisodiy va ijtimoiy soha tuzilmalari, shuningdek, yoshlar ittifoqi va boshqa soha vakillarining keng qamrovli kompleks ishtiroki nazarda tutilgandir.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Haraqatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g’oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi asosida joriy yilda mamlakatimizda yoshlar siyosatini amalga oshirishning sifat jihatidan yangi yo’nalishlari ro’yobga chiqarilmoqda. Bu o‘rinda dasturda birinchi

¹ O‘zbekiston Respublikasining Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi Qonuni / Xalq so‘zi 2016 yil 15 sentabr.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – T.: “Adolat”, 2017 – B. 26.

navbatda yoshlarning huquqiy madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirish vazifalariga yetakchi e'tibor qaratilgan.

Xususan, "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" Davlat dasturida mamlakatimiz yoshlarining intellektual, ilmiy salohiyatini yuksaltirishga oid keng qamrovli yangi vazifalar belgilandi. Jumladan, yoshlarning innovatsion va ilmiy faoliyatini davlat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanishi, "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi va "Fan to'g'risida"gi O'zbekistonning yangi qonunlarini qabul qilish asosida yoshlarning har tomonlama yuksak darajada kamol topishi uchun eng zamonaviy imkoniyatlar ochib berilmoqda. Bunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Barkamol avlodgina buyuk davlat qura oladi" degan g'oyasi yoshlarimizni jamiyatning eng ishonchli tayanchi va suyanchi etib tarbiyalash, ularda dunyoning hech bir mamlakati yoshlaridan qolishmaydigan salohiyatni shakllantirilishida yetakchi asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Darhaqiqat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanishlar jarayonining hozirgi bosqichida, zamonamizning eng ilg'or fan va texnologiyalar yutuqlaridan foydalanishga qodir bo'lgan yangi avlod qadrlarni tarbiyalab yetishtirish uchun mamlakatimiz ta'lim tizimini misli ko'rilmagan yuqori darajaga olib chiqish jamiyatimiz uchun ob'ektiv zaruratga aylandi. Ta'kidlash joizki, insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida hayotni tashkil etishning vositalari, manbalari, uslublari ham nihoyatda o'zgarib bormoqda. Odamlar hayotini farovon qilishning yangi omillari o'zini yanada yorqin namoyon qilmoqda. Mazkur omillarni o'z vaqtida anglab yetgan, ulardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini ko'ra olgan mamlakatlarga davr talablari bilan xamnafas bo'la olishi va o'z istiqbolini belgilay olishi mumkin bo'lmoqda. Mana shunday muhim omillardan biri bu jamiyat yoshlarining intellektual salohiyati bilan bog'liqdir. Ushbu masala bugungi kunda butun dunyo mamlakatlarining diqqat markazida bo'lib turgani ham bejis emas.

Zero, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular ikki milliard kishini tashkil etmoqda.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq"¹.

Hozirgi kunda intellektual jihatdan yetuk va ijodiy salohiyatli hamda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan yoshlarni tarbiya qilish borasida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, yoshlarning hayotiy muammolarini hal qilish, terrorizm va ekstremizm g'oyalari ta'siri tushib qolishining oldini olish, birinchi navbatda, yoshlarning huquqiy madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirish orqali ularning ongi uchun kurashish ustuvor vazifa etib belgilanmoqda.

"Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini

¹ Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutq // Xalq so'zi, 2017, 20 sentabr.

qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq yoshlarning huquqiy madaniyatini yanada oshirish, ularda innovatsion tafakkur va milliy g‘oyaga sodiqlik ruhini kuchaytirish masalalari davlatimizni yanada taraqqiy ettirishning ustuvor vazifalari sifatida kun tartibiga ko‘tarilmoqda.

Bu jarayonlarda mamlakatimiz yoshlarini bunyodkor g‘oyalar atrofida birlashtirgan O‘zbekiston yoshlar ittifoqi muhim o‘ringa ega bo‘lmoqda. 2017 yildan buyon O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilgan kun – 30 iyun sanasini mamlakatimizda **Yoshlar kuni** sifatida keng nishonlanmoqda. Yoshlar o‘rtasida kitobxonlik saviyasini oshirish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida har yili **“Eng kitobxon maktab”, “Eng kitobxon mahalla”, “Eng kitobxon oila”** kabi yo‘nalishlarda tanlovlar o‘tkazilib, respublika yakuniy bosqichi g‘oliblari qimmatbaho sovg‘alar taqdirlanmoqda, tanlovning mutlaq g‘olibiga yurtimizda ishlab chiqarilgan avtomobil mukofot tariqasida berilmoqda.

Mamlakatimizning har bir tuman va shaharida O‘zbekiston yoshlar ittifoqiga qarashli, barcha qulayliklarga ega bo‘lgan kutubxona va kitob do‘konini ham o‘z ichiga olgan Yoshlar markazlarini barpo etilib, samarali faoliyat yuritmoqda. Yurtimizda unib-o‘sib kelayotgan yosh o‘g‘il-qizlarni buyuk ajdodlarimizga munosib avlod etib tarbiyalashda Temurbeklar harbiy litseylari, Muhammad Xorazmiy va Mirzo Ulug‘bek maktablari, atoqli adiblarimiz nomidagi ijod maktablari muhim rol o‘ynamoqda.

Yurtimiz yoshlari orasida hayotimizning barcha jabhalarida jonbozlik ko‘rsatib kelayotganlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Aynan shundan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish davlatimiz e‘tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Ayni vaqtda halol va samarali mehnati, ilmiy-ijodiy yutuqlari, Vatanga sadoqatli xizmati bilan barchaga o‘rnak bo‘layotgan, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda, o‘qishda, mehnatda, jamoat ishlarida har tomonlama faol bo‘lgan yigit-qizlarni taqdirlash maqsadida **“Kelajak bunyodkori”** medali, turli soha va tarmoqlarda katta natijalarga erishib kelayotgan yigitlar uchun **“Mard o‘g‘lonlar”** deb nomlangan Davlat mukofotini ta’ sis etildi.

Shu o‘rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev alohida ta’kidlaganidek, “Sizlarga yaxshi ma’lum, hozirgi vaqtda yurtimizda **“Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”** degan shior keng tarqalib, hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Lekin O‘zbekistonimizning mana shunday yorug‘ va farovon istiqbolini bunyod etishdek mas’uliyatli vazifani kim o‘z zimmasiga oladi?

Albatta, faqat zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, doimo el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashaydigan siz, aziz yoshlarimiz maydonga dadil chiqib, bugungi kunda hayotning o‘zi oldimizga qo‘yayotgan vazifalarni hal etishga qodirsiz”.¹

Ta’kidlash joizki, Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha belgilangan kompleks tadbirlarni amalga oshirish doirasida, birinchi navbatda, yoshlar uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, yosh tadbirkorlarga, ayniqsa, qizlarimizga hunarmandlik bilan shug‘ullanishlari uchun kreditlar ajratish, ularni

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 2018. – B. 537.

kasbga tayyorlash va malakasini oshirish, fermerlikni qo'llab-quvvatlash, yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, ularni sog'lomlashtirish va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim qadamlar qo'yilmoqda. Faqat bir yil davomida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tavsiyasi bilan 4 ming 300 ga yaqin yigit-qizlarimizga banklar tomonidan 216 milliard so'm imtiyozli kreditlar berilgani, 184 mingdan ziyod farzandlarimiz ish bilan ta'minlangani e'tiborga loyiq¹.

Yoshlarni har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishida ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilgan ulkan o'zgarishlar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, xalq bilan muloqot natijalari bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalarining zamonaviy tizimi yaratilmoqda, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim qayta tiklandi, oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishning shaffof mexanizmlari joriy etildi va kvotalar jiddiy ravishda oshirildi. Oliy ta'lim tizimida yangi, zamonaviy ta'lim muassasalari, jumladan, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimi xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi.

So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalariga kirish istagida bo'lgan abituriyentlar soni keskin ortib bormoqda. Yildan-yilga o'sish o'rtacha 10 foizni tashkil etib, 2016 yilda 663 ming, 2017 yilda 729 ming nafardan ziyod abituriyent oliy ta'lim muassasalariga hujjat topshirgan.²

O'tgan bir yil mobaynida mamlakatimiz yoshlaridan 266 nafari respublika, 80 nafari xalqaro fan olimpiadalari g'oliblari bo'lgani, sportchilarimizdan 12 nafari jahon, 93 nafari Osiyo chempionatlarida, 150 nafardan ziyodi xalqaro musobaqalarda yuksak shohsupalarga ko'tarilgani yoshlarga oid davlat siyosatining dastlabki natijalaridir.

Jahon ta'lim sohasida milliy ta'lim tizimlarining sifati, jozibadorligi va raqobatbardoshligining oshib borishida yoshlar diplomatiyasi va xalqaro ilmiy va ta'lim hamkorligini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Chunki, yoshlar diplomatiyasi – xalqaro munosabatlar va tashqi siyosatning yangi shakli, davlatning xorijiy mamlakatlarda va butun jahonda ijobiy imijini shakllantirishning samarali vositasi va har qanday davlatning xalq diplomatiyasining tarkibiy qismi sifatida muhim o'rin egallashiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarni bunday hamkorlikka jalb etish davlat imijini rivojlantirishga ijobiy ta'sir etadi. Bugungi kunda Yurtboshimiz tomonidan olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati tashqi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion va texnologik rivojlanish va hamkorlik uchun muhim manba hisoblanadi³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to'g'risida”gi Farmoni mamlakatimiz yoshlarining bor salohiyatini ro'yobga chiqarish, jamiyatimizga samarali ijtimoiylashuvini ta'minlash yo'lidagi navbatdagi qadam bo'ldi.

Farmon bilan **“Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi** tasdiqlandi. Mazkur huquqiy hujjat joylarda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga, ularni

¹ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigi. 30.06.2018. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-yeshlariga-bayram-tabrigi-30-06-2018>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida”gi qarori // “Xalq so'zi” gazetasi. 2017 yil 17 noyabr.

³ Kasimova Z.G'. Xalqaro maydonda O'zbekiston yangi ijobiy imijining shakllanish jarayonlari va istiqbollari // Yangi O'zbekistonning iste'dodli yoshlari. – T.: Ta'lim nashriyoti, 2020. – B. 266.

tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga, shuningdek, shu asosda yoshlar bandligini ta'minlash, band bo'lmagan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko'nikmalariga o'qitish, shuningdek, umuman yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali ularning bandligini ta'minlashga, ularni amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan muammolarni hal etishga qaratilgan¹.

Davlat dasturining maqsadi yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish va qo'llab-quvvatlash, band bo'lmagan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko'nikmalariga o'qitish, shuningdek, umuman yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali ularning bandligini ta'minlashdan iborat.

Donolardan qolgan naql bor: "Yurtingiz yoshlarini ko'rsating, men mamlakatingiz kelajagi qanday bo'lishini aytib beraman". Yoshlar ertangi kunimiz egalaridir. Ularning iste'dodi, qobiliyati va intilishlari nafaqat o'z oilasi, ustozlari, tug'ilib o'sayotgan shahar yoki qishlog'i, balki butun mamlakat va xalq farovonligi uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligi barchamizga ma'lumdir. Shu boisdan, yurtimizda o'g'il-qizlarimiz ta'lim-tarbiyasiga va ularning iqtidorlarini ro'yobga chiqarishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Albatta, har bir yangi ishni boshlash alohida tizim va tuzilmalarni yaratishni talab qiladi. Shuning uchun yangi Davlat dasturida yoshlar uchun har jihatdan qulay tashkiliy tuzilmalarni yaratish masalasiga ham jiddiy yondashilgan. "Yosh tadbirkorlar" kovorking-markazlari va "Yoshlar mehnat guzari" komplekslarini qurish masalasi aynan mana shu maqsadlarga xizmat qiladi. Bu yangi intellektual mazmunda ish olib boruvchi tuzilmalarni shakllantirish va faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun barcha zaruriy tashkiliy masalalarni hal qilishda asosiy mas'uliyatni davlat zimmasiga yuklatilishi va joylarda xususiy tadbirkorlik sub'ektlari imkoniyatlari va imtiyozlaridan samarali foydalanish masalasi belgilab berilganki, bu talab joylardagi ayrim rahbarlarni boqibeg'amlik va loqaydlik kayfiyatidan chiqarishga turtki bo'lsa, ajab emas.

"Farzandlarimiz tarbiyasi, yurish-turishidan har kuni ogoh bo'lmasak, ilmu-hunarga o'rgatmasak, ularning qo'li mehnatda qotmasa, munosib ish topib bermasak, yoshlarni zararli ta'sirlardan himoya qilish qiyin bo'ladi", deydi, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Ta'kidlash kerakki, ushbu Dastur har bir oilaga manzilli kirib borish yo'li bilan hozirgacha ham tadbirkorlik harakatiga qo'shilishda qiynalib, yordamga muxtoj bo'lib turgan yigit-qizlarga yaqindan ko'maklashishni ko'zda tutgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, mazkur Dastur kelgusida yoshlarning tadbirkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlashda, yoshlarni biznes bilan shug'ullanishga faol jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratishda, ish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni // "Xalq so'zi" gazetasi. 2018 yil 28 iyun.

o‘rinlarining sonini oshirishda va yoshlar bandligini ta‘minlashda huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda *“Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi”* degan g‘oya asosida aholi, ayniqsa, yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, oilaviy biznes va kasanachilik, tomorqa xo‘jaligini rivojlantirish uchun yangi imkoniyat va preferensiyalar yaratib berish, banklar tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish, tegishli tashkilotlar orqali zarur resurslar yetkazib berish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Xalqimizning milliy xususiyati va o‘ziga xosligi – oilaparvarligi va bolajonligi bois, farzandlarimiz baxtu iqboli hayotimiz mazmuni va maqsadiga aylangan.

“Ma‘naviyat – eng ta‘sirchan va qudratli qurolimiz” degan tamoyilga muvofiq yoshlar o‘rtasida kitobxonlik, jumladan, elektron kitobxonlikni rivojlantirish, ijodkor ziyolilarning mehnatini munosib rag‘batlantirilmokda va ularning yutuqlari targ‘ib etilmoqda.

Fuqarolik jamiyati qurish islohotlarining hozirgi bosqichida O‘zbekiston yoshlari alohida ijtimoiy qatlam, faol ijtimoiy-siyosiy kuch, hozirgi avlod davomchilari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Davlatimizning yoshlarga oid siyosati amalda o‘zini namoyon qilish davrining boshlanishi natijasi o‘laroq yoshlarda o‘z atrofida kechayotgan hodisalarni mustaqil baholaydigan, har qanday shart-sharoitlarda o‘zining pozitsiyasiga ega bo‘lgan yangi sifatlar va fazilatlar shakllanmoqda. Yoshlar o‘rtasida jonlanish, ijtimoiy va siyosiy voqeliklarga befarqlik bilan qaramaslik, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga intilishlar ko‘zga tashlanmoqda. Zero, bu hozirgi fuqarolik jamiyati qurish islohotlarining o‘zining qizg‘in pallasiga kirganligi bilan izohlanadi.

2019 yil 19 mart kuni davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarimizga bo‘lgan e‘tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga alohida e‘tibor berilib, ushbu yo‘nalishlarda aholi va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun besh muhim tashabbus ilgari surildi. Ular quydagilar:

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san‘atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste‘dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To‘rtinchi tashabbus yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash masalalarini nazarda tutadi.

Ushbu tashabbusning amaliy ifodasi sifatida Prezidentning 2019 yilda Sirdaryo hamda Namangan viloyatlariga qilgan amaliy tashrifi davomida mazkur hududlardagi tuman va shahar kutubxonalariga bir necha yuz ming nusxada badiiy adabiyotlar

yetkazib berildi. “Ma’rifat karvoni” tashkil etildi. Yoshlar uchun 25 ming dona kitob, 80 turdagi sport jihozlari va musiqa asboblari yetkazib berildi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek: “biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. ...

Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi”¹.

Mamlakatimizda yosh avlod ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish, yoshlarning ma’naviy kamoloti bilan bog‘liq islohotlar bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalarda izchillik bilan rivojlantirilmoqda.

13.3. Yoshlar siyosati: xalqaro tajriba va milliy amaliyot

Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi zamonaviy jamiyatning asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. Chunki yoshlar mamlakat kelajagini belgilab beruvchi, jamiyatning safarbar etiluvchi resursdir.

Yoshlar va yoshlar siyosatini o‘rganish azaliy an‘analarga ega bo‘lib, kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida uning nazariy asoslari yaratildi. Turli davrlarda mutafakkirlar yoshlar bilan ishlashning turli xil yondashuvlarini ishlab chiqishgan. Qadimgi yunon polislari davrida Aflotun va Arastu kabi mutafakkir olimlar kelajak avlod uchun vatanparvarlik tarbiyasi zarurligi haqida gapirishgan. Ular yosh avlodni faol turmush tarziga o‘rgatish va tanishtirishning o‘ziga xos usullarini taklif qildilar va shu bilan yoshlar siyosatini amalga oshirishning nazariy asoslarini yaratdilar. Yunonistonning shahar-davlatlarida faylasuflar o‘rtasida yoshlar kim, siyosiy hayotda ularning ahamiyati qanday ekanligi to‘g‘risida qizg‘in bahs-munozaralar bo‘lib o‘tgani bejiz emas.

Arastuning ta’kidlashicha, “qonun chiqaruvchilar yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor bilan munosabatda bo‘lishi zarurligiga hech kim shubha qilmaydi, chunki aks holda davlat tizimining o‘zi zarar ko‘radi”². Kelgusida ushbu qoida yosh avlod bilan muloqot qilishda davlat siyosatining zaruriy elementiga aylanadi.

XX asr oxiri – XXI asr boshlari globallashuvning chuqurlashishi, dunyo davlatlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy sohalaridagi o‘zaro bog‘liqligining o‘sishi bilan ajralib turdi. Globallashuv yoshlarga eng katta ta’sir ko‘rsatadi. “Singapur iqtisodiy mo‘jizasi”ning yaratuvchisi Li Kuan Yu ta’kidlaganidek: “So‘nggi bir necha yil ichida amalga oshirilgan tezkor texnologik yutuqlar globallashuv jarayonini ancha tezlashtirdi. Internet kabi telekommunikatsiya va axborot texnologiyalari sohasidagi kvant sakrashlari bilan dunyo yanada yaqinlashdi. Jismoniy masofa, vaqt farqi va milliy chegaralar endi axborotning erkin harakatlanishi uchun to’siq bo‘lmay qoldi ... Odamlar zamonaviy texnologiyalar bilan hamqadam bo‘lishlari kerak, lekin hech qachon o‘zlarining asosiy qadriyatlarini yo‘qotmasliklari kerak. Ilm-fan va texnologiyalar kelajakdagi taraqqiyotni aniqlashda

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2020 yil 25 yanvar.

² Политика / Аристотель. – М.: РИПОЛ, Классик, 2016. - С. 474.

hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ammo ular oilalarni vayron qilishiga yo'l qo'ymaslik kerak, sababi oilalar bolalarni jamiyat oldidagi kuchli mas'uliyatini his qilishga tarbiyalashi kerak..."¹.

Hozirgi "axborot inqilobi" davrida keskin kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlari sharoitida olimlar yangi avlod yoshlarini Z avlod sifatida tavsifladilar. Aholining eng faol massasi raqamli avlod (Z avlodining ikkinchi nomi) deb ataladi, uning asosiy hujayrasi "raqamli shaxs"dir. Yangi davrning yetakchi xususiyati – bu insonni yuqori texnologiyalar dunyosida hayotga moslashtirish zarurati. Agar otabobolarimiz faqat yangi texnologiyalarni orzu qilgan bo'lsa, unda zamondoshlar uchun ular nafaqat yangi istiqbollarni, balki jiddiy muammolarni ham olib keladigan odatiy holga aylandi.

Sir emaski, zamonaviy yosh avlod dunyoda axborot texnologiyalari rivojidan kelib chiqayotgan keng imkoniyatlar sharoitida ulg'yamoqda². Xalqaro munosabatlarning tobora chuqurlashib borayotgan globallashuvi ijtimoiy va siyosiy hayotning turli sohalarida, xususan, yoshlar siyosatida xalqaro huquqning yagona mezonini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Ilm-fanda "yoshlar" tushuncha turlicha ta'riflanadi. Yoshlarga g'amxo'rlik qilish va yoshlar siyosatini yanada rivojlantirish Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Statistik maqsadlarda BMT yoshlarni 15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan shaxslar deb tushunadi.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqi davlatlarida aholining 16 yoshdan 30 yoshgacha (ba'zan 35 yoshgacha) bo'lgan vakillariga yoshlar sifatida qaraladi. YUNESKO esa 17 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlarni yoshlar sirasiga kiritadi. Aksariyat MDH davlatlarida esa (jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham) 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar yoshlar hisoblanadi. Bugungi kunga kelib yoshlarga oid siyosat yuritish, bu borada muayyan siyosiy institutlar, jamoat tashkilotlarining faoliyat olib borishi ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar qonunchiligida salmoqli o'rin tutadi.

Bugungi kunda zamonaviy muammo va tahdidlarni yosh avlodning faol ishtirokisiz hal qilish mumkin emas. Ularni zamonaviy ko'nikmalar bilan qurollantirish, tashabbuslarni rag'batlantirish kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu masala har doim BMTning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib kelgan.

Yoshlar siyosati BMT tomonidan qabul qilingan xalqaro-huquqiy hujjatlarda asoslanadi. Masalaning dolzarbligi shundaki, dunyoni qamrab olayotgan globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi va undan kelib chiqayotgan xavf-xatarlarni yoshlar ishtirokisiz hal etib bo'lmazligi e'tiboridan aynan bu masala jahon hamjamiyatining, xususan BMTning ham ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Turli yillarda BMT va uning organlari yoshlar siyosati muammolari bo'yicha bir qator kontseptual va me'yoriy hujjatlarni qabul qildilar. Ular quyidagilardan iborat: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948), BMT Bosh Assambleyasining "Yoshlar o'rtasida tinchlik g'oyalari, millatlararo o'zaro hurmat va tushunishni

¹ Сингапурское чудо: Ли Куан Ю. – М.: АСТ, 2016. – С. 157-158.

² Павлов В.А., Петров В.Р. Особенности трансформации молодежного сознания в XXI веке // Современные вызовы и тенденции развития местного самоуправления: Материалы X Всероссийской научно-практической конференции. – Чебоксары: Чебоксарский филиал РАНХиГС, 2019. - С. 55.

targ'ib etish to'g'risida"gi 2037 (XX)-sonli deklaratsiyasi (1965), BMT Bosh Assambleyasining "Birlashgan Millatlar Tashkiloti va yoshlar va yoshlar tashkilotlari o'rtasidagi aloqa kanallari" 36/17 sonli resolyutsiyasi (1981), BMT Bosh Assambleyasining "Birlashgan Millatlar Tashkilotining voyaga etmaganlar o'rtasida huquqbuzarlikni oldini olish bo'yicha ko'rsatmalari (Ar-Riyod ko'rsatmalari)" 45/112-sonli resolyutsiyasi (1990), BMT Bosh Assambleyasining tavsiyalari "Birlashgan Millatlar Tashkilotining voyaga etmaganlar uchun odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha minimal standart qoidalari (Pekin qoidalari)" (1985), Yoshlarining Braga harakat rejasi (1999).

1999 yilda BMT Bosh Assambleyasi "A / RES 54120" rezolyutsiyasida 12 avgustni Xalqaro yoshlar kuni deb e'lon qilish bo'yicha yoshlar ishlari bo'yicha jahon mamlakatlari vazirlari konferentsiyasining (Lissabon, 1998) tavsiyasini qo'llab-quvvatladi¹.

1995 yilda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan "Yoshlar bo'yicha umumjahon harakatlar dasturi" qabul qilindi. Ushbu dastur har bir mamlakat miqyosida tegishli chora-tadbirlar ko'rilishi, butun dunyoda yoshlar sharoiti, holatini yaxshilashga qaratilgan xalqaro loyiha va dasturlarning amalga oshirilishi uchun mustahkam zamin va yo'l-yo'riqlarni ta'minlab berdi. BMT tizimi barcha mamlakatlarni bolalar va yoshlarga sarmoya ajratishga chorlaydi. Qolaversa, BMT mamlakat hukumatlariga tegishli siyosat, loyiha va dasturlarni ishlab chiqishga va amalga oshirishga yordam beradi. Dunyoning har bir mamlakatida BMT agentliklari bolalar va yoshlar holatini tahlil qilib boradi, muayan sohalarga mablag' ajratilishi lozimligi haqida jamoatchilikni xabardor qilib boradi, barcha mamlakatlar qo'llashi mumkin bo'lgan samarali strategiyalarni yig'ib, ularni targ'ib qilishga intiladi.

Yoshlarga oid davlat shakllanishi va tarixi XX asrning ikkinchi yarmida BMT tomonidan yoshlar ijtimoiy qatlamiga bo'lgan munosabatning yangicha prinsiplarini belgilab berilgan qator hujjatlar qabul qilinishi bilan uzviy bog'liqdir. 1965 yilda BMT Bosh Assambleyasining "Yoshlar o'rtasida tinchlik g'oyalari, millatlararo o'zaro hurmat va tushunishni targ'ib etish to'g'risidagi Deklaratsiya"si e'lon qilinishi bilan yoshlarning ijtimoiy muammolari tashkilot e'tibor markazidagi vazifaga aylandi. YUNESKO yo'nalishida yoshlar muammolariga daxldor yuzdan ortiq hujjatlar qabul qilindi. Aynan YUNESKO tashabbusi bilan 1985 yildan Yoshlar masalalari butunjahon kongressi faoliyat ko'rsata boshladi va shu yil BMT tomonidan "Xalqaro yoshlar yili" deb e'lon qilindi.

Xalqaro huquqiy aktlar asosida O'zbekistonda 2008 yil 7 yanvarda "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunning 10-moddasida bolalarning erkinlik va daxlsizlik huquqini himoyalashga doir quyidagi huquqiy asoslar belgilandi:

"Har bir bola erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, turar joyi daxlsizligi va xat-xabarlarini sir tutish huquqiga ega.

Har bir bola o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g'ayriqonuniy aralashuvlardan himoyalanih huquqiga ega.

¹ Тарцан В.Н. Международный опыт в сфере реализации молодежной политики // Социально-гуманитарные знания. - 2010. - №4. - С. 323-324.

Bola qonunga asoslanmagan holda ushlab turilishi, hibsga olinishi, qamoqqa olinishi mumkin emas.

Davlat bolaning shaxsi, turar joyi daxlsizligini, xat-xabarlari sir tutilishini ta'minlaydi hamda bolani ekspluatatsiyaning barcha shakllaridan, shu jumladan jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlikdan, qiynoqqa solishlardan yoki shafqatsiz, qo'pol yoxud inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shakldagi muomaladan, shahvoniy shilqimliklardan, jinoiy faoliyatga, fohishalik bilan shug'ullanishga jalb etilishdan himoya qilishni amalga oshiradi"¹.

2004 yildan buyon har yili BMT Bosh kotibi Xalqaro Yoshlar kuni (12 avgust) munosabati bilan dunyo yoshlariga murojaatini yo'llamoqda. 2004 yildagi murojaatnoma demografiya va dunyo aholisidagi yosh avlodning ulushi kamayishi masalalariga bag'ishlangan. 2007 yilda - yoshlarning taraqqiyotdagi ishtiroki masalasiga², 2008 yilda – “Barqarorlik - bu bizning vazifamiz, bizning kelajagimiz” g'oyasini amalga oshirish, 2018 yilda - yoshlar bilan hamkorlikda va ularning manfaatlari yo'lida BMT faoliyatini faollashtirish bo'yicha yangi “Yoshlar 2030” strategiyasini amalga oshirilish³, 2019 yilda – zamonaviy sharoitlarda ta'lim tizimining inklyuzivligi, imkoniyatlilik va dolzarbligi darajasini oshirish uchun isloh etish kabi masalalarga asosiy e'tibor qaratilgan⁴.

Bugungi kunda zamonaviy muammo va tahdidlarga qarshi kurashish “innovatsion yondashuvlarga ega” yosh avlodning faol ishtirokisiz mumkin emas. Shu bois yoshlarni zamonaviy ko'nikmalar bilan qurollantirish, tashabbuslarni rag'batlantirish zarurati ortmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi raisi M.Laychak ta'kidlab o'tganidek: “Bugungi kunda dunyoda misli ko'rilmagan - 1,8 milliard nafar yoshlar yashamoqda, ular hali ham ko'plab to'siqlarga duch kelmoqdalar. Ularning 70 milliondan ortig'i ishsiz. Ammo muammo nafaqat ish joylarining etishmasligida, balki ishlaydigan yoshlarning qariyb 40 foizi o'ta qashshoqlikda yashaydi”⁵.

Dinamik iqtisodiy o'sish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish sharoitida 2018 yilda BMT yoshlar bilan hamkorlikni kengaytirish, ularga ta'sir ko'rsatadigan va ularning manfaatlari yo'lidagi qarorlarni qabul qilishda konstruktiv ishtirok etish uchun sharoit yaratishga qaratilgan yangi “Yoshlar 2030” strategiyasini boshladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrishning yoshlarga yo'llagan murojaatida ta'kidlanganidek, “Yoshlar xavfsizligi – jamoat, fuqarolik, jismoniy va raqamli makonlarda xavfsizlik, ular yordamida yoshlar o'z fikrlarini bildirishlari va o'z orzulariga ergashishlari mumkin.

¹ O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 yil, 1-2-son, 1-modda.

² UN YOUTH FLASH. <https://www.un.org/esa/socdev/unyin/documents/flashv4no3.pdf>

³ Secretary-Generals message on the occasion of International Youth Day. 12.07.2018.

<https://www.un.org/sg/ru/content/sg/statement/2018-08-12/secretary-generals-mesage-international-youth-day>

⁴ Secretary-Generals message on the occasion of International Youth Day. 12.07.2019.

<https://www.un.org/sg/ru/content/sg/statement/2019-08-12/secretary-generals-message-international-youth-day>

⁵ Молодежная политика Узбекистана представлена в ООН. 01.02.2018. <https://www.un.int/uzbekistan/news/молодежная-политика-узбекистана-представлена-в-оон>

Biz yoshlarning bilim olishlari, kasb-hunar ta'limi olishlari va munosib ish joylariga ega bo'lishlari va shu bilan o'z imkoniyatlarini to'liq ishga solishlari uchun harakat qilishimiz kerak.”¹

Yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarurati rivojlangan davlatlar tomonidan azaldan e'tirof etilgan. Jahonning ko'plab davlatlari o'tgan asrning 50-yillari oxiri - 60-yillari boshlarida yoshlarga nisbatan izchil va maqsadli siyosat yuritishni boshladilar. Yoshlar siyosatini amalga oshirish – bu zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda “yoshlar omili” rolining doimiy ravishda kuchayib borishi bilan bog'liq dunyo taraqqiyotining zamonaviy bosqichining ob'ektiv qonuniyatlaridan biridir. Jahonning 130 dan ortiq davlatlarida yoshlarni rivojlantirish va ijtimoiy himoya qilish bo'yicha maxsus qonun hujjatlari qabul qilingan, 90 ga yaqin mamlakatlarda davlat hokimiyatining eng yuqori darajasida yoshlar bilan ishlash organlari va tuzilmalari mavjud bo'lib, ular bevosita yoshlarga oid davlat siyosatini ishlab chiqadilar va muvofiqlashtiradilar.

Jahonda har jabhada globallashuv chuqurlashayotgan hozirgi davrda yoshlar taraqqiyotning yetakchi kuchi sifatida oldinga chiqmoqda. Yoshlar bugun va kelajak bog'liqligini ta'minlovchi, milliy o'ziga xoslikni saqlab qoluvchi muhim omilga aylanmoqda.

U yoki bu mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini olib borilishiga ko'ra ikki, ya'ni Yevropa va anglosakson modellari ajratib ko'rsatiladi. Yevropa modeli yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlatning yetakchi rolga asoslanib, ushbu siyosatning ustuvor yo'nalishlari, maqsad, vazifa va kutilajak natijalari aniq belgilab olinadi. Anglosakson modelga ko'ra, yoshlar siyosatini amalga oshirishda davlat organlarining tizimli ishtiroki kuzatilmaydi, unga yoshlar tashkilotlarining ko'ngilli va erkin ishtiroki xos bo'lib, ularning faoliyati davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Hozirgi dunyoda yoshlar katta hayotga qadam qo'yayotganda hayotga moslashish bilan bog'liq muayyan qiyinchiliklarga duch keladi. Shuning uchun ko'plab rivojlangan mamlakatlarda yoshlar siyosati yosh avlodning mojarolarsiz ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish maqsadini ko'zlaydi. Yoshlar shartli ravishda “to'g'ridan-to'g'ri yoshlar” (14-18 yosh) va “yosh kattalar” (18-27 yosh)ga bo'linadi, bu esa faoliyatni aniqroq hal qilishga imkon beradi. Deyarli barcha davlatlarda yosh avlodning shakllanishi ta'lim olish, kasbni egallash, axloqiy va fuqarolik, vatanparvarlik tarbiyasi, jismoniy salomatlikni mustahkamlash kabi jihatlarni o'z ichiga oladi².

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bolalar huquqini himoya qilish huquqiy asoslarini rivojlanishi asnosida bolalar va yoshlar huquqlarini kafolatlash davri boshlandi. Bu davrdan boshlab qator rivojlangan davlatlarda yoshlar huquqini himoyalash, yoshlarga doir davlat siyosatlari rivojlanib, ular hayotda qo'llana boshladi. Xususan, Fransiyada yoshlar siyosati Yoshlar, sport va ijtimoiy tashkilotlar bilan ishlash vazirligi tomonidan amalga oshirilib, unga ta'lim, madaniyat va

¹ Secretary-Generals message on the occasion of International Youth Day. 12.07.2018.

<https://www.un.org/sg/ru/content/sg/statement/2018-08-12/secretary-generals-mesage-international-youth-day>

² Тарцан В.Н. Международный опыт в сфере реализации молодежной политики // Социально-гуманитарные знания. - 2010. - №4. - С. 326.

kommunikatsiya hamda bandlik bo'yicha tegishli vazirliklar ko'maklashadi. Fransiyada ishsiz aholining ko'pchiligini yoshlar tashkil etganligi bois, ushbu muammolarni hal etish maqsadida "Yangi xizmatlar, yangi ish o'rinlari" davlat dasturi joriy qilingan. Shuningdek, yoshlarning huquqlarini himoya qilish uchun "Imkoniyatlar tengligi to'g'risida"gi qonun qabul qilingan bo'lib, ushbu qonun mamlakatdagi xususiy korxona va tashkilotlarga yoshlarni ishga qabul qilish bo'yicha qo'shimcha vazifalar yuklaydi. Bundan tashqari, Fransiyada madaniyat sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish borasida ham ko'pgina ishlar qilinmoqda.

AQShning yoshlar borasidagi davlat siyosati o'ziga xosligi, ya'ni, mazkur siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda bevosita yoshlarning o'zlari ishtirok etishi bilan boshqa mamlakatlardan ajralib turadi. Hozirgi kunda Amerika yoshlari orasida narkotik moddalar iste'moli, jinoyatchilik va irqchilik bilan bog'liq muammolar avj olgan. Shundan kelib chiqib, ushbu muammolarni hal etishga qaratilgan ko'pgina qonunlar qabul qilinib, amalga tatbiq qilingan. Ayni paytda AQShda yoshlarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish yuzasidan 400 dan ortiq dasturlar ishlab chiqilgan. Shundan eng ko'p a'zolarga ega bo'lganlari "Yoshlarni himoyalash ligasi", "Talabalar ocharchilikka qarshi", "Tashqariga nazar", "Yordam" ("Help") hamda Qutqaruv armiyasi kabilar hisoblanadi. Mazkur harakatlar AQShning barcha kasb-hunar o'quv muassasalaridagi yoshlarni qamrab olgan. AQShda "Yoshlar siyosati konsepsiyasi"ni amalga oshirishda davlatning roli birmuncha oz bo'lib, bu jarayonga, asosan, xususiy tashkilotlar keng jalb qilingan. Davlat yordami ijtimoiy himoyaga o'ta muhtoj bo'lgan yoshlarga qat'iy chegaralangan miqdorda ko'rsatiladi. AQShda yoshlar siyosati davlat idoralarining alohida bir faoliyat sohasi hisoblanmaydi, yoshlar muammolari yuzasidan bir necha vazirliklar ish olib borishadi. Jumladan, Mehnat vazirligi yoshlarning bandligi, Adliya vazirligi jinoyatchilik, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot vazirligi esa yoshlar hamda o'smirlarning sog'ligi borasidagi muammolar bilan shug'ullanishadi. Yoshlar bilan ishlashda siyosiy tashkilotlar, sport muassasalari hamda diniy tashkilotlarning o'rnini ham baland. "Yosh respublikachilar" milliy federatsiyasi hamda "Amerikaning yosh demokratlari" AQShdagi eng katta yoshlar siyosiy birlashmalari hisoblanishib, ular mamlakatdagi ikki yirik siyosiy partiyaning yoshlar bo'yicha rasmiy tashkilotlaridir. Yoshlar siyosiy tashkilotlarining asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni siyosiy hayotga jalb qilish, ularning davlat siyosatidagi o'rnini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, AQShda "Lyuteranlik ligasi" va "Katolik yoshlarning milliy federatsiyasi" kabi diniy, milliy yoshlar tashkilotlari ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Buyuk Britaniyada yoshlarga oid siyosat sohasi uzoq tarixga ega bo'lib, o'zining ko'p qirraliligi bilan Yevropaning boshqa davlatlaridan ajralib turadi. Jumladan, yoshlar siyosati ular bilan bog'liq barcha jabhalarni qamrab olgan, ular orasida ta'lim sohasi eng yuqori o'ringa qo'yilgan. Mamlakat yoshlarining aksariyat qismi turli tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan "yoshlar klub"lariga a'zo bo'lib, ularning yoshlar borasidagi tadbirlariga keng jalb qilingan. Shuningdek, ushbu davlatda yoshlarning "ko'ngilli harakatlari" o'ta rivojlangan bo'lib, kichik shahar va tumanlar miqyosida davlat siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur harakatlarni moliyalashtirish davlat tomonidan amalga oshirilib, faoliyati davomida,

asosan, qiyin vaziyatlarda qolgan tarafdorlarining muammolarini hal etishga harakat qilinadi. Shu bilan birga, yoshlar madaniy va ijtimoiy sohalarda o'z faolliklari bilan aholining boshqa qatlamlariga nisbatan ajralib turadi. Angliyadagi yoshlar tashkilotining kamchiliklaridan biri ularning davlat boshqaruvidagi roli qat'iy emasligidadir. Ushbu holat davlat boshqaruvi tizimi konservativ tamoyillarga asoslanganligi bilan xarakterlanadi¹.

Yevropa davlatlari orasida Germaniyaning yoshlarga oid davlat siyosati o'ziga xos xususiyatga ega. Nemis yoshlar siyosatining mohiyati shundaki, unda asosiy e'tibor 18-27 yoshdagi aholining ijtimoiy bandligiga qaratilgan. Bundan tashqari, ushbu siyosat fuqarolarning qonuniy himoyasi hamda ularning ijtimoiy va individual rivojlanishini ham ko'zda tutadi. Mamlakatning deyarli barcha katta shaharlarida yoshlarga tegishli bo'lgan ko'pgina kompaniyalarga qarashli maxsus markazlarni uchratish mumkin. Ushbu markazlar faoliyati yosh fuqarolarning ishga joylashishi bilan bog'liq muammolarni hal etishga qaratilgan, bu esa davlatning ishsizlik borasidagi siyosati samarali amalga oshirishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mazkur ishlarning mas'uliyati Oila va yoshlar vazirligiga yuklatilgan bo'lib, ushbu vazirlik qoshidagi yoshlar masalalari bo'limi bevosita mazkur sohadagi turli loyihalarni amalda qo'llash bo'yicha o'z faoliyatini olib boradi. Shu bilan birga, Germaniyada yoshlarning axloqiy qarashlari va ularning madaniy savodxonligini oshirish ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar tuzilgan bo'lib, ularning harakatlari jamiyatning yetuk shaxslarini kamol toptirishga qaratilgan.

Yaponiyada yoshlar siyosati muhimligi inobatga olinib, mazkur sohada olib borilayotgan ishlar milliy siyosat darajasiga olib chiqildi. Yaponiyada BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasiga asoslanib yoshlar borasidagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun Milliy assambleya tashkil etildi. Mazkur tashkilot asosan 4 ta dastur asosida ish olib boradi. Birinchisi, "Milliy harakat" dasturi bo'lib, u asosan kuch va vositalarini Assambleya faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltiradi. Ikkinchisi, "Hayot yo'lini tanlashga ko'maklashish" dasturi 2007 yilda tasdiqlangan bo'lib, uning faoliyati yoshlarni kasb tanlashga yo'naltirish, ularning turli iqtidorlarini o'rganishga qaratilgan. Uchinchisi, "O'smirlar orasida huquqbuzarlikning oldini olish choralari" dasturi bo'lib, uning asosiy maqsadi yoshlar orasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashishda davlat organlariga yaqindan yordam berish hamda yoshlarning jinoiy xatti-harakatlarini o'rganish markazlari bilan hamkorlikni amalga oshirishdan iborat. So'nggi, "OITSga qarshi kurash" dasturi o'z ichiga yoshlar orasida ushbu kasallikning kelib chiqish sabablarini o'rganishga qaratilgan turli maslahatlar berish va boshqa tadbirlar o'tkazishni nazarda tutadi.

Ko'pgina davlardan farqli o'laroq, Yaponiyaning ijtimoiy-siyosiy tizimi o'n yilliklar davomida katta ijtimoiy larzalar va ijtimoiy institutlar inqirozlaridan chetlab o'tganligini ta'kidlash joiz. Bu esa, o'z navbatida, yapon jamiyatida yoshlar muammolarini hal etishda davlat tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini isbotlamoqda. Bu sohada Yaponiya siyosati o'ziga xos jihatlarga ega

¹ O'tbosov E. Yoshlar siyosati: O'zbekiston va jahon tajribasi. 25.07.2017. <http://fayzbog.uz/yoshlar-siyosati-uzbekiston-va-jahon-tajribasi/>.

bo'lib, u an'anaviy preventiv choralarni innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashishni ta'minlaydi va bu uning universalligidan dalolat beradi.

Hozirgi davrda yoshlar siyosati davlatning yoshlarga, yoshlar tashkilotlariga munosabatida, shuningdek qonun chiqaruvchi, ijroiya, sud hokimiyati sohalarida yoshlarni huquq va erkinliklarini ta'minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Bu siyosatning mazmun-mohiyati yosh avlodning ijtimoiy jihatdan rivojlanishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, tashkiliy shart-sharoit yaratib berish, ularning hayotda o'z yo'lini tanlab olishlari, intellektual, ma'naviy va jismoniy jihatdan kamol topishini ta'minlash, yoshlarning ijodiy iqtidori va salohiyatini shaxsiy va mamlakat manfaatlari yo'lida ro'yobga chiqarish demakdir. Shuningdek, yoshlar siyosati yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan bir vaqtda, yosh avlodning mehnat va ijodiy faoliyati uchun muhim va zarur bo'lgan innovatsiyaviy va ishlab chiqarishga doir jihatlarni ham o'ziga qamrab oladi. Bu yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda yoshlarni jamiyatni rivojlantirishning asosiy va muhim resurslaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Ta'kidlash joizki, taraqqiyot g'oyasi va istiqbollarni belgilab olmagan, ma'naviy asoslardan mahrum bo'lgan, asosiysi, o'zining yosh fuqarolariga ko'ngiliga yo'l topa olmagan davlat va jamiyat farovon istiqbolni tasavvur qilishi qiyin. Davlatning yoshlarga bo'lgan munosabati jamiyat taraqqiyoti darajasi, uning ochiqligi, oldinga intilayotganligining ko'rsatkichlaridan biridir.

Shuning uchun davlatning jamiyatni birlashtirish va fuqarolik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha siyosatida yoshlar masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan yoshlar islohotlar chuqurlashayotgan davrda turli to'siqlarni yengib o'tishga qodir, mamlakatning yuksalish sari odimlariga kuch bag'ishlay oladigan aholi qatlamidir. Shu jihatdan yoshlar fuqarolik jamiyatining eng faol qismidir, masalan yoshlar turli sohalarida innovatsion loyihalar va texnologiyalarni joriy qilishga ko'proq moslashgan bo'ladi, ular jamiyatga yangi g'oyalar va bilimlarni tashiydi hamda ularda o'z hayotini qurishga intilish kuchli bo'ladi¹.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 75-yubiley sessiyasining yalpi majlisidagi nutqida Prezidentimiz yuksak minbardan turib, yoshlar huquqlari masalasiga yana bir marta to'xtalib, Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish zarurligiga e'tiborni qaratdi. Zero, yoshlar huquqlarini himoya qilish ularning salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Demakki, ishonchli ertangi kunimizni kafolatlaydi.

Ma'lumki, yoshlar huquqlariga oid majburiy xarakterdagi xalqaro hujjat hanuzgacha qabul qilinmagan. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu tashabbusi xalqaro miqyosda ijobiy aks-sado keltirib chiqardi.

2020 yil 12-13 avgust kunlari BMT shafeligida o'tkazilgan "Yoshlar 2020: global miqyosdagi birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari" mavzusidagi Samarqand xalqaro forumida Yoshlar huquqlari bo'yicha BMT konvensiyasi loyihasi xorijiy va mahalliy mutaxassislar tomonidan keng muhokama qilindi. Yoshlar manfaatlarini har tomonlama hisobga olish bo'yicha taklif va tavsiyalar

¹ Козина Е.С. Развитие инновационного потенциала в рамках молодежной политики. Сборник статей. - М.: Директ-Медиа, 2013. – С. 29.

umumlashtirildi. Konvensiyaning bosh maqsadi bo'lgan dunyo yoshlari extiyojlarini ta'minlash, ularning bunyodkor qiziqishlari va intilishlarini qo'llab-quvvatlash, erkinlik va huquqlari kafolatlarini mustahkamlash, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan mintaqaviy va milliy darajadagi harakatlarni kuchaytirish kabi masalalar muhokamalar jarayonida yanada tiniqlashtirildi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, bugun dunyo aholisining 2 milliardga yaqinini tashkil etadigan yoshlarning aksariyati rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Tez o'zgarib borayotgan, ayrim hududlarda ziddiyatlar saqlanib qolayotgan hozirgi davrda yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi omillar tobora ko'paymoqda-ki, shuning uchun ham yosh avlod muammolarini bartaraf etishga qaratilgan tashabbuslar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa dunyo davlatlaridan yoshlar muammolariga oid yangicha umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish va ularning yechimiga xizmat qiladigan yagona huquqiy maydonni yaratishni talab etmoqda.

Bugungi murakkab sharoitda milliy o'zlikni saqlagan holda dunyodagi tengdoshlari bilan teng huquqlilik asosida bellasha oladigan, mustaqil fikri, ongli fuqarolik pozitsiyasiga ega barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan O'zbekiston tajribasini xalqaro miqyosda ommalashtirishning dolzarbligiga shubha yo'q.

O'zbekistonda 30 yoshgacha bo'lganlar aholining 60 foizini tashkil etadigan yoshlar milliy qadriyatlarni kelgusi avlodlarga yetkazuvchi, vorisiylik an'anasini davom ettiradigan qatlamdir, demokratik islohotlarning davomiyligini ta'minlaydigan kuchdir. Yoshlar tabiatan taqlid qilish, ergashishga moyil bo'lgani uchun ham jamiyatga yangi g'oyalarni tashuvchi o'ziga xos demografik guruhdir. Ularning bu fazilatlaridan umummilliy manfaatlarga mos tarzda foydalanish har qanday mamlakatning rivojlanishini jadallashtirishi aniq, albatta.

So'nggi yillarda mamlakatimizda har bir yigit-qizning o'z salohiyatini namoyon etishi uchun munosib sharoit yaratish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun ushbu sohaning asosiy yo'nalishlari bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni aniq belgilab berdi. Bunda davlat siyosati "yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishni" nazarda tutadi.

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshipish mutlaqo yangi bosqichga ko'tapildi. Uning asosiy maqsadi sifatida "bipopta ham yosh insonni e'tibopidan chetda qoldirmaslik" tamoyili belgilandi. Shunga binoan O'zbekistonda yoshlar bilan ishlashning noyob tizimi barpo etildi. Yoshlar siyosatini amalga oshipishga xizmat qiluvchi maxsus mexanizmlar yaratildi.

Jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Yoshlar ishlari bo'yicha komissiya tashkil etildi; yoshlar yetakchilari kengashi Oliy sud kengashi va Respublika Oliy sudiga saylandi; yoshlar siyosatini, ijtimoiy sohani va yoshlarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha hokim o'rinbosarlari lavozimi joriy etildi; huquqni muhofaza qilish organlari tizimida yoshlar siyosatini, ijtimoiy soha va yoshlarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha ichki ishlar bo'limi boshlig'i o'rinbosari lavozimi joriy etildi.

2020 yilda O'zbekiston Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi negizida O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil qilindi. Agentlik yoshlar bilan bog‘liq soha va yo‘nalishlarda yagona davlat siyosati, strategik yo‘nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi, shuningdek, yoshlar siyosati sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati huzurida Yoshlar parlamenti faoliyat ko‘rsatmoqda. Yoshlar parlamenti a‘zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan tashabbuskor, yuksak ma‘naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat‘iy hayotiy nuqtai nazarga, keng dunyoqarash va chuqur bilim hamda liderlik salohiyatiga ega 18-30 yosh bo‘lgan fuqarolar orasidan jami 100 nafar etib shakllantirildi.

Yoshlar parlamenti o‘z faoliyatida ilm-fan, madaniyat va turizm, sport, sog‘lom turmush, ekologiya, kompyuter texnologiyalari, innovatsion g‘oyalar, startaplar va agroklastar masalalari, kitobxonlikni keng targ‘ib qilish, qonunchilik, bandlik va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, gender tengligi kabi masalalar bo‘yicha davlat siyosati parametrlarining ishlab chiqilishida yoshlarning nuqtai nazarini namoyon etadi.

Ta‘kidlash joizki, so‘nggi yillarda yoshlar siyosati bilan bog‘liq O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar xalqaro hamjamiyat tomonidan ham e‘tirof etilmoqda. Natijada O‘zbekistonning xalqaro nufuzi ortib bormoqda. O‘zbekiston rahbarining BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyani qabul qilish borasidagi bildirgan fikri xalqaro hamjamiyatning mazkur dolzarb masala bo‘yicha sa‘y-harakatlarini birlashtirishga xizmat qiladi. Bundan nafaqat yoshlar, balki barcha ijtimoiy qatlamlar yutadi. Zero, yoshlar barqaror taraqqiyotning yetakchi mexanizmi hamda farovon istiqbolning ishonchli kafolatidir.

13.4. Yoshlar salohiyatini ro‘yobga chiqarishda ilm-fan va ta‘lim-tarbiyaning o‘rni

Hozirgi davrda inson va uning potensial imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning shart-sharoitlarini rivojlantirish orqali jamiyatni keskin yuksaltirish g‘oyalari yetakchilik qilmoqda. Shu munosabat bilan jamiyatimiz yoshlarining zamonaviy fikrlaydigan, mamlakatimiz rivojining ustuvor vazifalari, maqsadlarini yuqori saviyada anglashga qodir, amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan daxldorlik hissi bilan yashab, faoliyat yurgiza oladigan darajada yuksalishlari uchun fan hamda ta‘lim va tarbiya, ilm masalalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jamiyat hayotining barcha sohalarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshilayotgan hozirgi davrda mamlakatimizda demokratik qadriyatlarni jamiyat hayotiga har tomonlama chuqur singdirish, unda fuqarolik ko‘nikmalarini mustahkam qaror toptirish uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda, aholining keng qatlamlarida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga daxldorlik xissini kuchaytirish kabi masalalarning dolzarbligi ortib bormoqda.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida yurtimiz aholisi, xususan yoshlar

uchun farovon hayot asoslarini mustahkamlashga qaratilgan strategik zaminlar vujudga keltirilmoqda.

Darhaqiqat yurtimizda har bir inson hayotdan rozi bo‘lib yashashiga erishish – hozirda davlat siyosatining bosh maqsadiga aylanmoqda. Aynan mamlakatimiz ko‘p millatli xalqimizning bunyodkorlik salohiyatiga tayanib, yurtimiz yoshlarining yorug‘ kelajagini ko‘zlab, yuksak marralarga sari odimlab bormoqda.

Ta’kidlash joizki, jamiyat rivojlanishi va uning barqarorligi ko‘p jihatdan davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatga bog‘liqdir. So‘nggi yillarda mamlakatimiz taraqqiyot sur‘atlari hamda iqtisodiy salohiyatining oshib borishi ijtimoiy soha rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Harakatlar strategiyasida ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni 2017 yil – **“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”**, 2018 yil – **“Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”**, 2019 yil – **“Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”**, 2020 yil – **“Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”** davlat dasturlari doirasida bosqichma-bosqich ro‘yobga chiqarish uchun davlatimiz va jamiyatimizning kuch va imkoniyatlari safarbar etilmoqda. Mamlakatimizda odamlarni rozi qilish, ularning turmush darajasi va sifatini yanada oshirish, ilm-fan va ta’lim-tarbiyani rivojlantirish kabi ijtimoiy masalalar har yili ishlab chiqilayotgan davlat dasturlarida alohida o‘rin tutmoqda.

Keng qamrovli ijtimoiy rivojlanish sohalari tizimida yoshlarga zamonaviy ta’lim-tarbiya berish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalasi naqadar o‘tkirli va dolzarbli bilan alohida ahamiyatga ega. Zero, tarixdan ma’lumki, har bir davrda aynan ma’rifat jamiyat farovonligiga va mamlakat taraqqiyotiga turtki bergan. Shu sababli endilikda dono xalqimizning “Beshikdan to qabrgacha ilm izla” degan naqlini amaliy hayot faoliyatimizga ko‘chirish, mamlakatimizda ta’limning uzluksizligi prinsipini amalda ro‘yobga chiqarish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilmoqda.

Ma’lumki, mamlakatimiz aholisining 60 foizi 14 dan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlardir. Ularning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Endilikda erishilgan natijalarni kuchli takomillashtirish va yoshlar faoliyati uchun samarali yo‘naltirish, ayni bir paytda yoshlarning bo‘sh vaqtlarini har tomonlama mazmunli o‘tkazilishini tashkil qilishning zamonaviy mexanizmlarini amalga oshirish o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi vaqtda davlatimiz rahbarining g‘oyasi asosida amalga oshirilayotgan besh muhim tashabbus asosida yurtimiz yoshlarining intellektual salohiyatini yuksak darajada oshirish, har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish bo‘yicha keng qamrovli davlat siyosati nihoyatda izchillik bilan olib borilmoqda.

Shu munosabat bilan alohida ta’kidlash joizki, yoshlar manfaatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan g‘oyalar mamlakatimizdagi innovatsion davlat siyosatining konseptual asosiga aylandi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bularning barchasidan biz yagona bir maqsadni ko‘zda tutmoqdamiz. Ya’ni O‘zbekiston ilm-fan, intellektual

salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishi shart”¹.

Mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasining eng boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lmish maktabgacha ta‘lim tizimiga yetakchi e‘tibor qaratilmoqda. 2017 yilda bu soha Xalq ta‘limi vazirligi tizimidan ajratilib, alohida Maktabgacha ta‘lim vazirligi tashkil etilgani shundan dalolat beradi². Bu borada davlat siyosatining asosiy vazifasi etib yaqin yillarda yurtimizning barcha hududlarida yangi bog‘chalar qurish, ta‘lim-tarbiya sifati va darajasini yangi bosqichga ko‘tarish, bog‘cha yoshidagi bolalarni ta‘lim bilan yuz foiz qamrab olish belgilanmoqda.

Umumta‘lim sohasida yangi ta‘lim muassasalarini qurish, mavjudlarini ta‘mirlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Birgina 2017 yilda mamlakatimizda 12 ta umumta‘lim maktabi yangitdan barpo etildi, 320 tasi rekonstruksiya qilindi, 152 ta maktab kapital ta‘mirlandi. Shuningdek, yurtimizda 11 yillik umumiy o‘rta ta‘lim qayta tiklandi. Muhammad Xorazmiy va Mirzo Ulug‘bek nomlaridagi aniq fanlar chuqur o‘qitiladigan innovatsion maktablar tashkil etildi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Faqat ma‘rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi.

Shu sababli, ta‘lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta‘lim prinsipiga asoslanishi, ya‘ni, ta‘lim bog‘chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim.

Binobarin, inson kapitaliga e‘tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart”³.

Davlatimiz rahbarining g‘oyalariga ko‘ra, fan uchun, zamonaviy ilmiy ishlanmalar uchun ham katta miqdordagi investisiyalar jalb qilinadi. Natijada yurtimiz rivojining ijtimoiy asoslari mustahkamlanadi va yangilanadi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali yosh kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta‘limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta‘lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishni taqozo qiladi.

2020 yil 24 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma‘naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasidagi ishlarni jadal davom ettirishimizga doir ustuvor vazifalar belgilab berildi⁴.

Xususan, 2020 yil mamlakatimizda “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e‘lon qilingani hamda bu borada ilgari surilgan tashabbus va takliflar uzoq kuttirmasdan hayotimizga ko‘chayotgani butun xalqimizni xursand

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2018 yil 29 dekabr. №271-272 (7229-7230)

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2017 yil 30 sentabr // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018 yil 29 dekabr. №271-272 (7229-7230)

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>

qilmoqda. Chunki hech bir davlat ilm fan, tarbiyasiz shu vaqtga qadar taraqqiyotga erishmagan va erisha olmaydi ham.

Keyingi yillarda yurtimiz ilm-faniga, ta'lim-tarbiyaga berilayotgan e'tibor sohada shu vaqtga qadar yig'ilib qolgan dolzarb masalalarni hal qilish, ilmiy tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan oliy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Oliy ta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasi mustahkamlanmoqda, professor-o'qituvchilarni moddiy jihatdan rag'batlantirish yo'lga qo'yildi. Oltita yangi oliy o'quv yurti va o'n yettita filial, shuningdek, yetakchi xorijiy universitetlarning 14 ta filiali ochildi. Kechki va sirtqi ta'lim tizimlari joriy etildi. Hozirgi kunda bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar soni 410 ming nafarni, magistratura bosqichidagilar esa 13 ming nafarni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar keyingi o'n yil davomida 1,7 barobar ortdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida oliy ta'lim tizimi oldiga uning samaradorligi va natijasi juda yaqin kelajakda bo'lmasada, o'rta muddatli istiqbolda malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini xalqaro talablarga javob beradigan va mamlakatimizdagi islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlaydigan darajaga ko'tarishga erishish vazifasi qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim muassasalarida davlat grantlari 2 barobar ko'paytiriladi, maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2020 yilda kamida 25 foizga va kelgusida 50-60 foizga yetkaziladi. Agar dunyodagi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda ushbu ko'rsatkich 50 foizdan ancha yuqori ekanligini hisobga olsak, belgilangan maqsad kamligiga amin bo'lish mumkin. Lekin ilgari doim pasayib borgan qamrov darajasi bundan uch yil muqaddam qoloq davlatlardagi kabi hatto 10 foizga yetmagan.

Keyingi yillarda ko'rilgan choralar, amalga oshirilgan tadbirlar tufayli mazkur ko'rsatkichni 20 foizga ko'tarishga erishildi. 2019/2020 o'quv yili uchun qabul me'yorlari 121 ming talabani tashkil etdi. O'shbu raqam avvalgi yildagiga nisbatan 18 foiz, 2016 yildagiga nisbatan 92 foiz ortiqdir. Demak, oldinga intilish hamda o'sish tendensiyasini saqlab qolish juda muhimdir.

Shuningdek, qizlar uchun alohida grantlar ham ajratilishi ko'zda tutilmoqda. Xotin-qizlar qo'mitasi ushbu grantlar asosida o'qitishga nomzodlarni tanlash va saralash mezonlarini ishlab chiqadi.

Mamlakatimizda bugungi kunda 114 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritmoqda, shundan 93 tasi mahalliy, 21 tasi xorijiy oliy o'quv yurti va ularning filiallaridir. Ammo ularning ko'pchiligida moddiy-texnik baza va professor-o'qituvchilar soni yetishmasligi tufayli qabul soni cheklangan.

Faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim dargohlarini rekonstruksiya qilish, yangilarini qurish, ularni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash, muallimlarni ko'paytirib munosib maosh berish - bularning barchasi davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi, byudjet manbaalari esa cheklangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida 2030 yilga borib O'zbekistonning kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasi

umume'tirof etilgan jahon reytinglari bo'yicha 1000 ta eng yaxshi oliy o'quv yurti sifatiga kirishi hamda O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universiteti 500 ta eng ilg'or oliy o'quv yurti ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantirish mo'ljallanmoqda¹.

Bu qanchalik murakkab ekanligini tasavvur qilish qiyin emas. Negaki dunyodagi 20 mingdan ziyod o'quv yurtlari o'rtasida raqobat juda kuchli. Yetakchilik qatorida esa Massachusetts texnologik instituti, Stenford, Garvard, Oksford universitetlari va yuqori ta'lim sifati bilan mashhur bo'lgan boshqa oliy o'quv yurtlari bor.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasi bosqichma-bosqich joriy etiladi. Bu degani: 1) ta'lim berish; 2) ilmiy tadqiqot faoliyatini olib borish; 3) ilmiy tadqiqot va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish.

Shu boisdan O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ham ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini ta'minlovchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish ko'zda tutildi. Ya'ni, oliy ta'lim dargohlari talabalarni o'qitishni davom ettirar ekan, shu bilan bir paytda oliy ta'lim faoliyatini rivojlantirishlari, o'zlari mutaxassis yetishtirayotgan ish beruvchilar bilan o'zviy hamkorlik qilishlari kerak bo'ladi.

Shunday tizim yaratish lozimki, institut va universitetlar ta'lim jarayonini takomillashtirish bilan bir qatorda innovatsion taraqqiyot lokomotiviga aylanishlari zarur, talabalar esa tahsil olish davomida yana texnologiyalar va transfer texnologiyalari markazlarida aniq loyihalar hamda startaplarni ishlab chiqib, ro'yobga chiqarsinlar, tegishli soha, tarmoq va hududlarning rivojini tadqiq etish ishlarida qatnashsinlar.

Bu degani – nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallash jarayonida talabalar, o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlarining o'zi ham qo'shimcha daromad manbai topishi uchun sharoit yaratishga imkon beradi. Ko'rinib turibdiki, reytinga kirish uchun qattiq intilish lozim.

Mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar soni 2 barobar qisqartiriladi. Oliy ta'limda o'quv jarayonini kredit-modul tizimiga o'tkazish talab etiladi. 2020 yildan pedagogik ta'limning 6 ta yo'nalishi bo'yicha o'qish muddati 3 yil qilib belgilanadi. Bu ishlar boshqa yo'nalishlarda ham davom etadi.

Oliy o'quv yurtlariga bosqichma-bosqich akademik va moliyaviy mustaqillik beriladi. 2020 yilda ularning 10 tasi o'zini - o'zi moliyaviy ta'minlashga o'tiladi. Kamida 5 ta oliy ta'lim muassasasini konkurs asosida tanlab, nufuzli oliy ta'lim dargohlari bilan hamkorlikda ularning transformatsiya qilinishi boshlanmoqda.

Tahlillarga ko'ra, 2020 yilda respublikadagi OTMlarini moliyalashtirishga 7 trln. so'mdan ortiq (2019 yilga nisbatan 50,5 foizga ko'p) mablag' ajratilishi prognoz qilindi.

Konsepsiya eskicha faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tizimini tubdan o'zgartiruvchi islohotlar ko'zda tutilganini, ya'ni butunlay yangi bosqichga o'tish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-sonli Farmoni. 2019 yil 8 oktabr. <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-oliy-talim-tizimini-2030-yilgacha-riv-09-10-2019>

zaruratini anglaymiz. Deyarli hamma oliy o'quv yurtlari butun diqqatini faqat talabalarga belgilangan hajmdagi nazariy bilimlarni berishga qaratilgan, xolos. Shu bois konsepsiya oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etishga yo'naltirildi. O'quv dasturlari faqat nazariy bilimlar berishga mo'ljallangan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish maqsad qilindi. Masalan, AQSh universitetlari nafaqat malakali kadrlar yetishtiradi, balki o'zlari joylashgan shtatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi bilan to'g'ridan-to'g'ri integratsiyalashgan bo'lib, muayyan buyurtmalarni bajaradi, tadqiqotlar o'tkazadi va loyihalar ishlab chiqadi. Odatda, ular moliyaviy mablag'larning 50 foizini federal byudjetdan olsa, 40 foizigacha hududiy, hattoki, munisipial hokimiyatlardan oladi, taxminan 10 foizini esa o'zlari ishlab topadi. Bunday ta'lim dargohlarining bitiruvchilari kompaniyaga faqat zarur bilimlari bilan emas, ko'nikmalari bilan kelishadi, ular esa ishga tezroq kirishib ketishga yordam beradi va jarayonning mohiyatini tushinib olish uchun ko'p vaqt sarflanmaydi.

Yana bir muammo bu mamlakatimizda oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasining pastligi. Butun jahonda yoshlarning bilim olishga qiziqishi kuchli bo'lgani uchun mehnat bozoridagi raqobatbardoshlik ham ortishi kuzatilmoqda. Ta'lim dargohida olingan bilim va ko'nikmalar, oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom yigit-qizlarga hayotda o'z iqtidorini namoyon etish bilan birga, kasbiy mahoratini oshirib, mansab pillapoyalaridan ko'tarilishiga imkoniyat yaratmoqda.

Oliy ma'lumot olish huquqi bizda ham barcha xohlovchilarga taqdim etilishi lozim. Albatta, bu hamma talaba bo'lishi kerak, degani emas. Oliy o'quv yurtiga kirish uchun yaxshi bilim va tayyorgarlikka ega bo'lish, test sinovlarini muvaffaqiyatli topshirish talab etiladi. Har qaysi abituriyent nafaqat talaba bo'lishni, balki davlat granti asosida bepul tahsil olishni orzu qiladi. Davlat granti uchun yetarli bo'lmasa-da, muayyan miqdordagi ballarni to'plagan abituriyentlar to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinadilar. Biroq ajratilgan o'rinlar soni talab mutanosib emasligi sababli ko'plab abituriyentlar o'qishga kira olmay qolyapti, boz ustiga ish ham topa olmayapti. Buning salbiy oqibati-yoshlarimiz chet ellik talabalar uchun grant ajratadigan davlatlarga tahsil olish maqsadida ketyapti yoki mehnat migrantlari safini to'ldirmoqda.

Yuzaga kelgan bunday vaziyatni o'nglash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev parlamentga Murojaatnomasida yangi ta'lim muassasalarini ochish va mavjudlarida o'rinlar sonini ko'paytirish, davlat grantlari sonini 2 barobar ko'paytirish fikri bildirildi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida inson kapitaliga, ya'ni shaxs kamolotga yetadigan asosiy davrdagi ta'lim-tarbiyaga (3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrdagi ta'limga) sarmoya sarflash masalasiga alohida urg'u berilmoqda.

Zero, inson kapitali nazariyasi asoschilari deb T.Shuls va G.Bekker tan olinadi. Ularning asarlarida ilk bor insonga, uning salohiyatiga, bilim va sog'lig'iga ajratilgan mablag'lar aslida xarajatlar emas, balki istiqbolga yo'naltirilgan kapital joylashtirishdir, deb e'tirof etiladi¹.

¹ Qarang: Schultz T. Investment in Human Capital: The Role of Education and Research. – N.Y., 1971; Schultz T. Human Capital, family planning and their effects on population growth // American Economic Review, Papers and Proceedings. – 1994. – May; Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis with Special Reference

Iqtisodchi olimlar fikricha, inson kapitali – bu inson ega bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar yig‘indisigina emas, balki u:

birinchidan, to‘plangan bilim, malaka va qobiliyatlar zaxirasi hisoblanadi;

ikkinchidan, bu shunday zaxiraki, u yoki boshqa bir muhitda inson tomonidan ijtimoiy qayta ishlashga sarflanadi va mehnat unumdorligi hamda ishlab chiqarishning o‘shiga imkon beradi;

uchinchidan, to‘plangan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar zaxirasining maqsadga muvofiq ishlatilishi faoliyatning yuqori unumdorligida ishchi daromadining o‘shiga olib keladi;

to‘rtinchidan, daromadning oshishi insonni rag‘batlantiradi va qiziqtiradi hamda yangi bilim va ko‘nikmalar zaxirasini to‘plab, kelajakda unumli qo‘llashga sabab bo‘ladi¹.

Zamonaviy talqinda inson kapitali iqtisodiy qiymatga ega bo‘lgan insonning bilimlari, ko‘nikmalari, qobiliyat va rag‘batlari zaxirasi tushuniladi. Ushbu kapital nafaqat insonga, balki jamiyatga ham istiqboldagi daromad va foydalar manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Dunyo amaliyotiga qaraganda, inson kapitaliga ajratiladigan sarmoyalarga asosan umumiy va maxsus ta‘lim olishga ketadigan harajatlar, kasbiy tayyorgarlik, bolalarni voyaga yetkazish va boshqalar bilan bog‘liq sarf-harajatlar kiradi.

Inson kapitali o‘z holicha amalga oshirilmaydi, balki davlatga bir necha barobar foyda bilan qaytadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, aynan 22 yoshgacha har tomonlama kamol topgan, yuksak bilim va salohiyatga ega bo‘lib shakllangan yoshlar jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan xissasi bilan ushbu sarmoyani jamiyatga 15-17 barobar foyda bilan qaytaradi. Masalan, AQShning Michigan shtatida ishlab chiqilgan maktabgacha ta‘lim dasturining samaradorligi shuni ko‘rsatganki, har bir sarflangan dollar uchun jamiyatga 7 dollardan 12 dollargacha qaytgan².

Ta‘lim-tarbiyaning bevosita inson kamolotiga yanada xizmat qilishini ta‘minlash yo‘lidagi muhim amaliy qadam sifatida bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish darajasini oshirish, zamonaviy umumiy o‘rta ta‘lim tizimini tashkil etish, davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida xususiy maktablar va bog‘chalar tashkil etish, oliy ta‘lim tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Zotan, oliy ma‘lumotli, yuksak malakaga ega yoshlar soni ortishi jamiyat rivojlanish sur‘atlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Davlatimiz rahbarining dasturiy ma‘ruzalarida oliy ta‘lim sohaning rivojlanishiga turtki beruvchi quyidagi prinsipial yangi g‘oya va tashabbuslar ilgari surildi:

- oliy o‘quv yurtlari hamda nodavlat ta‘lim maskanlari salohiyati oshirish orqali ular o‘rtasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha raqobat muhitini kuchaytirish;

to Education, 2nd Ed. – N.Y., 1975; Becker G., Tomes N. Human Capital: rise and fall of families // Journal of Labor Economics. -1986. –V.4. –No.1.

¹ Rustamova D.J. Inson kapitaliga sarflangan investisiyalar samaradorligini oshirish yo‘llari // Iqtisod va moliya/ Экономика и финансы. -2015. - №1. - В. 73-74.

² Человеческий капитал: как убедит правительства инвестировать в людей. 12.07.2018. <https://kun.uz/ru/10990834>

- yoshlarga bir vaqtning o'zida bir nechta oliy o'quv yurtiga hujjat topshirish imkoniyatini berish;

- oliy ta'lim muassasalariga real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, qabul kvotalarini mustaqil belgilash tizimini joriy etish;

- bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga xorijda o'qishni davom ettirish imkoniyatlarini yanada kengaytish.

Umuman olganda, ta'lim va tarbiya, ilm-fan, intellektual salohiyatni yuksaltirish zamonaviy taraqqiyotning yetakchi qonuniyatiga aylandi. Shu bois, intellektual salohiyatni yuksaltirishning eng zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish, ta'lim tizimini, yuksaltirish asnosida yoshlar ma'rifatini yuksaltirish vazifalarini yetakchi o'ringa ko'tarish masalalari mamlakatimiz davlat siyosatida markaziy o'rinni egallamoqda. Intellektual salohiyatni yuksaltirish jarayonida yoshlar ongida innovatsion tafakkurni rivojlantirish, yoshlarda innovatsion tafakkur qila olish layoqatini shakllantirish muhim o'rin tutadi.

Demak, bugungi kunda barcha ta'lim muassasalari faoliyatini, ulardagi o'quv-ilmiy jarayonlarni innovatsion ta'lim berish maqsadlaridan kelib chiqib, jadal yuksaltirish inovatsiyani ta'lim tizimining bosh mazoniga aylantirish o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xullas, mamlakatimiz o'z oldiga maqsad qilib olgan inson manfaatlarini har tomonlama ro'yobga chiqarishga qodir bo'lgan samarali demokratiya modelini kuchli darajada ro'yobga chiqarishdek ezgu g'oyalar hech shak-shubhasiz yuksak siyosiy madaniyatni qabli va xulq atvoriga mustahkam o'rnashib olgan, barkamol bo'lishga tinmay intiladigan yoshlarning bevosita ko'magi, mustahkam irodasi bilan amalga oshadi. Yuksak saviyada fikrlaydigan, zamonaviy, innovatsion faoliyat yurita oladigan shaxslargina hozirgi davrning shiddatiga javob bera oladigan taraqqiyot jarayonlarining tayanchi bo'la oladi.

Nazorat uchun savollar:

1. "Fuqarolar faolligi" va "fuqarolik pozitsiyasi" nima?
2. Faol fuqarolik pozitsiyasining tarkibiy qismlariga izoh bering.
3. Barkamol avlodni tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?
4. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining tashkiliy-huquqiy asoslari nimalardan iborat?
5. Yoshlar bo'yicha besh muhim tashabbusni sanab bering.
6. Inson kapitali nima?
7. Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mohiyatini aytib bering.
8. "Universitet 3.0" konsepsiyasi haqida gapirib bering.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MAVZULAR

1. Fuqarolik jamiyatining belgilari va asosiy tamoyillari.
2. Davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro munosabatlari.
3. Jamiyatni boshqarishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli.
4. Yoshlar muammolarini hal etishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli.
5. Mahalliy boshqaruvda fuqarolik jamiyati institutlarining roli.
6. Xorij va O'zbekiston fuqarolik jamiyati institutining qiyosiy tahlili.
7. Ommaviy axborot vositalari – fuqarolik jamiyati instituti sifatida.
8. Mahalla – fuqarolik jamiyati instituti sifatida. (O'zingiz yashayotgan mahalla faoliyati misolida tahlilni amalga oshiring).
9. Ekologiya sohasidagi nodavlat va notijorat tashkilotlari faoliyatining tahlili.
10. Mamlakatimizda davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar.
11. Davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etilishi.
12. Mamlakatimizda xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etilishi.
13. Mamlakatimizda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirilishi.
14. Mamlakatimizda ijtimoiy sheriklik institutining joriy etilishi.
15. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirilishi, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligi oshishi.
16. Mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati oshirilishi.
17. Jamiyatda ommaviy axborot vositalarining roli kuchaytirilishi.
18. Mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlanishi.
19. Mamlakatimizda fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashda shaxsiy javobgarlik va mas'uliyatning kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.
20. Sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlanishi.
21. Fuqarolarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlanishi.
22. Fuqarolarning odil sudlovga to'sqinliksiz erishishini ta'minlanishi.
23. Korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarining takomillashtirilishi.
24. Aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish borasida davlat tuzilmalari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligi.
25. Huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirilishi.
26. Fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.
27. Davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarilishi va demokratlashtirilishi.
28. Mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklikning kengaytirilishi.
29. Mamlakatimizda nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolining oshirilishi.

30. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirilishi, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rnini kuchaytirilishi.
31. Mamlakatimizda oila asoslarini yanada mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.
32. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida yoshlarning ijtimoiy faolligining oshirilishi.
33. Yoshlarni ijtimoiy himoya qilinishi, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratilishi.
34. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat organlari, ta’lim muassasalari va yoshlar o‘rtasida ijtimoiy hamkorlikning amalga oshirilishi.
35. Mamlakatimizda fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.

GLOSSARIY

1. DEMOKRATIYA – (yunon. *demokratia* - xalq hokimiyati, *demos* - xalq, *kratos* - hokimiyat) xalq hokimiyatchiligi, fuqarolarning erkinligi va tengligi tamoyillari e'tirofiga asoslangan siyosiy tuzum shakli. **D.** – xalq hokimiyat manbai va sub'ekti sifatida e'tirof etilishiga asoslangan jamiyat tizimi shakli. Demokratiya ozchilikning ko'pchilikka (ozchilikning haq-huquqlari e'tiborga olingan holda) bo'ysunishi, davlat hokimiyati asosiy organlarining saylanishi, fuqarolarning huquqlari va siyosiy erkinliklari va ularni amalga oshirish sharoitlari mavjudligi kabi umum e'tirof etilgan tamoyillarni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida demokratiyaning asosiy tamoyillari mustahkamlangan.

2. DEMOKRATLASHUV – demokratiya tamoyillarini siyosiy tizimga, madaniyatga, hayot tarziga va hokazolarga joriy qilish jarayoni.

3. ELEKTORAT – ovoz berish huquqiga ega hamda muayyan nomzod yoki siyosiy partiyani qo'llab-quvvatlovchi va unga ovoz beruvchi fuqarolar guruhi.

4. FUQAROLAR HUQUQ VA ERKINLIK LARI HIMOIASI – davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarining muhofazasini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'limi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan. Fuqarolarning Konstitutsiyada belgilangan barcha huquqlari: *shaxsiy huquq va erkinliklar*; *siyosiy huquqlar*; *iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar*. O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha samarali qonunchilik tizimi yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan bir qatorda 16 kodeks va 400 dan ortiq qonunchilik hujjati qabul qilingan.

5. FUQAROLARNING O'ZINI-O'ZI BOSHQARISHI – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z manfaatlari, rivojlanishning tarixiy xususiyatlari, milliy va ma'naviy qadriyatlar, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqib, hal etishiga qaratilgan mustaqil faoliyati. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda 2013 yil 22 aprelda qabul qilindi.

6. FUQAROLIK JAMIYATI – a'zolari o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, etnik, diniy va boshqa ijtimoiy munosabatlar rivojlangan jamiyat bo'lib, ijtimoiy munosabatlarda davlat hokimiyati bevosita ishtirok etmaydi, ammo u bilan aloqada bo'ladi. **F.J.** – demokratik huquqiy davlatning ijtimoiy asosi va ajralmas kafolati. **F.J.** – qonun ustuvor bo'lgan ijtimoiy makon bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi, shuningdek shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Fuqarolik jamiyatining asosiy institutlari - siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, ixtiyoriy jamoat tashkilotlari va ijtimoiy harakatlar, mustaqil ommaviy axborot vositalari va boshqalar.

7. HUQUQIY DAVLAT – qonun ustuvorligi asosida hamda fuqarolarning qonunga bo'ysunishligi tufayli hokimiyat vakolatlarini amalga oshiruvchi institutlar tizimi. Zamonaviy huquqiy davlat – bu demokratik davlat bo'lib, unda huquq va erkinlik, xalq hokimiyatni amalga oshirishda (bevosita yoki vakillari orqali) ishtirok

etishi ta'minlanadi. Bu yuqori huquqiy va siyosiy madaniyat darajasini, rivojlangan fuqarolik jamiyatini nazarda tutadi.

8. IJTIMOIIY INSTITUT – odamlar hayotiy faoliyatining tashkil etilish shakli bo'lib, u tarixan mavjud bo'ladi yoki maqsadli harakatlar bilan yuzaga keltiriladi. Ijtimoiy institut jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa ehtiyojlarini to'liq yoki qisman qondirish zarurati sababli faoliyat yuritadi. Institutlar belgilangan tartib-qoidalarini orqali odamlarning xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

9. IJTIMOIIY SHERIKLIK – davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligi. Ijtimoiy sheriklik sub'ektlari: davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari. "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2014 yil 24 sentabrda qabul qilingan.

10. IJTIMOIIY-SIYOSIIY FAOLLIK – milliy va xalqaro siyosat sohasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy faollik shakli; siyosiy hayotda inson xatti-harakatlarining asosiy elementlaridan biri. Ijtimoiy-siyosiy faollik alohida harakatlar majmuasida - siyosiy maqsadga erishishga qaratilgan harakatlarda va shaxslarning siyosatda o'zaro aloqalarida aniq ifodalanadi. Ijtimoiy-siyosiy harakatlar, siyosiy partiyalar, fuqarolarning turli jamoalarda, o'zini o'zi boshqarish tuzilmalari (tashabbuskor guruhlar, jamoat kengashlari va boshqalar) faoliyatida doimiy ishtirok etishi ijtimoiy-siyosiy faollikni to'liq namoyon qiladi. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy faollik - saylovchilarning siyosiy hayotga jalb etilganlik darajasi va shaklini aks ettiruvchi ko'rsatkich.

11. INSON OMILI – umumlashgan tushuncha bo'lib, inson faoliyatining mavjud barcha ko'rinishlari, uning ijtimoiy, ijodiy faolligi yig'indisini qamrab oladi. Inson omili insonlarning jamiyatda tarixan shakllangan asosiy ijtimoiy fazilatlari yig'indisi bo'lib quyidagilarni o'z ichiga oladi: qadriyat omillari; axloqiy prinsiplar; mehnat, bo'sh vaqt, iste'molga oid xulq-atvor me'yorlari; hayotiy rejalar; bilim va xabardorlik darajasi; mehnat va ijtimoiy ko'nikmalar xususiyati; ijtimoiy hayotning muhim jihatlari (ijtimoiy adolat, inson huquq va erkinliklari, fuqarolik burchlari va boshqalar) haqidagi qarashlar.

12. JAMIYAT – umumiy manfaatlar, qadriyatlar va maqsadlarga ega odamlarning birlashuv shakli.

13. JAMOAT TASHKILOTI – o'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma. "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonun 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan.

14. JAMOATCHILIK – bir yoki bir nechta yuridik yoki jismoniy shaxslar bo'lib, ular bilan sotsial tashkilotlar ham o'z jamoalari doirasida (xizmatchilar,

xodimlar, ishchilar, aksiyadorlar, jamoat tashkilotlarining a'zolari va boshqalar), ham faoliyat doirasidan tashqarida (saylovchilar, soliq to'lovchilar, mahalliy aholi, sheriklar, iste'molchilar va boshqalar) aloqaga kirishadi.

15. JAMOATCHILIK EKSPERTIZASI – normativ-huquqiy hujjatlar va davlat organlarining boshqa qarorlari loyihalari fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat manfaatlariga muvofiqligini aniqlash uchun ularni o'rganish hamda baholash. NNT, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va OAV qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda o'tkazishi mumkin.

16. JAMOATCHILIK ESHITUVI – davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining faoliyatiga taalluqli va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yoxud fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat manfaatlariga daxldor masalalarni muhokama qilish uchun tashkil etiladigan yig'ilish. Faqat NNT, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va OAV o'tkazishi mumkin.

17. JAMOATCHILIK FIKRINI O'RGANISH – turli ijtimoiy guruhlarining normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to'g'risidagi, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining qonun hujjatlari talablariga rioya etishiga, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini ta'minlashga doir faoliyati to'g'risidagi fikrini baholash maqsadida axborotni yig'ish, umumlashtirish hamda tahlil etish. Jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarni NNT, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va OAV qonun hujjatlariga muvofiq o'tkazishi mumkin.

18. JAMOATCHILIK MONITORINGI – davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining faoliyatini jamoatchilik manfaatiga daxldor axborotni yig'ish, umumlashtirish va tahlil etish orqali kuzatish. NNT, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoatchilik nazoratining boshqa sub'ektlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda o'tkazishi mumkin.

19. JAMOATCHILIK MUHOKAMASI – ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlar, davlat organlarining boshqa qarorlari loyihalarini ommaviy muhokama qilish. Faqat NNT, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va OAV o'tkazishi mumkin.

20. JAMOATCHILIK NAZORATI – qonun doirasida jamoatchilik nazorati sub'ektlarining quyidagi shakllardagi faoliyatidir: davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar; davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish; jamoatchilik muhokamasi; jamoatchilik eshituvi; jamoatchilik monitoringi; jamoatchilik ekspertizasi; jamoatchilik fikrini o'rganish; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati sub'ektlaridir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasida davlat organlari ustidan jamoatchilik nazorati instituti xalq hokimiyatchiligidan eng muhim elementi sifatida konstitutsiyaviy maqomga ega bo'ldi. "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 2018 yil 12 aprelda qabul qilindi.

21. JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI – davlat organlari va davlat muassasalariga, shuningdek ularning mansabdor shaxslariga, davlat ishtirokidagi tashkilotlarga va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga jismoniy va yuridik shaxslarning og‘zaki, yozma yoxud elektron murojaatlari. Murojaatlarning turlari: arizalar, takliflar va shikoyatlar. “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonun 2017 yil 11 sentabrda yangi tahrirda qabul qilingan.

22. KASABA UYUSHMASI – ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat turiga ko‘ra o‘z a‘zolarining mehnat huquqlari va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan bog‘langan fuqarolarning jamoat birlashmasi. Kasaba uyushmalari o‘z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirishi mumkin. “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 2019 yil 6 dekabrda qabul qilingan. 1991 yildan buyon O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi o‘z faoliyati olib bormoqda.

23. KONSEPSIYA – (lotin. *conceptio* – anglash tizimi) biror sohani rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli loyiha yoki soha taraqqiyotini asoslab berishni o‘z ichiga olgan qarashlar majmui. Konsepsiya tor doirada emas, balki turli sohalarni o‘z ichiga qamrab olgan miqyosi bilan farqlanadi, unda rivojlantirishning yo‘nalish hamda asoslari belgilab qo‘yiladi. Shu nuqtai-nazardan konsepsiyani faqat harakat rejasini o‘z ichiga olgan dasturlardan farqli o‘laroq, keng qamrovli strategik dastur ham deyish mumkin.

24. KUCHLI DAVLATDAN – KUCHLI JAMIYAT SARI – ushbu konsepsiyaning mohiyati odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tishi, mahallalarning nufuzi va mavqeining oshishi demakdir.

25. LEGITIMLIK – hokimiyatning boshqaruv huquqi jamiyat tomonidan tan olinishi, aholining ko‘pchiligi unga bo‘ysunishga tayyorligi. Legitimlik xalq va davlat hokimiyati munosabatlaridagi uyg‘unlikda aks etadi.

26. LIBERALIZM – (lotin. *liberalis* - erkin, ozod) umum bashariy maqsad sifatida shaxsiy erkinlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan, shaxs huquq va erkinliklarini davlat va jamiyat manfaatlariga nisbatan ustuvor, deb biluvchi siyosiy mafkura.

27. MAHALLA – (arab. *mahallun* - aholi yashaydigan joy) O‘zbekistonning muayyan tarixiy sharoitlarda, asrlar davomida shakllanib, faoliyat ko‘rsatayotgan, aholi yashaydigan ma‘muriy-hududiy birlik uyushma. Mahalla jamiyatimizda vaqt sinovidan o‘tgan turmush shaklidir. Muayyan mahallada yashovchi odamlar nafaqat qo‘shnichilik aloqalari, balki ichki tartib-taomillar, axloqiy va ma‘naviy me‘yorlar, urf-odatlar, an‘analari, umumiy manfaatlar va majburiyatlar bilan bog‘liqdir. Mustaqillik yillarida mahalla fuqarolarning demokratik o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida qayta tiklandi, rasmiy huquqiy maqomga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida qayd etilishicha, shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular

raisni (oqsoqolni) saylaydi. “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda 2013 yil 22 aprelda qabul qilingan. Mamlakatimizda 10 000 dan ortiq mahalla faoliyat yuritmoqda.

28. MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI – davlat va jamiyat boshqaruvi tizimining demokratik asoslaridan biri, hududlarda davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi organ. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik va ijroiya organlariga bo‘linadi va tegishli ma‘muriy-hududiy birlik doirasida faoliyat yuritadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishlilikiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi (*102-modda*). Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakolat muddati – 5 yil (*101-modda*).

29. MENTALITET – (lotin. *mentalis* – aqliy) jamiyat va shaxsning anglash darajasi (shu jumladan ongsiz ravishda); shaxs yoki ijtimoiy guruhning ma‘lum bir shaklda harakat qilish, o‘ylash, his qilish va dunyoni idrok qilish uchun tayyorligi, munosabati va moyilligi majmui. Mentalitet an‘analari, madaniyat, ijtimoiy tuzilmalar va insonning yashash shart-sharoiti, muhiti va boshqa omillarga bog‘liq holda shakllanadi, hamda o‘z navbatida ularni shakllantiradi.

30. NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTI – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir. Nodavlat notijorat tashkilotlari jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma‘rifiy maqsadlarga erishish, ma‘naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi. Bugungi kunda 9 700 dan ziyod NNT faoliyat ko‘rsatmoqda.

31. NOMARKAZLASHUV – mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huquqlari va vakolatlarini markaziy hokimiyatning ayrim funksiyalarini ularga topshirish yo‘li bilan kengaytirish jarayoni. **N.** – markazlashuvning bekor qilinishi yoki kamayishi.

32. “OBOD MAHALLA” DAVLAT DASTURI – shaharlarda mahallalar hududini obodonlashtirish, mavjud infratuzilmani kompleks rivojlantirish, shuningdek, yo‘l-transport infratuzilmasi, muhandislik kommunikatsiyalari va ijtimoiy soha ob‘ektlarini barpo etish hamda shu asosda aholining turmush sharoitini yuksaltirish qaratilgan davlat maqsadli dasturi. Xususan dastur doirasida 2018 yilda mamlakatimizda 2 tadan va 2019-2022 yillarda kamida 3 tadan mahallalarda qurilish, ta‘mirlash va obodonlashtirish ishlari bajariladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyunda “Obod mahalla” dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni, “Obod mahalla” dasturining asosiy parametrlarini tasdiqlash va ularning ijrosini ta‘minlash masalalari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilingan.

33. OILA – ijtimoiy institut, jamiyatning tayanch nuqtasi bo‘lib, quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: nikohga kirishishning ixtiyoriyligi; oila a‘zolari umumiy xo‘jalik asosida bog‘langanligi; oilaviy munosabatlarga kirishish, farzandlarni dunyoga keltirish, ularning ijtimoiylashuvi va tarbiyasi bilan shug‘ullanishga intilish. 15 may – Xalqaro oila kuni. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 1998 yil 30

aprelda qabul qilingan. O‘zbekistonda 1998 yil “Oila yili” va 2012 yil “Mustahkam oila yili” deb e‘lon qilingan.

34. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI – axborotni ommaviy auditoriyaga davriy yetkazishning qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan shakli. Ommaviy axborot vositalari doimiy nomga ega va bosma yoki elektron shaklda olti oyda eng kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga uzatiladigan vositalar (nashrlar, radio, televidenie, ovoz yozish va audivizual vositalar, kino va h.k), internet saytlari va boshqa ommaviy axborot tarqatish shakllari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgarlar. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi”, deb belgilangan. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonuni yangi tahrirda 2007 yil 15 yanvarda qabul qilingan. Hozirda respublikamizda 1500 dan ortiq OAV faoliyat yuritmoqda.

35. PARLAMENT NAZORATI – davlat organlarining, xo‘jalik boshqaruvi organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining va ular organlarining qarorlarini, davlat dasturlarini ijro etish, shuningdek o‘z zimmlariga yuklatilgan vazifalar hamda funksiyalarni amalga oshirish bo‘yicha faoliyati ustidan parlamentning nazorati. Parlament nazorati sub‘ektlari: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘mitalari, komissiyalari; Qonunchilik palatasining deputati, siyosiy partiyalar fraksiyalari, deputatlar guruhlar; Senat a‘zolari; Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman). “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 2016 yil 11 aprelda qabul qilingan.

36. QONUN USTUVORLIGI – demokratiyaning muhim va ustuvor prinsipi bo‘lib, o‘z ichiga qonun oldida barchaning birdek tengligi, qonun ustuvorligini amalda ro‘yobga chiqarilishining samarali va kafolatli mexanizmlari mavjud bo‘lishi kabi qoidalarni qamrab oladi. Qonun ustuvorligi fuqarolarnig o‘zaro munosabatlarni hamda davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

37. REFERENDUM – O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir. Referendum saylovlar bilan bir qatorda xalq irodasining bevosita ifodasidir. Referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo‘ladi va faqat referendum yo‘li bilan bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin. Referendum O‘zbekiston Respublikasining butun hududida o‘tkaziladi. “O‘zbekiston Respublikasining referendumini to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda 2001 yil 30 avgustda qabul qilingan.

38. SAYLOV TEXNOLOGIYALARI – saylov kampaniyasi vazifalarini hal etishga qaratilgan vositalar va usullar tizimi, saylov davrida foydalaniladigan uslublar majmuasi.

39. SAYLOV TIZIMI – qonun bilan o‘rnatilgan qoidalar, tamoyillar va usullarning majmuasi bo‘lib, ular yordamida saylovlarda ovoz berish natijalari aniqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasida saylov tizimining huquqiy asoslari mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasining

fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi. Saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, Oliy Majlisga saylovni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi referendumini tashkil etish va o'tkazish uchun doimiy asosda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi mas'uldir. "O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda 2001 yil 30 avgustda, O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi 2019 yil 25 iyunda qabul qilindi.

40. SIYOSIY IJTIMOIYLASHUV – insonning siyosiy qadriyatlar, me'yorlar va hulq-atvor namunalari bilan tanishish jarayoni.

41. SIYOSIY ISHTIROK – shaxs, guruh, qatlam, sinf, millatning siyosiy-huquqiy munosabatlar jarayoniga jalb etilishi. Siyosiy ishtirok – fuqarolarning siyosatchilarni saylashga hamda siyosiy qarorlarni qabul qilish va amalga oshirishga qaratilgan faoliyati.

42. SIYOSIY JARAYON – ichki va tashqi omillarning ta'siri ostida yuzaga keladigan siyosat sub'ektlarining faoliyat turlari, ularning o'zaro munosabatlari majmuasi.

43. SIYOSIY MADANIYAT – tarixiy tajriba, ijtimoiy va siyosiy voqealar haqidagi xotira, siyosiy qadriyatlar, yondashuvlar va siyosiy xulq-atvorga bevosita ta'sir qiluvchi ko'nikmalarni o'z ichiga olgan umumiy madaniyat va merosning bir qismi. Siyosiy madaniyat – ijtimoiy birliklar va alohida shaxslarning siyosat haqidagi nisbatan o'zgarmaydigan tasavvurlari majmuasi, siyosiy munosabatlar sohasidagi xulq-atvor modellarining jamlanmasi.

44. SIYOSIY MODERNIZATSIYA – siyosiy tizimning o'zgarishi va yangi siyosiy institutlarning shakllanishi; siyosiy tizimning yangi ijtimoiy maqsadlarga moslashish va ijtimoiy tizim rivojlanishini ta'minlovchi yangi turdagi institutlarni tashkil etish qobiliyatining ortishi. Modernizatsiya ob'ektiv omillar (ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy) hamda sub'ektiv (siyosiy rahbariyatning siyosiy tizimda samarali o'zgarishlarni amalga oshirish qobiliyati) bilan bog'liq bo'ladi.

45. SIYOSIY PARTIYA – (lotin. *partis* - qism) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasi. "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonun 1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan. O'zbekistonda 5 ta partiya ro'yxatga olingan: O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, O'zbekiston ekologik partiyasi.

46. SIYOSIY PLYURALIZM – siyosiy tizimning tashkil etilishi va faoliyat yuritish tamoyili bo'lib, siyosiy g'oyalar, partiyalar va boshqa institutlarning xilma-xilligi va erkin raqobatini nazarda tutadi. Siyosiy plyuralizm – ijtimoiy kuchlarning

xilma-xilligi va raqobatini ifodalovchi jamiyatni tashkil etish tamoyili. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 12-moddasida qayd etilishicha, "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas".

47. STRATEGIYA – ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning bosh yo'nalishi, barcha sa'y-harakatlarning poydevori, davlat va jamiyat hayotidagi tub burilish davri uchun xos bo'lgan boshqaruv san'ati mazmunini ifoda etadi. Strategiyaning bugungi kun uchun xos bo'lgan ma'nosi hozirgi murakkab davrda O'zbekistonning erkin va farovon davlat bo'lishiga erishish, odamlar hayotini tubdan yaxshilash, baxtli turmushini, kafolatli tinchligini ta'minlash, har bir insonning ertangi kuniga bo'lgan ishonchini mustahkamlashdan iborat.

48. UCHINCHI SEKTOR – dunyodagi barcha mamlakatlarda notijorat va xayriya maqsadlarida tashabbus ko'rsatayotgan va keng faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarga (NNT) nisbatan qo'llaniladi (birinchi sektor - davlat, ikkinchi sektor - tijorat sektori yoki shaxsiy sektor deyiladi).

49. XALQ BILAN MULOQOT – davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni ifoda etadigan tizimli faoliyat. Bu faoliyat odamlarning hayoti, turmush tarzi, dardu tashvishlari davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan tizimli o'rganib borilishini ta'minlamoqda, ikkinchi jihatdan, aholining o'z tashabbusi bilan qiladigan murojaatlarini beto'xtov qabul qilib eshitiladigan mexanizm, virtual qabulxonalar ishlab turibdi.

50. YO'L XARITASI – biror-bir maqsadga oqilona yo'l bilan erishishning puxta ishlab chiqilgan rejasi, qabul qilingan qonunlar, farmon va qarorlarni samarali amalga oshirish, ko'zlangan rejalar va muddaolarini ro'yobga chiqarishning eng maqbul mexanizmi. "Yo'l xaritasi" – qonunlar va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarning ochiq, oshkora va shaffoflik bilan hayotga joriy etilishini ta'minlaydi. Joylardagi muammolarni hal etishda o'zida muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini batafsil va mukammal qamrab oladigan "yo'l xaritalari" muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. “O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 1991 yil 15 fevral // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
3. “Mahalliy davlat hokimiyati organlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 1993 yil 2 sentabr // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
4. “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1996 yil 26 dekabr // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
5. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 1999 yil 14 aprel // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
6. “O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri). 2001 yil 30 avgust // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
7. “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 2004. – № 5. – 86-modda.
8. “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2007 yil 3 yanvar // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
9. “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri). 2007 yil 15 yanvar // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
10. “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri). 2013 yil 22 aprel // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
11. “Ijtimoiy sheriklik to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2014 yil 24 sentabr // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
12. “Parlament nazorati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2016 yil 11 aprel // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
13. “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2016 yil 14 sentabr // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
14. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2017 yil 7 fevral // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
15. “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri). 2017 yil 11 sentabr // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
16. “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2018 yil 12 aprel // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz

17. “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2018 yil 15 oktabr // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
18. “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 2019 yil 6 dekabr // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
19. O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi. 2019 yil 25 iyun // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
20. “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2017 yil 3 fevral // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
21. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2017 yil 7 fevral // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
22. “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2017 yil 5 iyul // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
23. “O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2017 yil 8 sentabr // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
24. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovasion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2018 yil 22 yanvar // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
25. “Obod qishloq” dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2018 yil 29 mart // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
26. “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2018 yil 4 may // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
27. “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2018 yil 27 iyun // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
28. “Obod mahalla” dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2018 yil 27 iyun // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
29. “«Har bir oila-tadbirkor» dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2018 yil 7 iyun // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
30. “Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institusional bazasini yaratish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2018 yil 20 oktabr // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz

31. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2019 yil 17 yanvar // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
32. “Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2019 yil 17 yanvar // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz
33. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2020 yil 2 mart // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.Uz

II. Nazariy-metodologik adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-23 jildlar. – T.: O‘zbekiston, 1996-2016.
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.: O‘zbekiston, 2015. -304 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. - 488 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017. - 48 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 592 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 508 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - T.: O‘zbekiston, 2018. -80 b.
10. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: O‘zbekiston, 2019.
11. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. – T.: O‘zbekiston, 2019.
12. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: O‘zbekiston, 2020.

III. Asosiy adabiyotlar:

1. Aziz va yagonamsan, jonajon O‘zbekistonim!. Mualliflar jamoasi. - T.: Muharrir. 2018.

2. Bekmurodov M. va boshqalar. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. - T.: G'ofur G'ulom NMIU, 2017.
3. Sharifxo'jaev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. –T.: Sharq, 2003.
4. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – - T.: O'zbekiston, 2010.
5. Utamuradov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati. O'quv qo'llanma. Lotin yozuvida. - T.: Universitet, 2018. 21 b.t.

IV. Qo'shimcha adabiyotlar va manbalar:

1. Алексеева Т.А., Артемьева И.В., Худоренко Е.А. Основания гражданского общества: Хрестоматия. – М.: ЕАОИ, 2007.
2. Доверие и недоверие в условиях развития гражданского общества / отв. ред. А.Б. Купрейченко, И.В. Мерсияновой. – М.: Издательский дом НИУ ВШЭ, 2013. – 564 с.
3. Мавлонов Ж. Гражданское общество: от концепта к концепциям и парадигмам (социально-философский анализ): монография. – Т.: Истиклол нури, 2014. – 224 с.
4. Jalilov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari: O'quv qo'llanma. – T.: Baktria press, 2015.
5. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyihasi. – T., 2016. Ziyonet.uz. Mualliflar jamoasi.
6. Гражданское общество: учебник для вузов. - М.: Издательская группа «Юрист», 2016. – 398 с.
7. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
8. Yusuf Xos Xojib qutadg'u bilig. – T.: Fan. 1971.
9. Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki siyarul-muluk– T.: Adolat, 1997.
10. Temur tuzuklari. B. Ahmedov tahriri ostida. – T.: G'.G'ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
11. Schmitter Ph. Civil society East and West // Consolidation the Third Wave Democracies: Themes and Perspectives/ Ed. by L.Diamond et al. Baltimore and London: The Johns Hopkins U.P., - 1997. – P. 239-262.
12. O'Connell, Brian. Civil Society: The Underpinnings of American Democracy. Medford, Mass: Tufts University Press, 1999.
13. Odilqoriev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T.: Sharq, 2002.
14. Шарифходжаев М. Формирование основ гражданского общества в Узбекистане / Отв. ред. А.Х. Саидов. – Т.: Мир экономики и права, 2002.
15. Ergashev I. Jamiyatni erkinlashtirish va ma'naviyat. – T.: Ma'naviyat, 2002.
16. Muhitdinova F. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi. O'quv qo'llanma. - T.: TDYuI. 2003.
17. Геллнер Э. Условия свободы. Гражданское общество и его соперники / Пер. с англ. – М.: Московская школа политических исследований, 2004.
18. Литвинов О.В. Китайский путь к демократии. - М.: Научная книга, 2004. – 369 с.

19. Ли Куан Ю. Сингапурская история: из третьего мира в первый. - М., 2005.
20. Tolibov I.I. Fuqarolik jamiyati: tushunchasi, institutlari, asosiy prinsiplari va funksiyalari / Red. A.X. Saidov. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi, 2008.
21. Саидов А.Х. Философско-правовое наследие Иммануила Канта и современная юриспруденция. – Т.: Патент-Пресс, 2008.
22. Parlament saylovi: milliy qonunchilik va xorijiy tajriba: ilmiy-amaliy qo'llanma // M.Abdusalomov va boshqalar; Mas'ul muharrir prof. Sh.X.Fayziev; –T.: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huziridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti nashriyoti, 2009.
23. Грин Д.Дж. Возвращение в гражданское общество: социальное обеспечение без участия государства / Пер. с англ. – М.: Новое издательство, 2009.
24. Гончаров Д. Нормативная дискуссия о гражданском обществе: основные направления. – М.: Аспект-пресс, 2010.
25. Helmut K. Anheier, Stefan Toepler, International Encyclopedia of Civil Society, Springer-Verlag New York Inc., New York, 2010.
26. Погодаев В.А. Малайский мир (Бруней, Индонезия, Малайзия, Сингапур). Лингвострановедческий словарь. – М.: Восточная книга, 2012. – 798 с.
27. Demokratiya: Ilmiy-izohli lug'at / Mamadaliev Sh.O., Ernazarov R.U., Haqliev V.B., Tojiboyev M.T., Berdiqulov S.N. / Mas'ul muharrir Sh.O.Mamadaliev. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 150 b.
28. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. – T.: Ma'naviyat, 2017. – 244 b.
29. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqini o'rganish bo'yicha ilmiy-ommabop risola. – T.: Ma'naviyat, 2017. – 184 b.
30. Yil sarhisobi. 2017 yil – shiddatli islohotlar yili. - T.: Adolat, 2017.
31. Назиров М.М. Марказий Осиё: замонавий сиёсий жараёнлар. Монография. – Тошкент: QAMAR MEDIA, 2021. – 162 б.
32. Назиров М.М. Ёшларда фаол фуқаролик позициясини шакллантириш. Ўқув-услубий қўлланма. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – 120 б.
33. Сайдалиева Н.З., Назиров М.М. Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах: Научно-понятийное пособие. – Ташкент: Nodirabegim, 2020. – 212 с.
34. Saydaliyeva N.Z., Nazirov M.M. The Strategy of Actions on five priority directions of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021: Scientific-conceptual guide. – Tashkent: Nodirabegim, 2020. – 184 p.
35. Saydaliyeva, N.Z., Nazirov, M.M. (2020). Youth policy as a priority area of development. *Социосфера*, 3, 104-111.
36. Idirov, U., Nazirov, M. (2021). Uzbekistan: Modern Strategic Directions of Development of Ideas and Values of Democracy. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(02), 147-154.

V. Elektron resurslar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – www.prezident.uz
2. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi – www.parliament.gov.uz
3. Oliy Majlis Senati – www.senat.gov.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portalı – www.gov.uz
5. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi – www.strategy.uz
6. Yuksalish umummilliy harakati – www.yumh.uz
7. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi – www.yoshlarittifoqi.uz
8. “Xalq so‘zi” gazetasi – www.xs.uz
9. O‘zbekiston milliy axborot agentligi – www.uza.uz
10. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz

M.M. Nazirov
Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
F.O. Qo'ysinova
Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI.
FUQAROLIK JAMIYATI

DARSLIK

Barcha bakalavr ta'lim yo'nalishlari uchun

“O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi”
nashriyot-matbaa birlashmasi
Toshkent – 2021

Nashr uchun mas'ul: **I.Ashurmatov**
Badiiy muharrir: **F.Sobirov**
Dizayner-sahifalovchi: **L.Abdullayev**

Nash. lits. AA № 0011. 06.12.2021 y.
Bosmaxonaga 27.12.2021 yilda berildi.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆ Shartli b.t. __,__. Nashr t. __,__.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma № __
Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa
birlashmasi bosmaxonasida chop etildi.
100011. Toshkent sh. A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy.

